

**O'ZBEKISTONNING  
ENG YANGI TARIXI**

**O'ZBEKISTONNING  
ENG YANGI TARIXI**



ISBN 978-9943-7745-2-0



9 789943 774520

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi tomonidan darslik sifatida foydalanishga  
tavsiya etilgan*

QARSHI  
«INTELLEKT» NASHRIYOTI  
2021

**УДК 351.687.74**

**БВК 32.10.53**

**O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Yu.A.Ergasheva umumiy tahriri ostida.** Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2021.– 443 b.

Darslik o‘zbekistonning eng yangi tarixi fani bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq, katta faktik material asosida, tarix fanidagi so‘nggi yangiliklar, yutuqlarini hisobga olgan holda mavzular olib berilgan. Darslikda talabalarning tarixiy va falsafiy jihatdan, vatanparvarlik, milliy–ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish bo‘yicha asoslar berilgan. Darslikda bayon qilingan davr davlatchilik, fuqarolik jamiyati va uning rivojlanishiga omil bo‘lgan shart–sharoitlarni va uni belgilovchi holatlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida o‘zbekistondagi ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonlari bayon qilingan. Darslik vatanimiz tarixining mustaqillik davrini o‘rganish bo‘yicha muhim manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Darslik oliy o‘quv yurtlari talabalari, shuningdek mamlakatimiz mustaqillik davri tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

***Tarix fanlar doktori, professor Y.A,Ergashevaning tahriri ostida.***

**Mualliflar:**

**Yu.A.Ergasheva, R.E.Xoliqova, P.Xoliqulov, D.I.Vasiyeva,  
S.B.Murtazova, Sh.T.Boymurodov, B.A.Ahmedov, Q.A.Maxmanazarov,  
B.O‘.Boqiyev, O‘.Sh.Abdullayev, X.O.Xosiyatov,  
O.Yo.Akmamatov, N.A.Sharopova.**

**Taqrizchilar:**

**Ishanxadjayeva Z.R – O‘zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori.**

**Mo‘minova G.E – Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori.**

ISBN 978-9943-7376-3-1

© «Intellekt» nashriyoti, 2021

## KIRISH

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq o‘zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish va faol demokratik islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu ulkan o‘zgarishlar davomida xalqimizning boy tarixi, noyob milliy qadriyatlari, beba ho ilmiy va madaniy merosi tiklandi va butun insoniyatning noyob mulkiga aylandi. Vatanimiz tarixini birlamchi manbalarga asoslangan holda har tomonlama va chuqur o‘rganish yosh avlodni barkamol shaxslar etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

o‘zbekistonning eng yangi tarixi darsligi bakalavriatning barcha yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan. Ushbu kurs doirasida uning maqsadi, vazifalari, mazmuni va malaka talablari, mamlakatimizni yanada rivojlantirish strategiyasi, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va shakllari, islohotlarni amalga oshirishning zamonaviy kontseptsiyalari va mexanizmlari aniqlandi.

Modernizatsiya qilingan o‘zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalardagi islohotlar to‘g’risidagi bilimlarni davlat va jamiyat qurilishini rivojlantirish uchun tarkibiy va tarmoq o‘zgarishlari orqali o‘zlashtirish muhimdir. Ushbu darslikda yangi taraqqiyot bosqichida o‘zbekistonning milliy rivojlanish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Tarixni o‘qitishning maqsadi yosh avlod ongiga milliy g’ururni singdirish, tarixiy xotira, tarixiy fikrlashni rivojlantirish, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, shuningdek ularning ma’naviy dunyosini boyitishdir.

o‘z xalqiga va vataniga sodiq bo‘lish, ongli va ulkan bunyodkorlik ishlarining faol ishtirokchisi bo‘lishdan ortiqroq baxt yo‘q. Darslikning asosiy vazifalariga tarixiy manbalarga asoslangan tarixiy va madaniy jarayonlarni xolisona tahlil qilish, ularning sabablari va mohiyatini tushuntirish, yoshlarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, tarixiy qadriyatlarga va boy tariximizga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirish kiradi.

Shuningdek, yoshlarning ongiga mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo metish jarayonini, turli sohalardagi islohotlar to‘g’risida, tarixiy jarayonlar, voqealar va hodisalar to‘g’risida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv tamoyillari asosida yetkazish maqsadida barcha oliv va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ushbu fanni o‘qitishga alohida e’tibor berilmoqda.

# **1–MAVZU. KIRISH. “O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” O’QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY–METODOLOGIK TAMOYILLARI.**

Reja:

1. O’zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.
2. O’zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.
3. “O’zbekistonning eng yangi tarixi” o’quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

**Tayanch tushunchalar:** o’zbekistonning eng yangi tarixi fani predmeti, metodologik tamoyillari, ilmiylik, xolislik, tarixiylik, ijtimoiy yondashuv, milliy istiqlol g’oyasi, vatan tarixini davrlashtirish, mehnatning yirik taqsimoti, sun’iy sug’orma dehqonchilik, o’zbek davlatchiligining shakllanishi.

**1. O’zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.** XX asrning mamlakatimiz xalqlari uchun bergen eng buyuk ne’mati bu – o’zbekiston milliy davlat mustaqilligining qo’lga kiritilganidir. Chunki mustamlakachilik zulmi va muteligidan ozod bo‘lish, tom ma’nodagi istiqlol – mustaqillikka erishish xalqimizning uzoq yillardan beri kutgan ezgu armoni va orzusi edi. Bu maqsad yo‘lida millatning ming–minglab farzandlari o‘z jonlarini qurbon qildilar. o’zbekistonning milliy davlat mustaqilligi, xalqimizning hur, erkin ozod yashab, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishdek buyuk baxt bugungi avlod vakillariga nasib etdi. Ammo qo’lga kiritilgan milliy davlat mustaqilligimizni saqlab qolish, uni siyosiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash va kelajagi buyuk davlatni barpo qilish mislsiz darajada murakkab va sharafli vazifadir. Bu vazifaning qay darajada bajarilishi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy–siyosiy saviyasi, milliy istiqlol mafkurasining nechog’lik ular ongida shakllanib hayotiy dunyoqarashiga aylanishi bilan mushtarakdir. Bu ulug’vor vazifani hal etishda mamlakatimizdagi bilim maskanlari bilan bir qatorda oliy o’quv yurtlari ham hal qiluvchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Mustaqillik sharofati bilan ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lganidek, o’zbekiston tarixini o’rganish, uni o‘qitishga bo‘lgan munosabat oliy o’quv yurtlarida ham tubdan o‘zgardi. Ma’lumki, mamlakatimiz oliy o’quv yurtlarida, qaysi yo‘nalishdagi mutaxassislar tayyorlanishidan qat’iy nazar, bir turkum ijtimoiy– gumanitar fanlar o‘qitiladi. Shu fanlar orasida o’zbekistonning eng yangi

tarixi fani o‘ziga xos alohida o‘rinni egallaydi. Tarix fani to‘g’risida ibratli fikr: «*Qaysi millat yashashni istasa tarixni bilishi lozim bo’ladi, zero tarix bir ko’zguga o’xshaydi» (Abdurauf Fitrat).*

o‘zbekiston tarixi fani oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy–gumanitar fanlar orasida o‘zining jamiyat hayotida tutgan o‘rni va mavqeiga ko‘ra asosiy va yetakchi fanlardan hisoblanadi. Shu boisdan ham bu Vatan tarixining ibtidosi–o‘lkashunoslik ekanligini e’tiborga olgan holda oliy o‘quv yurtlarining barcha mutaxassisliklarida, qaysi kasb–hunarni egallashidan qat’iy nazar, o‘zbekistonning eng yangi tarixi fani o‘qitilmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘zbekiston tarixi fani oldiga qo‘yilgan bir qator muhim vazifalarni bajarish bilan bog’liqdir.

o‘zbekiston tarixini o‘rganish va yoritishda uning davrlarini ilmiy asosda to‘g’ri belgilash katta ahamiyatga egadir. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbekiston xalqlari, yer yuzining qator hududlaridagi xalqlar kabi o‘z tarixida insoniy taraqqiyotida sodir bo‘lgan barcha ijtimoiy–iqtisodiy bosqich (formatsiya)larni bosib o‘tgan emas. Bundan chiqadigan xulosa shuki, biz o‘z tariximizni shu ijtimoiy–iqtisodiy formatsiyalar asosida davrlashtirsak, tarixiy haqiqat soxtalashtirilgan bo‘ladi. Shu sababdan biz o‘z xalqimiz, Vatanimiz tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’lab davrlashtiramiz va o‘rganamiz. Haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazardan qarab, hech qanday «izm»larsiz o‘zbekiston tarixiga yondoshadigan bo‘lsak, uni quyidagi davrlarga bo‘lamiz:

1. Qadimgi davr – eng qadimgi zamonlardan milodiy V asrga qadar.
2. o‘rtalashtirilgan bo‘ladi. Shu sababdan biz o‘z xalqimiz, Vatanimiz tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’lab davrlashtiramiz va o‘rganamiz. Haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazardan qarab, hech qanday «izm»larsiz o‘zbekiston tarixiga yondoshadigan bo‘lsak, uni quyidagi davrlarga bo‘lamiz.
3. Yangi davr – XIX asrning o‘rtalaridan 1991–yil sentyabrga qadar.
4. Eng yangi davr – 1991–yil sentyabrdan hozirgi davrga qadar.

Tabiiyki, bu katta davrlar bir necha kichik davrlarga bo‘linadi. Xususan, birinchi – qadimgi davr Markaziy Osiyo xalqlarining ibridoijy jamoa tuzumi, shu mintaqada dastlabki davlat tuzilmalarining, qadimgi (antik) davlatlarning tashkil topishi bosqichlardan iborat.

Ikkinchi – o‘rtalashtirilgan bo‘ladi. Shu sababdan biz o‘z xalqimiz, Vatanimiz tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’lab davrlashtiramiz va o‘rganamiz. Haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazardan qarab, hech qanday «izm»larsiz o‘zbekiston tarixiga yondoshadigan bo‘lsak, uni quyidagi davrlarga bo‘lamiz.

- Ilk o‘rtalashtirilgan bo‘ladi. Shu sababdan biz o‘z xalqimiz, Vatanimiz tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’lab davrlashtiramiz va o‘rganamiz. Haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazardan qarab, hech qanday «izm»larsiz o‘zbekiston tarixiga yondoshadigan bo‘lsak, uni quyidagi davrlarga bo‘lamiz.
- rivojlangan o‘rtalashtirilgan bo‘ladi. Shu sababdan biz o‘z xalqimiz, Vatanimiz tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’lab davrlashtiramiz va o‘rganamiz. Haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazardan qarab, hech qanday «izm»larsiz o‘zbekiston tarixiga yondoshadigan bo‘lsak, uni quyidagi davrlarga bo‘lamiz.

- Amir Temur davlati va temuriylar davri (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr);

- o‘zbek xonliklari davri (XVI–XIX asrning birinchi yarmi)

Uchinchi, yangi davr – XIX asrning o‘rtalaridan 1991–yil sentyabriga qadar bo‘lib, Chor Rossiyasining o‘lkamizdagi mustamlakachiligi va sovetlar hokimiyatining istibdodi davri;

To‘rtinchi, eng yangi davri 1991–yil sentyabridan mustaqil o‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot bosqichi. Bu xalqimiz, mamlakatimiz tarixida eng yangi davr bo‘lib, u milliy uyg’onish, milliy yangilanish va milliy o‘zligini anglash tushunchalarini o‘zida mujassam etgan istiqlol davri. Jonajon o‘zbekistonimizning mustaqillik davri tarixi endigina boshlandi, u davom etaveradi!

**2. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.** Davlat insoniyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida, ishlab chiqarish qurorollari va vositalariga xususiy mulkchilik paydo bo‘lgandan va jamiyat bir–biriga qarama–qarshi sinflarga bo‘lingandan keyin, kelishtirib bo‘lmaydigan sinfiy ziddiyatlar mahsuli va dalili sifatida paydo bo‘lgan. Davlat jamiyatga tashqaridan zo‘rlab kiritilgan kuch bo‘lmay, balki ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi natijasida jamiyatning o‘zida vujudga kelgan. Jamiyatni boshqarishning birlamchi va asosiy shakli o‘zaro qondosh–qarindosh odamlarning shaxsiy ittifoqi – urug’ jamoasi bo‘lgan. Urug’lar hudud va til jihatdan yaqinligiga qarab birlashib, bir necha urug’dan iborat uyushmani, o‘z navbatida bir necha urug’ uyushmalari birlashib qabilani tashkil etgan. Urug’ tepasida urug’ning umumiyligini yig’ilishida saylab qo‘yiladigan, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan va ko‘pchilik hurmatiga sazovor bo‘lgan oqsoqollar yoki harbiy boshliqlar turgan. Urug’ uyushmalari va qabilalarni ayrim urug’ oqsoqollari va harbiy boshliqlardan tashkil topgan kengashlar boshqargan. Oqsoqollar va harbiy boshliqlar hech qanday imtiyozlardan foydalanmaganlar. Ularning hokimiyati oqsoqol va harbiy boshliqlarning obro‘yiga, urug’ a’zolarining ularga bo‘lgan hurmatiga, qo‘llab quvvatlashiga suyangan.

Yuqorida qayd etilganidek, ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyoti, xususiy mulkchilikka asoslangan bir–biriga qarama–qarshi (antog’onistik) sinflarning vujudga kelishi jamiyatni davlat yo‘li bilan boshqarish shakliga olib keldi. Davlat – tarixiy hodisa, sinfiylik mahsulidir. Sinfiy jamiyatning mavjudligi va rivojlanishining iqtisodiy sharoitlari, uning murosasiz sinfiy qarama–qarshilik kuchlarini davlat sifatida birlashtirishni va u yordamida manfaatlariga mos bo‘lgan ishlab chiqarish munosabatlarini mustahkamlab olishni ob’yektiv

zarurat qilib qo'yadi. Hukmron sinf davlat hokimiyatidan foydalanib, irodasini qonun darajasiga ko'taradi va butun jamiyat a'zolarini shunga rioxiga qilishga majbur etadi. Davlatga ega bo'lgan jamiyat ibtidoiy jamoa tuzumidan, avvalo, fuqarolarining hududiy prinsip bo'yicha belgilanishi bilan farq qiladi. Ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning biror urug' yoki qabilaga mansubligi, ijtimoiy mavqeい ularning qondoshligiga qarab belgilangan. Davlatli jamiyatda esa, fuqarolarning huquq va burchlari ilgari ular qaysi urug' yoki qabilaga mansub bo'lganligiga qarab emas, balki ular yashayotgan hudud va shu hududning qaysi davlatga qarashiga, qaysi davlatning fuqaroligiga hamda qaysi sinfga mansubligiga qarab belgilanadi. Har qanday davlatning mohiyati uning funksiyalarida, ya'ni davlat faoliyatining asosiy yo'nalishi uning ichki va tashqi siyosatining mazmuni va xarakteri bilan belgilanadi.

Boshqacha qilib aytganda davlat va davlatchilik mohiyatini mavjud jamiyat barcha imkoniyatlarini shu jamiyat a'zolari manfaati yo'lida ro'yobga chiqarish ishiga bosh bo'luvchi, ularning haq-huquqlarini muhofaza etuvchi siyosiy boshqaruv uslubi tashkil etadi. Shu bilan birga davlat belgilari ham mavjud. Ular quyidagilarda ifodasini topadi: davlat hududi (yaxlit mamlakat), fuqarolari, puli, tili, qo'shini, bayrog'i, tamg'asi, madhiyasi, chegaralari va hokazo. Albatta, turli davr va sharoitlarda davlat davlatchilik mohiyati va belgilari turlicha bo'lishi mumkin.

**Xorazm va Baqtriya – ilk o'zbek davlatchiligining poydevori.** Istiqlol sharofati ila sobiq sho'ro hokimiyati davrida soxtalashtirilgan davlatchilik tariximiz o'z o'rniga qo'yildi. Davlatchilik tarixini anglash, uni tadqiq etishga keng yo'l ochildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'zbek davlatchiliги konsepsiyasining yaratilishi va shu asosda davlatchiligidan xolisona tarixini yaratish vazifasi qo'yildi.

Markaziy Osiyo hududida ilk davlat uyushmalari miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlarida paydo bo'la boshladi va ular o'zbek davlatchiligi tarixini boshlab berdilar. o'zbekistonda davlatchilikning kelib chiqishida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda shakllangan, asoslangan dehqonchilik xo'jaligi, hunarmandchilik va mahsulot almashishning paydo bo'lishi asosiy omil bo'lib xizmat qilganligini alohida ta'kidlamoq kerak.

Salkam uch ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi shartli ravishda davrlarga bo'linadi va u quyidagilardan iborat:

1. o‘zbekiston hududining davlatchilikka o‘tish davri (mil. avv. II ming yillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmi);
2. Ilk davlat uyushmalari (mil. avv. 1 ming yillikning birinchi yarmi);
- 3.Qadimgi davr davlatchiligi tarixi (mil. avv. IV asr oxiri milodiy IV asr);
4. Ilk o‘rta asrlar davlatchiligi tarixi ( V–VIII asr o‘rtalarigacha);
5. Rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi (IX–XII asr boshlari);
6. Amir Temur va temuriylar davlati (XIV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari);
7. XVI–XIX asr birinchi yarmi davlatchiligi tarixi;
8. o‘zbekiston XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr mustamlakachiligi davrida:
9. Mustaqil o‘zbekiston davlatchiligi bir necha ming yillik o‘zbek davlatchiligining davomi va vorisi sifatida.

Tabiiyki, o‘zbek davlatchiligi tarixidagi bu davrlar bir qator bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlarida paydo bo‘lgan ilk davlat uyushmalari – bu «Katta Xorazm» va «Qadimgi Baqtriya» davlatlaridir.

Ma’lumki, so‘nggi bronza davrida mehnatning dastlabki yirik taqsimoti ro‘y beradi. Chorvachilikdan dehqonchilik ajralib chiqadi, iqtisodiy hayotdagi siljishlar natijasida ortiqcha mahsulot paydo bo‘lib, bu mahsulot ma’lum shaxslar qo‘lida to‘plana boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga aylanib borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining ma’muriy markaziga aylana boradi.

Markaziy Osiyo hududida tashkil topgan eng qadimgi davlatlar tarixini o‘rganishda bizga arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar, yozma manbalar, masalan «Avesto», Beruniyning «Osorul-boqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») kabi asarlar, ko‘hna Eroniy yozuvlar, yunon, xitoy muarixlarining yozib qoldirgan ma’naviy meroslari yordam beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, o‘tmish ajdodlarimiz miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida temirni kashf etganlar. Natijada har qanday taraqqiyotning asosi bo‘lib kelgan mehnat qurollarining takomillashuvi muhim ahamiyatga ega. Oqibatda inson faoliyati kengaydi va jadallahshdi. o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmidayoq mintaqada tog’ jinslarini, xususan, temir, oltin, qalay, qo‘rg’oshin va hokazolarni qayta ishlash, ulardan jang, mehnat qurollari yasash, kulolchilik, to‘quvchilik, quruvchilik, zargarlik kabi sohalarda keng foydalanilgan. Bundan tashqari,

miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Xorazmda uzunligi bir necha o'n kilometr, eni bir necha o'n metrni tashkil etgan ulkan sun'iy sug'orish kanallari mavjud bo'lganligi tarixdan ma'lum. Bu hol sun'iy sug'orish ishlarining ajdodlarimiz hayotida katta o'rin tutganligini ko'rsatadi. Bunday katta hajmdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lgan ishlarni e'tiborli va nufuzli kuchga ega bo'lgan davlat tuzilmasi mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirish mumkin edi. Demak, o'z-o'zidan xulosa chiqarish mumkinki, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmidayoq vatanimiz hududida dastlabki davlat uyushmlari tashkil topganligiga shubha yo'q.

Qator ilmiy, yozma va arxeologik manbalarga qaraganda Markaziy Osiyo hududida ahamoniylarning hukmronligiga qadar bir necha davlat uyushmalari tashkil topgan. Bularidan biri «Katta Xorazm» davlati bo'lib, Amudaryoning quyi oqimidagi yerlar uning tarkibiga kirgan. «Katta Xorazm» davlati to'g'risida bir qator xorazmshunos olimlar, shu jumladan birinchi o'zbek arxeolog olimi Yahyo G'ulomov qimmatli ma'lumotlar bergenlar. Ularning xulosalariga qaraganda Zardo'sht shu zamindan bo'lib, ta'limotini boshqa viloyatlarga tarqatgan. «Avesto»da «Katta Xorazm»ga qarashli viloyatlar birma–bir sanab o'tiladi. Bunga ko'ra, «Katta Xorazm» hududiga qarashli bo'lgan. Bu fikrni yunon muarixi Gerodot tasdiqlab, «Katta Xorazm» davlatining ekin maydonlarini sug'orish uchun Oks daryosiga to'g'on qurilganligi to'g'risida ma'lumotni qoldirgan.

Ahamoniylar bosqiniga qadar Markaziy Osiyo hududida tashkil topgan ikkinchi davlat uyushmasi – bu Qadimgi Baqtriya podsholigidir. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda uning tarkibiga Sug'd va Marg'iyona ham kirgan. Asosan Baqtriya davlati hududlariga Amudaryoning yuqori oqimi bo'yalaridagi yerlar kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. U Baqtriyadagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt–shahar Baqtra (Balx), davlat podshosi Oksidat, uning boyliklari to'g'risida hikoya qiladi. Bundan tashqari, Gerodot asarlarida ham Baqtriya davlati Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olinadi. Baqtriyaning tabiiy boyliklari, ayniqsa, Badaxshon lojuvardi (lazuriti) Old Osiyo davlatlarida mashhur bo'lgan. Baqtriya podsholigi to'g'risidagi tarixiy haqiqatni arxeologiyaga oid qidiruv topilmalari ham isbotlaydi. Xulosa qilib aytganda, Markzaiy Osiyo hududini ahamoniylar sultanati bosib olgunga qadar bu ona zaminda ikkita yirik davlat birlashmalari – «Katta Xorazm» va «Qadimgi Baqtriya» davlatlari bo'lgan.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy davlatlaridan yana biri So'g'diyonadir. Bu davlat qadimda Qashqadaryo va Zarafshon vohalari hududida shakllangan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida o‘lkamiz Eronda asos solingan ahamoniylar sultanati qo‘l ostiga tushib qoladi. Muqaddas kitob «Avesto» Persepol, Bexistun yozuvlari va boshqa qator yozuvlar, qadimgi yunon tarixchilari qoldirgan ma’lumotlar guvohlik berishicha, o‘sha vaqtarda o‘lkamizda Xorazm, So‘g’diyona, Marg’iyona, Baqtriya kabi iqtisodiy-jug’rofiy birliklar, siyosiyma’muriy hududlar mavjud bo‘lib, vohadagi hayot o‘troq holatda, dashtu biyobonlardagi turmush esa yarim ko‘chmanchi tarzida bo‘lgan. Bu vaqtda yirik-yirik qabilalar ittifoqi, ya’ni davlatchilikning ilk shakllari mavjudligi ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan birlashish zaruriyatini tug’dirdi. Markaziy Osiyoning ahamoniylar tomonidan bosib olingan qismida Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Marg’iyona, Sug’diyona va boshqa viloyatlar – ahamoniylar podsholari satrapiya-hokimliklarini tashkil etganlar. Bu hududlarni fors podsholari tomonidan tayinlab qo‘yilgan satraplar-hokimlar boshqarganlar. Gerodotning ma’lumotlariga qaraganda Markaziy Osiyo viloyatlari to‘rtta satrapiyani tashkil etgan.

Bosqinchı ahamoniylarga qarshi sabot-matonat bilan qarshilik ko‘rsatgan To‘maris, Amorg kabi ajdodlarimizning tarixiy shaxslar sifatida davlatchiligidiz tarixida katta o‘rin egallashini ta’kidlamoq kerak. Chunki ular ulkan hududlarda yuz minglab kishilar ustidan hukmronlik qilgan podsholar, malikalar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida davlat arboblari hamdir. Qadimgi yunon tarixchilari (masalan, Ktesiy) shohidlik berishicha, ahamoniylarga qarshi kurashlarda o‘lkamiz podsholari, malikalari o‘n minglab kishilarni jangga safarbar eta olgan. Ko‘psonli qo‘shinni boshqarish ilmidan xabardor bo‘lish kabi katta yumushlar tegishli tashkilotchilik qobiliyatini talab qiladi, bularni amalga oshirishi davlat va davlatchilikka xos alomatlardir.

Miloddan avvalgi IV asrga kelib Xorazm davlati ahamoniylar tazyiqidan xalos bo‘lib ichki va tashqi siyosatini mustaqil olib borgan. Shu asrning ikkinchi yarmida makedoniyalik Iskandar ahamoniylarga zarba berib, Markaziy Osiyoning aksariyat qismini egallab oldi. Xorazm hukmdori Farasman tashqi siyosatda bilimdonlik bilan ish tutib, Iskandar bilan harbiy ittifoq tuzib, davlatining mustaqilligini saqlab qolishga erishdi. Iskandar o‘limidan (mil. avv. 323-yil) so‘ng Baqtriya, So‘g’diyona va Marg’iyona esa uning lashkarboshilaridan bo‘lmish Selevk asos solgan sulola asorati ostida qoldi.

Miloddan avvalgi III asr o‘rtalarida So‘g’diyona, Marg’iyona, Choch va Farg’onaning bir qismini ichiga olgan Baqtriya davlati yuzaga keldi. Baqtriya davlati kuchayib, tez orada u g’arbda Eronning sharqiy qismini, janubda Qandahor

viloyatini, Sharqda Xitoygacha bo‘lgan hududni egalladi. Baqtriyalik hukmdorlar kumush tangalarini zarb etganlar.

Miloddan avvalgi taxminan 170–yilda So‘g’diyona Yunon–Baqtriya tarkibidan ajralib, Xorazm tomon og‘a boshlaydi. Bu hol Chochda ham yuz bergen. Shu tariqa miloddan avvalgi II asr o‘rtalaridan dastlab Choch, Parkana, So‘g’diyona Sharqiy Turkiston hududlarini ichiga olgan yangi davlat – Qang’ davlati tashkil topadi. Xitoy solnomalarida bu davlat Qang’uy deb tilga olinadi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda bu davlat qo‘smini, davlat boshqaruvi, kumushdan ishlangan tangasiga ega bo‘lgan.

o‘zbek davlatchiligi tarixida Kushon davlatining tashkil topishi va faoliyati alohida bosqich hisoblanadi. Miloddan avvalgi 140–130–yillarda sak qabilalari tazyiqi ostida Yunon–Baqtriya davlati barbod bo‘ldi. Shu davrda Sharqiy Turkiston tarafdan ko‘chmanchi yuechji qabilalari ikki daryo oralig’i hududiga siljiy boshladilar. Ular tarkibida beshta guruh bo‘lib, Guyshuan guruhi ustunlik qiladilar va qolgan guruhlar ustidan hokimiyatlarini o‘rnatadilar. Xitoy manbalaridan ma’lumki, yuechjilar Baqtriyani bosib olganlaridan keyin, Guyshuanning hokimi Kadfiz qolgan hududlarni ham buysundirib oladi va o‘zini Kushon davlatining podshohi deb e’lon qiladi. Eramizning 78–123 yillarida podshohlik qilgan Kanishka davrida Kushon eng qudratli davlatga aylanadi. Aynan Kanishka davrida tangalar zerb etilib, ularda birinchi marta baqtar tilidagi yozuvlar paydo bo‘ladi.

Eramizning III asriga kelib Xorazm Kushonlar ta’siridan xalos bo‘lib, mustaqillagini qayta tiklashga erishadi.

**3. “O’zbekistonning eng yangi tarixi” o’quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o’rganishning nazariy–uslubiy asoslari.** Tarix taqozosiga ko‘ra, o’tmishda Vatanimiz, bir necha bor tashqi bosqinchilarning mustamlakalari davrini boshidan kechirdilar. Shulardan mo’g’ullar bilan Rossiya imperiyasining bosqinchilik va hukmronlik davri tarixda eng uzoq davom etdi. Taqdir taqozosi bilan mo’g’illardan vatanni ozod etib, yuksaltirishdek o’ta yuksak mas’uliyat buyuk sohibqiron Amir Temurning zimmasiga tushdi.

O’zbekistonning eng yangi tarixi oldida turgan asosiy vazifa mana shundan keyingi tarixni to’la–to’kis va haqqoniy yoritishdan iboratdir. Buning uchun bizning nazarimizda quyidagi metodologik masalalarga e’tibor bermoq kerak. Birinchidan, o’tgan davrda O’zbekiston tarixi fanining mutlaqo yangicha ruh va mazmunda shakllanganligini his etmoq lozim. Shu bilan birga, sovet davrida shakllantirilib “rivojlantirilgan” sovet davri tarix faniga tanqidiy munosabatda

bo'lish lozim. Ikkinchidan, yangi tarix fanini metodologiyasini ishlab chiqish zarur.

Qaysi fan sohasi bo'lmasin, uning asl maqsadi haqiqatni aniqlashdir. Biroq, mustaqillikka qadar tarix fanining boshqa ijtimoiy fanlar kabi hukmron mafkuraga, hukmron siyosatga bo'ysundirilishi oqibatida tarixiy jarayonlar noto'g'ri talqin etib kelindi.

O'tmishga qaratilgan sub'yektiv siyosatga aylantirilgan tariximizni endilikda asl manbalar asosida qaytadan tadqiq etish, soxtalashtirishlardan xoli, haqqoniy aks ettirish – O'zbekiston tarixchilari oldidagi eng dolzarb vazifalardandir. Xususan, uning eng yangi davri tarixi masalalari ham olimlarimiz tomonidan chuqur tahlil qilinib, olingan natijalar aks etgan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar qatoriga kiradi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti o'zbek xalqining mustaqillikka erishish ostonasidan boshlab to hozirgi kunlarga gacha, tarixan qisqa davr bo'lsada asrlarga tatugulik bosib o'tgan hayotiy yo'lini, doimo rivojlanib, boyib boruvchi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotini xolisona o'rganish, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini yosh avlodga yetkazish hamda ularga vatanga nisbatan faxr-g'urur tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Istiqlol yillaridagi xalqimizning boy o'tmish tarixini o'rganish, uni xolisona ilmiy tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati – hayot turmush tarzini yanada yaxshilash, inson ongi va tafakkurini boyitish, erishilgan yutuq va istiqbol rejalarini maqsadli belgilashga qaratilgan. Shu bilan birgalikda, milliy o'zlikni anglash, xalqning ma'naviy yuksalishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Eng yangi tarixni o'rganishga bo'lgan e'tibor tarix fanini qayta chuqur anglash, uni yangi uslubiyot orqali yoritish zarurligini taqozo etadi.

Tarixiy xotira milliy o'zlikni anglashning poydevori sifatida yuzaga chiqadi. U o'z ona tili, barcha madaniy merosga nisbatan shunchaki tarixiy yodgorliklar xazinasiga emas, balki millatning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi faol institut sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston eng yangi tarixi fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik

fuqarolik jamiyatni shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiatiga integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixini taxminan quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

*Birinchi davr – 1989–1990-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.* Mustaqillikka erishish ostonasidagi faol harakat bosqichi bo'lganligini inobatga olish, uni alohida taraqqiyot bosqichi sifatida e'tirof etish o'zining ilmiy, konseptual asoslariiga ega ekanligi;

*Ikkinci davr – 1991–2016-yillarni o'z ichiga oladi.* Bu davrda davlatchilik asoslarini shakllantirish, iqtisodiy negizlarning tubdan o'zgarishi, jamiyatimiz ma'naviy negizlarining tiklanishi va yangilanishi, jamiyat mafkurasi va milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi bilan bog'liq voqeliklarning yangi konseptual asoslarda ilmiy yoritilishi;

*Uchinchi davr – 2016-yildan keyingi* davr. Bu davr taraqqiyotimizning modernizatsiya bosqichi faol demokratik yangilanishlar, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi, ijtimoiy-gumanitar sohalar izchil isloh qilinishi bilan bog'liq voqeliklarni manbalar asosida tarixiy nuqtai nazardan ilmiy tadqiq etish bilan bog'liq.

Bu davrlarning har birini yana o'ziga xos, kichik davrlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Ma'lumki, 2016-yil 4-dekabrda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Butun O'zbekiston xalqi o'zining buyuk siyosiy irodasi, huquqiy madaniyatini namoyon etib, mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti, xalqimizning yorug' kelajagi va farovon hayoti uchun ongli ravishda ovoz berib Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni Prezident lavozimiga sayladilar. Tarixan qisqa davrda asrlarga tatugilik barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilayotganligiga hammamiz guvohimiz. Bu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish maqsadida 2017–2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni alohida e'tirof etish lozim. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'rganish jarayonida Siz aziz talabalarga mustaqillik yillarida milliy huquqiy davlatchilik qurilishini takomillashtirish, demokratik huquqiy davlat vaadolatli fuqarolik jamiyatni rivojlantirish, erkin bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, jahon hamjamiatiga integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi.

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, Vatan tarixini yangi nazariy–metodologik asoslarini yaratilishi, ilm–fan yutuqlari, keyingi yillarda qabul qilingan qaror, farmonlar, Oliy Majlis Qonunlari, Prezident Murojaatnomalari, nutq va ma’ruzalarini mazmun–mohiyati fan doirasida yoritib boriladi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Tarix so’zi qanday ma’noni bildiradi?
2. O’zbekistonning yangi tarixi fani nimani o’rganadi?
3. Tarixni o’rganishda qanday metodologik tamoyillarga tayanish lozim?
4. Tarixiylik tamoyilini qanday tushunasiz?
5. Tarixni o’rganishda xolislik, ilmiylik tamoyilining talablari nimalardan 6. iborat?
7. O’zbekiston tarixini qanday yirik davrlarga bo’lish mumkin?
8. Davlatning paydo bo‘lishi va jamiyatni davlat yo‘li bilan boshqarilishi to‘g’risida so‘zlab bering.
9. Jahon tarixidagi eng qadimgi davlatlar qaysilari?
10. Markaziy Osiyo hududida ilk davlat uyushmalari qachon paydo bo‘la boshladi va ular qaysilari?
11. o‘zbek davlatchiligining tarixiy davrlari to‘grisida so‘zlab bering.

### **2–MAVZU. YUKSAK INTELLEKTUAL SALOHIYATLI, MA’NAVIY BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH, KOMIL INSONNI VOYAGA YETKAZISHDA TARIX FANINING o‘RNI**

Reja:

1. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g’risidagi fikrlari.
2. IX–XII va XIV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo Renessansi.
3. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy–konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.

**Tayanch tushunchalar:** madaniy yuksalishning, Xorazm Ma’mun akademiyasi, muhaddis, sivilizatsiya, Bayt ul–hikma, renessans, Markaziy Osiyo Renessansi, Ulug’bekning ilmiy maktabi, memorchilik, san’at.

**1. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari.** XX asrning mamlakatimiz xalqlariga bergen eng buyuk va oliyjanob ne’mati – bu O‘zbekiston milliy davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi bo‘ldi. Chunki mustamlakachilik zulmi va muteligidan ozod bo‘lish, tom ma’nodagi istiqlol mustaqillikka erishish xalqimizning uzoq yillardan beri kutgan ezgu orzu–armoni edi. Bu maqsad yo‘lida millatning ming–minglab farzandlari o‘z jonlarini qurban qildilar.

O‘zbekistonning milliy davlat mustaqilligi xalqimizning hur, erkin, ozod yashab, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, hal qilishdek buyuk baxt bugungi avlod vakillariga nasib etdi.

Ammo qo‘lga kiritilgan milliy davlat mustaqilligini saqlab qolish uni siyosiy, iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash va kelajagi buyuk davlatni barpo qilish mislsiz darajada murakkab va sharaflı bir vazifadir.

Bu vazifaning qay darajada bajarilishi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy–siyosiy saviyasi, milliy istiqlol mafkurasining nechog‘lik ular ongida shakllanib, hayotiy dunyoqarashiga aylanishi bilan mushtarakdir.

Yosh avlodga o‘z ona tarixini bildirmasdan, tarixiy voqeа va hodisalarни tahlil etmasdan, tarixiy bilim va tarbiya bermasdan uning ongida milliy o‘zlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mumkin emas. Shunday ekan, mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimida Vatan tarixini mufassal, asosiy fan sifatida o‘qitish bugungi hayotimizning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolishi – bu davr taqozosidir.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevralda imzolangan "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy–tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va molijalashtirishni yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ–2789–sonli qaroriga asosan, bir qator ilmiy–tadqiqot muassasalari Fanlar akademiyasi tarkibiga o‘tkazildi. Ularning qatorida akademik institut maqomiga qaytadan ega bo‘lgan, tarixiy ilm–fan va ta’limning barcha bo‘g‘ini rivojlanishida yetakchi sifatida hissa qo‘sadigan – Tarix instituti bor. Amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning mantiqiy davomi sifatida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashiga aylantirildi, shu bilan birga, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari

bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi–metodik markaz Fanlar akademiyasi tasarrufiga o‘tkazildi.

O‘zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish hamda o‘qitish, ilmiy, ilmiy–ommabop, o‘quv–metodik, ma’rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm–fanning ta’lim hamda boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta’lim, jamoat muassasalari hamda tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor, umumta’lim maktablari, kasb–hunar kollejlari, akademik litseylar o‘quvchilarida, oliy o‘quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashining quyidagi asosiy vazifalari belgilandi: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning "o‘zbek modeli" mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni saqlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O‘zbekistonning roli va o‘rnini chuqur o‘rganish va yaqqol ochib berish.

XX asrning mamlakatimiz xalqlariga bergen eng buyuk va olivjanob ne’mati – bu O‘zbekiston milliy davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi bo‘ldi. Chunki mustamlakachilik zulmi va muteligidan ozod bo‘lish, tom ma’nodagi istiqlol mustaqillikka erishish halqimizning uzoq yillardan beri kutgan ezgu orzu–armoni edi. Bu maqsad yo‘lida millatning ming–minglab farzandlari o‘z jonlarini qurban qildilar.

O‘zbekistonning milliy davlat mustaqilligi xalqimizning hur, erkin, ozod yashab, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, hal qilishdek buyuk baxt bugungi avlod vakillariga nasib etdi.

Ammo qo‘lga kiritilgan milliy davlat mustaqilligini saqlab qolish uni siyosiy, iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash va kelajagi buyuk davlatni barpo qilish mislsiz darajada murakkab va sharaflı bir vazifadir.

Bu vazifaning qay darajada bajarilishi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy–siyosiy saviyasi, milliy istiqlol mafkurasining nechog‘lik ular ongida shakllanib, hayotiy dunyoqarashiga aylanishi bilan mushtarakdir.

Yosh avlodga o‘z ona tarixini bildirmasdan, tarixiy voqeа va hodisalarni tahlil etmasdan, tarixiy bilim va tarbiya bermasdan uning ongida milliy o‘zlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mumkin emas. Shunday ekan, mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimida Vatan tarixini mufassal, asosiy fan sifatida o‘qitish bugungi hayotimizning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolishi – bu davr taqozosidir.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining yaxlit konsepsiyasini yaratish, buni amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni nisbatan mustaqil bo‘lgan bo‘laklarga, yani davrlarga bo‘lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Asosiy vazifalardan yana biri – yangi yozilgan tarixni o‘rganishni tahlil qilishdir.

Komil insonni tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishda O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani yosh avlod ongida siyosiy, ilmiy–nazariy dunyoqarashni shakllantirish, voqeа va hodisalarga tarixiy nuqtai nazardan yondoshadigan har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash lozim;
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi mustaqil O‘zbekiston yoshlari ongida milliy vijdonni uyg‘otib, uning shakllanishiga ko‘maklashadi. Yoshlar mazkur fanni o‘qib–o‘rgangandagina ularda istiqlol tafakkuri, milliy mafkura, milliy g‘oya tushunchasi, hozirgi ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va madaniy–ma’rifiy turmushni anglab yetish va kelajakka nazar solish tuyg‘usi shakllanadi;
3. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani yoshlarni Vatanga sadoqat, hamda harbiy vatanparvarlik an’analari ruhida tarbiyalash vositasidir.
4. O‘zbekistonning eng yangi tarixi yoshlarimizni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash qurolidir. Yoshlarimiz bu fanni o‘qish, o‘rganish va mutolaa qilish jarayonida O‘zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo‘lagi ekanligini tushunib oladilar;
5. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani yosh avlodni ulug‘ xalqimizning milliy qadriyatları va axloqiy fazilatlari: halollik, poklik, odillik, insonparvarlik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik va kamtarinlik, iymon va e’tiqodlilik ruhida tarbiyalamog‘i lozim, ularda Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqat hissini qaror toptirmog‘i kerak.

Ko‘hna tarix shundan dalolat beradiki, bu hayotda yangilik qilish, ko‘pchilik odamlar o‘rganib, ko‘nikib qolgan eskicha qolip va andozalarni o‘zgartirish hech qachon oson kechmaydi. Istaymizmi, yo‘qmi, bunday harakat har qanday sharoitda ham ochiq yoki pinhona to‘sqliarga duch keladi. Ayniqsa, xalqni uyg‘otish, mudroq qalblarga hayotbaxsh yangi nafas olib kirish, davlat va jamiyat

boshqaruvini butunlay yangilash masalasi islohotchi bo‘lib maydonga chiqishdek buyuk missiyani o‘z zimmasiga olgan yetakchi shaxsdan yanada ulkan mas’uliyat, jasorat va donishmandlikni talab etadi.

Prezidentimiz SH. Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda yangi, demokratik islohotlarni boshlashda eng maqbul yo‘l tanlandi va u hayotda qisqa muddatda o‘zini to‘la oqladi, deb aytishga bugun barcha asoslar bor. Avvalo, xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi, aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash davlat siyosatining bosh mezoni etib belgilandi. Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlari bilan yaxshi qo‘sniqchilik, do‘stlik va hamkorlik asosida faol munosabatlar o‘rnatish tashqi siyosat sohasidagi ustuvor tamoyil, deb e’lon qilindi. Uchinchidan, dunyoga ochiq bo‘lish, umume’tirof etilgan demokratik prinsiplarni amalda joriy etish jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorlikning asosiy yo‘nalishi sifatida qabul qilindi.

Hozirgi vaqtida milliy taraqqiyotimizning bosh hujjati bo‘lib xizmat qilayotgan, mamlakatimizni 2017–2021 yillarda beshta ustuvor yo‘nalishda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aynan ana shu tamoyillar eng muhim qoidalar sifatida aks ettirildi. Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinlik va manfaatlarini amalda ta’minlash, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish orqali xalq farovonligini oshirish, tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo mintaqasida do‘stlik va hamkorlik ruhini kuchaytirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Albatta, 35 millionlik aholiga ega bo‘lgan, o‘tgan davrda ko‘plab muammolar to‘planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to‘g‘ri yo‘l tanlash – bu davlat rahbaridan ulkan aql-zakovat, bilim va tajriba, mustahkam iroda, jasorat va azmu shijoatni talab etadi. Ayni vaqtida tanlangan rivojlanish yo‘lini ijtimoiy institutlar, ta’sirchan mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etish, odamlarni islohotlarning maqsadi va natijasiga ishontirish, butun jamiyatni ruhlantirib, ulug‘ maqsadlar sari safarbar eta olish – yanada murakkab vazifa, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Ana shunday o‘ta mashaqqatli vazifani amalga oshirishda Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqning o‘ziga tayandi – fuqarolar bilan doimiy muloqot olib borib, har bir soha va tarmoq bo‘yicha bevosita uchrashuvlar, maslahat va fikr almashuvlar o‘tkazib, mavjud muammolarning samarali yechimini topmoqda. Bu murakkab ijtimoiy voqeahodisalarning qanchalik shiddat bilan kechayotganini ushbu to‘plamdan o‘rin olgan serqirra jarayonlar yaqqol tasdiqlaydi.

2016–yil sentyabr oyidan buyon 2020–yil yanvar oyiga qadar o‘tgan vaqt misolida oladigan bo‘lsak, Prezidentimiz tomonidan mamlakat hududlariga 129 marta safar uyuşdırılmıştı, 69 ta videoselektor yig‘ilişleri, eng muhim va ustuvor masalalar bo‘yicha 112 ta yig‘iliş va muhokamalar o‘tkazilganini ko‘ramiz. Ana shu qisqa fursatda davlatimiz rahbari tomonidan 194 ta qonun, 1106 ta farmon, 1974 ta qaror, 933 ta farmoyish tasdiqlanganini ham qayd etish lozim. Shu davrda Prezident Shavkat Mirziyoyev 40 marta chet davlatlarga rasmiy tashrif buyurdi, 24 ta xalqaro sammit va anjumanlarda ishtirok etib, ularning doirasida 60 ta uchrashuv o‘tkazdi. Bundan tashqari, xorijiy davlat va hukumat rahbarlari boshchiligidagi 39 ta nufuzli rasmiy delegatsiya yurtimizda qabul qilindi. Shuningdek, vazirlar, xalqaro tashkilot va kompaniyalar, xorijiy ishbilarmon doiralar rahbarlari boshchiligidagi 166 ta delegatsiya bilan muzokaralar o‘tkazildi. Shu vaqt mobaynida chet davlatlarning yurtimizda ish boshlagan favqulodda va muxtor elchilaridan 32 nafaridan ishonch yorliqlari qabul qilib olingan, xorijiy davlat va hukumat boshliqlari, xalqaro tashkilot rahbarlariga 1858 ta maktub yo‘llangan. Shu o‘rinda xorijiy davlatlar rahbarlari bilan 113 marta telefon orqali muloqotlar o‘tkazilganini ham ta’kidlash joiz. Prezidentimiz shu yillar davomida yurtimizda bo‘lib o‘tgan 53 ta tantanali marosimda ishtirok etib nutq so‘zlagan, shuningdek, xalqimiz va turli soha vakillariga 79 ta tabrik va qutlovlari yo‘llagan. Bularning barchasi O‘zbekiston o‘z milliy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan siyosiy–ijtimoiy makonda amalga oshirilayotgan say–harakatlar keng ko‘lam kasb etib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo‘lida tunu kun tinim bilmasdan, bor bilim va tajriba, kuch va imkoniyatlar safarbar etilayotgani hamda bu jarayon tobora kuchayib, yangi sifat bosqichiga ko‘tarilib borayotganidan dalolat beradi. Agar davlat ahamiyatiga molik birgina hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish, biron–bir rasmiy tadbirni o‘tkazish qanday katta tayyorgarlikni, ma’naviy–intellektual, ruhiy safarbarlikni, keng ko‘lamli tashkiliy–amaliy ishlarni talab etishini inobatga oladigan bo‘lsak, yuqorida qayd etib o‘tilgan raqamlar zamirida tinimsiz izlanish va mehnat, chuqr tahlil, keljakni oldindan ko‘ra bilish salohiyati mujassam ekanini anglash mumkin.

**2. IX–XII va XIV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo Renessansi.** Ilm–fan ravnaqi Somoniylar, G’aznaviyilar, Saljuqiyilar, Xorazmshohlar sulolalariga mansub ma’rifatparvar hukmdorlarning ilm–fan va madaniyatga doimiy rag’bat berishlari orqasida ko‘plab iste’dod sohiblarining salohiyati, ijodi o‘sib, yuksalib borgan. o‘sha davr hukmdorlari tashabbusi bilan bunyod etilgan va faoliyat

ko‘rsatgan kutubxonalarda son–sanoqsiz noyob, kitoblar, qo‘lyozmalar to‘planganki, bulardan hozirgi avlod kishilari ham bahramand bo‘lmoqdalar. Ibn Sinodek buyuk zot ham birinchi bor tanishib hayratlangan Somoniylar saroyi qoshidagi boy kutubxona ham mana shunday ilm maskanlaridan biri bo‘lgan.

Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy madaniyatining o‘sishida islom madaniyatining ahamiyati katta bo‘ldi. Islom faqat dingina emas, balki yangi ma’naviy yo‘nalish sifatida ham butun madaniy jarayonga, barcha musulmon mamlakatlari orasida ijtimoiy–madaniy va ma’rifiy aloqalarning kuchayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda ma’naviyatda hurfikrlilik, har qanday bilim, ilm–fanga hurmat, diniy oqimlar erkinligi ustivorlik qilgan.

Diniy va dunyoviy ilmlar o‘zaro uzviy bog’liq holda rivoj topib bordi. Qadimgi Yunon, Hind va boshqa yurtlar an’analaridan, bilim manbalaridan ham keng ijodiy foydalanildi. X asrning ikkinchi yarmi va XI asr boshlarida Xorazmda vujudga kelib, keng faoliyat ko‘rsatgan mashhur Ma’mun akademiyasi ilm–fan ravnaqiga ijobiy ta’sir etdi.

Muhammad al–Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Mansur ibn Iroq singari ilm peshvolari ham dastlab shu fan maskanida ulg’ayib, kamolot bosqichiga ko‘tarilganlar.

IX–XII asrlarda Movarounnahrda ilm–fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko‘plab tarmoqlari va yo‘nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, jug’rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma’noda shu davrda qo‘yildi.

Jahon fani va sivilizatsiyasiga hissa qo‘sghan buyuk allomalarimiz Muhammad Muso al–Xorazmiy (783–850–yy.), Ahmad al–Marvaziy (780–880–yy.), Ahmad al–Farg’oniy (797–865–yy.), Abu Nasr Forobiy (873–950–yy.), Abu Bakr Muhammad Narshaxiy (899–959–yy.), Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997–y.), Abu Rayhon Beruniy (973–1048–yy.), Abu Bakr al–Xorazmiy (935–993–yy.), Abu Ali ibn Sino (980–1037–yy.), Ismoil Jurjoniy (1042–1136–yy.), Mahmud az–Zamaxshariy (1075–1149–yy.), Burhoniddin Marg’inoniy (1123–1197–yy.), Mahmud Chag’miniy (XII–XIII asr boshlari) nomlari fan tarixida alohida o‘rin tutadi.

IX–XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma’naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo‘ldi. Movarounnahr deb ataladigan bu hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta’sir ko‘rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar

ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib rivojlna boshladi. Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviyilar, Xorazmshohlar davlatlari hukm surdilar. Bu davlatlar xalqaro maydonda o‘z mavqeい va tutgan o‘rni jihatidan katta e’tibor va nufuzga ega bo‘ldilar. Ahmad Nasr, Ismoil Somoniy, Alptegin, Mahmud G’aznaviy, To‘g’rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arboblari davrida Markaziy Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik hukm surdi.

Damashq, Qohira, Bag’dod, Kufa, Basra va boshqa yirik shaharlarda Markaziy Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sghan ajdodlarimiz bu davrga kelib ko‘paya bordi. Bag’dod shahri ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda “Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham Ma’mun davrida (995–997–yy.) “Donishmandlar uyi” – “Bayt ul-hikma”, “Ma’mun akademiyasi” (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Xorazm Ma’mun akademiyasi – 1004–1005–yillarda Xorazmda tashkil etilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademianing «Ma’mun» deyilishining sababi Ma’muniy xorazmshohlar davrida (997–1017–yillar) ularning homiyligida tashkil qilingan va amaliy ish olib borgan edi. Akademiya 1017–yilda o‘z faoliyatini to‘xtatishining sababi Xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’munning isyonchilar tomonidan o‘ldirilishi bo‘ldi. Shundan so‘ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

Markaziy Osiyo mintaqasida IX–XII asrlarda iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va ilmiy taraqqiyot yuksalgan davr. Markaziy Osiyo Islom dini kirib kelgunga qadar ham yuksak moddiy va ma’naviy madaniyatga ega bo‘lgan. Buning misoli sifatida zardushtiylik (zoroastrizm) dinining muqaddas kitobi «Avesto»ni eslash kifoya. Markaziy Osiyo Islom dini tarqalishi tufayli, Yaqin Sharq, o‘rta Sharq, Shimoliy va G’arbiy Afrika hududlarini qamrab olgan ulkan Arab xalifaligining tarkibiga kirdi. Natijada mintaqamizning boy va serqirra madaniyati taraqqiyotning yanada kengroq sahniga chiqdi. Mintaqamiz olimlari, mutafakkirlari, ziyorilari, sayyoohlari qadimiylar yunon va Rum madaniyati yutuqlari bilan tanishish hamda o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. o‘rta asrlarda islom olamida din, fan va siyosatning umumiyligi tili hisoblangan arab tili Markaziy Osiyo olimlari va mutafakkirlari uchun ilm-fan va ma’naviyatni yangi pog’onaga ko‘tarishda beباho ko‘prik bo‘lib xizmat qildi. Shu davrlarda yashab, ijod qilgan al-Xorazmiy (783–850–yy.), al-

Farg’oniy (798–861–yy.), al–Forobiy (873–950–yy.), al–Beruniy (973–1018–yy.), Ibn Sino (980–1037–yy.) va boshqalar tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga bebahohissa qo’shdilar. Vatandoshlarimiz Imom al–Buxoriy (810–870–yy.), Imom at–Termizi (822–893–yy.), Imom al–Moturidiy (870–943–yy.), Ahmad Yassaviy (1103–1166–yy), Najmiddin Kubro (1145–1221–yy.) va boshqalar islom dini va Qur’oni karimning mazmunini hamda mohiyatini tahlilu talqin etgan, jamiyat, inson, xulq va haq, odob va tartib, harom va halol, axloq va nafosat haqida o‘zlarining asrlar osha eskirmaydigan va mangu joziba kuchiga ega asarlarini yaratdilar. Markaziy Osiyodan chiqqan mashhur olimlarning ilmiy kashfiyotlaridan butun insoniyat, xususan, yevropaliklar keng foydalandilar.

Amir Temur va temuriylar davri haqli ravishda “ikkinchi uyg’onish davri” sifatida e’tirof etilishi, bu davrda yetishib chiqqan jahonga ma’lumu–mashhur zotlarning dunyo ilm–faniga qo’shgan ulkan hissasi bilan ham salmoqli va o‘rinlidir.

Amir Temur va temuriylar davri, umuman Sharq, xususan Markaziy Osiyo ilm–fani, madaniyati, ma’naviyati, adabiyoti va san’ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, burilish davridir. Bu davr IX–XII asrlardagi ma’naviy–ma’rifiy hayotdagi rivojlanish va yuksalishning mantiqiy davomidir. Boshqacha nom bilan bu davrni «Ikkinchi uyg’onish davri» deb ham yuritiladi. Markaziy Osiyo xalqlari orasidan yetishib chiqqan buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi huddi shu davrda shakllandi va ijod qildi. Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar – Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, olimlardan – Mirzo Ulug’bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, faylasuf–shoirlardan – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, musavvirlardan – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh, hattotlardan – Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar shular jumlasidandir. Ularining barchasi o’sha davr va o‘zlarigacha bo‘lgan insoniyat ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati yutug’ining barcha sohalarini mukammal bilib, o‘zlashtirib olgan, o‘zlari tanlagan sohalarining hali hech kim tomonidan zabt etilmagan cho‘qqilarini egallagan ulug’ siymolar, qomusiy ilm egalari hisoblanadi.

Temuriylar sulolasining munosib davomchilaridan, davlat boshqaruvi va ilm–ma’rifat yo‘lini birgalikda olib borgan Amir Temuring nabirasi Muhammad Tarag’ay Ulug’bek ham jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning hukmronligi davrida Samarqandda 2 ta ko‘rkam madrasa qurildi. Ularda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlardan ham saboq berilgan. Boshqa

mashhur olimlar qatori uning o‘zi ham haftada bir marotaba bu madrasalarda yoshlarga dars berganligi ta’kidlanadi. Keyinchalik Buxoro va G’ijduvonda ham madrasalar qurdirdi, Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishi yakuniga yetkazilib, boshqa shaharlarda ham karvonsaroylar, tim, chorsu, hammom kabi inshootlar barpo etildi.

Ulug’bek ko‘p qirrali iste’dod sohibi bo‘lib, u ayniqsa adabiyot, tarix, matematika, astronomiya sohalariga qiziqdi. Uning eng buyuk ishlaridan biri – Samarqand shahrida o‘ziga xos Akademiya tashkil etganidir. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olim Ulug’bek rahbarligida fanning turli sohalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G’iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi (Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Samarqandiy), Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiy, Mavlono Xavofiy kabi olimlarning aniq fanlar sohasidagi tadqiqotlari va ilmiy xulosalari salmoqli bo‘lgan. Ular Xorazm Ma’mun akademiyasi an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirganlar.

IX–XII va XIV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo Renessansining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni, tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy–madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, beba ho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori–atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Biz yuqorida Aristotelning fikrlarini bejiz eslamadik. Hammangizga yaxshi ma’lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy–ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi.

«Islom madaniyatining oltin asri» deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg’inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug’ ulamolar butun musulmon olamining faxr–u iftixori va cheksiz g’ururi hisoblanadi.

o‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat, yurtimizda ikkinchi Uyg’onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug’bek, G’iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab hattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg’or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g’urur va iftixon bag’ishlaydi.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy—ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch—g’ayrat va ilhom bag’ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug’orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.

**3. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy–konseptual yondashuv va ilg’or innovatsiyalar.** “Tarix” – arabcha so’zdan olingan bo‘lib, “o’tmish”, “o’tgan voqealar haqida aniq hikoya qilish” ma’nolarini anglatadi. Tarix butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzoq o’tmishidan to hozirgi kunlargacha bosib o’tgan hayotiy yo’lini, avloddan–avlodga meros qoluvchi, ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy–madaniy taraqqiyotini, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini xolisona o’rganuvchi fandir.

Ana shunday qadimiylar va buyuk mamlakat tarixini o’rganishda O’zbekiston tarixi fani oldiga qo’yilgan bir qator muhim vazifalarni bajarish bilan bog’liqdir.

Xususan: *Birinchidan*, o‘zbekiston tarixi fani yoshlar ongida siyosiy, nazariy–ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, voqealarni shakllanishiga ko‘maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyot yo’lini, tarixiy tajribalarini o‘qib o‘rganganlaridagina ularning ongida

*Ikkinchidan*, o‘zbekiston tarixi mustaqil o‘zbekiston yoshlar ongida milliy vijdronni uyg’otib, uning shakllanishiga ko‘maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyot yo’lini, tarixiy tajribalarini o‘qib o‘rganganlaridagina ularning ongida

istiqlol tafakkuri, hozirgi ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy turmushni o'tmish bilan taqqoslash va kelajakka nazar solish tuyg'usi shakllanadi;

*Uchinchidan*, o'zbekiston tarixi fani yoshlarni Ona Vatanga mehr-sadoqat hamda harbiy vatanparvarlik an'analari ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi;

*To 'rtinchidan*, o'zbekistonning yangi tarixi fani yoshlarimizni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash quroli hamdir. Yoshlarimiz bu fanni o'qish, o'rganish va mutolaa qilish jarayonida o'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo'lagi ekanligini tushunib oladilar, o'zbek xalqi va buyuk allomalarimizning fan va madaniyat arboblarimizning jahon taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga qo'shgan va qo'shayotgan munosib hissasi bilan qonuniy ravishda faxrlanadilar.

Va nihoyat, beshinchidan, o'zbekiston tarixi fani yosh avlodni o'zbek xalqining milliy qadriyatları va axloqiy fazilatlari: halollik, poklik, odillik, adolatlilik, insonparvarlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va kamtarinlik, iymon va e'tiqodlilik sabr-toqat va chidamlilik ruhida tarbiyalashda, Vatan va xalq oldidagi barcha sadoqatlilikni qaror toptirishda oliyjanob vazifani bajaradi.

o'z xalqimiz, o'z ona yurtimiz, o'z tuprog'imiz tarixini, o'tmishimizni chuqr anglashimizdan asosiy maqsad nima?

Avvalambor, bugungi o'zbekiston jahon xaritasida paydo bo'lgan tasodifyi mamlakat emasligini, ildizlari nihoyatda chuqr va qadimiyligini ekanligini dunyoga ko'rsatishdir;

Ikkinchidan, sobiq sho'ro siyosati va kommunistik mafkura tazyiqi bilan soxtalashtirilgan tarixni o'z o'rniga qoyish, tarix va hayot haqiqatini ilmiy haqiqat asosida qayta tiklash;

Uchinchidan, shu asosda xalqimiz, ayniqsa yosh navqiron avlodimiz qalbida milliy g'urur, milliy iftixor, o'z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish, buyuk o'tmishga munosib buyuk millat bo'lish, ertangi kunga katta ishonch va istiqlolga e'tiqod bilan yashashni turmush tarziga aylantirish.

Tarix, donishmandlar aytganday, ulug' murabbiyidir. U yuz bergen hodisalar mohiyatidan kelib chiqib saboq beradi. Agar tarixga shunchaki voqealar bayoni, hodisalar tafsiloti sifatida qaralsa, uning murabbiylik ahamiyati yo'qoladi. Nursiz, haroratsiz, jozibasiz, kishi ruhiyatiga ta'sir etmaydigan bir narsaga aylanadi.

Tarix – tafakkur mahsuli. o'tmishimizda yuz bergen har bir hodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergen. Yaxshilik va yomonlik, ezgulik yoki yovuzlikmi, bundan qat'iy nazar, har qanday hodisa o'z davri kishilarning qalbi, ongi, shuuri, ma'naviy qudrati mahsulidir. Demak, unga

nazar solganda, asrlar silsilasini varaqlaganda alohida hayajon, alohida intiqlik va zukkolik bilan qarash kerakki, voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat, qo‘yingki, har davrning o‘ziga xos shukuhi–yu tashvishlari, sevinchu izardoblar yaxlitligi ko‘zga yaqqol tashlansin. Ongimiz va shuurimizga mustahkamroq o‘rnashsin. Ana shunda tarix kishini fikrlashga o‘tmishni belgilashga yordam beradi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug’ murabbiyligi, oliv qadriyat ekanligi ana shu bilan belgilanadi.

o‘zbekiston tarixini yaratish va uni o‘rganish ko‘p jihatdan to‘g’ri , nazariy va metodologik asoslarning ishlab chiqilishiga, ularning amaliy hayotga tatbiq etilishiga bog’liq. Tarixiy voqealarni o‘rganishda puxta va chuqur ishlab chiqilgan ilmiy– nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta.

Afsuski, sovetlar hukmronligi davrida tarixni o‘rganish va o‘qitish ishlari marksistik metodologiyaga bo‘ysundirildi. Har bir voqeani yoritishda komfirqa mafkuraviyliki, partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazardan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga–ekspluatator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quzdorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag’allar, mulkdorlar va mulksizlar tarixiga bo‘lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi.

Tarixiy voqealar jamiyat a’zolarining bir qismi kambag’allar va yo‘qsillarni himoya qilgan holda, ularning manfaatiga bo‘ysindirilgan holda yoritildi. Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning diniy e’tiqodlari oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg’in ostiga olindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma’rifatparvar shoirulamolar, yozuvchilar ikkiga – materialistlar va idealistlarga bo‘lindi. Ulardan u yoki bu dinga e’tiqod qilganlari idealist deb ataldi va shuning uchungina ta’qib etildi, ularning faoliyatini o‘rganish ta’qiqlandi, o‘zları tahqirlandilar, asarlari xalqdan yashirildi, yo‘qotib yuborildi. Oqibatda ko‘pgina tarixiy voqealari–hodisalar soxtalashtirildi, o‘tmish qoralandi, ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Yosh avlodga ularni jirkanch illat, xurofot, eskilik sarqitlari, deb o‘rgatildi. Tarix faqat jangu–jadal, urushlardan iboratdek qilib ko‘rsatildi. Xalqimiz tarixinining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligini aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo‘lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo‘ldi. Tarix esa totalitar tuzum xizmatchilariga, targ’ibotchi va himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi. o‘zbekiston tarixini o‘rganishning bir qator ilmoiy– nazariy va metodologik asoslar mavjud bo‘lib,

ular chuqur ilmiylik, rostgo‘ylik, tarixiylik, izchillik, haqqoniylik va boshqalardan iborat. Bu kabi nazariy–metodologik asoslar tarixiy tasavvurni, tushuncha va xulosalarning ilmiy–amaliy va uslubiy jihatdan to‘g’ri hosil qilinishiga poydevor bo‘lib xizmat qiladi, tarixni o‘rganish va o‘qitish jarayonida milliy istiqlol, vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalmilallik kabi ulug’ fazilatlarni xalqimiz an’analari, urf– odatlari, diniy e’tiqodlari kabi milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga chuqur singdirish, ularni e’zozlash ustivor vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga moziyga hurmat bilan qarash, milliy tiklanish tafakkuri, yondashuv ruhini yoshlar dunyoqarashida shakllantirish lozimdir.

Tarixni o‘rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqeа va hodisalarni o‘z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o‘rganishni taqoza etadi. Voqeа, hodisalarni o‘rganishda tarixiy bog’lanish, tarixiy uzviylik, tarixiy rivojlanish jarayoni qoidalariга rioya qilmoq zarur. Har bir narsa, voqeа va hodisani boshqa voqeа, hodisalar bilan bog’lab o‘rgangandagina mazkur voqeа, hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o‘rnini to‘g’ri aniqlash, belgilash mumkin bo‘ladi. Har bir voqeа, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bir bo‘lagi deb qaramoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda paydo bo‘lganligini bu hodisa o‘z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o‘tganligini, keyinchalik u qanday bo‘lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, biron ta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo‘lsak, birinchidan, u qachon, qanday sharoitda paydo bo‘ldi, ikkinchidan, u o‘z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o‘tdi, uchinchidan, u hali ham mavjudligi, hozir qay ahvolda, qanday bo‘lib qoldi, degan savollarga aniq javob berish zarur bo‘ladi Tarixiylik metodologiyasi xalqning o‘tmishiga, hozirgi zamon va kelajagiga yagona tabiiy tarixiy jarayon deb, o‘tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon esa keljakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo‘ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, turmush qurmoqchi bo‘lgan avlod tarix fani orqali o‘z o‘tmishini yaxshi bilmog’i lozim. o‘tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, keljakni to‘g’ri tasavvur etamiz. o‘z navbatida, hozirgi zamonni, bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to‘g’ri idrok etilsa, bu o‘tmishni tariximizni yanada chuqurroq anglashga ko‘maklashadi.

Tarixiylik metodologiyasining tarkibiga uzviylik va davriylik kiradi. Tarixiy fan bo‘lgani uchun ham o‘zbekiston tarixi fanini o‘rgatish va o‘qitish jarayonida

tarixiy uzviylik va davriylik qoidasiga rioya qilish alohida ahamiyat kashf etadi. Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida urug'chilik tuzumi yemirilib, xususiy mulkchilik kelib chiqqach, urug' jamolari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'lingach, tarixiy voqeа va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, har bir ijtimoiy tabaqa o'z manfaati nuqtai nazaridan harakat qiladigan, ularning manfaati bir-biri bilan to'qnashadigan, g'alayonlar, qo'zg'olonlar ko'tariladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bo'lgan voqeа va hodisalarni, tarixiy jarayonni o'rganishda ijtimoiy yondoshuv prinsipiiga rioya qilish zarur bo'ladi. Bu ijtimoiy yondoshuv metodologiyasi bo'lib, tarixiy jarayonlarni, aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi.

Tarixni o'rganishda ijtimoiy yondoshuv qoidasiga amal qilish davlat arboblarining, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yo'lboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga ko'rsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatni u yoki bu yo'ldan rivojlanishidagi o'rni va rolini to'g'ri aniqlashga olib keladi va muhim ahamiyatga egadir.

Tarixni o'rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy yuksalishga sabab bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyoiy va madaniy omillar nimalardan iborat edi?
2. Xorazm Ma'mun akademiyasi qaysi yillarda faoliyat olib borgan?
3. 1997-yil 11-noyabrda Prezident Farmoni bilan qayta tiklangan Xorazm Ma'mun akademiyasi fanning qaysi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib boradi?
4. Ulug'bekning ilmiy maktabida qaysi olimlar faoliyat olib borganlar?
5. Markaziy Osiyo Renessansi ikkinchi davri haqida nimalarni bilasiz?

### ***3-MAVZU. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR.***

Reja:

1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning o‘zbekistonda amalga oshirgan qatag’on siyosati. “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” nomli kompaniyalar.

2. Aholi turmush tarzining og’irlashuvi. Orol fojiasi.

3. Farg’ona voqealari. 1989-yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi.

4. Islom Karimov – o‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. GKCHP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

**Tayanch tushunchalar:** Taraqqiyotda ekstensiv usulning hukmronligi, iqtisodiyotning bir tomonlama xom ashyo yetishtirish tomon yo‘naltirilishi, paxta yakka hokimligi, Orol fejeasi, iqtisodiy tanglik. Farg’ona fojeasi, Davlat tili to‘g’risidagi Qonun, o‘zbekistonda Prezident lavozimining ta’sis etilishi, «Mustaqillik Deklaratsiyasi».

**1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning o‘zbekistonda amalga oshirgan qatag’on siyosati. “Paxta ishi” “o‘zbek ishi” nomli kompaniyalar.** Agar 30-yillardagi qatag’onlarda asosan partiya, davlat, xo‘jalik va harbiy kadrlar mavh etilgan bo‘lsa, 40–50-yillar boshidagi qatag’onlar zarbasining ikkinchi kuchli to‘lqini madaniyat va fan arboblariga taalluqli bo‘ldi. Bu davrda respublika matbuotida ketma-ket ijodiy xodimlar ayblanib, ularni “millatchi” larga chiqarib, OAVlarida tanqid qiluvchi maqolalar bosildi.

Bu maqolalarda sotsialistik realizm prinsipiga “qiroatxonlik” bilan suyanib Turob To‘la, Sobir Abdulla, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Habibiy, A.Bobojonovlarga turlicha ayblar qo‘yildi. Keyinroq Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, H.Sulaymonov, I.Sultonov singari adiblar va adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, filologiya sohasidagi taniqli olimlarning asarlari tanqid qilindi va ular “jiddiy mafkuraviy xatolar va buzg’unchilik”da ayblandi. Bundan tashqari, milliy ziyolilarning atoqli vakillariga qarshi qatag’on boshlandi. Ayniqsa, 1951–52-yillarda “sovietlarga qarshi millatchilik faoliyati” uchun Shukrullo, M.Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoiliy va respublikaning boshqa bir qancha yozuvchilari, olimlari 25 yil qamoq jazosiga hukm qilindilar.

Stalincha qatag’on yillarida o‘zbekistonda 1937–39-yillarning o‘zida 41 ming kishi qamoqqa olindi, shulardan 37 mingi turli muddatlarga hukm qilindi, 6920 kishi otib tashlandi. Umuman olganda, 1939–1953-yillarda 61799 kishi qamoqqa olinib shulardan 56112 kishi ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, 7100 kishi otib tashlandi. Albatta, ularning ko‘pchiligi 1956-yilda batamom oqlandi, biroq o‘limidan so‘ng 80-yillarga kelib mavjud tuzum mafkurachilari o‘zlarining yangi xurujini boshladilar. Totalitar tuzumni saqlab qolish uchun aholini qo‘rquvda tutish, dam-badam tahqirlar va qatag’on qilish odat tusiga aylanib qolgan edi.

Bu safar ham partiya zo‘ravonligi natijasida, 1982-yili bir guruh adabiyotchi olimlar jadidchilik mafkurasini rasm bo‘lib qolgan qoliplardan tashqarida ko‘rib

chiqishga intilgani uchun ayblandilar, Fitrat va Cho‘lponni oqlash borasidagi sa’y-harakatlar qattiq tanqid ostiga olindi.

1983–1989-yillarda “paxta ishi” bahonasida yana qatag’onlarning yangi bosqichi bo‘lib o‘tdi. Endilikda ishlab chiqarish va siyosat bilan band bo‘lgan kadrlar, respublikaning milliy manfaatlarini bo‘g’ib kelayotgan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yaramas va istiqbolsizligini tushungan milliy ziyorilar ham ta’qib ostiga olindi. Bu ish matbuotda, ayniqsa, markazda millatning izzat–nafsi teguvchi “o‘zbek ishi” deb ataldi. Markazdan maxfiy topshiriq bilan yuborilgan tergovchilar guruhi minglab kishilarni va umuman respublikani badnom qildi. Albatta “paxta ishi” jarayonida chindan ham mavjud bo‘lgan kamchiliklar va hatto jinoyatlar ochildi, biroq bu butun o‘zbek xalqini oldindan badnom qilishlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmadsi. o‘sha davrda ochilgan illatlar butun ittifoqqa xos qusur edi. Biroq “paxta ishi” oqibatida ko‘pgina halol va vijdonli kishilar ham tuhmat va uydirmalar bilan qamoqqa olindi. Bu ish natijasida 5 ming kishi qamoqqa olindi va turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi.

Faqat o‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilan “paxta ishi” va undan oldingi qatag’onliklar oqibatida nohaq ozor chekkan minglab kishilar va ularning oila a’zolari oqlandi va haq–huquqlari tiklandi. 74 yil davom etgan bu tengsiz, yashirin kurash kommunistik tuzumi qulashi bilan tugallandi.

Urushdan keyingi yillarda ham respublikamizning mustamlaka maqomi saqlanib qoldi. Bu davrda o‘zbekiston sanoati tabiiy, moddiy–texnika va mehnat resurslardan yanada kengroq foydalanildi. Xuddi shu davrda o‘zbekiston yoqilg’i–energetika majmuining asosini tashkil etadigan qator yirik gaz konlari o‘zlashtirildi, nodir metallurgiya sanoati yaratildi, oltin qazib olish sanoati barpo etildi, ko‘p tarmoqli mashinasozlik markazlari barpo etildi. Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida “Tashselmash”, “o‘zbekselmash”, “Krasniy dvigatel”, “Pod’yomnik” kabi zavodlarda tirkama uskunalar va traktorlar uchun ehtiyyot qismlar ham ishlab chiqarila boshlandi. 1985–yilga kelib respublikada ishlab chiqarish, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, kombinat va korxonalar soni 1500 tadan oshib ketdi. To‘la asos bilan shuni ta’kidlash joizki, erishilgan bu yutuqlar bir tomonlama edi, xolos. Asbob–uskunalar o‘n yillar davomida yangilanmas, yangi texnologiyalar to‘g’risida esa so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi. Respublika iqtisodiyotining asosi bo‘lgan paxta tolasining 92% dan ortig’i, paxtachilik majmui ishlab chiqarish vositalarining 40% ga yaqini, qorako‘lning deyarli hammasi, pillaning 2/3 qismi, oltin, mis, rux kabi rangli metallarning hammasi va boshqalar o‘zbekistondan deyarli “suv tekinga” xom ashyo holida olib ketilishi, ayni vaqtda tayyor ishlab chiqarish, aholi iste’moli uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar, jumladan, tayyor sanoat mollari va hatto o‘zi uchun yetarli darajada ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotlarining 2/3 qismini ittifoqning boshqa respublikaliridan yuqori iste’mol baholarida keltirilishi respublikamiz xo‘jaligining bir tomonlama rivojlanganligini yaqqol ko‘rsatardi. Bunga qo‘srimcha qilib, shuni ta’kidlash joizki respublika sanoatida yengil sanoat mahsulotining hissasi 1989–yilda 37,2 % ni tashkil etdi. Bunda aholi uchun keng iste’mol mollari ishlab beradigan yengil sanoat o‘zbekistonda ancha yuqori rivojlangandek tuyulardi. Aslida bu tarmoq mahsulotlarining yarmidan ko‘pini paxta tozalash zavodlarida

taylorlangan paxta tolasi, pillakashlik fabrikalarida ishlov berilgan ipak tolasi, lub zavodlarida ishlangan kanop tolasi, teriga ishlov beruvchi korxonalarda ishlov berilgan qorako'l terilar tashkil qilganini e'tiborga olsak, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga dastlabki ishlov beruvchi tarmoqlar hissasi butun yengil sanoatda 2/3 qismga borib qolganini ko'ramiz. Shu bois o'zbekiston mustaqillik arafasida sanoat yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha sobiq ittifoqda 10 o'rinni egallar edi.

Urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligida ham ijobiylar salbiy jihatlarni kuzatish mumkin. Qishloq xo'jaligining asosiy yo'naliishi paxtachilik bo'lib qoldi. Shu bois, paxta yakka hokimligiga e'tibor yanada kuchaytirildi. Paxta xom ashyosi yetishtirish 1946–1985– yillarda 5,5 barobar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar esa 1 mln dan ortdi. Paxtaning yalpi hosili 1960–yilda 2,8 mln tonnani, 1980–yilda 6,2 mln tonnani tashkil qildi. Lekin o'zbekistonning milliy faxri va asosiy boyligi bo'lib kelgan paxtachilik bora–bora uning og'ir oqibatlariga olib kelgan "sho'ri"ga aylandi. Markazning paxta yetishtirishni butun choralar bilan ko'paytirishdan iborat siyosatning amalga oshirishini ta'minlash natijasida respublikaning sug'oriladigan asosiy ekin maydonlari paxtaga bo'shatib berildi va ayrim rayonlarda uning umumiy ekin maydoni 80% ortib ketdi. Oziq–ovqat mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan dehqonchilikning ko'pgina tarmoqlari siqib chiqarildi, chorvachilik zarar ko'rdi, ko'p yillar davomida surunkali paxta ekilishi tuproqning tarkibi buzilib, tabiiy unumdoorligi qashshoqlashdi, maydonlarni sho'r bosdi, mineral o'g'itlarni o'ta ortig'i bilan ishlatilishi tuproq, suv va atmosferaning zaharlanishiga, ekologik sharoitning og'irlanishiga olib keldi. Bu davrda sug'orma dehqonchilikni yuksaltirish maqsadida ko'plab yangi kanallar va suv omborlari ishga tushirildi. (Chimqo'rg'on, Janubiy Surxon suv omborlari, Amu–Buxoro, Amu–Qorako'l, Janubiy Mirzacho'l kanallari va b.) hamda Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Surxon–Sherobod cho'llarida unumdoor qo'riq yerlar o'zlashtirildi. Dastlab bu tadbirlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning oshishiga olib kelgan bo'lsa–da, keyinchalik ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Eng yomoni Amudaryo va Sirdaryo suvlari Orol dengizigacha qariyb yetib bormay qoldi. Bu Orolni falokat yoqasiga olib keldi. Dengiz sathi pasayib, ilgarigi gullab turgan shahru–qo'rg'onlar sho'r qumzorga aylandi. Umuman olganda, iqtisodiyotni rivojlantiirishda ekstensiv usul hukmronlik qildi, ilmiy–texnika taraqqiyotini ishlab chiqarishga tatbiq ettirishga yetarli e'tibor berilmadi. Masalan, 1981–1985–yillarda 660 ta kashfiyotdan faqat uchdan biri xalq xo'jaligiga joriy etildi. Boz ustiga respublika iqtisodiyoti qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi doirasida o'ralashib qoldi Ma'naviy–axloqiy sohada salbiy hodisalar (qo'shib yozish, ko'zbo'yamachilik qilish va b.) kuchayib bordi. Iqtisodiyotni tanazzuldan olib chiqish uchun avvalo, ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirish boshqaruvning iqtisodiy usul–amallarini yo'lga qo'yish o'rniga har xil chaqiriqlar bilan iqtisodiy natijasiz eksperimentlar o'tkazildi.

Ijtimoiy sohada ham ko'rsatkichlar juda past edi. Jumladan, turar joy, bilan ta'minlash umum ittifoq ko'rsatgichini 65% (sobiq 15 respublikalar ichida 12–o'rinni) tashkil etdi, kasalxonalar bilan 92% (9–o'rinni), maktablarda o'rinnlar bilan – 72% (12 o'rinni) maktabgacha ta'lim muassasalari bilan – 34,5 % (12–o'rinni).

Aholini ichimlik suv bilan ta'minlash 25–30% ga qondirilardi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga sarflanadigan xarajatlar byudjet mablag'larining 2,7% idan oshmas edi. Asosan aholi vakillari istiqomat qiluvchi qishloqlarda ijtimoiy ahvol juda og'ir edi. Ijtimoiy hayotda yana bir nohaqlikka e'tiborni qaratsak – 80–yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, sobiq ittifoq bo'yicha har bir maktab o'quvchisiga o'rtacha 240 so'm sarflangan holda, o'zbekistonda bu ko'rsatkich 203 so'mni, har bir talabaga ittifoqda 1200 so'm sarflansa, o'zbekistonda bu sarf 996 so'mni tashkil qilgan edi.

Ko'rيلayotgan yillar davomida madaniyat va fan ham notekis rivojlandi. o'zbekistonda xalq maorifi, oliy va o'rta ma'lumot, fan–texnika, madaniyatning bir muncha o'sganligini, olimlarimiz fanning ko'pgina fundamental sohalarida maktab yaratganliklari tarixiy xaqiqatdir. Biroq ancha yuksak madaniy salohiyat bilan birga ayni vaqtida ma'naviy tanglik yuzaga keldi. Xalqni milliy an'analar va madaniyatning qudratli manbalaridan begonalashtirish tendentsiyalari kuchaydi. Masalan, oldin ta'qıqlangan Navro'z bayramimiz 50–60–yillarda tiklanib, 1986–yil yana "diniy" bayram sifatida mafkurachilar tomonidan ta'qıqlandi. o'zbek tilini qo'llash sohasi ham toraydi: respublika bo'yicha barcha hujjatlar, hatto aholi ko'pchilikni tashkil etgan qishloqlarda ham rus tilida olib borildi. Kutubxonalar fondining 80% ni rus tilidagi kitoblar tashkil etardi. Taajjubki, Toshkent Davlat universitetida (hozirgi MU) o'zbek filologiyasi fakulteti faqatgina 1980–yilda ochildi.

Madaniy qurilishda tub milliy manfaatlar unutilib, baynalmilallashtirishga zo'r berildi. Madaniyatni mafkuralashtirish, ijodiy faoliyatga qo'pol ravishda aralashish natijasida adabiyot va san'at milliy zamindan ajralib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiysi hukm surgan 74 yil mobaynida o'zbekistonda ham bir qator yutuqlarga yo'l qo'yilganligini e'tirof etgan holda, respublikamiz mustamlakachilik va milliy zulm doirasida bo'lganligini va qaram mamlakatning barcha mashaqqatlarini boshidan kechirganini ta'kidlash lozim.

Bu qaramlik siyosiy sohada – siyosiy mutelikda, xalqning taqdirini o'zi belgilash huquqidан mahrum bo'lishida, hukmron mamlakatning tarkibiy qismga aylanishida, xalqaro doiralarda huquqsizlanishda; iqtisodiy sohada – tabiiy boyliklariga o'zi egalik qilolmasligida, iqtisodiyot taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmasligida, markaz mafaatlarining ustunligida, xalqimizning mehnat samarasidan bahramand bo'lmasligida, bir tomonlama rivojlanish natijasida respublikamizni xom ashyo bazasiga aylantirilishida; ma'naviy sohada – milliy va diniy qadriyatlarimizning oyoq osti qilinishida, kommunistik mafkura hukmronligida sinfiy yondashuv oqibatida ma'naviy va tarixiy me'rosimizga e'tiborsizlikda, qatag'onlik siyosatida inson huquqlarini poymol qilishda ifodasini topdi.

Mamlakatimiz va xalqimizning sovet hokimiysi hukmronligi davridagi ahvolini tahlil etar ekanmiz, mustaqillik nechog'lik ahamiyat kasb etishni, uning qadriga yetishimizni, e'zozlashimizni va mustahkamlashimizni yanada chuqur anglab yetishimiz zarur.

**2. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi.** Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni istamagan kelgindilar mahalliy xalqning urf–odatlari, an'analarini oyoq–

osti qildilar. Xalqimizning boy madaniyati va ma'naviy qadriyatları kamsitildi. Ona tilining qo'llanilishi yanada cheklab qo'yildi. Hatto milliy libos kiyib yurish ham qoralandi. Milliy an'analar bo'yicha to'y qilgan, qarindosh-urug'larini milliy, diniy qadriyatlar asosida dafn qilganlar tanqid ostiga olindi, shafqatsiz jazolandı. Bunday vaziyat xalqni ranjitdi, hafsalasini pir qildi, siyosiy loqaydlikni kuchaytirdi. Ko'plab olimlar, yozuvchilar va boshqa ijodiy xodimlar aziyat chekdi. Ularning ko'pchiligi mahalliy chilikda, milliy cheklanganlikda, xurofot-bid'atga berilganlikda, sinfiy va partiyaviy tamoyillardan og'ishlikda, o'tmishni, xonlar va amirlar hayotini bo'rttirib ko'rsatishda ayblandilar. Siyosiy va mafkuraviy zug'umlarga qaramasdan ijtimoiy ong o'zgara boshladi. o'tmish va hozirgi zamon muammolari to'g'risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtai nazarlar bildiriladigan bo'lib bordi.

Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni sog'lomlashtirish kabi masalalarni ko'tara boshladilar. «Norasmiy» guruhlar va tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Ular astasekin siyosiy tusga kira boshladi. 1989-yilda tashkil topgan «Birlik» xalq harakati (rahbari Abdurahim Po'latov) respublikadagi dastlabki «norasmiy» harakat edi. Shuningdek, «o'zbekiston erkin yoshlar itifoqi», xotin-qizlarning «To'maris» nomli tashkiloti, rusiyabon ziyolilarning «Intersoyuz» deb atalgan harakati tuziladi. Bu harakatlar dastlabki paytlarda xalqning ma'naviy qadriyatlarini tiklash, Orol fojeasining oldini olish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usulidan voz kechish kabi dolzarb masalalarni ko'tardilar. Biroq bu harakatlar g'oyaviy, siyosiy, tashkiliy jihatdan yetarli darajada uyusha olmadı. 1990-yil 30-aprelda «Erk» demokratik partiyasining ta'sis qurultoyi bo'ldi. Qurultoy «Erk» partiyasi tuzilganligi haqida qaror qabul qildi, partianing dastur va nizomi qabul qilindi. Biroq «Erk» partiyasi rahbarlari jamiyatni yangilash uchun bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish zaruriyatini to'la anglab yetmadilar, amalga oshirgan tadbirlari natija bermadi. Ma'muriy buyruqbozlik usuli bilan ishlayotgan vazirliklar va idoralar iqtisodiy islohotlarni yo'qqa chiqardi, iqtisodiyot taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib qolaverdi. Respublikaning tog-kon, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoatiga qarashli korxonalar Ittifoq vazirliklari va idoralariga tobe bo'lib qolaverdi. Ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarni avvalgidek Markaz belgilab berardi.

Aholining ijtimoiy ahvoli nochor edi. o'sha yillarda mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, kun kechirish uchun bir kishiga oyida kamida 85 so'm zarur edi. o'zbekistonda aholi jon boshiga daromad 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashardi, bular aholining 45 foizini tashkil etardi. Qishloq aholisining atigi 50 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi, xolos.

**3. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. Farg'ona fojeasi.** 1989-yilning may-iyun oylarida Farg'onada fojeali voqealar sodir bo'ldi. 45 yil muqaddam Stalin bedodligi natijasida o'z yeridan badarg'a qilingan mesxeti turklarini o'zbek xalqi o'z bag'riga olgan, ularga mehribonlik qilgan yedi. Tub yerli aholi bilan mesxeti turklari qardoshlik aloqalarini bog'lab,

inoqlashib yashardilar. Biroq 1989–yil 20–mayda Quvasoyda tub yerli aholi bilan mesxeti turklari guruhlari o‘rtasida mushtlashish sodir bo‘ldi. Respublika rahbariyatining voqeani to‘g’ri baholay olmaganligi va tezkorlik bilan zarur choralar ko‘rmaganligi oqibatida vaziyat murakkablashdi va etnik mojaroga aylanib, qon to‘kilishiga olib keldi. 3–iyun kuni kechqurun Toshloqda, so‘ng Marg’ilonning mesxeti turklari zinch yashaydigan «Komsomol» suv xo‘jaligi quruvchilari posyolkasida ur–yiqit, uylarga o‘t qo‘yish, qotillik, vahshiylig sodir bo‘ldi. Keyingi kunlarda beboslik harakatlari Farg’ona shahri, uning atrofiga tarqaldi. Olomon tomonidan sanoat korxonalariga, temir yo‘l stantsiyasiga, aloqa uzeliga, militsiya binosiga hujum qilindi. Boshboshdoqlik partiya va sovetlarga qarshi tus ola bordi. Ana shunday favqulodda vaziyatda respublika hukumat komissiyasi tuzildi. 4–iyundan boshlab komendantlik soati joriy etildi.

Farg’onaga shoshilinch ravishda SSSR ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlarining 13 ming kishilik bo‘linmasi keltirildi. Ur–yiqit 7–iyun kuni yana takrorlandi va tez orada Qo‘qon shahriga, Rishton, o‘zbekiston va Kirov (hozirgi Beshariq) tumanlariga tarqaldi. 8– iyunda Qo‘qonda aholining tinch namoyishi SSSR ichki ishlar vazirligi qo‘shinlari tomonidan o‘qqa tutildi, 50 dan ortiq kishi halok bo‘ldi, 200 dan ortiq‘i yarador qilindi. Ommaviy tus olgan tartibsizlik, ur–yiqitlar natijasida jami 103 kishi halok bo‘ldi. 1011 kishi jarohatlandi va mayib bo‘ldi.

SSSR ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlarining 137 xizmatchisi, 110 militsiya xodimi yarador bo‘ldi, militsiya xodimlaridan biri vafot etdi. 757 uy, 27 davlat binosi, 275 avtotransport vositasi yondirildi va talon–taroj qilindi. Voqealarning keng miqyos va fojeali tus olganligi sababli sovet va ma’muriy organlar mesxeti turklarini Farg’onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning Leninobod viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga shoshilinch ko‘chiriladi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo‘lmash edi. Shuning uchun 16.282 kishi Farg’ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko‘chirib olib borib joylashtirildi.

Kadrlarni tanlash, joy–joyiga qo‘yish ishlari buzilgan, poraxo‘rlik, xizmat mavqeini suiste’mol qilish avj olgan edi. Ana shunday keskinlikdan, respublikada ijtimoiy–siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishdan manfaatdor siyosiy kuchlar allaqachon ishlab chiqilgan, puxta tayyorgarlik ko‘rgan reja asosida ig‘vogarona harakat qildilar, olomonga oldindan tayyorlangan varaqlar tarqatdilar.

Farg’onada sodir bo‘lgan siyosiy ig‘vogarlik Tbilisi, Tog’li Qorabog’, Bokuda tashkil etilgan ig‘vogarliklardan biri edi. Keyinchalik 1990–yil fevral, mart oylarida Bo‘ka va Parkent, 1990–yil iyunda o‘sh va o‘zganda ham shunday urinishlar bo‘ldi. Yovuz kuchlar o‘z maqsadiga erisha olmadilar. o‘zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko‘rilgan chora–tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

**4. Islom Karimov – o‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991yil avgust voqealari. GKCHP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.** 1989–yil 23–iyun kuni bo‘lib o‘tgan o‘zbekiston Kompartiyasi MQning XIV Plenumida Islom Abdug’aniyevich Karimov o‘zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi etib saylandi. I. A.

Karimov boshliq yangi rahbariyat tomonidan o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi kuchayib borayotganligi birinchi bor e’tirof etildi. Xalqning shonshuhrati, qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka yerishish tomon yo‘l olindi. Respublikada kadrlarni tanlash, joy–joyiga qo‘yish va tarbiyalash masalalarida milliy manfaatdorlik ustivorligi ta’minlandi.

Markazdan yuborilgan «kadrlar desanti» o‘z mavqeini yo‘qotdi. Anishev, Ogarek, Satin va boshqa «kazo–kazolar» Respublikadan chiqarib yuborildi. Mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimlariga ko‘tarildi.

Kadrlar siyosatidagi jiddiy ijobjiy o‘zgarish shundan iborat bo‘ldiki, endi o‘zbekistonda partiya, sovet, davlat, huquqni himoya qilish organlarining boshliqlarini Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilagan xodimlarni ko‘tarish amaliyotiga chek qo‘yildi, bu masalalarni hal qilishni respublika rahbariyati o‘z qo‘liga oldi.

Bu vaziyatni teran anglagan rahbarning jasorati bo‘lib, siyosiy mutelikdan qutilish tomon tashlangan muhim qadam bo‘ldi. o‘zbekistonda adolatni tiklash chora–tadbirlari ko‘rildi, to‘qib chiqarilgan «o‘zbek ishi», «paxta ishi»ning tamomila sharmandasi chiqdi. Bu bilan bog‘liq ishlar qayta ko‘rildi, aybsiz qamalgan minglab kishilar oqlandi, o‘z oilasiga qaytarildi, adolat tiklandi.

Respublika jamoatchiligi tomonidan allaqachon o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi ko‘tarilgan edi. o‘zbekistonning sobiq rahbariyati bu masalaga avvallari millatchilik, mahalliychilik deb qarardi, keyinchalik o‘zbek va rus tilini teng mavqega ko‘tarishga urindi, shu yo‘sinda ikki tillik haqidagi qonun loyihasini o‘tkazishga harakat qilgan edi. Respublika yangi rahbari jamoatchilik fikrini inobatga oldi, masalani bosiqlik bilan hal qilish yo‘lini tanladi.

o‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989–yil 21–oktyabrda bo‘lgan o‘n birinchi sessiyasida «o‘zbekiston SSRning davlat tili haqida» Qonun qabul qilindi. Qonunda o‘zbekistonning davlat tili o‘zbek tilidir, o‘zbek tili Respublikaning siyosiy–ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to‘liq amal qiladi, deb belgilab qo‘yildi. 1990–yil 19–fevralda «o‘zbekiston SSRning davlat tili haqida»gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi. Qonun va davlat dasturiga binoan mehnat jamoalari, o‘quv yurtlari, korxonalar va davlat muassasalarida ish yuritish rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tkazila boshlandi. Bu qonunning qabul qilinishi va uning amalga oshirila boshlanishi Respublika ijtimoiy hayotida katta tarixiy voqeа bo‘lib, mustaqillik sari tashlangan yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Respublika iqtodiyoti va ijtimoiy sohasini xolisona tahlil etish, baholash va ko‘tarishga qaratilgan dastlabki sa’y–harakatlar qilindi. Qishloq aholisining shaxsiy tomorqalari uchun yer ajratildi. Yerga muhtoj 381 ming oilaga tomorqa yerlari berildi, 372 ming oila o‘z tomorqalarini kengaytirib oldi. Shu maqsadlar uchun jami 150 ming hektar yer ajratildi.

Respublikada «Ish bilan ta’minlash» dasturi ishlab chiqildi. Ana shu dasturga binoan 1990–yilda 300 ming kishi, asosan yoshlar ish bilan ta’minlandi. Aholining kam daromadli qismini ijtimoiy jihatdan himoyalash uchun 1990–yilda byudjetdan va korxonalar hisobidan 142 mln. so‘m qo‘sishmcha mablag’ ajratildi.

1990-yil 18-fevralda o‘zbekiston Oliy Sovetiga saylov bo‘ldi. Bu saylovlarning yangiligi shundan iborat bo‘ldiki, 500 saylov okrugining 326 tasida muqobil nomzodlar ko‘rsatildi. Oldingi saylovlarda barcha nomzodlar birinchi turdayoq deyarli 100 foiz ovoz bilan saylangan bo‘lsalar, bu safar birinchi turda 368 nomzod zarur ovozlarni to‘play oldi. Qolgan 132 okrugda qayta saylovlar bo‘lib o‘tdi. 1990-yil 24–31–mart kunlari Toshkentda o‘n ikkinchi chaqiriq o‘zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. 24– mart kuni sessiya respublikalar orasida birinchi bo‘lib «o‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish to‘g’risida» Qonun qabul qildi. 1990-yil 24–mart kuni Oliy Sovet sessiyasida yashirin ovoz berish yo‘li bilan Islom Abdug’aniyevich Karimov o‘zbekiston Prezidenti etib saylandi. Ana shu sessiyada I. Karimov nutq so‘zlab, o‘zbekistonning siyosiy mustaqilligini, o‘zini–o‘zi idora qilishga va o‘zini–o‘zi pul bilan ta’minalashga o‘tishni ta’minalashni o‘zimming asosiy vazifam deb bilaman, deb ta’kidladi. Hali SSSR va Markaziy hokimiyat mavjud bo‘lgan sharoitda o‘zbekistonda o‘z Prezidentining saylanishi muhim vacea bo‘ldi, mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo‘ldi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi o‘zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi 1990– yil 20–iyun kuni «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ni qabul qildi.

Deklaratsiyada har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib o‘zbekiston SSRning davlat suvereniteti e’lon qilindi. Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo‘lib, quyidagilar bayon etilgan:

- o‘zbekiston SSR davlat suvereniteti
  - o‘zbekiston SSR demokratik davlatining o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir.
  - o‘zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib o‘zgartirilishi mumkin emas. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar o‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq o‘zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingga o‘zbekiston hududida kuchga ega bo‘ladi.
  - o‘zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga o‘zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi va hokazo. o‘zbekiston mustaqilligi to‘g’risidagi Deklaratsiya muhim tarixiy hujjat bo‘lib, mamlakatimizning o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish yo‘lida yana bir yangi qadam bo‘ldi.

Sobiq SSSRga kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsada, amalda qaram edi. Ular o‘z yerlari, suvlari, o‘rmonlari va yer osti boyliklariga, ko‘pdan–ko‘p korxonalariga o‘zları egalik qilolmas edilar. 80–yillarning oxirlari 90–yillarning boshlarida ko‘pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o‘zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar. o‘zbekiston Respublikasining rahbari I. A. Karimov 1989–yil 20–sentyabrda Moskvada bo‘lib o‘tgan KPSS MQ ning Plenumida so‘zlagan nutqida respublikalar bilan SSSR o‘rtasidagi vakolatlarni aniq–ravshan ajratib qo‘yishni ko‘zda tutadigan yangi federativ shartnomaga ishlab chiqish zarurligi to‘g’risida o‘z fikrini bildirib: «Biz ittifoq va respublikalarning

vazifalarini, burchlarini va o‘zaro majburiyatlarini aniq–ravshan belgilab qo‘yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz», – degan edi.

o‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov o‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining 1991–yil 12–martda bo‘lgan IV plenumida so‘zlagan nutqida: «Ittifoq shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo‘ldan boy berib qo‘yildi. Ikki yil muqaddam bu masalani ko‘targan kishilarning ovoziga hech kim qulq solmadi. Markaz 1922–yildagi shartnomaga mahkam yopishib olib, oqilonqa takliflarni qabul qilmadi, ishni paysalga soldi», – degan edi. Bu fikrning to‘g’riligini hayot to‘la isbotladi.

Butunittifoq referendumi SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o‘zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991–yil 17–mart kuni Butunittifoq referendumini o‘tkazishga qaror qildi. 1991–yil 20–fevralda o‘zbekiston Oliy Kengashning Rayosati referendum o‘tkazishni maqulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qo‘shimcha byulletenni ovozga qo‘yishga qaror qildi. Qo‘shimcha byulletenga «Siz o‘zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?» degan savol qo‘yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga «Ha» deb javob berdilar. Demak, o‘zbekistonliklar o‘z mamlakatini mustaqil davlat sifatida federativ ittifoqda bo‘lishini, o‘zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergen edilar.

1991–yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belorus, o‘zbekiston, Qozog’iston respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo‘ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo‘llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo‘ldi.

1991–yil avgust voqealari Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillik bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir «imkoniyat» vujudga kelgan edi. Ana shu kuchlar tomonidan 1991–yil avgustda Markaziy hokimiyatni avvalgi maqomida saqlab qolish maqsadida fitna tayyorlandi va SSSRda Favqulodda holat davlat qo‘mitasi (FHDQ) tuzildi. Uning boshliqlari G. I. Yanaev – SSSR vitse prezidenti, O. D. Baklanov – SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari, V. A. Kryuchkov – SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasining raisi, V. S. Pavlov – SSSR Bosh vaziri, B. K. Pugo – SSSR ichki ishlar vaziri, D. T. Yazov – SSSR mudofaa vaziri, V. A. Starodubsev – SSSR dehqonlar uyushmasi raisi, I. Tizyakov – SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining prezidenti kabi Markaziy hokimiyatning rahbarlari edi. Shu tariqa, fitnachilar M. S. Gorbachyovni noqonuniy yo‘l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o‘zlarini hokimiyatni egallab oldilar. Mazkur qo‘mita Sovet rahbariyatining Bayonoti, Sovet xalqiga murojaatnama, Davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e’lon qildi. Butunittifoq doirasida mo‘rtlashib qolgan ijtimoiy–siyosiy

vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar.

1991–yil 21–avgustda o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z farmoni bilan o‘zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va o‘zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so‘zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo‘ydi. Farmonda SSSR da Favqulodda holat davlat qo‘mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, o‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy yemas, deb belgilab qo‘yildi. Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991–yil 19–21–avgust kunlari Moskvada fojeali hodisalar ro‘y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. M. S. Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo‘lib, harakatsiz qolgan edi. Sovet ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. Shu tariqa, SSSR tanazzulga uchradi va parchalana boshladi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. XX asrning ikkinchi yarmida respublika ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida yuzaga kelgan tanglikning assosiy sabablari nimada edi?
2. Markazning respublikada o‘tkazgan qatag’onlik siyosatining yangi to‘lqini qaysi sohalarda amalga oshirildi?
3. Aholi turmush tarzining og’irlashuviga niamalar sabab bo‘lgan edi?
4. Farg’ona fojeasining kelib chiqishiga nima sabab bolgan edi?
5. 1989–yilning o‘rtalariga kelib respublika ijtimoiy–siyosiy hayotida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
6. GKCHP (Favqulodda holatlar davlat qomitasi) qanday vaziyatda tashkil etildi?

### ***4–MAVZU. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI***

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy ahvol. o‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi.
2. Siyosiy tizimdagи o‘zgarishlar. Mustaqillikning e’lon qilinishi. o‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi.
3. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y–harakatlar.
4. Mustaqil o‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida Islom Karimovning tarixiy xizmatlari.

**Tayanch tushunchalar:** o‘zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi to‘g’risida”gi qonuni, o‘zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi to‘g’risida”gi Bayonot, Prezident saylovlari, o‘zbekiston Konstitutsiyasi, Davlat ramzlari, o‘zlikni anglash.

**1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy ahvol. o‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi.** 80–yillarning boshlarida sovet siyosiy tizimi, xo‘jalik yuritish usuli o‘zining rivojlanish imkoniyatlarini batamom tugatdi. Ma’muriy–siyosiy biqiqlik kuchaydi, jamiyat a’zolari mehnat intizomi pasaydi, loqaydlik, befarqlik kuchaydi. 80–yillar o‘rtalarida sovet jamiyatida “qayta qurish” boshlandi. Qayta qurish haqida M. S. Gorbachev KPSS MK ning aprel (1985yil) plenumida taklif kiritdi. Unda mahsulot ishlab chiqarish uchun 2 marta ko‘p tabiiy resurslar, energiya, inson mehnati sarf etilishi, temir, po‘lat, stanoklar ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 1–o‘rinni egallashiga qaramasdan mamlakatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilmaganligi qayd etildi.

80–yillarning o‘rtalarida SSSRning ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi ro‘y bera boshladi. Qayta qurish konsepsiysi cheklangan bo‘lib, u SSSR taraqqiyotini ta’minlay olmas edi. Qayta qurish yillarida o‘zbekistonda ijtimoiy–siyosiy hayot yomonlashdi. Respublikada milliy urf–odatlar, an’analar, qadriyatlar toptaldi, buning oqibatida xalq orasida loqaydlik, ishonchsizlik va norozilik kuchaydi. Farg’ona fojeasi yuz berdi. Milliy o‘zlikni anglash boshlandi. o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, paxta yakkahokimligini tugatilishi, ekologik holatni sog’lomlashtirilishi o‘zbekistonda dolzarb masala sifatida ko‘tarildi.

Jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishga harakatlar bo‘ldi. Asosiy maqsad sovet jamiyatini to‘liq demokratlashtirish deb aytildi. SSSRda “Saylov tizimini o‘zgartirshi to‘g’risida”gi Qonun (1988–yil, dekabr) qabul qilindi. Markaz o‘z ta’sirini kuchaytirish maqsadida o‘zbekistonda “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi”, kabi uydirmalar o‘ylab topildi. 1984–1990–yillarda 30–50–yillarida sodir bo‘lgan qatag’onlardan kam bo‘limgan bedodliklar yuz berdi. Qayta qurish siyosati ham SSSR davlatini muqarrar inqirozdan qutqarib qola olmadı. Davlatda inqiroz boshlandi. Ittifoqdosh respublikalarda milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik sari dadil qadamlar qo‘yildi.

XX asrning 80–yillari oxirida o‘zbekistonning ijtimoiy–siyosiy hayotida o‘zgarish boshlandi. Odamlar xilma–xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora ayta olish imkoniga ega bo‘la boshladilar. o‘zbek xalqining dilidagi g’oya – mustaqillik g’oyasi edi, xalq mana shu g’oyani ko‘tarib chiqdi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to‘lqin boshlandi. Tarix taqozosi bilan elim, yurtim deb yonib yashayotgan Islom Karimovdek fidoyi insonning o‘zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga 1989–yilda saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berishiga olib keldi,adolat tiklandi.

I. Karimov xalq xohish–irodasini bajarib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish ishiga boshchilik qildi. 1989–yil 21–oktabrda Respublika Oliy Kengashi “o‘zbekistonning davlat tili haqida” Qonun qabul qildi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy

va madaniy hayotning barcha sohalarida o‘zbek tili to‘la amal qilishi qonunlashtirildi. Bu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami bo‘ldi.

90-yillarning boshlariga kelib o‘zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo‘lib qoldi. Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan, “Zo‘rovonlikka asoslangan, ma’muriy-buyruqbozlikka xos bo‘lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdagi respublikalar suvereniteti ta’minlanadimi, degan masala dolzarb bo‘lib qoldi. Ikkinci tomondan, o‘sha davrdagi markaziy davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to‘g’ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishish tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

1990-yil boshida o‘zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik shakli masalasi ko‘tarildi. Respublikada boshqaruvning shunday shaklining joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko‘maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhim, Prezident muassasasining joriy etilishi respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o‘tishni bildirar edi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘sha kezlari keng miqyosda tartib va intizom, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarda ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini vaqtida hal etish, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha muassasalarni nazorat qilish masalalari katta ahamiyat kasb etmoqda edi. Shu ob’yekтив holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martda o‘zbekiston Oliy Sovetining birinchi sessiyasi o‘zbekiston tarixida birinchi marta “Prezidentlik lavozimini ta’sis etish to‘g’risida” Qaror qabul qilindi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug’aniyevich Karimovni o‘zbekistonning Prezidenti etib saylash to‘g’risida qaror qabul qildi o‘zbekistonda Prezident lavozimining ta’sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo‘yilgan dadil qadamlaridan ikkinchisi edi.

o‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘yilgan navbatdagi muhim qadam 1990-yil 20-iyunda o‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qo‘yildi. Sessiyada o‘zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilindi va uning kirish qismida qo‘yidagicha yozib qo‘yildi:

“o‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an’analari, har bir millatning taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta’minlashdan iborat oliy maqsad haqqi, o‘zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, o‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qiladi”. Sessiya qabul qilgan bu “Mustaqillik Deklaratsiyasi” xalqimiz tomonidan katta mammuniyat bilan kutib olindi.

Shu kundan boshlab respublikada o‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. o‘zbekiston rahbariyati va xalqi mustaqillik sari dadil qadam qo‘yaverdi.

1991-yil 17-martda umumxalq referendumi o'tkazildi. Referendumda o'zbekiston xalqining mutloq ko'pchiligi o'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligini namoyon etdi. o'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul qilish ishlari ham dadil boshlab yuborildi. Xususan, 1991yil 15-fevralda o'zbekiston Oliy Kengashi "o'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

o'zbekistonning suvereniteti uchun kurash, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilinishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaatini ifoda etishi bilan ajralib tura boshladi. Jumladan, 1991-yil 22-iyulda o'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumining "o'zbekiston hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarni o'zbekistonning huquqiy tobelligiga o'tkazish" to'g'risidagi qarori o'zbekistonning milliy suvureniteti uchun tashlangan qadamlar dalilidir.

80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sobiq SSSR ning ijtimoiy-siyosiy holatida inqirozli holat tobora kuchaydi. Bu holat ayniqsa, ko'pchilik respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqish, o'z-o'zini mustaqil holda belgilash huquqini berish, Markazning siyosiy-iqtisodiy, harbiy va tashqi siyosiy sohalardagi rolini qayta ko'rib chiqish kabi talablarning haqli ravishda qo'yilishida aksini topdi. lekin markaziy rahbariyat xalqlar va ittifoqchi respublikalar siyosiy rahbariyatining chinakam mustaqillikka intilishi bilan hisoblashmadı. Bu munosabatni Markazning Boltiqbo'yi respublikalarining ittifoq tarkibidan chiqib ketishi, o'zbekistonda, keyinchalik esa boshqa respublikalarda ham prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va bu respublikalar tomonidan suverenitet to'g'risidagi Deklaratsiyalarning qabul qiliniishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatganligida ham ko'rish mumkin.

Lekin harakatga kelgan inqiroziy holatni endi to'xtatib bo'lmas edi. Shu sababdan ham, davlat yemirilishidan jiddiy xavotirga tushgan partiya-davlat rahbariyati 1990-yilning kuzida ittifoq markazi va respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni yangi holatga o'tkazish maqsadida muzokara jarayonini boshlashga majbur bo'ldi. Chunki SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va hukumati ham inqirozli holatdan chiqishning yo'lini topa olmay qolgan edi. o'sha yillar ittifoq bo'yicha prezidentlik lavozimini egallab turgan M. Gorbachev mamlakatni tanazzuldan olib chiqish yo'lida boshini qaysi eshiklarga urmadi. Goh jadallashtirish kontsepsiyasini o'ylab topdi, goh fan-texnika taraqqiyoti deb butun mamlakatni alg'ov-dalg'ov qildi. Undan natija chiqmagach, agrosanoat kompleksining qayta qurish rejalarini ishlab chiqdi. Shundan so'ng kadrlar siyosati masalasini ko'tardi. U o'zini qayyoqqa urmasin, harakatlari samarasiz bo'laverdi. Bora-bora eng muhimi – inson omili ekanligini tushundi. Biroq endi kech bo'lib qolgan, g'isht qolipdan ko'chgan edi.

1990-yil oxirlariga kelib Boltiqbo'yi mamlakatlari mustaqillik to'g'risidagi talabalarni SSSR Oliy Kengashi majlisi va xalq deputatlari quriltoyiga ko'ndalang qilib qo'yanlaridan so'ng Prezident M. Gorbachev bir guruh deputatlar va

rahbarlar bilan vaziyatni o‘rganish, aniqrog‘i, tazyiq qilish, ta’sirini o‘tkazish maqsadida Boltiqbo‘yiga bordi. Guruh tarkibida o‘zbekiston Prezidenti I. Karimov ham bor edi. U yerda I. Karimov haqiqat bilan yuzma–yuz keldi va shunda juda katta qat’iyat va favqulodda jur’at bilan munosabatini bildirdi. Komissiya ishini yakunlamasdanoq M. Gorbachevni ham, uning manfaatlarini qo‘llab–quvvatlovchi guruhni ham tashlab, tezda orqaga qaytdi. Bu bilan u Boltiqbo‘yi xalqlarinining talablari qonuniy ekanligi, mustaqillik, SSSR tarkibidan chiqish – tarixiy haqiqat, inson haq–huquqlarining tantanasi ekanligini oshkora namoyon qildi. Haqiqatdan ham, ittifoq tarkibida turib hech qanday milliy ravnaq, ma’naviy taraqqiyot to‘g’risida gap bo‘lishi ham mumkin emas edi.

1991–yil avgust oyiga kelib butun mamlakatda voqealar shu darajada chigallashib ketdiki, uning yechimini topish o‘ta mushkul bo‘lib qoldi. Shu vaziyatdan foydalananib 19–21–avgust kunlari Moskvada davlat to‘ntarishi qilishga urinib ko‘rildi. Favqulodda holat davlat qo‘mitasi tuzilib, SSSR Prezidenti M. Gorbachev zo‘ravonlik bilan vazifasidan chetlashtirildi.

Ana shunday og’ir, sarosimali tahdid va taxminlar paytida o‘zbekiston rahbariyati korxona va xo‘jaliklarning rahbarlari, xalq noiblari, barcha sofdil kishilar, xalqni matonat va osoyishtalikka da’vat qildilar. Ayniqa, Prezident Islom Karimovning bo‘layotgan voqealarga munosabati barchani qanoatlantirdi, uning xalqqa suyanganligi u bilan dardlashganligi, xalq bilan hukumat o‘rtasida sog’lom munosabatning vujudga kelishiga olib keldi.

Hindiston safaridan qaytgan o‘zbekiston Prezidenti I. Karimov 19 avgust kuni kechqurun Toshket shahrining faollari bilan bo‘lgan uchrashuvda qat’iyatlik bilan o‘zbekiston nuqtai nazarini ma’lum qildi va Markazdan bildirilgan qonunga xilof bo‘lgan har qanday ko‘rsatmalarni respublika rahbariyati tomonidan bajarilishini man etdi. 20–avgustda o‘zbekiston SSSR Oliy Kengashi Rayosati va o‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining respublika rahbarlari ishtirokida qo‘shma majlisи bo‘lib o‘tdi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, o‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘li o‘zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Unda o‘zbekiston Mustaqillik Deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish yo‘lidan boraveradi, deb ko‘rsatildi. o‘sha kuni o‘zbekiston Prezidenti I. Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqib, o‘zbekistonning mustaqilligiga erishish yo‘li qat’iy ekanligini yana bir bor alohida uqtirdi.

Shunday og’ir sharoitda, tarixiy vaziyatni to‘g’ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda o‘zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Respublika Oliy Kengashi 1991–yil 26–avgust kuni o‘zbekiston davlat mustaqilligi to‘g’risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31–avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

**2. Siyosiy tizimdagи o‘zgarishlar. Mustaqillikning e’lon qilinishi. o‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi.** 1991–yilning 31–avgustida o‘zbekiston zamонави тарixinинг янги даври бoshlandi. Shu kuni Oliy Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi “o‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqillagini e’lon qilish to‘g’risida” Qaror qabul qildi, tegishli Bayonot

bilan chiqdi va “o‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g’risida”gi Qonunni tasdiqladi. Mamlakat taqdiri hal bo‘lgan bu hujjatlarda xalqning asriy orzulari o‘z aksini topdi:

- respublika o‘z taqdirini o‘zi hal qiladigan bo‘ldi;
- o‘z yeridagi barcha tabiiy boyliklarning, ota–bobolari mehnati bilan yaratilgan butun ishlab chiqarish va ilmiy–texnik kuch–qudratning to‘la huquqli egasiga aylandi;
- buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, buyuk ajdodlarning urf–odatlari va insonparvar an’analarining davomchisi, porloq kelajagining mustaqil ijodkori bo‘ldi;
- “o‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqillagini e’lon qilish to‘g’risida”gi qarorda “1–sentabr – o‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991–yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e’lon qilinsin”, – deb qat’iy belgilab qo‘yildi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro‘yobga chiqdi, uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mute’likdan, asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – o‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. o‘zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. o‘zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zlari uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

o‘zbekiston mustaqilligi mamlakat xalqi tomonidan zo‘r quvонch va mammuniyat bilan kutib olindi. Bu holatni 1991–yil 29–dekabrdan o‘tkazilgan o‘zbekiston Respublikasining referendumi yakunlaridan ham yaqqol ko‘rish mumkin. Umumxalq referendumida 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. o‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e’lon qilinishini yoqlab 9 million 718 ming 155 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi. Demak, o‘zbekistonning Dalat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma’qullandi. 1991–yilning 29–dekabrida xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so‘ng mustaqillik ramzi sifatida birinchi marta umumxalq xohish–irodasi bilan mustaqil o‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.

o‘zbekiston Prezidenti saylovi o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida qabul qilingan ”o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g’risida”gi qonun asosida o‘tkazildi. Bu sayloving muhim tomoni shuki, u birinchi marta muqobililik asosida o‘tdi, ya’ni Oliy lavozimiga ikki nomzod – o‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, o‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi I. A. Karimov va “Erk” Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov ( Muhammad Solih ) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi I. Karimov nomzodini, 1 million 220 ming saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g’risidagi qonunning 35–moddasiga asoslanib Islom Abdug’aniyevich Karimovni 1991–yil 29–dekabrdan o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb

hisoblashga qaror qildi. Prezidentlik vazifasini bajarishga kirishar ekan, I. Karimov o‘zbekiston Oliy Kengashining 1992–yil 4–yanvarda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari IX sessiyasida qasamyod qabul qildi. 1995–yil 26–martda umumxalq ovozi (referendumi) bilan Islom Karimovning Prezidentlik vakolati 1997–yildan 2000–yilgacha o‘zaytirildi.

o‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tarixan qisqa vaqt ichida jamiyatda tubdan o‘zgarishlar, huquqiy demokratik davlatni vujudga keltirish, turmushda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilganligi va ana shu keng miqyosli islohotlarni uzlucksiz davom ettirish maqsadida Prezident Islom Karimov vakolatini uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qilgan edi. o‘tkazilgan referendum mamlakat hayotida katta siyosiy–ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

2000–yil 9–yanvarda mamlakatimiz ijtimoiy–siyosiy hayotida yana bir unitimas tarixiy voqeа bo‘lib o‘tdi. 11–yanvarda o‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000–yil 9–yanvar kuni bo‘lib o‘tgan o‘zbekiston Prezidenti saylovi natijalariga bag’ishlandi.

Majlisda qayd etilganidek 2000–yil 9–yanvar mustaqil o‘zbekistonimiz tarixida, davlatimizning XXI asrdagi hayotiga va taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim siyosiy voqeа sifatida muhrlanib qoladi. o‘zbekiston fuqarolarining aksariyati hozirgi davlat boshlig’ining rahbarligi ostida va tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoy–iqtisodiy o‘zgarishlar qo‘llab–quvvatlangan holda Islom Karimov nomzodi uchun ovoz berdi. Bo‘lib o‘tgan saylovning ahamiyati uning muqobililik va demokratik tamoyillar asosida o‘tganligidadir. Saylovchilarga tanlash imkoniyati berildi va ular xohish–irodasiga binoan, o‘zi tanlagan nomzod uchun ovoz berdi. Shak–shubhasiz bu hol jamiyatimizda siyosiy fikrlar xilma–xilligi va qarashlarining turlicha bo‘lishi uchun katta turtki berdi, davlatning ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy hayotini yanada erkinlashtirlishiga zamin hozirladi.

o‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalar asosida 9–yanvarda bo‘lib o‘tgan saylovda ro‘yxatga olingan 12 million 746 ming 903 saylovchidan, 12 million 123 ming 199 saylovchi ishtirok etganligini, bu esa ro‘yxatga olingan saylovchilar umumiyoq miqdorining 95,1 foizini tashkil etishini ma’lum qildi. Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan I. Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,9 foizi ovoz berdi. o‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi yoki 4,17 foiz saylochi ovoz berdi.

o‘zbekiston Respublikasining “o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini to‘g’risida”gi Qonunining 35–moddasiga muvofiq, o‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug’aniyevich Karimovni o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to‘g’risida qaror qabul qildi.

**3. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y–harakatlar.** o‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishidan ancha oldin respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlarini tayyorlash va qabul qilish ishlari boshlab yuborilgan edi. Xususan,

1991-yil 15-fevralda o‘zbekiston Oliy Kengashi “o‘zbekistonning davlat ramzları to‘g’risida” maxsus qaror qabul qildi

o‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach jahon xalqaro talablar va me’yorlar doirasida qiyofasini ko‘rsatmog’i, buning uchun esa davlatimiz o‘zining butun imkoniyatlarini, o‘ziga xos jihatlarini ifodalovchi davlat ramzlariga ega bo‘lmog’i lozim edi.

o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasi ”o‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog’i to‘g’risida” qonun qabul qildi. o‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog’i va uning ramzi bizning mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g’oyat qudratli sultanatlar bayrog’iga xos bo‘lgan eng yaxshi an’analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimiz milliy va madaniy sohalardagi o‘zligini aks ettiradi. Mamlakatimiz Davlat bayrog’i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzidir.

1992-yil 2-iyulda o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida “o‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g’risida” Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma’noga ega.

o‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining 1992-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasi tomonidan o‘zbekiston birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqeа bo‘ldi.

Shu sessiyada “o‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g’risida”gi Qonun ham qabul qilindi. Shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

o‘zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyunidagi Farmoniga muvofiq 1994-yilning 1-iyulidan boshlab o‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritildi.

o‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzları to‘g’risida Prezident Islom Karimov: “Milliy valyuta, bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiya kabi davlat va xalqning ramzi, mustaqillikning muqaddas belgisidir!” – deb qayd etgan edi.

Har qanday mustaqil davlatlarning huquqiy asosi – bu uning asosiy Qonuni – Konstitutsiyasidir. Har qanday jamiyat kelajakni ko‘zlab yashaydi va uning poydevorini imkon qadar mustahkamroq qurishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, davlatimiz, jamiyatimiz erishgan buyuk yutuq – o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo‘ldi.

Konstitutsiya har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori ham hisoblanadi. Chunki Konstitutsiya davlatni–davlat, millatni–millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir. Shu ma’noda asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongini va madaniyatini aks ettiradi. Vaholanki, uning ishlab chiqilishi va muhokama etilishida butun xalq ishtirok etdi.

Asosiy Qonunimizni baholashda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, BMT, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti kabi nufuzli davlat va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari, siyosatchilari va olimlari faol qatnashdilar. Natijada o‘zbekiston Konstitutsiyasi eng taraqqiy etgan mamlaktlar – AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi G’arb davlatlari, Misr, Turkiya, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarining boy tajribasidan eng demokratik jihatlarini, insonparvarlik

g'oyalarini tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarning talablarini o'zida mujassamlashtirdi.

Shu bilan birga Konstitutsiyada o'zbek xalqining tarixiy, milliy va islomiy qadriyatlari mumkin qadar to'laroq aks ettirishga harakat qilingan. Buyuk alloma Abu Nasr al-Farobiy davlatni boshqaruvchi kishilarning xalq o'rtasida obro'e'tiborga ega bo'lishi, xalq tomonidan saylab qo'yilishini talab qilgan bo'lsa, ulug' bobomiz Sohibqiron Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida davlatni boshqarishda oliy tabaqaga oid sayidlardan tortib, hunar ahligacha bo'lgan ja'mi 12 tabaqa kishilarga suyanib ish ko'rishni alohida ta'kidlab o'tganlar. "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi", – degan so'zleri zarhal harflar bilan bitilgandir.

o'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990–yil 20–iyunida Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi munosabati bilan o'rtaga qo'yilgan edi. Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Mustaqillik Deklaratsiyasining muhim tamoyillari asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelindi. Sessiya birinchi Prezident I. Karimov raisligida "Konstitutsiyaviy Komissiya tuzish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Konstitutsiyaviy komissiya ma'qullagan Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991–yil noyabrida tayyorlab bo'lindi. Ushbu variant muqaddima, 6 bo'lim, 158 moddadan iborat edi. Konstitutsiya loyihasining ikkinchi varianti 1992–yil bahoriga kelib ishlab chiqildi. Bu variant 149 moddadan iborat edi. Puxta ishlovlardan so'ng o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi 1992–yil 26–sentabrda Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

12–chaqiriq o'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi 1998–yil 8–dekabrida "o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida"gi masalani ko'rdi va shu masala yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya raisi, Prezident ma'ruza qildi, ma'ruzasida birinchi Prezident I. Karimov shunday degan edi: "Hur o'zbekistonning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish–jumhuriyatimizning yangidan tug'ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir... Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni–davlat qiladigan, millatni–millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrardir". Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan Konstitutsiyani qabul qildilar. Qabul qilingan o'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat.

Konstitutsianing eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda "davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar" deyilgan, ya'ni fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Sobiq totalitar tuzum sharoitida bunday fikrni hech kim xayoliga ham keltira olmas edi.

Bir so'z bilan aytganda, o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi asosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan buyuk voqeа bo'ldi.

**4. Mustaqil o'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida Islom Karimovning tarixiy xizmatlari.** Markaz jilovni qo'ldan bermaslik uchun butun imkoniyatlarni ishga solayotgan bir sharoitda,

1989-yil 23-iyunda bo‘lib o‘tgan o‘zbekiston Kompartiyasi XIV plenumida, Qashqadaryo oblasti partiya komiteti birinchi sekretari Islom Abdug’aniyevich Karimov o‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari etib saylandi.

Respublika partiya tashkiloti rahbari, ya’ni o‘zbekistonning birinchi siyosiy rahbari Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya’ni 24-iyun kuni o‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetida Farg’ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojantirishni jadallashtirish masalalariga bag’ishlangan kengash o‘tkazdi. Va unda nutq so‘zлади. I. A. Karimov Toshkent va Moskvada bo‘lib o‘tgan anjumanlarda, shuningdek, respublika va markaziy matbuotdagi chiqishlarida Farg’ona fojeasi masalasida qat’iy pozitsiyada turib, o‘z fikrlarini davom ettiradi. Masalan, u o‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 19-avgustda bo‘lgan XVI plenumida so‘zlagan nutqida quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlaydi:

“Farg’ona voqealari to‘g’risida gapirar ekanman, shu narsani yana bir bor ta’kidlashni istardimki, ayrim ommaviy axborot vositalari va ba’zi mansabdar mas’ul rahbarlarning ana shu voqealarga bergen baholari ular fojeaning chuqr sabablarini bilmasliklaridan dalolat beradi....”.

1990-yil 24-mart kuni o‘zbekistonning eng yangi tarixidagi muhim sanalardan biri hisoblanadi. Aynan o‘scha 24 martda o‘zbekiston SSRning “o‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish hamda o‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g’risida” Qonun qabul qilindi. Xullas, o‘zbekistonda joriy qilingan prezidentlik boshqaruvi o‘zbek xalqining mustaqillikka erishishi yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

1990-yil iyun sanasi ham mustaqillikka erishish yo‘lida muhim o‘rin tutadi. Aynan 20-iyunda bo‘lgan o‘zbekiston SSR Oliy Soveti o‘n ikkinchi chaqiriq 2-sessiyasida “Mustaqillik Dekloratsiyasi” qabul qilindi.

1991-yil 17-19-avgust kunlari o‘zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimovning Hindiston Respublikasiga respublika rahbari sifatida ilk mustaqil rasmiy tashrifi bo‘ldi. Tashrif doirasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamda madaniy, san’at, ta’lim, fan, turizm, sport va ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlik qilish to‘g’risidagi bitimlar imzolandi. Natijada, mamlakatimiz tashqi siyosatining tamal toshi qo‘yildi.

1991-yil 18-avgustda Moskvada yuz bergen siyosiy to‘ntarish alangasi so‘nmagan bir sharoitda 1991-yil 31-avgustda XII chaqiriq o‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e’lon qilinar ekan, sessiyada qabul qilingan hujjatda shunday deyiladi: “o‘zbekiston saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni e’tiborga olib, halqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan – o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga asoslanib, o‘zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas’uliyatni anglab, shaxsning huquq va erkinliklari mustaqil davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to‘g’risidagi Xelsinki shartnomalariga qat’iy sadoqatini bayon etib, millati, diniy e’tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat’iy nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishi,

sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib, "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ni amalga oshira borib o'zbekiston SSR Oliy Kengashi o'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – o'zbekiston Respublikasi tashkil etilishini tantanali ravishda e'lon qiladi".

Tarixan qisqa davr bo'sada Mustaqil o'zbekistonimizda asrlarga tatugulik tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan:

1. Istiqlol yillarida o'zbekiston mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi.

2. Eng og'ir mashaqqatli, o'tish davrining o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lган bir vaqtida mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni saqlab turilishi mamlakat hukumati siyosatining naqadar hayotiy va xalqchil ekanligini ko'rsatdi.

3. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lган qonun ustivorligiga erishish, qonun oldida barchanening tengligini ta'minlash tamoyillari vujudga keldi.

4. Xorijiy investisiyalarni jalb etish, chet ellik ishbilarmonlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shu asosda mamlakat ishlab chiqarishini tubdan o'zgartirish, uni jahonning eng ilg'or texnologiyalari bilan qayta jihozlantirish yo'li tutildi.

5. o'zbekiston hukumatining izchil islochchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlari, an'analari bilan uyg'un holda amalga oshirila boshlandi.

o'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi, yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, o'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillari, ma'naviy, ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda o'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rinnegallashida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tarixiy xizmatlari beqiyos ekanligi barchamizga a'yon.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Mustaqillik arafasida respublikada o'zlikni anglash borasida qanday ijtimoiy-siyosiy ishlar amalga oshirildi?

2. Mustaqillik tarixiy ehtiyoj ekanligini asoslang?

3. o'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagagi navbatdan tashqari VI sessiyasida qabul qilingan "Ozbekiston respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Bayonotning mazmun va mohiyati haqida gapirib bering.

4. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

5. o‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishida Islom Karimovning xizmatlari va o‘rni haqida gapirib bering.

## **5–MAVZU–o‘ZBEKISTONNING o‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT Yo‘LI**

Reja:

1. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. o‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi.
2. Taraqqiyotning “o‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. o‘zbekistonning ijtimoiy–siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.
3. o‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari. Mustaqillik me’yoriy–huquqiy asoslarining yaratilishi.
4. Yangi Konstitusiyaning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

**Tayanch tushunchalar:** Mustaqillik, taraqqiyot, strategiya, me’yoriy–huquqiy asoslarning yaratilishi, demokratiya, Konstitutsiya, islohot, xususiyashtirish, «o‘zbek modeli», ko‘p ukladli iqtisod, ijtimoiy taraqqiyot, «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli», sivilizatsion yondashuv, fuqarolik, klassik o‘tish yo‘li, demokratik qadriyatlar.

1. o‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, kelajakka qanday yo‘ldan borishi masalasi kun tartibiga qo‘yilgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘ldi. Buning bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sabablari mavjud. Uning ob’ektiv sabablaridan biri jahonda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishning barcha davlatlarga mos keladigan biron–bir tayyor andozaning yo‘qligi va bo‘lishi ham mumkin emasligi edi. Ikkinci ob’ektiv sabab–ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va qoidalar endilikda respublikada barpo etilayotgan yangi ijtimoiy yo‘naltirilgan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat manfaatlariga mos kelmasligi edi. Mulkchilik va uni boshqarish, ishlab chiqarishdagi inson omilini ortishini hisobga olgan holda davlatni boshqarishning butunlay yangi shaklini vujudga keltirish zarur edi.

Mustaqillikning demokratik asoslarini chuqurlashtirish va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun o‘zbekiston aynan shu yo‘lni tutdi. Natijada demokratiya mamlakatimiz miqyosida nazariyadan amaliyotga yoki mavhumlikdan «o‘zbekiston modeli»ga aylandi.

Sobiq Ittifoq doirasida aynan o‘sha kezlarda suveren o‘zbekistonning tashkil etilganligi milliy davlat qurilishidagi boy tajriba va an’analarga tayangan holda xalqning o‘z taqdiri va kelajagini belgilashdan iborat burchi, huquqi va shuningdek o‘sha davrdagi mamlakat rahbarining o‘z xalqi kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etganligining isboti edi.

Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi o‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning

diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz, hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to‘rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol al mashgan.

2. o‘zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o‘zimizning ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. o‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo‘nalishlari I. Karimov tomonidan ishlab chiqilib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o‘zining hayotiyligini namoyish etdi. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog’i kerak;
- davlat bosh islohotchi o‘rnida bo‘lib, u islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;
- bozor munosabatlariga o‘tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;
- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o‘tkazish;
- ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo‘nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o‘tish evolyutsion yo‘l bilan, bosqichma–bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish tamoyillari asosida g’oyat mas’uliyatli va murakkab vazifa – iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang‘ich nuqtasi ijtimoiy–iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko‘ra ustuvor vazifalar bosqichma–bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o‘tish davridagi bir–biriga bog’liq ikki vazifani bir vaqtida hal qilishga to‘g’ri keldi: ma’muriy buyruqbozlik tizimining og’ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g’oyat muhim yo‘nalishlari belgilab berildi:

- o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy–huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun–qidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o‘zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo‘yicha maxsus idoralararo kengash tuzildi. Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma’muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiy lashtirish va ko‘p ukladli iqtisodni shakllantirish o‘zbekistonda o‘ziga xos yo‘l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan maqsad:

1. Davlat monopoliyasini tugatib, ma’muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish;
2. Xususiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirish;
3. Xorijiy sarmoyadorlarga keng yo‘l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining turmush tarzini yuksaltirishdan iborat.

1992–1993 yillar xususiy lashtirishning birinchi bosqichida “kichik xususiy lashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o‘zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy–joylar keng miqyosda xususiy lashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo‘jaligida 770 kolxozi va davlat xo‘jaliklari xususiy lashtirildi, jamoa va ijara xo‘jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin kechdi va qiyinchiliklarni bartaraf etishga to‘g’ri keldi. Agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to‘sirlari qishloqda islohotning borishiga xalaqit berardi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiy lashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o‘zgarishi bo‘ldi.

Mustaqillik yillari yuz bergen tub o‘zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo‘l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag’larini omonat kassalari yoki banklariga qo‘yish, qimmatbaho qog’ozlarga aylantirish yo‘li bilan. Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lgan mulkdor o‘z boyligini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo‘ldi.

Davlat mulkini xususiy lashtirishning ikkinchi bosqichi o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994–yil 21–yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora–tadbirlari to‘g’risida”gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar

aksiyasini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiy lashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya, qidiruv yoqilg'i—energetika komplekslari xususiy lashtirilmadi. Ayrim sohalarda – kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog’–kon sanoatida 51 foiz aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo‘ldi.

Ma'lumki, dunyo davlatchiligi tarixiy rivojlanishida boshqaruvning asosan ikki shakli – monarxiya va respublika usullari mavjud. Respublika boshqaruvi o‘z navbatida parlamentar va prezidentlik respublikalari ko‘rinishlariga ega. Prezidentlik Respublikasi hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir.

Mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqqan o‘zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy–huquqiy, ijtimoiy–iqtisodiy asoslarini yaratish edi. Mazkur masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli» kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Mazkur tushunchalar zamirida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy–iqtisodiy islohotlarning qaysi yo‘ldan, qay yo‘sinda amalga oshirilishi bilan bir–biridan farqlanadi.

1991–yil 31–avgustda o‘zbekistonda davlat mustaqilligining e’lon qilinishi respublikaning yangi Konstitutsiyasi yaratilishini taqozo etdi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi milliy davlatchilikning konstitutsiyaviy poydevori bo‘lib qoldi.

Bu Konstitutsiya avvalo, o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi va an’analariiga tayanib, milliy davlatchilikning yangi asosda ijodiy rivojlanishini ta’minlab beruvchi siyosiy–huquqiy hujjatdir.

Mustaqil o‘zbekiston Konstitutsiyasi demokratiya va inson huquqlarining jahonda e’tirof etilgan qoidalariga to‘la mos bo‘lib, mamlakatimizda keng ko‘lamli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazish uchun huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlangan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatimiz taraqqiyotining strategik maqsadi – demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslanganadolatli jamiyat qurishga qaratilgan edi.

Mazkur islohotlar mamlakatimizda o‘zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan yaratilgan beshta tamoyilga asoslanib amalga oshirila boshlandi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot siyosat ustidan hukmron bo‘lishi, u har qanday mafkuradan ozod bo‘lishi lozim. Iqtisodiyot o‘z qonuniyatlariga asoslanib rivojlanishi kerak;

iqtisodiyotni boshqarishda, ayniqsa yangi bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotganda, davlat bosh islohotchi bo‘lib, uning boshqaruv tizimini qo‘ldan chiqarmasligi kerak;

konstitutsiya va qonunning ustunligi. Unga barcha barobar, hayotimizning turli sohasida rioya etishi kerak;

kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bu bozor iqtisodiyoti yo‘lidagi eng muhim vazifadir;

bozor iqtisodiyotiga o‘tishda shoshmashosharliksiz, bosqichma–bosqich amalga oshirilmog‘i lozim.

Mazkur tamoyillar «o‘zbek modeli» sifatida jahonda e’tirof etilgan o‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lining g’oyaviy–nazariy negizi bo‘lib xizmat qildi. o‘zbekistonning o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘li bo‘lgan «o‘zbek modeli» mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning xususiyatlardan kelib chiqib, ijodiy rivojlantirildi. I.A.Karimov o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida «Biz avvalgidek, davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda «o‘zbek modeli»ning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqichma–bosqichlik tamoyiliga bundan keyin ham amal qilamiz», deb ta’kidlagan edi.

Umuman, «o‘zbek modeli» o‘zbekistonning o‘ziga xos bo‘lgan taraqqiyot yo‘li bo‘lib, bu yo‘l mamlakatimizning tarixiy–milliy xususiyatlarini, geografik va demografik shart–sharoitlarni hisobga olgan, respublikaning bosh, strategik maqsadi sari yo‘naltirilgan, islohotlarning har bir bosqichida ijodiy rivojlanib boruvchi dasturulamal bo‘ldi.

o‘tish davri barcha mustaqillikka erishgan davlatlarning yuksak taraqqiyotiga erishish jarayonidagi o‘ziga xos oraliq muhlat hisoblanadi. U har qanday davlat uchun umumiyligini qonuniyatdir. Chunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq, birdaniga yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi, balki har bir davlat, eng avvalo, shakllanadi va ma’lum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘z boshidan o‘tkazadi. Ma’lumki, har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajaga ko‘tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o‘rganilgan va bugungi kunda o‘rganish davom etmoqda.

o‘tish davri haqidagi turli qarashlar tizimi nazariya hisoblanadi. Ular asosida umumlashgan nazariyalar shakllanadi. Qarashlar turli–tuman, hatto ular bir–biriga qarama–qarshi bo‘lishi ham mumkin. Eng muhimi, ularni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi. Xulosalarning ilmiyligi esa ularning moddiy kuchga aylanishida o‘z ifodasini topadi. Ya’ni, o‘tish davri haqidagi nazariy qarashlar real hayotda o‘z ifodasini topsa, amaliyotda o‘z samarasini bersagina, ilmiy xulosa darajasiga ko‘tariladi. Ana shu ma’noda ham, o‘tish davri nazariyasi deganda, mamlakatlarning ma’lum bir ijtimoiy taraqqiyotidan ikkinchisiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan oraliq bosqichlar natijasi haqida shakllangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Berilayotgan bu ta’rif o‘tish davrining mohiyatini o‘rganish asosida shakllangan qarashlar natijasi o‘laroq yuzaga keldi. o‘tish davri haqida turli–tuman fikrlar bo‘lishiga qaramasdan uni bir tizimga keltirish, umumlashtirish asosida shakllangan ta’riflar bugungi kungacha deyarli uchramayotganligi sababli, «o‘tish davri nazariyasi»ga yuqorida berilayotgan ta’rifni boshqalari bilan taqqoslash imkoniyati ham cheklanganligini nazarda tutish lozim.

Ana shuni hisobga olgan holda, o‘tish davrining o‘zi haqidagi fikrlar mohiyatini aniqlash va uning xulosalariga asoslanib, tegishli nazariyalar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

o‘tish davriga munosabat bildirgan germaniyalik olim Leonid Levitin shunday yozadi: «Odatda, «o‘tish davri» so‘zlarini aynan tushunib, uni o‘tish va keljak oralig’idagi bugun deb o‘ylaydilar. o‘tish davrining paydo bo‘lishida, bunday qarashlarga ko‘ra, o‘tmish-sabab, keljak esa – maqsad tarzida voqe’ bo‘ladi».

Shu muallifning yana bir muhim xulosasi mavjudki, u ham e’tiborga loyiq. Jumladan, u shunday yozadi: «Tabiiyki, o‘tish davrlari turli xildagi tartibsiz jarayonlar, mavhumotliklar bilan to‘la. Kimdir bunday davrlarni «daryo bo‘ylab uzala tushgan ko‘prik» deb, o‘xshatib ta’riflagan edi».

S.Abduxoliquvning fikricha, «ijtimoiy taraqqiyot bir tamaddundan ikkinchi tamaddunga o‘tish, birinchi namunadagi madaniy borliqdan ikkinchi namunadagi madaniy borliqqa o‘sib o‘tish tarzida yuz beradi».

Totalitar tizimdan demokratik jamiyatga o‘tish qaysi sohada yuz berishiga qarab, uning ma’no-mazmunini aniqlash mumkin bo‘ladi. Demokratik taraqqiyot bosqichiga o‘tish, uning muqarrarligini hisobga oladigan bo‘lsak, uning zarurligini inkor etib bo‘lmaydi. Chunki jamiyat ham inson kabi yuzaga kelganidanoq yuksak kamolot darajasiga ko‘tarila olmaydi, balki ma’lum bosqichlarni bosib o‘tishi zarur bo‘ladi. Hamma masala mana shu bosqichlarning o‘ziga xosligini, ularda mavjud bo‘ladigan muammolar ko‘lамини aniqlash va hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog’liq. Ammo bu – jo‘n, oson ish emas. Chunki jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish jarayoni keng ko‘lamdagи vazifalarni qamrab oladi. Ularni amalga oshirishda nafaqat ob’ektiv, ayni paytda, sub’ektiv omillarini ham hisobga olish zarur. Ularning o‘tish davridagi o‘zaro aloqadorligi va munosabati alohida e’tiborga molik. Shuning uchun ham, o‘tish davri haqida fikr yuritganda faqat jamiyatning demokratik tizimga o‘tish xususiyati bilan cheklanmasdan, balki ungacha jamiyatlar bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan oraliq ham nazarda tutilmoxda.

Masalaga bunday yondashuv jamiyat taraqqiyotiga nisbatan sivilizatsion yondashuvni talab etadi. Ya’ni, jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishi inson turmushida, uning tafakkurida, jamiyatning moddiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar darajasini aniqlash mezonlarini belgilash zarur.

Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘tish davri tajribalariga asoslanib, bu davrning 3 ta asosiy yo‘li yoki modeli shakllanganligini ta’kidlash mumkin.

Uning birinchisi klassik an’naviy yo‘l hisoblanadi. Klassik yo‘l deganda, insoniyatning demokratik taraqqiyot yo‘liga o‘tishning dastlabki shakli va uning dunyodagi ko‘pchilik mamlakatlar taraqqiyotida samara bergen andozasi tushuniladi.

Klassik o‘tish davrining boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi, uning iqtisodiyotida islohotlar o‘tkazmasdan taraqqiy qilishiga imkoniyat yetmay qolishi oqibatida yuzaga keladi.

Inqilobiy yo‘l uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar qatorida:

- a) sobiq tuzum sharoitida xususiy mulk kurtaklarining saqlanib qolganligi;
- b) demokratik qadriyatlarning kurtaklari mavjudligi;

v) mamlakat hayotini demokratik tamoyillar asosida qayta qurishga qodir bo‘lgan intellektual salohiyatining yetarli bo‘lishi;

g) aholining ma’lum bir qismi ana shu demokratik jarayonga hech bo‘lma ganda moyil bo‘lishi kabi jihatlar hal qiluvchi omildir. Ularning har biri inqilobiy yo‘l uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, intellektuallarning rolini olib ko‘raylik. Ular mamlakat hayotida bo‘ladigan har bir o‘zgarishni yuzaga keltiruvchi asosiy qudrat hisoblanadi. Xalq hokimiyatidan ko‘ra, ularga ko‘proq ishonadi va ergashadi. Shu ma’noda ham, ular ommani uyushtiradi va demokratik jarayonlarga yo‘naltiradi. Shuning bilan birga intellektuallarning o‘zi ham demokratik jarayonlarning murakkab muammolarini hal qilishda bardosh bera oladigan, uyushgan kuch darajasiga ko‘tarilgan bo‘lishi lozim.

Evolyutsion yo‘lning klassik (an'anaviy) yo‘ldan farqli tomonlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, klassik yo‘ldan rivojlanib borish istagi demokratik qadriyatlar mavjud jamiyatda yuzaga keladi. Bunda faoliyat ko‘rsatayotgan tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalarining oddiy xalqning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilib boriladi. Uning o‘ziga xos xususiyati, har ikki tomonning ham manfaatdorligidadir. Bunday sharoitda demokratik qadriyatlar ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni ma’rifatlashtirish tufayli xalq farovonligini ta’minalash omiliga aylanib qoladi. Hozirgi davrda ko‘pchilik mamlakatlar evolyutsion yo‘l totalitarizm yoki diktaturalar hukmronligini barbod etishning birdan-bir to‘g’ri yo‘li ekanligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, o‘rtacha rivojlangan mamlakatlarning demokratiyaga o‘tishi uchun xos bo‘lgan bu yo‘l mamlakatlar hayotida keskin o‘zgarishlarni amalga oshirishning imkoniyatlari bo‘lmasligi bilan ham bog’liqdir.

Ikkinchidan, klassik o‘tish yo‘lida aholining dunyoqarashi o‘zgarib borishini taqozo qilgan bo‘lsa, totalitarizm – ommanning ongini to‘laligicha o‘z manfaatlariga boysundirgan jamiyat bo‘lganligi uchun ham uni birdaniga demokratiyaga moslashtirish nihoyatda murakkab kechadi. Chunki ongini o‘zgartirish qisqa vaqtda amalga oshadigan jarayon emas, u jamiyat hayotida bo‘ladigan o‘zgarishlarga mos ravishda sodir bo‘ladi.

Uchinchidan, klassik o‘tish uchun xos bo‘lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o‘tishda eski tuzum xavf tug’dirmaydi, balki u o‘rnini taraqqiyot qilayotgan yangi demokratik munosabatlarga bo‘shatib bera boshlaydi.

o‘tish davrining umumiyligi qonuniyatlari o‘zbekiston uchun ham umumiyligka egadir. o‘tish davrining boshlanishi amaldagi siyosiy hokimiyatning tugatilishi, uning zaminida iqtisodiy sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlash va oldingi tizimning mavjud ma’naviy-mafkuraviy zo‘ravonligidan qutilish bilan xarakterlanadi. Ular qaysi darajada bo‘lishidan qat’iy nazar, demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo‘lini tanlagan barcha mamlakatlar uchun umumiyligi zaruriyat hisoblanadi. Ammo hamma masala o‘tish davri mobaynida amalga oshiriladigan vazifalar strategiyasini belgilash, ularni hal

qilishning mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni reallikka aylantirish kabilarda har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘ladi. Bir mamlakatning yoxud bir necha mamlakatlarning o‘tish davrida qo‘llanilgan tajribalarni aynan ikkinchi mamlakat qo‘llay olmaydi. Chunki demokratik jamiyatga o‘tishda nafaqat mamlakatlarning taraqqiyot darajalari belgilovchi ahamiyatga ega bo‘ladi, xuddi shuningdek, har bir mamlakatda yashayotgan xalqning mentalitetini hisobga olish ham muhim ahamiyatga molikdir. Uni hisobga olmaslik esa pirovard maqsadga erishish imkonini bermaydi. Shu sababdan ham o‘zbekistonda uning o‘ziga xos va o‘ziga mos bo‘lgan evolyutsion tadrijiy yo‘li ishlab chiqildi. Bu yo‘lning o‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l ekanligi Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslandi va uning kontseptual g’oyalarini fundamental tarzda bosqichma–bosqich amalga oshirishga kirishildi.

Bu yo‘l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda o‘z ifodasini topdi. Xuddi ana shu tamoyillarni tavsiflab, Prezident shunday ta’kidlangan edi: «Shuni alohida ta’kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo‘l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o‘tish – tanlab olingen yo‘lning asosiy mazmuni va mohiyatidir».

Bu bosh g’oyani Prezident Islom Karimov jahon mamlakatlarining tajribalarini chuqr tahlil qilish asosida ilgari surdi va o‘zbekistonga xos o‘tish davri modelini ishlab chiqishda uning dunyodagi birorta ham davlatlardagi modellariga aynan o‘xshamasligiga asosiy e’tiborni qaratdi.

U mamlakatimiz o‘z mustaqilligini endigina qo‘lga kiritgan va mustaqillikka qarshi xavf hali batamom tugamagan sharoitda – 1992 yilda bu kontseptual g’oyani ilgari surdi. o‘zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o‘z yo‘li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy, o‘ziga xos xususiyatlari va shart–sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy–tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’analari va urf–odatlaridan kelib chiqadi. Chuqr ildizi o‘tmishdagi an’anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari o‘zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g’risida g’amxo‘rlik qilish, ochiqko‘ngillik, millatidan qat’iy nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalar kulfatiga hamdard bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg’usi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi. o‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr–muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat–ehtirom o‘zbekiston aholisiga xos fazilatlardir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog’ida islom dinini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, milliy–ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, umuminsoniy tamoyillar bilan uyg’unlashtirishni taqozo etadi.

o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurilishining Konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini yaratish va yuksak taraqqiyotimizning kafolati rolini muvaffaqiyatli bajarmoqda.

Mustaqillik tomon qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biri – bolajak suveren respublikaning Konstitutsiyasini tayyorlash g’oyasi I.A.Karimov tomonidan 1990

yilning mart oyida ilgari surildi. Ko‘p o‘tmay shu yilning iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida respublika Prezidenti rahbarligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi.

Komissiya Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan millatlar tashkilotining hujjatlariga, Butunjahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga amal qildi. Dunyoning ko‘pgina taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarining Konstitutsiyaviy hujjatlari o‘rganib chiqildi. Shu bilan birga boy tariximizdagi davlat boshqaruv tizimi va adolatli qonunshunoslik an’analari ham chuqur o‘rganildi.

Mustaqil o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o‘z mohiyati va ahamiyati jihatidan sovet davridagi Konstitutsiyalardan, xususan, 1978 yilgi o‘zbekiston SSR Konstitutsiyasidan tubdan farq qilishi kerak edi. Sotsialistik o‘zbekiston Konstitutsiyasi o‘zining mazmuni, ruhi bilan sobiq ittifoq Konstitutsiyasidan kelib chiqib, o‘zbekistonni bu ittifoqqa qol–oyog’i bilan zanjirband etdi. Sinfiylik, partiyaviylik g’oyalari bilan sug’orilgan Konstitutsiya g’oyat darajada mafkuralashtirildi va siyosiyashtirildi. Inson manfaatlariga nisbatan davlat manfaatlari ustun qo‘yildi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi loyihasida o‘zbekistonda yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar hisobga olindi. Xususan, o‘zbekiston mustaqilligini qonunlashtirish, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o‘tishning shartlari, davlat va jamiyat qurilishida demokratik tizimning tamoyillari, inson huquqining ustuvorligi ifodasini topdi. Konstitutsiyada bayon etiladigan masalalarni birma–bir o‘rganib chiqish uchun 35 kishidan iborat ishchi guruh va har bir bo‘limini alohida tayyorlaydigan kichik guruhlardan iborat komissiyalar tashkil etildi.

Ishchi guruh va komissiyalar 1991–yilning oktyabrida Konstitutsyaning birinchi, 1992 yil bahorida ikkinchi nusxasini tayyorladi va shu nusxasi 1992 yilning 26 sentyabrida umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Joylardan tushgan minglab takliflar o‘rganib chiqilib, noyabr oyida ikkinchi marta matbuotda bosib chiqildi.

Tuzatishlar va aniqlashlardan keyin mustaqil o‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni 1992–yil 8–dekabrdi o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo‘ldi. Birinchi bo‘limda Konstitutsyaning asosiy prinsiplari bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yonalishlari o‘z ifodasini topdi. Asosiy qonunning ikkinchi bo‘limi 35 moddadan iborat bolib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag’ishlangan. Bunda o‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, o‘zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatalganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o‘z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo‘shilish huquqlari ta’kidlab ko‘rsatilgan.

Asosiy qonunda fuqarolarning mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, nafaqa olish, o‘z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta’minlanadi, deb ta’kidlab qo‘yilgan. Barcha fuqarolar uchun Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlar, chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqimizning tarixiy, ma’naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig’imlarni o‘z vaqtida to‘lash, Vatanni himoya qilish kabi burchlar majburiy ekanligi ta’kidlangan.

Konstitutsiyaning “Jamiyat va shaxs” bo‘limida o‘zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariiga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk shakllarining teng huquqqa ega ekanligiga kafolat berildi. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo‘l ohib berildi va mulkdorlar tabaqasini vujudga keltirish tamoyillari ishlab chiqildi. Jamiyat ijtimoiy birlashmalari, oila va ommaviy axborot vositalarining o‘rni aniq bayon etib berilgan.

o‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi, o‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog’iston Respublikasining o‘zaro munosabatlariiga maxsus to‘rtinchi bo‘lim ajratilgan.

Mustaqil o‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi beshinchи bo‘limda (50-modda) o‘z ifodasini topgan. Davlat va hokimiyat organlari, Prezident, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, ularni shakllantirish yo‘llari aniq va ravshan bayon etilgan. Shu bilan birga bu bo‘limda mahalliy hokimiyat organlari, sud va prokuratura, davlat mudofaasi masalalari o‘z ifodasini topgan.

Mustaqillik Konstitutsiyasining qabul qilinishi g’oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘ldi. Asosiy qonunimiz mamlakatda demokratik tamoyillarni amalga oshirish, xalqimizni huquqiy, ma’naviy va mafkuraviy tarbiyalashda katta o‘rin tutmoqda.

Prezident I.Karimovning “Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini organishni tashkil etish to‘g’risida”gi farmoyishiga asosan Konstitutsiyaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish, uning mazmun-mohiyatini targ’ib qilish uchun 20 kishidan iborat maxsus komissiya tuzildi.

o‘zbekiston mustaqil davlat, deb e’lon qilingan kunning o‘zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi. o‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog’i to‘g’risida, respublika gerbinining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog’ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog’i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi. o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasi “o‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog’i to‘g’risida” qonun qabul qildi. O’zbekiston Respublikasining Davlat bayrog’i ulug’ ajdodlarimizning haqida va maslaklariga mos keluvchi, millat tabiatini va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma’naviy jihatlarini

ham o‘zida aks ettirmog‘i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog‘i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo‘lib qoldi. o‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan.

1992-yil 2-iyulda o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida “o‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma’noga ega. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, humo qushi kumush rangda, quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va “o‘zbekiston” degan yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog‘lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda.

o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 10 dekabrida bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida “o‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqdandi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Mustaqillik to‘grisidagi referendum va uning natijalarini bilasizmi?
2. o‘zbekiston Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. o‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini tasvirlab bering, u qanday hollarda ko‘tariladi?
4. o‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini tasvirlang, undan qanday paytlarda foydalaniladi?
5. o‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini yoddan bilasizmi?
6. o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish, qabul qilish jarayonini tushuntirib bering.
7. o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
8. o‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishda nimalar asos qilib olindi?
9. Evolyusion yo‘lning klassik (an’anaviy) yo‘ldan farqli tomonlarini tushuntirib bering.

### ***6–MAVZU: o‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR***

#### ***Reja:***

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil o‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi.
2. o‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar.
3. o‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq–tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.

4. o‘zbekistonda nodavlat—notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy—sherikchilik. o‘z—o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. o‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.

5. Inson haq—huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

**Tayanch tushunchalar:** Demokratiya, davlat, parlament, nodavlat—notijorat tashkilotlar, ijtimoiy—sherikchilik, islohot, Oliy Kengash, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, Senat, deputat, saylov, tizimlashtirish, referendum, siyosiy partiyalar, o‘z—o‘zini boshqarish organlari, Davlat boshqaruvi, sud—huquq tizimi, yuridik ixtisos, fuqarolar yig’ini, Ombudsman, inson huquq va erkinliklari.

1. o‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakatimiz konstitusiyaviy tarixida tub burilish yuz berdi. Bu davr talabidan kelib chiqqan ob’ektiv zarurat edi. Ana shu zarurat 1992 yilning oxirida voqelikka aylandi.

Konstitusiyaning bosh maqsadi zaminida inson manfaatlariga xizmat qilish prinsipi yotadi. Shuning uchun ham uning «Asosiy prinsiplar»dan keyingi bo‘limi bevosita inson huquq va erkinliklariga hamda burchlariga bag’ishlangan. Keyingi o‘rinlarda jamiyat va shaxs hamda davlat hokimiyatining qurilish prinsiplariga alohida o‘rin berilgan.

Huquqiy demokratik davlatda inson sha’ni va qadr—qimmati, obro‘sni va hurmat—e’tibori, huquq va erkinliklari Konstitutsiya va boshqa tegishli qonunlar bilan himoya qilinadi. Konstitutsiyaning muqaddimasi orqali inson huquqlari g’oyalariga sodiqlik tantanali ravishda e’lon qilindi, bir qator maqsadlar, xususan, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish Konstitutsiyani qabul qilishdan ko‘zlangan xalqimizning asosiy maqsadi ekani belgilandi: «o‘zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g’oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib,

- hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglagan holda;
- o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib;
- demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib;
- xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda;
- respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga intilib;
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab;
- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida;
- o‘zining muxtor vakillari siyosida o‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi».

o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasidan anglashilmoqdaki, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish xalqimizning o‘z oldiga qo‘ygan eng yuksak maqsadidir. Shunday ekan, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratik asosda isloh etish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida qilayotgan barcha ishlar va hatti—harakatlarimizning asosida o‘zbekiston Konstitutsiyasi birlamchi manba sifatida muhim o‘rin tutadi.

Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi. Davlatda hokimiyatning mavjud bo‘lishi davlatning asosiy belgilaridan biri sanaladi. Davlatdagi mavjud hokimiyat (davlat hokimiyati) esa ma’lum prinsip asosida taqsimlanadi, bo‘linadi. Bu «davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi» deb ataladi. Mazkur prinsipga ko‘ra, davlat hokimiyati bir–biri bilan chambarchas bog’langan va ayni vaqtida ma’lum mustaqillikka ega bo‘lgan quyidagi uch shahobchaga bo‘linadi: qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyati. Ana shu uch hokimiyat birgalikda davlat hokimiyatini tashkil etadi.

Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipining jamiyatda amalda ro‘yobga chiqarilishi, ya’ni hokimiyatlar bo‘linishining amalga oshirilishi har qanday davlatning demokratik xususiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Davlat hokimiyatida vakolatlarning bo‘linishi g’oyasi insoniyatning buyuk daholari tomonidan ilgari surilgan ilg’or tarixiy g’oyalardan biridir. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Aristotel bu g’oyani dastlab ilgari surganlardan biri bo‘lgan. Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi davlat hokimiyati organlarining kelishib, bir–birini nazorat qilib va o‘zaro uyg’unlikda ishlashiga imkon yaratadi. Shuning uchun hokimiyatning bo‘linish prinsipining qaror topishi demokratik davlatga xos jihatdir.

Rivojlangan va demokratiya qaror topgan davlatlarda bo‘lgani singari, o‘zbekiston Respublikasida ham davlat hokimiyati uchga bo‘lingan. Bu haqda o‘zbekiston Konstitutsiyasida quyidagi huquqiy norma belgilab qo‘yilgan: «o‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi» (11–modda).

o‘zbekistonning mustaqillik taraqqiyot davrida «mamlakatimizda davlat hokimiyat va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘ta muhim bir maqsadga, ya’ni hokimiyatlar bo‘linishi konstitusiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha g’oyat dolzarb chora–tadbirlarni qurishga qaratilgan edi.

Davlat boshqaruv tizimi. Bu tizimni ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi idoralar, ya’ni ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tashkil etadi. Davlat boshqaruv tizimini yuzaga keltirishda mustaqil o‘zbekiston dunyoning ilg’or davlatlarining tajribasini har tomonlama o‘rganib va o‘zbekistonning muayyan sharoitlarini inobatga olib, xalqning an’analari va mentaliteti bilan hisoblashib, bu tizimni yuzaga keltirdi. Shunday bo‘lsa–da, bu tizim doimo hayot talablariga muvofiqlashtirilib, demokratik prinsip asoslariga ko‘ra takomillashtirib borilishi hayotiy zaruratdir. o‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimiga davlat boshlig’i sifatida Prezident, respublika hukumati sifatida Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, markaziy davlat boshqaruvi idoralari va ularning joylardagi mahalliy organlari, viloyat, shahar,

tuman hokimlari va hokimiyatlar hamda ularning bo‘limlari va boshqarmalari kiradi.

o‘zbekiston Respublikasining Prezidenti. o‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy va samarali shakli – prezidentlik tizimi qaror topa boshladi. Dunyo davlatchiligi taraqqiyotida davlat boshqaruving asosan ikki shakli – monarxiya va respublika shakllari mavjud. Respublika, o‘z navbatida, parlamentar respublika va prezidentlik respublikasi ko‘rinishlariga ega. Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo 192 davlatdan 142 tasida Prezident lavozimi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir.

o‘zbekistonda Prezident lavozimi 1990 yil 24 martda Oliy Kengashning I sessiyasida ta’sis etildi. 1991–yil 29–dekabrdan o‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g’risidagi masala bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasining referendumi, o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o‘tkazildi. o‘zbekistondagi prezidentlik hokimiyatini mustahkamlashda 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g’risida»gi Qonun va uning asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovi katta ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida prezidentlik instituti to‘la shakllandı. Quyida mazkur fikrni isbotlashga urinib ko‘ramiz.

1991–yil 29–dekabrdan o‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi borasida o‘tkazilgan referendumda ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi respublika davlat mustaqilligini qo‘llab–quvvatlab ovoz berdi va Markaziy saylov komissiyasi o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan o‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan ma’qullandi, deb topdi.

1991–yil 29–dekabrdan o‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti saylandi. Yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilgan to‘g’ridan–to‘g’ri, umumiyya va muqobil asosdagi saylovda prezidentlikka nomzod Islom Abduganievich Karimov uchun 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi “o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g’risida”gi Qonunning 35– moddasiga asosan Islom Abdug’anievich Karimovni 1991–yil 29–dekabrdan o‘zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi.

o‘zbekiston tarixida birinchi marotaba joriy etilgan Prezident lavozimi mustaqil o‘zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Mamlakatimiz siyosiy tizimida prezidentlik institutining uzil–kesil mustahkamlanishida 1992 yil 8 dekabrdan qabul qilingan o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida o‘rin tutadi. o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi «o‘zbekiston Respublikasining Prezidenti» deb nomlangan. Mazkur bob o‘z ichiga 9 ta modda (89–97– moddalar)ni qamrab olgan bo‘lib, ularda prezidentlikka nomzod oldiga qo‘yiladigan talablar, Prezidentni saylash tartibi, Prezident qasamyodining matni, Prezidentning vakolatlari, Prezident chiqaradigan normativ–huquqiy hujjatlar, Prezidentning parlamentni tarqatib yuborish vakolati va shu kabilar borasida huquqiy normalar belgilangan.

1995-yil 26-mart kuni o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning vakolat muddatini 1996-yil dekabrdan 2000-yilgacha uzaytirishga bag’ishlangan umumxalq referendumi bo‘lib o‘tdi. 2000-yil 9-yanvarda esa mamlakatimizda o‘zbekiston Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Bu saylov ham xalqning siyosiy ongi, madaniyati va faolligi oshganini ko‘rsatdi. Saylovda ro‘yxatga olingan 12 million 746 ming 903 saylovchidan 12 million 123 ming 199 ta saylovchi ishtirok etdi. Bu ro‘yxatga olingan saylovchilar umumiyligini miqdorining 95,1 foizini tashkil etdi. Saylovda I.A. Karimov 91,9 foiz ovoz bilan g’alaba qozondi.

2. Hokimiyatni nomarkazlashtirishga va vakolatlarining bir qismini markazdan hokimiyatning mahalliy organlariga o‘tkazishga yo‘naltirish bo‘yicha majmuaviy qonunchilik va huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini tizimlashtirish va qo‘srimchalarini ishlab chiqish, eng muhim — o‘z-o‘zini boshqarish organlari — mahallalar, mahalla qo‘mitalari va qishloq yig’inlarining roli va vakolatlarini kuchaytirish zarur. Muhim davlat qarorlarini qabul qilishda siyosiy partiyalar va fuqarolar institutlarining roli va ta’sirini tubdan kuchaytirish ko‘zda tutildi. Siyosiy partiyalar aholi orasida o‘zlarining obro‘-e’tiborini oshirish borasidagi ishlarini o‘ta kuchaytirishlari zarur. Buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bular siyosiy tajribalar to‘plash va siyosiy kamolotga erishish, o‘zining moliyaviy mustaqilligini ta’minalash, jamiyatda o‘z o‘rnini va elektoratini topish uchun xizmat qiladi.

Saylov to‘g’risidagi qonun hujjatlari o‘zgartirish kiritilishi munosabati bilan 2010 yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar va o‘zbekiston ekologik harakati tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlari asosida shakllanishi mazkur palatani fuqarolik jamiyatini bilan bevosita aloqadorlikda bo‘lishini ta’minalaydi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlari siyosiy partiyalar hamda saylovchilarning tashabbus guruhlari vositasida o‘z manfaatlarini parlamentga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Siyosiy partiyalarning bosh vazifalaridan biri – davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi vositachilik funksiyalarini bajarishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘ldi.

Mamlakatda shakllangan saylov tizimiga doir huquqiy asoslar parlament, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarini shakllantirish tamoyillari va fuqarolarning saylovlarda qatnashish huquqini, mamlakatda xalq hokimiyatini amalga oshirish va davlatning umuminsoniy manfaatlar tamoyillari asosida tashkil etishning muhim demokratik poydevoridir. Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi ishtiroki saylovlar davrida aniq va ravshan namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida “bunday ishtirok etish o‘zini-o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi”, deyiladi. Mazkur konstitutsiyaviy qoidadagi “davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish” so‘zining asl ma’nosи davlat organlarini xalq tomonidan to‘g’ridan-to‘g’ri saylanishini anglatadi.

o‘zbekistonda saylovlardagi tenglik huquqi tamoyili Konstitutsiyaning 117-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: “o‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyatini vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga

egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish–irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. ...Saylovlar umumiyligi, teng va to‘g’ridan–to‘g’ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi”. o‘zbekistonda saylovlarning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlarda keng yoyilgan demokratik tamoyillarga mos keladi. 2003 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan 1993–yil 28–dekabrda qabul qilingan “o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g’risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilinishi natijasida unga demokratik qadriyatlarga xos bo‘lgan yangi to‘ldirishlar va o‘zgartishlar kiritildi. 1994–yil 5–mayda parlament tomonidan o‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, 2003 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan o‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g’risida”gi Qonuniga (1994–yil 5–may) ham o‘zgartishlar va to‘ldirishlar kiritildi. Mazkur qonunlar saylovlarni amalga oshirishning demokratik tamoyillarining asosi sifatida katta sinovlardan o‘tdi.

o‘zbekistonda Senatni shakllantirishda mahalliy vakillik organlariga Senat a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish vakolatlarining berilishi – hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart–sharoitlar yaratdi. Shu bilan birga, mahalliy xalq deputatlarining Senat a’zolarini saylashda bevosita ishtirok etishi vakillik demokratiyasining shakllanishiga, shuningdek, ularning umummilliy davlat boshqaruvi faoliyatlarida bevosita ishtirok etishlari uchun huquqiy imkoniyatlar ham yaratdi.

o‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g’risida”gi Qonuniga binoan xalq deputatlari Kengashlariga “saylov kuni yigirma bir yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil o‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan” fuqarolar saylanish huquqiga egadirlar. Oliy Majlis umumdavlat ahamiyatiga ega oliy qarorlar qabul qiluvchi organ bo‘lgani uchun ham Konstitutsiyada (77–modda) uning har ikkala palatasi — Qonunchilik palatasiga deputat va Senatga a’zo bo‘lib saylanish huquqini 25 yoshga to‘lgan fuqarolarga berilishi mustahkamlandi.

o‘zbekiston saylov tizimidagi teng saylov huquqi quyidagilarni anglatadi: “Har bir fuqaro bir ovozga ega. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, denga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい, ma’lumoti, mashg’ulotining turi va xususiyatidan qat’iy nazar teng saylov huquqiga egadirlar”.

To‘g’ridan–to‘g’ri saylov huquqi hokimiyyat vakillik organlariga saylov to‘g’ridan–to‘g’ri o‘tkazilishini anglatadi. Barcha Kengashlarning deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadilar.

“o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g’risida»gi (yangi tahriri) Qonunning 5–moddasida saylovlarda yashirin ovoz berish qoidasi quyidagicha ifodalangan: “Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida erkin va yashirin ovoz beriladi. Ovoz beruvchilarning xohish–irodasi nazorat qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi”. o‘zbekistonda boshqa quyi vakillik organlariga saylovlar to‘g’risidagi qonunlarda ham yashirin ovoz berish tamoyili mustahkamlandi.

Mustaqillik yillarida mahalliy vakillik organlariga saylovlargalarga doir huquqiy asoslar ham takomillashdi. o‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g’risida”gi Qonunining (1994 y. 5 may) 1–moddasida o‘zbekistonda mahalliy vakillik organlariga saylov o‘tkazishning asosiy tamoyillari demokratik qadriyatlar talablari darajasida belgilab qo‘yildi: “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov hududiy bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga o‘tkaziladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to‘g’ridan–to‘g’ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar”.

o‘zbekiston parlamentiga demokratik tamoyillar asosidagi saylovlar ilk bor 1994 yil 25 dekabrda o‘tkazildi. Mustaqillik davrida Oliy Majlisga o‘tkazilgan birinchi saylov mamlakatda tobora taraqqiy topayotgan demokratik jarayonlarning amaldagi ifodasi bo‘ldi. Ko‘ppartiyaviylik va muqobililik asosida o‘tgan saylovlarda fuqarolarning huquqlari har jihatdan qadrlandi.

1999–yil 5–dekabrda bo‘lib o‘tgan demokratik qadriyatlar asosidagi saylovga tayyorgarlik ko‘rishga doir tashkiliy–ommaviy ishlardan natijasida mamlakatda 250 ta hududiy saylov okruglari tuzildi, 7723 ta saylov uchastkasi tashkil etildi. Okrug va uchastka saylov komissiyalari tarkibida 100 mingdan ziyod mas’ul faollar faoliyat ko‘rsatdilar. Saylov huquqiga ega bo‘lgan 12,5 milliondan ortiq fuqarolarning ro‘yxati tuzildi. Oliy Majlis deputatligiga 1200 dan ortiq nomzodlar ko‘rsatilib, har bir o‘rin uchun o‘rtacha 5–7 tadan nomzodlar o‘zaro raqobatlashdilar. Saylov kampaniyasi jarayonlarida 250 ta Oliy Majlis deputatlari saylandi.

Shuningdek, 1999 yil 5 dekabrda bo‘lib o‘tgan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar ham demokratik tamoyillar asosida o‘tkazildi. Bu saylovlarda 5 ta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishning qonuniy asoslari o‘rnatilib, unda turli xil ijtimoiy qatlam va guruhlar o‘z vakillarini deputat bo‘lib saylanishlari uchun kurashdilar.

1999–yil 5 va 19–dekabrda o‘tkazilgan ikki tur bo‘yicha ovoz berish natijalariga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat Kengashlariga – 661, tuman Kengashlariga – 4564, shahar Kengashlariga – 831 deputat saylandi. Mahalliy vakillik organlariga saylangan deputatlardan 61 nafari – “Adolat” sotsial–demokratik partiyasi, 85 nafari – “Vatan taraqqiyoti” partiyasi, 20 nafari – “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, 509 nafari – “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi, 1997 nafari esa o‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi vakillaridan iborat bo‘ldi. 360 nafar deputat – vakillik organlari, 2943 nafari – fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlari, 81 nafari – saylovchilarning tashabbuskor guruhlari vakillarini tashkil etdi.

2000–yil 9–yanvarda va 2007–yil 23– dekabrda mamlakatimizda o‘tkazilgan Prezidentlik saylovi ham demokratik tamoyillar – ko‘ppartiyaviylik va muqobililik asosida o‘tkazildi. Nomzodlarning saylovoldi tashviqotlari oshkoraliq va teng huquqlilik asosida olib borildi. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloving yuksak darajada o‘tishi uchun barcha zarur shart–sharoitlar yaratildi.

Mamlakatdagi siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbus guruhlari tomonidan Prezidentlikka nomzodlarning ko'rsatilishi, saylov oldi kompaniyasida nomzodlar o'rtasidagi babs-munozaralar, saylovlarni amalga oshirish jarayonlari demokratik prinsiplar asosida ro'y berdi, bu jarayonlar xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi.

o'zbekistonda saylov qonunchiligining rivojlanishiga uyg'un ravishda fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati ham yuksalib bordi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida fuqarolarning saylovlardagi ishtirokining faolligi, ularning saylovlarga nisbatan munosabatlарining o'zgarib borishi, xalqning demokratik qadriyatлarni o'z turmush tarziga singdirib borayotganligi aniq sezildi.

2004—yil 26—dekabrda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va mahalliy vakillik organlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlar jarayonlari Konstitutsiya va qonunlar talablari darajasida o'tkazildi. Mazkur Qonunga kiritilgan yangiliklar — siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlari ro'yhatida xotin-qizlarning kamida 30 foiz bo'lishini shart etib qo'yilishi, shuningdek siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirishga doir maxsus qonunning qabul qilinishi saylovlarning demokratik mazmunini boyitdi. Saylovda Parlament Qonunchilik palatasidagi 120 ta deputatlik o'rinalariga 489 nomzod ko'rsatildi. Jumladan, siyosiy partiyalardan — 435 nomzod va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan — 54 nomzod saylovlarda deputatlik o'rinalari uchun kurashdilar. Saylovda 12197159 (barcha saylovchilarning 85,1 foizi) saylovchilar qatnashdi. o'tkazilgan saylovlar natijasida o'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Qonunchilik palatasidagi 41 o'rinni (34,2 %) egalladi. o'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 28 ta deputat (23,3 %) saylandi. Shuningdek, "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining 18 ta nomzodi (15,0 %), "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 11 ta nomzodi (9,2 %), "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 10 ta nomzodi (8,3 %) Qonunchilik palatasi deputati etib saylandi.

Qonunchilik palatasiga 159 ta xotin-qizlarning nomzodlari qo'yilib, ular o'zlaridagi kuchli faollikni namoyish etdilar. 21 ta ayol (17,5 %) Qonunchilik palatasiga deputatligiga saylandi.

2004—yil 26—dekabrdagi, shuningdek 2005 yil 9 yanvardagi takroriy saylovlarda o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi 120 deputatdan iborat tarkibda saylandi.

o'zbekiston Respublikasining "o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonuning 58—moddasiga muvofiq 2005—yil 17—20—yanvarda Oliy Majlis Senatiga vakillik organlari — Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, viloyat, tuman va shahar halq deputatlari ishtirokida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylovlar bo'lib o'tdi. Bu saylovlar kompaniyasida mahalliy deputatlar orasidan o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari — 84 ta senatorlar saylandi. Shuningdek, o'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq Oliy Majlis Senatining 16 ta a'zosi tayinlandi.

o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar ochiq va oshkoraliq ruhida o'tdi. Saylovlar kompaniyasi jarayonlari 493 ta mahalliy, 107 ta xorijiy ommaviy axborot vositalarida yoritildi. Shuningdek, saylovlar jarayonlarida 40 ta mamlakatdan 228 xorijiy kuzatuvchilar ishtirok etdi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan ko'rsatilgan nomzodlarning o'z dasturlarini tashviqot qilishlari, saylovchilar bilan uchrashuvlari uchun teng imkoniyatlar yaratildi, ularning ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlari uchun ham teng huquqlar berildi.

Markaziy saylov komissiyasi, shuningdek, okrug va uchastka saylov komissiyalari saylovlarning oshkorlik va ochiqlik sharoitlarida o'tkazilishiga muhim ahamiyat berdilar. Internetning xalqaro tarmog'ida Markaziy saylov komissiyasining maxsus vebayti ochilib, u muttasil ravishda yangilanib borildi. Bu saytda saylovlarga doir yangiliklar o'z vaqtida berib borildi. Natijada jurnalistlar hamda saylovlarning borishi bilan qiziqqan barcha jamoatchilik vakillarining axborotlardan foydalanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga 2004 yil 26 dekabrdagi, shuningdek, 2005 yil 9 yanvardagi takroriy saylovlar ham demokratik tamoyillar asosida o'tkazildi. Saylovlarda 5 ta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilib, unda turli xil partiyalar va tashabbuskor guruhlar o'z nomzodlarini deputat bo'lib saylanishlari uchun kurashdilar.

o'tkazilgan ikki tur bo'yicha ovoz berish natijalariga ko'ra, xalq deputatlari viloyat Kengashlariga — 661, tuman Kengashlariga — 4564, shahar Kengashlariga — 831, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga hammasi bo'lib 6114 ta deputat saylandi. Mahalliy vakillik organlariga saylangan deputatlardan 172 nafari (2,8 %) — "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, 1909 nafari (31,3 %) — o'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, 137 nafari (2,2 %) — "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, 581 nafari (9,5 %) — "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi, 2525 nafari (41,4 %) — o'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, 736 nafari (11,9 %) — o'zini-o'zi boshqarish organlari, 54 nafari (0,9 %) — saylovchilarning tashabbuskor guruhlari vakillaridan iborat bo'ldi. Saylangan barcha deputatlarning 923 nafari (15,1 %) xotin-qizlarning vakillarini tashkil etdi.

o'zbekistonda o'tkazilgan saylovlar natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatda demokratik qadriyatlarni milliy an'analar bilan uyg'unlashtirish asosidagi islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Demokratik saylovlar instituti davlat organlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida fuqarolik jamiyatni a'zolarining manfaatlari va irodasini siyosiy qarorlarga aylanish jarayonlarini ta'minlab bera olish darajasiga ko'tarildi. Ular oliy va mahalliy davlat hokimiyati organlarini xalq tomonidan nazorat qilinishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

3. o'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» mavzusidagi ma'rurasida davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bo'lgan mamlakat parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish yo'llarini belgilab berdi. Shunga ko'ra, 2006 yili «o'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89–moddasiga, 93– moddasi 1–qismining 15–bandiga, 102–moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g’risida»gi o‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Loyiha yuzasidan keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan fikr–mulohazalar o‘rganib chiqildi va buning natijasi o‘laroq 2007 yil 29 martda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qonun qabul qilindi.

Davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi tarmoqlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining zimmasiga Konstitusiya bilan yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirishdagi roli va mas’uliyatini kuchaytirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq–ravshan belgilash, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni yangilash va modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning roli va ta’sirini kuchaytirish maqsadida 2007 yil 11 aprelda «o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89–moddasiga, 93–moddasi 1–qismining 15–bandiga, 102–moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g’risida»gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Shu o‘rinda o‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan quyidagi muhim o‘zgartirish va qo‘sishimchalarga e’tiborni qaratish lozim.

1. o‘zbekiston Konstitutsiyasining 89–moddasi yangi tahrirda bayon etildi: «o‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig’idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan faoliyat yuritishni hamda hamkorligini ta’minlaydi».

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikka parlament faoliyatiga oid «parlamentdagi ko‘pchilik» tushunchasi kiritildi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka parlament faoliyatiga oid «muxolifat» tushunchasi ham kiritildi.

2. o‘zbekiston Konstitutsiyasi 93–moddasi 1–qismining 15–bandi quyidagicha tahrir qilindi:

«o‘zbekiston Prezidenti:

15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr–qimmatiga dog’ tushiradigan xatti–harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli”.

3. o‘zbekiston Konstitutsiyasining 102–moddasi ikkinchi qismi quyidagi tahrirda qabul qilindi:

«Viloyat va Toshkent shahar hokimi o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi». Ushbu qonun 2008 yil 1 yanvardan kuchga kiritildi.

Prezident Islom Karimov 2007–yil 11–aprelda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g’risida»gi Konstitusiyaviy Qonunga imzo chekdi.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo‘lida navbatdagi qadam bo‘ldi.

2010–yil 27–yanvardagi Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisidagi Prezident ma’ruzasida ham aynan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalalariga alohida to‘xtalib o’tildi.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o’tkazilgan qo’shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» mavzusidagi ma’ruzasi mamlakatimizning demokratik taraqqiyot yo‘lidan og’ishmay yanada ildamlab borishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu ma’ruzada o‘ta dolzarb ahamiyatga molik bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamenti yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz sud–huquq tizimini va saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatni institutlarini va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi.

Ma’ruzada ta’kidlab o‘tilganidek, o‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar juda muhim bir maqsadga, ya’ni hokimiyatlar bo‘linishining konstitusiyaviy prinsipini hayotga tatbiq etishga, hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirishga, qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirishga, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha g’oyat dolzarb chora–tadbirlarni ko‘rishga qaratilgan edi.

4. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, yanada liberallashtirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar boshqaruvi tizimiga mos tizimga o‘tish bo‘yicha bir qator takliflarni ilgari surdi. 2010–yilning 12–noyabrida mamlakat Prezidenti Islom Karimov tomonidan respublika parlamenti palatalarining qo’shma majlisida qilingan ma’ruza davlat hokimiyatining uchta sub’ekti, ya’ni davlat boshlig’i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minalash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Oraliq xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda prezidentlik instituti shakllandı, yanada takomillashtirildi, uning huquqiy negizlari mustahkamlandi.

Ikki palatali milliy parlamenti tashkil qilish masalasi o‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2000 yil 25 mayda Oliy Majlisning 2–sessiyasida ilgari surildi. «Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o‘zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma’naviy ongi ulg’ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish taklifini kiritmoqchiman, ya’ni biz 2004 yilda bo‘ladigan saylovlarda parlamenti ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim».

2001–yil 6–dekabrdan Oliy Majlis o‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazish to‘g’risida qaror qabul qildi. 2002–yil 27–yanvarda o‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament tuzish va Prezidentning vakolat muddatini 5 yildan 7 yilga – 2007–yilning yanvarigacha uzaytirish masalalari bo‘yicha umumxalq referendumi o‘tkazildi.

Bu ikki palatali parlamentga o‘tishning dastlabki huquqiy poydevori bo‘ldi. Bu qonun o‘zbekistonning qonun chiqaruvchi organi – ikki palatali parlamentning tuzilishi, tarkibi, faoliyat yuritish asoslarini, o‘zbekiston Prezidentining vakolat muddatini yetti yillik qilib belgilash, eng muhimi – demokratik islohotlarni chiqurlashtirish va fuqarolik jamiyati poydevorini shakllantirish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini, Prezident I.A. Karimov iborasi bilan aytganda, «qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi».

o‘zbekiston Oliy Majlisining X sessiyasida «o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g’risida» va «o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g’risida» konstitusiyaviy qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar parlament palatalarining maqomini, ularni shakllantirish tartibini, vakolatlarini, boshqa organlar bilan hamkorlik qilish mexanizmlarini aniqlab berdi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, o‘zbekiston xalqining qadriyatları va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

2005–yilgacha bo‘lgan davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog’liq tarzda saylov qonunlariga o‘zgartishlar kiritildi. 2003–yil 24–aprelda qabul qilingan «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g’risida» konstitusiyaviy qonunga muvofiq, 2002–yil 27–yanvarda o‘tkazilgan referendum natijalari asosida o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo‘limi XVIII, XIX, XX va XXIII boblariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.

2009–yil 27–dekabrdagi o‘zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlar natijalari. o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi yakunlariga ko‘ra 150 nafar deputat saylandi.

Saylangan 150 nafar deputatning 33 nafari (22 foizi) xotin–qizlardir. Senatdagi xotin–qizlar 15 nafarni tashkil etdi. Saylangan deputatlarning 47 nafari (31,3 %) ilgari Qonunchilik palatasi deputati bo‘lgan. Bu saylangan deputatlar o‘z saylovchilarini ishonchiga sazovor bo‘lganidan dalolat berishi bilan birga, professional faoliyatida ularning hayotiy va qonun ijodkorligi borasidagi amaliy tajribasidan yanada samarali foydalanish imkoniyatini ham beradi. Parlament quyi palatasi tarkibida jamiyatni deyarli barcha qatlamlari vakillari bor.

Sud–huquq tizimini demokratlashtirish va liberalallashtirish sohasida islohotlar. o‘zbekiston Respublikasida o‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi, o‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, o‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog’iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar,

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sndlari faoliyat ko'rsatadi. o'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sndlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favqulodda sndlар tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

o'zbekiston Respublikasida sud o'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjalarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. o'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sud'yalar mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadi. Sud'yalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Hamma sndlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan holatlarda yo'l qo'yiladi. o'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlari yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

o'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sndlар viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sndlari va harbiy sndlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

o'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarni xohishiga ko'ra apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Apellyatsiya tartibida ko'rilgan ish cassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak.

Yigirma besh yoshdan kichik bo'limgan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisoslik bo'yicha kamida uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan hamda malaka imtihonini topshirgan o'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sud'yasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisoslik bo'yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sud'ya bo'lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan o'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, o'zbekiston Respublikasi harbiy sudi sud'yasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sud'ya bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan o'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sud'yasi bo'lishi mumkin.

Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo'lgan va ushbu moddadagi talablarga javob beradigan o'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud sud'yasi bo'lishi mumkin. Harbiy sndlар sud'yalariga «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi o'zbekiston Respublikasi Qonuni, harbiy ustavlar, harbiy xizmatchilar uchun belgilangan, shuningdek, ushbu qonunda nazarda tutilgan huquqiy va ijtimoiy himoyalash choralarini tatbiq qilinadi.

2005–yil 1–avgustda o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «o‘lim jazosini bekor qilish to‘g’risida»gi Farmoni e’lon qilindi. Farmonga asosan o‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan o‘lim jazosini umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo bilan almashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. o‘zbekistonda 2008–yilning yanvaridan boshlab o‘lim jazosi bekor qilindi va uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.

«Xabeas korpus» instituti joriy etildi, ya’ni 2008 yildan ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o‘tkazildi. Huquqni qo‘llash va sud amaliyatiga 2001–yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ombudsman. 2004–yil 27–avgustda «o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g’risida» Qonun qabul qilindi. Jahonning rivojlangan davlatlarida inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilish vositasi sifatida Ombudsman instituti tashkil etilgan.

o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo‘lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta’minlash vakolatlari berilgan.

o‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo‘yicha vakili instituti inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mayjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi. Ombudsman o‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari to‘g’risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko‘maklashadi.

Ombudsman o‘z faoliyatida o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, o‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga shuningdek, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga amal qiladi.

Ombudsman o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi va u o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Ombudsman o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi. Ombudsman lavozimiga nomzod o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi uchun o‘zbekiston Prezidenti tomonidan kiritiladi. o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining Ombudsmanni saylash to‘g’risidagi qarori palatalarning majlislarida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senati a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ombudsman nomzodi Oliy Majlis palatalarining majlislarida ko‘rib chiqilganidan keyin bu masala yuzasidan qabul qilingan uzil–kesil qaror o‘zbekiston Prezidentiga yuboriladi. Ombudsman o‘zining vakolatlari muddati tugagach, yangi ombudsman saylanguniga qadar o‘z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Saylanish kuni 25 yoshga to‘lgan, kamida 5 yil o‘zbekiston hududida muqim yashayotgan o‘zbekiston Respublikasining fuqarosi ombudsman lavozimiga saylanishi mumkin. Ombudsman sudning vakolat doirasiga kiradigan masalalarni ko‘rib chiqmaydi.

Ombudsman arz qiluvchiga o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgani ma’lum bo‘lib qolgan paytdan e’tiboran yoki arz qiluvchi, agar u huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning boshqa vositalaridan foydalangan hamda qabul qilingan qarorlardan qanoatlanmagan bo‘lsa, o‘z shikoyati bo‘yicha qabul qilingan oxirgi qarordan xabar topgan paytdan e’tiboran bir yil davomida berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi.

o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag’ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko‘rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan mustaqil ekanligi kabi printsiplar mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Konstitutsianing 56–moddasida belgilanganidek, “o‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin–qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi”.

Fuqarolar yig’ini birinchi marta o‘zini–o‘zi boshqarish organi sifatida Konstitutsiyada e’tirof etildi. o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105–moddasida ushbu huquqiy norma belgilandi:

“Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig’inlari o‘zini–o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

o‘zini–o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”.

1993–yil 2–sentyabrida qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlari to‘g’risida”gi Qonun qishloq, shaharcha va ovullarda va ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlarining huquqiy holatini belgilab berdi. Mahalliy o‘zini–o‘zi boshqarish organlari – bevosita fuqarolar tomonidan saylanadigan organlardir.

o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsianing 34–moddasi o‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e’tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr–qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo‘yan. Asosiy Qonunning 12–moddasida o‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma–xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emasligi to‘g’risidagi konstitutsiyaviy tamoyil o‘z ifodasini topgan.

Birlashishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga

uyushishga bo‘lgan huquq o‘z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to‘sinqilik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 18–moddasida o‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo‘yilgan.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. o‘zbekistonda milliy huquqiy davlat qurilishida qanday tamoyillarga asoslandi?
2. o‘zbekiston Respublikasi parlamenti – Oliy Majlisning tashkil topishi va faoliyati haqida so‘zlab bering.
3. Vazirlar Mahkamasining tuzilishi, tarkibi, vazifalari haqida nimalarini bilasiz?
4. o‘zbekistonda qanday sud organlari faoliyat yuritmoqda?
5. Mahalliy davlat hokimiyatining tuzilishi va uning vazifalari haqida so‘zlab bering.
6. o‘zbekistonda qanday vazirliklar va davlat qo‘mitalari mavjud?
7. o‘zbekiston fuqarolarining huquqlari, erkinliklari, burchlarini bilasizmi?
8. Ombudsman nima, u qachon ta’sis etilgan?
9. o‘zbekistonning saylov tizimi haqida so‘zlab bering.
10. o‘zbekistonda qachon va qanday siyosiy partiyalar tuzilgan, ularning maqsadlari nimalardan iborat?
11. o‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarni bilasiz?

### ***7–MAVZU. IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI***

#### ***Reja:***

1. o‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish konsepsiysi.
2. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi.
3. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.

Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish.

4. Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va uni o‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari.

5. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank–moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora–tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar.

**Tayanch tushunchalar:** Iqtisodiy islohotlar, barqaror o‘sish, nodavlat sektor, mulkdorlar sinfi, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy lashtirish, Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, Bank–moliya tiziminining takomillashtirilishi, Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi.

1. Iqtisodiy islohotlar tarkibida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish yetakchi o‘rinda turadi. Shu sababli ham mustaqillikning birinchi yildayoq ya’ni 1991 yil 18 noyabrda o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan edi. Unga ko‘ra xususiy lashtirish va mulkchilik shakllarini o‘zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi belgilandi. Dasturga asosan dastlabki bosqichda xususiy lashtirish jarayoni umumiy uy–joy fondini, savdo, sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini ichiga oldi. Bu “kichik xususiy lashtirish” deb nom oldi.

Bu jarayon 1994 yilda yakunlandi. Natijada 1992–1994 yillarda 54 mingga yaqin korxona va obyekt davlatlar tasarrufidan chiqarildi. 1994 yilda mamlakat yalpi ijtimoiy mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘limgan sektorida ishlab chiqarildi, bu sektorda o’sha yili 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo‘lgan. Bir million kvartira yoki davlat uy–joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i, har uch kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o‘qituvchilar, tibbiyat xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyorilar kvartiralarining bepul egalari bo‘lishdi.

Haqiqatdan ham istiqlolning uchinchi yili mustaqil taraqqiyot yo‘lini tutish, jamiyatni tubdan o‘zgartirishi, bir holatdan ikkinchi holatga keskin burib yuborish davri bo‘ldi. 1994 yil 21 yanvarda qabul qilgan “Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi va 1994 yil 16 martdagi “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi tarixiy farmonlari butun mamlakat taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Bu hujjatlar dunyo jamoatchiligi diqqatini ham o‘ziga tortdi.

Ana shu farmon asosida mamlakat xalq xo‘jaligini isloh qilinishining yangi tadbirlari ishlab chiqildi va shu bois xususiy lashtirishning o‘ziga xos mexanizmi yaratildi. Jumladan, 1992 yilda tashkil etilgan Davlat mulkini boshqarish va xususiy lashtirish davlat qo‘mitasi 1994 yilda Davlat mulkini boshqarish tadbirkorlikni qo‘llab–quvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirildi, uning raisi mamlakat bosh vazirining o‘inbosari etib tayinlandi.

1994 yildagi xususiy lashtirish jarayoni yana ham yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishga doir 20 dan ortiq

davlat dasturi e'lon qilindi. Bu dasturlarga asosan xalq xo'jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiyashtirish uchun imkon yaratildi. Bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Masalan, o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994 yil 29 martda tasdiqlangan Davlat dasturiga muvofiq shu yilning o'zida 5127 obyekt xususiyashtirildi.

1995 yil xalq xo'jaligida ommaviy xususiyashtirish yili bo'ldi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshladi. Shu yili mashinasozlik kompleksiga qarashli 89 ta korxona, 81 ta yoqilg'i energetika, 55 ta qurilish industriyasiga qarashli, 114 ta transport, 68 ta uy-joy, kommunal xo'jaligi, 229 ta qayta ishslash korxonasi va 291 ta qurilish bilan bog'liq obyektlar xususiyashtirildi. Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdag'i hissadorlik jamiyatlari, 6000 xususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi.

1998 yil 1 aprelga kelib aksariyat korxonalar xususiyashtirildi. Agar 1993 yilda jami korxonalarining 33,4 foizdan ortig'i davlatga tegishli bo'lмаган korxona bo'lsa, 1994 yilda bu ko'rsatkich 57,7 foizga, 1998 yilda esa 88,2 foizga yetdi.

Davlat mulkini xususiyashtirish natijasida mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyot va o'rta mulkdorlar sinfi vujudga keldi. 1997 yil boshida xususiy va kichik korxonalar soni 100 mingdan oshib ketdi.


Tarkibiy islohotlar mamlakatimiz aholisining farovonligi, eng avvalo, uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasiga qaratildi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yili o'zbekistonga 454,8 ming tonna un, 183,9 ming tonna kartoshka, 1401 ming tonna sut mahsulotlari va shu kabilarni qo'shni respublikalardan olib kelishga majbur bo'lingan. Bunday holat sobiq tuzum davrida yuritilgan biryoqlama iqtisodiy siyosatning natijasi edi. Buning evaziga o'zbekistondan, asosan, paxta xom ashyosini yetkazib berish talab qilinardi. Biroq bunday siyosat mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligi, uning mustaqilligiga juda katta tahdid solar edi.

o'tgan tarixiy davrga razm soladigan bo'lsak, yakkahokimlik tizimi va uning samarasi xo'jalik mexanizmi oqibatida respublika xalq xo'jaligi izdan chiqqan tuzilishga, ishlab chiqarishning past texnikaviy darajasiga ega bo'lgani tufayli 1990 yilda respublikalararo savdo aylanmasida salbiy saldo 3,7 milliard rublni yoki yalpi milliy mahsulotning 11 foizga yaqinini tashkil qilgan edi. Bunday hol aholi turmush darjasining pasayishiga olib kelgan edi. 1990 yilda respublika aholisining 70 foizining jami daromadi tirikchilik o'tkazish uchun zarur bo'lgan eng quyi darajadan ham past edi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan qaltis vaziyatni bartaraf etish maqsadida mamlakatimiz rahbari tomonidan aholini eng avvalo oziq-ovqat, xususan, un mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligiga barham berilib, ekin maydonlarining katta qismi don mahsulotlariga ajratildi. Agar mustaqillikka erishilgan yillarda paxta maydonlari respublika umumiy ekin maydonlarining 75 foizdan ko'proq qismini tashkil etgan bo'lsa keyingi davrda paxta yakkahokimligini tugatish va qishloq xo'jalik ekinlari tarkibini optimallashtirish chora-tadbirlari olib borilishi natijasida paxta maydonlari deyarli 41 foizga qadar qisqartirildi.

Natijada ozuqabop g'alla importiga qaramlik barham topib, tez orada

yurtimizda g‘alla mustaqilligi qaror topdi. Agar 1991 yilda 4003 ming tonna miqdordagi don mahsulotini import qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsak, mustaqillikning dastlabki olti yili ichida bu ehtiyojni keskin ravishda 5,4 barobar qisqartirishga, keyinchalik esa milliy ishlab chiqarish hisobidan qondirishga erishildi. G‘alla ishlab chiqarish hajmi 1990 yildagi 1899 ming tonnadan 2010 yilda 6952 ming tonnaga yetdi, ya’ni deyarli 3,7 barobar o‘sdi (1–rasm).



1–расм. Ўзбекистонда ғалла етиштириш ҳажмининг ўсиб бориши, минг тонна.

Dehqon va fermerlarimizning mardonavor mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 2014 yil 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarixida birinchi marta 8 million 50 ming tonnalik yuksak g‘alla xirmoni bunyod etildi.

Amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar natijasida 2000–2010 yillar davomida deyarli barcha turdagи qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirishga erishildi. Jumladan, shu davrda don ishlab chiqarish hajmi 3929,4 ming tonnadan 7747,1 ming tonnaga yoki 197,1 foizga, sabzavotlar 235,1 foizga, poliz mahsulotlari 451,1 ming tonnadan 1246,8 ming tonnaga yoki 276,4 foizga, meva 790,9 ming tonnadan 1696,4 ming tonnaga yoki 214,5 foizga, chorvachilik mahsulotlaridan go‘sht ishlab chiqarish 501,8 ming tonnadan 1461,4 tonnaga, sut 3632,5 ming tonnadan 6169,0 ming tonnaga yoki 169,8 foizga va tuxum 1254,4 million donadan 3058,8 million donaga yoki 243,8 foizga oshdi.

Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarning amalgा oshirilganligi natijasida respublikaning yoqilg‘i–energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyoji o‘zi hisobidan to‘la ta’mindan. Agar 1990 yilda mamlakatimizda 2810 ming tonna neft va gaz kondensati ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 3700 ming tonnani tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi ham tez sur’atlarda o‘sib, 1990 yildagi 40761 million kub metrdan 2010 yilda 60111,5 million kub metr hajmiga yetdi.

Erishilgan bunday ijobiy natijalar muqarrar ravishda mazkur mahsulotlarni chetga eksport qilish hamda tushgan valyuta mablag‘lariga xalqimiz ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni olib kelish imkonini berdi.

Istiqlol davrida iqtisodiyotda yangi tarmoqlar – avtomobilsozlik, sellyuloza-qog‘oz, qand–shakar, farmatsevtika va boshqa tarmoqlar vujudga keldi. Respublika sanoatida yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, ya’ni mashinasozlik, yoqilg‘i–energetika, kimyo va yengil sanoat kabi tarmoqlarning hissasi ortib bordi. o‘zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o‘zgartirishda yangi neft konlari – Mingbuloq va Ko‘kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, Yangi Angren va Tollimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarilishining ko‘paytirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublikamiz uchun tamomila yangi bo‘lgan avtomobilsozlik sanoatining tashkil etilishi bilan o‘zbekiston Avtotransport ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkilotining 33–to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida respublika yalpi ichki mahsuloti tarkibida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, 2010 yilda 2000 yilga nisbatan yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 1,7 marta oshgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi 1,8 marta, transport va aloqa tarmoqlarining ulushi 1,5 marta, xizmatlar sohasining ulushi esa 1,3 marta oshdi. Natijada yalpi ichki mahsulotning 24 foizi sanoat, 17,5 foizi qishloq xo‘jaligi, 7 foizi qurilish, 7,7 foizi transport, 12,4 foizi aloqa sohalari hissasiga, xizmatlar bo‘yicha esa bu raqam 37 foizdan 49 foizga to‘g‘ri keldi.

o‘zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, tarkibiy o‘zgarishlar tez orada amaliy natijalarini berdi. Jumladan, milliy xo‘jalik iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma’muriy–buyruqbozlik tizimidan meros bo‘lib qolgan bir tomonlamalik va inqiroz holatiga barham berildi. Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta’minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari shakllantirilib, rivojlantirildi.

o‘zbekistonda barqaror o‘sish sur’atlarining ta’minlanishi biz tanlagan islohotlar modelining to‘g‘ri ekani va xalqimizning manfaatlariiga to‘liq javob berayotganini keyingi yillarda iqtisodiyotimizning barqaror sur’atlar bilan o‘sib, yangi marralarga ko‘tarilib borayotgani misolida ko‘rish mumkin. o‘zbekistonda 1996 yildan boshlab iqtisodiy o‘sish ta’minlandi, uning sur’atlari 2001–2003 yillarda o‘rtacha 4 foizdan, 2004–2006 yillarda 7 foizdan, 2007 yildan buyon o‘rtacha 8–9 foizdan yuqori bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayoti, shu jumladan, iqtisodiyot sohasida erkinlashtirish, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta’minalashga qaratilgan jarayonlarning keng amalga oshirilganligi taraqqiyot va o‘zgarishlarga yangi kuch baxsh etdi. Davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalari qisqartirilib, uning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvi cheklandi. Xo‘jalik yurituvchi

subyektlar faoliyatini rag‘batlantirish, ularga qulay iqtisodiy sharoit yaratish maqsadida soliq yuki sezilarli darajada pasaytirildi. Agar iqtisodiyotdagi soliq yuki 2000 yilda YAIMga nisbatan 37,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib u 22 foizni tashkil etdi.

Davlatning ko‘plab boshqaruv funksiyalarining mahalliy va o‘zini—o‘zi boshqaruv organlariga o‘tkazilishi, soliq yukining pasaytirilishi natijasida budjetga tushumlarning ko‘payishi, davlat budgeti xarajatlarini optimallashtirish natijasida respublikamizda uzoq yillardan beri amal qilib kelayotgan byudjet taqchilligining oldi olindi, 2005 yilda YAIMga nisbatan 0,1 foiz, 2006 yilda 0,5 foiz, 2007 yilda 1,1 foiz, 2008 yilda 1,5 foiz, 2009 yilda 0,2 foiz, 2010 yilda 0,3 foiz miqdoridagi profitsit ta’minlandi.

Iqtisodiy islohotlar orqali eng avvalo, iqtisodiy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishning muhim vositasi hisoblangan mulkchilik munosabatlarini mazmunan o‘zgartirishga harakat qilindi. Rejali iqtisodiyot sharoitida, asosan, davlat mulki monopoliyasining hukmronligi va bu munosabatlarga o‘ta rasmiyatchilik bilan yondashuv mulkchilik munosabatlarining samaradorligini deyarli yo‘qqa chiqargan edi. Shunga ko‘ra mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishi ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish muammolar qaratildi.

Iqtisodiyot nodavlat sektorining shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu boradagi islohotlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgani, har tomonlama asoslangani va izchilligini ta’minalash maqsadida hukumat darajasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi ishlab chiqilib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bosqichma–bosqich amalga oshirildi. Jumladan, 1991–2000 yillarda 83,5 mingdan ortiq davlat mulki obyektlari xususiylashtirilgan bo‘lsa, 2001–2009 yillar mobaynida 8919 ta davlat tasarrufidagi korxona va obyektlar xususiylashtirilib, ulardan tushgan pul mablag‘lari hajmi 630 milliard so‘mni tashkil etdi. Birgina 2010 yilning o‘zida 96 ta korxona va obyektlar xususiylashtirilgan bo‘lsa, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan tushgan pul mablag‘lari 23 milliard so‘mni tashkil etdi. Mazkur mablag‘larning barchasi korxonalarining moddiy–texnik bazasini mustahkamlash, ularni texnik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish kabi tadbirlarga yo‘naltirildi. Bugungi kunda ro‘yxatga olingan korxonalarining umumiyligi sonida nodavlat mulk shaklidagi korxonalarining ulushi 92,7 foizga yetdi. Bunday korxonalarining 54,3 foizini fermer va dehqon xo‘jaliklari, 20,8 foizini xususiy korxonalar, 0,9 foizini xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar, 0,3 foizini aksiyadorlik jamiyatları, 16,4 foizini boshqa turdagı korxonalar tashkil etdi.

Mamlakatimizda haqiqiy mulkdorlar sinfining qaror topishi jadal sur’atlarda amalga oshib, tez orada ijobjiy natijalar berdi. o‘zbekistonda iqtisodiyotning nodavlat sektori katta salmoqqa ega bo‘lib bordi. Agar 1990 yilda respublika YAIM umumiyligi hajmining atigi 38,1 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 81,7 foizni tashkil etdi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va chakana savdo aylanmasi eng yuqori salmoq – 99,9 foizga yetdi.

Ma’lumki, kichik biznesning ixchamligi, harakatchanligi, iqtisodiy manfaatlarni nisbatan to‘laroq namoyon etib, bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga tez moslasha olishi kabi xususiyatlari uning iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirishda eng samarali va qulay vositalardan biriga aylantirdi. Mazkur soha taraqqiyoti uchun alohida shart-sharoitlarning yaratilishi, soliq, bojxona va boshqa to‘lov imtiyozlarining belgilanishi, nisbatan arzon kredit resurslarining taqdim etilishi natijasida qisqa davr ichida kichik biznes korxonalarining soni sezilarli darajada oshib bordi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1992 yilda ro‘yxatga olingan kichik biznes korxonalarining soni atigi 16,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2011 yilning 1 yanvariga kelib, bu ko‘rsatkich (fermer xo‘jaliklaridan tashqari) 224,2 mingtaga yetdi, ya’ni deyarli 14 barobar o‘sdi. Amalga oshirilgan chora–tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010 yilda 52,5 foizga yetdi. Holbuki, bu ko‘rsatkich mustaqillikning dastlabki yillarda 1,5 foizni, 2000 yilda esa 31 foizni tashkil etgan edi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligi darajasini oshirishdagi roli ham muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, tadbirkor o‘z mablag‘larini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni paytda daromadlarini oshirish bilan birga jamiyat boshqa a’zolarining ham ish hamda daromad bilan ta’minlanishi uchun moddiy poydevor yaratadi. Mamlakatimizda bu boradagi faoliyat ham kengayib bormoqda. 2000–2010 yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo‘lganlar soni 3,3 marta oshdi. 2011 yilning 1 yanvariga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni 8639,3 ming kishini, shu jumladan, yakka tadbirkorlar 6666,5 ming kishini, kichik korxona va mikrofirmalarda band bo‘lganlar soni 1972,8 ming kishini tashkil etdi. Ushbu soha vakillari tomonidan 2002 yilda 369,3 mingta, 2005 yilda 434,2 mingta, 2006 yilda 290 mingta, 2009 yilda 390 mingta, 2010 yilda 480 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratildi. Umuman olganda, bugungi kunda respublikamizda yangi yaratilayotgan ish o‘rinlarining o‘rtacha hisobda 65 foizi aynan kichik biznes hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2000 yilda har 1000 aholiga 6 ta faoliyat yuritayotgan subyektlar soni to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2010 yilga kelib 15,1 tani tashkil etgan.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar yerning haqiqiy egasi, omilkor va tadbirkor mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, bu, asosan, fermerchilikni jadal rivojlantirish orqali amalga oshirildi. Bunda zarar ko‘rib ishlovchi va istiqbolsiz shirkat xo‘jaliklarini qayta tuzish asosida fermer va dehqon xo‘jaliklariga aylantirish o‘z samarasini berdi. Islohotlar davrida fermer xo‘jaliklari sonining o‘rtacha yillik o‘sishi 173,6 foizni tashkil etdi. Agar islohotlarning dastlabki pallasi – 1993 yilda faoliyat ko‘rsatayotgan dehqon va fermer xo‘jaliklarining soni 7630 birlikdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib 66134 taga yetdi.

Qulay investitsiya muhitining yaratilishi. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo‘lib kelmoqda. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan

chora–tadbirlar natijasida yildan–yilga investitsiya hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Buni birgina yilda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga nazar soladigan bo‘lsak, o‘tgan 2010 yilda 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng bo‘lgan investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko‘pdir. Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob–uskuna va ilg‘or texnologiyalar sotib olishga yo‘naltirildi. Shu boradagi umumiyoq qo‘yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar kreditlar ulushi 28,8 foizni, to‘g‘ridan–to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2010 yilda, umumiyoq investitsiyalar hajmida davlat budgeti mablag‘lari 7,4 foiz, chet el investitsiyalari 28,8 foiz, korxonalar va aholi mablag‘lari 47,3 foizni tashkil etgan.

Bank–moliya tizimining takomillashtirilishi. Bank tizimini takomillashtirish borasida olib borilgan islohotlar natijasida jahonda moliyaviy inqiroz ko‘lamni kengayotganiga qaramay, o‘zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo‘qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta’siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

Mustaqillikning daslabki yillarda respublikamiz bank tizimining umumiyoq joriy likvidligi 1,5 milliard dollardan ortiq bo‘lib, bu tashqi nodavlat qarzlar bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan to‘lovlar hajmidan 10 barobar ko‘pdir. Bu esa bizda likvidlik, ya’ni to‘lovlarga qodirlilik darajasi bo‘yicha muammo yo‘q, deb aytish uchun asos beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish. Mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali ham namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, mustaqil respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyati yangicha mazmun va yo‘nalishlarda deyarli qaytadan tashkil etildi. Ma’lumotlarga ko‘ra o‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 1991 yil 1 yanvar holatiga atigi 30 tani tashkil etar edi. 2009 yilning boshiga kelib bunday korxonalar soni 4,3 mingtadan oshib ketdi, ya’ni 145 barobardan ziyod o‘sdi. Agar tashqi savdo aylanmasi 1995 yilda 6,6 million AQSH dollari hajmini tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 3,3 barobar o‘sib, 21 milliard AQSH dollari hajmiga yetdi.

Mamlakatimizda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari va makroiqtisodiy barqarorlikniig taminlanishi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo‘lidagi qonuniy va mantiqiy jarayon. U, eng avvalo, inqiroz va tanglik hodisalariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda tanglik hodisalarining oldini olish, iqtisodiyotning real o‘sish sur’atlarini ifoda etadigan mezon bo‘lib xizmat qiladigan ko‘rsatkichlarni yaxshilash, shu bilan birga, inqirozga olib kelishi mumkin bo‘lgan ichki sabablarni chuqur o‘rganish, nomutanosibliklarga o‘z vaqtida e’tibor qaratish, zarur chora–tadbirlarini faol amalga oshirish g‘oyat muhim.

o‘zbekiston mustaqilligi uning iqtisodiy taraqqiyotida yangi davr – iqtisodiy yangilanish va barqaror o‘sish davrini boshlab berdi. Yuqorida zikr etganimizdek,

o‘zbekiston o‘z milliy boyligining egasiga aylandi, iqtisodiy taraqqiyotda o‘z yo‘lini tanlab oldi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, milliy manfaatlarimizga mos ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasini shakllantirdi va nihoyat, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mustaqil va teng huquqli ishtirokchisiga aylandi. Mustaqillik yillari davomida iqtisodiyotni yangilash uning ijtimoiy–iqtisodiy tuzilmasini o‘zgartirishdan iborat bo‘ldi. Iqtisodiyotni isloh etish natijasida davlat mulki qat’iy chegaralandi, nodavlat mulk shakllari va eng avvalo, xususiy mulk yuzaga keldi, uning rivojlanishiga ustuvor ahamiyat berildi.

o‘tish davrida davlatimiz o‘z iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish chog‘ida katta istiqbolga ega bo‘lgan tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini har tomonlama rag‘batlantirishga, ya’ni eng muhim yo‘nalishlarning aniqlanishi (neft mustaqilligi, g‘alla mustaqilligi, paxtani qayta ishlash sanoati va hokazo) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo‘yicha izchil siyosat o‘tkazishga e’tibor qaratdi.

Mustaqillikka erishgandan so‘ng yosh respublikamiz oldida juda ko‘p muammolar qatorida aholini oziq–ovqat mahsulotlari bilan uzlucksiz ta’minalash masalasi ham ko‘ndalang turar edi. Yuqorida bayon etganimizdek, eng katta muammo shunda ediki, sobiq Ittifoqning paxta bazasiga aylanib qolgan o‘zbekistonga shu choqqacha ko‘plab turdagи oziq–ovqat mahsulotlari boshqa joylardan olib kelinardi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining asosiy turlarini o‘zimizda yetishtirish va bu mahsulotlar bo‘yicha boshqa mamlakatlarga qaram bo‘lib qolmaslik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy mustaqillikni ham ta’minlovchi muhim omillardan biri edi.

Bu borada iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish eng muhim ijtimoiy–iqtisodiy omil bo‘ldi. Hech kimga sir emaski, investitsiyalar iqtisodiyotning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur’ati va ko‘lamiga ta’sir etadi, ilmiy–texnik taraqqiyotni va aholining ko‘p qismining bandligini ta’minalaydi. Bunga sabab iqtisodiyotimizdagи institutsional o‘zgarishlar, ishlab chiqarish kuchlarining ratsional joylashtirilishi va rivojlanishi ko‘pincha investitsion faollikka bog‘liq yillardan boshlab, investitsyaning eng muhim turi bo‘lgan chet el investitsiyalarini jalb qilishga katta e’tibor berildi.

Barchamizga ma’lumki, mustaqillikni qo‘lga kiritishimiz asosida eski mustabid tuzumning barham topishi, eng avvalo, mamlakatimiz hududi bo‘ylab, qolaversa, jahoning turli nuqtalari bilan tutashtiruvchi, qulay, samarali va eng muhimi, ishonchli avtomobil yo‘llar tizimining barpo etilishini taqozo etar edi. Shunga ko‘ra, hozirgi kunda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o‘zaro ishonchli bog‘laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqish ta’minalaydigan o‘zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilmoqda. Buning natijasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining uzunligi 42530 kilometrga yetdi.

Birinchi prezidentimizning «Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi, o‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralar» nomli asarida mazkur dasturda belgilangan quyidagi kompleks chora–tadbirlar ko‘rsatib o‘tilgan edi:

✓ korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

✓ joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘srimcha omillar yaratish;

✓ qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

✓ elektr energetikasi tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste’molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

✓ jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta’minalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o‘rganishdan asosiy maqsad – aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakatda ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Jahonda ro‘y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta’sirida dunyo bo‘yicha 5 million kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda o‘zbekistonda minglab yangidan-yangi ish o‘rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni yangi ish o‘rinlarini yaratishning o‘ziga xos mexanizmlarining tarkib topgani va uning bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha izchil amal qilib kelayotganidir.

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o‘sish va bandlik sur’atlari aholi farovonligini oshirishni ta’minalamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo‘lib makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o‘sishning tez sur’atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasaygani, iqtisodiyotdagи tarkibiy o‘zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchaygani hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoni shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur’atda o‘sib bormoqda. Aholining o‘sib borayotgan to‘lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste’mol tovarlari hajmi o‘rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta’minalash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to‘ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko‘p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’milanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar

yaratish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatidan yanada samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar «turmush sifati» tushunchasi bilan tavsiflanadi. Turmush sifati ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi.

Aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jarayonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun yetkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mustaqillikka erishilgach, aholi uy–joylari va xonadonlarni gazlashtirishga katta e’tibor qaratildi. Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarning gaz bilan ta’minlanish darajasi o‘rtasidagi tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berildi.

Buning natijasida 2010 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagи xonadonlarning gaz bilan ta’minlanish darajasi shahar joylarda 85 foizni, qishloq joylarda esa 78,7 foizni tashkil etdi. Shu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 4270,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.

Tijorat banklari kreditlari va ularni ko‘paytirish. Mamlakatimiz bank tizimida kreditlash shakllaridan keng foydalanish mijozlarning kreditlarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga, banklarning kredit operatsiyalari ko‘lamli kengaytirishga, kredit riskini ma’lum darajada minimallashtirishga va nihoyat, banklarning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlari oshishiga olib keldi.

Iqtisodiyot tarmoqlari ichida sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida band bo‘lgan aholi ulushi kamaygan, qolgan tarmoqlarda esa ortgan. Shu o‘rinda aytish joizki, mamlakatimizda keng bunyodkorlik ishlarining jadal amalga oshirilgani natijasida qurilish tarmoqlarida mehnat qilayotganlar ulushi jadal sur’atlarda ko‘paymoqda. Bu holatni, ayniqsa, qishloq joylarda yaqqol ko‘rish mumkin, chunki qurilish sohasida band bo‘lgan qishloq aholisi soni 1991 yilga nisbatan 2,4 martaga o‘sgan.

Respublikaning barcha hududlaridagi Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan band bo‘lмаган aholiga ko‘rsatilayotgan xizmat ko‘rsatish sifati va turlarini kengaytirish bo‘yicha qator chora–tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2010 yilda Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlari tomonidan ro‘yxatga olingan 658,2 ming kishidan 566,3 mingtasi (o‘tgan yilning shu davriga qaraganda 4,4 foizga o‘sish) ishga joylashtirildi. Ulardan 97,3 ming kishi kvotali ish o‘rinlariga ishga joylashtirildi. 50 ta kasb–hunar yo‘nalishi bo‘yicha 16,8 mingga yaqin ishsiz fuqaro kasbga qayta tayyorlandi (2009 yilning shu davriga qaraganda reja 83,1 foizga bajarilgan). Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga 78,9 ming kishi jalb qilindi (216 foiz o‘sish).

Har bir yirik qishloq aholi punktida aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ishga joylashtirish bo‘yicha statsionar punktlar tashkil qilingan va faoliyat ko‘rsatilmoqda. Respublikada, qishloq aholisi uchun qulayligi hisobga olingan holda, jami 1372 ta shunday punkt tashkil qilindi. Har bir punktda o‘rtacha 10–12 ming nafar qishloq aholisi yoki 2–2,5 ming oilaga xizmat ko‘rsatilmoqda.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish – demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti nima?
2. Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat tamoyillarining o'zaro bog'liqligini qanday ifodalaysiz?
3. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi vakolatlarini cheklash va nomarkazlashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta bozori nima?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
7. Iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olish demokratik jamiyat qurishning qanday sharti hisoblanadi?

## **8–MAVZU: o‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY o‘ZGARISHLAR**

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi.
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yo'l-transport muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.
4. o'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

### **1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi.**

Aholi bandligini ta'minlash va real daromadlarini izchil oshirish. Inson uchun bu dunyoda nima kerak? Samarali mehnat uchun zarur sharoit, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joy, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar – bularning hammasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan omillardir.

Bundan tashqari, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish, pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini so‘zsiz ta‘minlash, ularning o‘zbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni to‘siqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2–fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–2753–son qarori qabul qilindi.

**Mazkur qarorga asosan 2017 yilning fevral oyidan boshlab:**

barcha turdagи pensiyalar butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlar siz to‘liq hajmda naqd pul shaklida beriladi;

58 ta tog‘li va olis tumanlardagi byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to‘lash, ijtimoiy to‘lovlар hech qanday cheklovlar siz to‘liq hajmda naqd pul shaklida amalga oshiriladi;

oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiyalarning kamida 50 foizi naqd pul shaklida beriladi.

Bundan tashqari, hududlarda shakllangan ish haqini naqd pul shaklida hamda plastik kartalarga o‘tkazish yo‘li bilan to‘lashda odamlar o‘z ish haqidan foydalanishda muammolarga duch kelmasligi va o‘zlariga kerakli tovar va xizmatlarni erkin xarid qilishlari uchun mavjud to‘lov terminallari infratuzilmasi hisobga olinadi.

Mamlakatimizda aholi bandligini ta‘minlash ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, xalq tur mush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan. Yurtimizda har yili milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, hududlar bo‘yicha mehnat resurslaridan yanada to‘liq va oqilona foydalanish, aholining ijtimoiy muhofazasini ta‘minlashga qaratilgan tegishli dasturlar qabul qilinayapti.

Milliy mehnat bozorining e’tiborga loyiq o‘ziga xos xsususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi (har yili yarim milliondan ortiq bitiruvchilar ishga joylashish bo‘yicha ko‘makka muhtoj);

700 mingdan ortiq ishsizlarning, shuningdek, ishchi kuchining talab va taklifi bo‘yicha nomutanosiblikning mavjudligi;

ayrim tumanlarda ishsizlik va norasmiy sektorda ish bilan bandlikning yuqori darajasi kuzatiladi.

Yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo‘lsa–da, 2016 yilda Bandlikka ko‘maklashi markazlari 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog‘liq.

Bunday holat bandlikka ko‘maklashishning faol siyosat choralarini amalga oshirish, ya’ni ish o‘rinlarini yaratish, avvalo yoshlarni va ijtimoiy yordamga muhtoj toifalarini ish bilan ta‘minlash, tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish chorasini ko‘rishga zaruriyatini kelitirib chiqaradi. Mehnat vazirligi ma'lumotlariga

ko‘ra, 2016 yilda Bandlikka ko‘maklashish markazlariga ish so‘rab murojaat qilganlarning 93,2 foizi ishga joylashtirilgan.

o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20–apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish darajasi indikatorlarini har chorakda baholash tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 117–son qaroriga ilovada ishsizlik darajasini baholash mezoni keltirilgan. Unga ko‘ra, respublikada ishsizlik darajasi (5,3 foiz) mo‘tadil hisoblanadi. Ammo respulikada ishsizlik darajasi bir muncha yuqori bo‘lgan, tog‘li, chegara oldi hududlarida joylashgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan 34 ta tuman mavjud. Mazkur tumanlarda ishni o‘rni tashkil etishga aholi bandligini ta‘minlash dasturlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan va 2017 yilda shu tumanlarda 46,8 mingta ish o‘rni tashkil etish rejalashtirilgan.

Yangi ish o‘rinlarini tashkil etishda erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni katta. Xususan, respublikada “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalari tashkil etildi. Keyinroq, 2017 yilda “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon”, “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalari tashkil etildi. Bu iqtisodiy zonalarda meva–sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to‘qimachilik, gilam to‘qish, poyabzal va charm–galanteriya, ekologik xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq–ovqat, elekrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda yangi zamонавиј ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etish yangi ish o‘rinlari yaratilishiga zamin yaratadi.

“Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi o‘zbekiston Respublikasi qonuni. Qonun mehnat migratsiyasi siyosatining asosiy yo‘nalishlari, fuqarolarning chet ellarda ishga joylashtirishning mexanizm va shakllari, mehnat migrantlari bilan ishlash sohasidagi davlat diplomatik vakolatxonalarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari, chet ellarda ishga joylashtirishning mexanizm va shakllari, mehnat migrantlari bilan ishlash sohasidagi diplomatik vakolatxonalarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari, chet elda o‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash va ularning ijtimoiy himoyasi masalalarini qamrab oladi.

“Aholi bandligiga ko‘maklashish nodavlat tashkilotlari (rekruting agentliklari) to‘g‘risida”gi qonuni. Qonunda mehnat bozori infratuzilmasini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash imkoniyatlarini, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish. o‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida ijtimoiy sohaning aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarining ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni

yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yo'l-transport muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalar-ni rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Respublikamizda 2010–2016 yillarda keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta Sahovat va Muruvvat uylari moddiy-texnika bazasi, 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensioner, nogironlarning turar joy sharoitlari yaxshilandi. 5,4 ming odam rehabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandi. 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriyalarda sog'liqlarini tikladi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiyligi hajmi 132,2 milliard so'mni tashkil etdi.

Keksalarni qo'llab-quvvatlash davlat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash sohasida katta avlod vakillarining rolini oshirish massadida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 28-sentyabrda "o'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4906-son Farmoni hamda "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2705-son Qarorining qabul qilinishi bu borada islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishi bo'ldi. Mazkur farmon va qarorda keksalar va faxriylarni ijtimoiy faoliyatga jalgan etish, joylarda keksalar turmush sifatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda yolg'iz va muhtoj keksalarga ijtimoiy va moddiy ko'mak ko'rsatish, "Nuroniy" jamg'armasi markaziy apparatini, uning viloyat va tumanlardagi bo'linmalarini moddiy qo'llab-quvvatlash, kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash uchun 2,8 million keksa yoshdagilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va keksa yoshdagagi shaxslarni to'lovsiz asosda davolash va sog'lomlashtirish ko'zda tutilgan edi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturni moliyalashtirishga 688,2 milliard so'm yo'naltirildi, shuningdek, xalqaro moliyaviy tuzilmalarning 108,7 million AQSh dollari hajmidagi kredit va grant mablag'larini jalgan etish ko'zda tutilgan edi.

Bugungi kunga kelib aholini ijtimoiy himoyalash dasturidan kelib chiqib, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, keksalarni qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi va o'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi bazasida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish xalq manfaatlarini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Aynan shu sohani rivojlantirish hamda kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish maqsadida o'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 5–yanvar va 7–fevral kunlari sog‘liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashti.

Sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini, mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, davolashning zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratdi.

Birlamchi tibbiyot muassasalari, ayniqsa, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, patronaj xizmati, tez tibbiy yordam tizimining faoliyati hamon qoniqapsiz ahvolda qolib kelayotgani, shifoxonalar va aholini dori–darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minalash, jumladan, ijtimoiy dorixonalar tashkil etish bo‘yicha ishlar qoniqarli emasligi qayd etildi. Prezident Sh.Mirziyoyev qishloq vrachlik punktlarini brigadalarining isloh qilish samaradorligining pastligi, bugungi kunda ularda 2 ming 500 nafar vrach yetishmasligi, bu maskanlarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va dori vositalari bilan ta’minalash darajasi juda past, diagnostika darajasi pastligi va vrachlarning malakasi yetarli emasligi, tez tibbiy yordam tizimida jiddiy kamchiliklar mavjudligi ta’kidlandi.

Xalqaro mehnat tashkilotining mehnatkashlar faoliyati bo‘yicha byurosi (ACTRAV) direktori Mariya Helena Andrening ta’kidlashicha, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar aholini kuchli, aniq va manzilli ijtimoiy himoyalash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini himoyalash, islohotlarga davlat idoralari bilan birga jamoat tuzilmalarini ham jalb etishda namoyon bo‘lmoqda.

Bu jihatlar Kasaba uyushmalari federatsiyasi faoliyatida ham ko‘zga tashlanmoqda. Yurtimizdagи yetakchi jamoat tuzilmasi sanalgan mazkur tashkilot nainki mehnatkashlar uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, balki xodimlar bilan birga ularning oila a’zolari manfaatlarini himoyalash, salomatligini asrash, moddiy va ma’naviy qo‘llab–quvvatlashga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Bu yo‘nalishdagи tadbirlar o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Savdo–sanoat palatasi o‘rtasida imzolangan Bosh kelishuvga kiritilgan, mazkur hujjat asosida 100 dan ortiq tarmoq, 14 ta hududiy kelishuv va bevosa korxona, tashkilot va muassasalarda 171 mingdan ortiq jamoa shartnomalarida o‘z aksini topgan.

o‘zbekiston Kasaba uyushmalari mazkur lokal hujjatlarga muvofiq xodimlarning real daromadlarini bosqichma–bosqich oshirish, mehnat bozorida talab katta bo‘lgan kadrlarni tayyorlash tizimini kengaytirish, ish bilan band bo‘lman aholi vakillarini kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash ishlarida hamkorlik qilmoqda. Kasaba uyushmalari federatsiyasining dasturiy hujjatlariga muvofiq, aholining ehtiyojmand qatlamlari manfaatlarini himoyalashga ko‘maklashish, yolg‘iz keksalar, nuroniyalar, tibbiy ko‘makka muhtoj odamlar, kam ta’minalangan, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab–quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlat organlari, ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish,

bandlikning noan'anaviy shakllaridagi mas'ul kishilar va ularning oila a'zosini ijtimoiy himoyalashga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

– o'zbekistondek ajoyib diyorga kelganimdan g'oyat mammunman, – deydi norvegiyalik ekspert, iqtisodchi olim Erik Raynert. – Kecha Samarkand shahrini ko'rish imkoniga ega bo'ldik. Bu yerda avvalgi zavod o'rnida Yaponiya bilan hamkorlikda qo'shma korxona barpo etilgani, unda ishlab chiqarish, bandlikni ta'minlash kabi dolzarb masalalar munosib tarzda hal etilgani e'tiborga molikdir. o'zbekiston Prezidenti tomonidan tashabbus qilingan ezgu islohotlar davlat idoralari, jamoat tuzilmalari, odamlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

– Yurtingizdagi islohotlar aholining barcha qatlamlari hayotida, ongu tafakkurida yuz berayotganiga guvoh bo'ldik, – deydi Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi Umumevropa mintaqaviy kengashining ijrochi kotibi Anton Leppik. – Bu ijobiy o'zgarishlar ochiqligi, kamchiliklarga murosasizligi, oddiy odamlarga g'amxo'rlik ko'rsatishga, aholining turmush tarzi farovonlashuviga yo'naltirilganida yaqqol sezilmoqda. Davlat organlari bilan birga jamoat tuzilmalari qatorida kasaba uyushmalari ham ezgu o'zgarishlarda faollik ko'rsatayotgani diqqatga sazovor.

– Tibbiyat, ijtimoiy muhofaza, ta'lif, sud-huquq sohalaridagi tub o'zgarishlar jarayonida o'zbekiston o'ziga xos yo'ldan borayotgani, bunda odamlarning maqsad-muddaolari e'tiborga olinayotganining guvohi bo'ldik, – deydi Malayziya kasaba uyushmalari kongressi raisi Tan Eng Xong. – Kam ta'minlangan oilalarni arzon uy-joylar bilan ta'minlash, mehnat jamoalarida farzand ko'rish arafasidagi ayollar uchun yaratilgan imtiyozlar menda katta taassurot qoldirdi.

Birinchi yalpi majlisdan so'ng konferensiya ishi "Aholining real daromadlari hamda bandligi darajasini izchil oshirib borish", "Aholining ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini muhofaza qilish davlat tizimini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish", "Aholining turmush sifati: arzon uy-joylar qurish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish", "Ta'lif va fan sohasidagi yoshlarga oid davlat siyosati: milliy, xorijiy va xalqaro tajriba" mavzularida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Xalqaro konferensiya doirasida xorijlik ekspertlar yurtimizdagи ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, sog'liqni saqlash sohasidagi ishlar, ta'lif, ijtimoiy infratuzilma, arzon uy-joylar, ish joylaridagi mehnat sharoitlari, davlat organlari, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar hamkorligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish maqsadida Toshkent va Samarkand viloyatlariga tashrif buyurdilar. Ijtimoiy obyektlarda fuqarolar uchun mavjud imtiyoz va imkoniyatlar, mehnat joylarida xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar, davlat organlari, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar ijtimoiy sherikligi natijasida xodimlar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasidagi amaliy ishlar bilan yaqindan tanishdilar.

Harakatlar strategiyasi doirasida 2017–2021 yillarda 220 million so'm evaziga ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun tibbiy-ijtimoiy patronaj brigadalarining kuchi bilan tog'li, cho'l va borish qiyin bo'lgan hududlarda aholi

tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi, ekologik jihatdan noqulay mintaqalarda yashovchi (Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va QQR) aholisi uchun “Salomatlik” poyezdlari tashkil etiladi. Borish qiyin bo‘lgan hududlarda yashovchi aholini chuqur tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish orqali aholining ijtimoiy holatini aniqlab, sog‘lom oila shakllatiriladi va aholida tibbiy savodxonlik madaniyati oshiriladi.

Onalar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini oshirish, onalar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga yuqori malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida 5,8 million AQSh dollari miqdorida, Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, “Salomatlik-3” loyihasi mablag‘lari hisobidan onalar va bolalarga yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tuman va shahar tibbiyot birlashmalarining 40 ta tug‘ruq bo‘limi negizida tumanlararo perinatal markazlar tashkil etish ko‘zda tutilgan edi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Xotin-qizlar tashkiloti o‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkiloti nomi bilan 1991 yilda tashkil etilgan edi. 2019-yilda respublikadagi “Mahalla” xayriya jamg‘armasi, keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi va o‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasi tashkiloti birlashtirilib, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25-maydagi “o‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ushbu tuzilma faoliyatini yangi bosqichga ko‘tardi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, oila va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, oila, onalik hamda bolalikni muhofaza qilishda o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, o‘nlab qonunlar, saksonga yaqin farmon va qarorlar, davlat dasturlari huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Asosiy qonunimizning 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi belgilab qo‘yilgani ularning davlat hamda jamiyatni boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish, yurtimiz ravnaqi yo‘lida bor salohiyat va imkoniyatilarini ishga solib, mehnat qilishlariga sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz xotin-qizlar huquqlariga oid ko‘plab xalqaro konvensiya, bitim hamda shartnomalarga ham qo‘silgan.

Yurtimiz xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy maydonidagi faolligini ko‘tarish maqsadida 2004 yilda respublika saylov qonunchiligidagi kiritilgan o‘zgartishga ko‘ra siyosiy partiyalardan vakillik organlari hamda parlament deputatligiga nomzod ko‘rsatishda xotin-qizlar uchun 30 foizlik kvota joriy etildi.

15 ga yaqin ayollarga o‘zbekiston Qahramoni unvoni berilgan, Konstitutsiyaviy sud tizimida sudyalar sonining 20 foizini, Oliy sud sohasida 15,0 foizni, ishlab chiqarish tizimida 42,8 foizni, qishloq xo‘jaligida qariyb 43,0 foizni, madaniyat va ilm-fan sohasida 72,9 foizni, sog‘liqni saqlash tizimida 75,3 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, xotin-qizlar tomonidan 300 dan ortiq doktorlik, 3 mingga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Respublika xotin-qizlar jamoat tashkilotlari ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta‘minlash, xotin-qizlarning ma’naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining

samaradorligini oshirish maqsadida “Xotin–qizlarni ijtimoiy qo‘llab–quvvatlash markazlari faoliyatini rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori ishlab chiqilib, unga ko‘ra ayollar muammolarini hal etishning samarali tizimi yaratildi.

Mamlakatimizda sog‘lijni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, aholi va davolash muassasalarini sifatli, xavfsiz va arzon dori–darmon vositalari bilan ta‘minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod farmatsevtika korxonasi faoliyat ko‘rsatib, ular tomonidan 2 mingdan ortiq turdagি dori–darmon vositalari ishlab chiqarilmoxda. Shuningdek, dori vositalarini ishlab chiqarish va ular bilan aholi hamda davolash muassasalarini ta‘minlash maqsadida mazkur sohadagi ishlarni tashkil etishning mustahkam huquqiy asoslari barpo etildi. Yigirmadan ortiq qonun, bir yuz yigirmadan ziyod me’yoriy–huquqiy hujjatlar bu yo‘nalishdagi ishlarni tartibga solishda arzon va sifatli dori–darmonlar muhim huquqiy asos bo‘lmoqda.

Aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta‘minlovchi yo‘l–transport, muhandislik–kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish. o‘zbekistonda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan islohotlar jarayonida aholining turmush farovonligini hamda hayot sifatini oshirish yuzasidan katta yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi.

Shu bilan birga respublikamizda jadal sur’atlar bilan zamonaviy yo‘l–transport va muhandislik–kommunikatsiya infratuzilmasi tashkil qilinmoqda. Jumladan, Qamchiq dovonidan o‘tadigan , noyob tog‘ tunnelini o‘z ichiga olgan Angren–Pop temir yo‘l tarmog‘i, Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on temir yo‘li qurildi. Toshkentdan Samarcand, Qarshi va Buxoroga qatnovchi yuqori tezlikdagi temir yo‘l qatnovi ochildi. Xalqaro aeroportlar modernizatsiya qilindi va o‘zbekiston milliy avtomagistrali barpo etildi.

Shularni hisobga olib, 2017–2021–yillarda o‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan:

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy–joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yaxshilash;

aholining kommunal–maishiy xizmatlar bilan ta‘minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma–bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta‘minlash, maishiy chiqindilarini qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy–texnik bazasini mustahkamlash, chiqindilarini yo‘q qilish bo‘yicha zamonaviy ob‘yektlar bilan ta‘minlash;

aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof–muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo‘l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, aholi punkti ko‘chalarini kapital va joriy ta‘mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta‘minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Ushbu ustuvor vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida amalga oshirishga doir kompleks tadbirlar ishlab chiqilgan. Ularga ko‘ra, 2017 yilda aholiga qishloq joylarda yangi namunaviy loyihamar asosida 15000 ta arzon uy-joy qurilishi belgilangan edi. Buning uchun davlat byudjetidan va aholining mablag‘lari hamda tijorat banklari kreditlari hisobidan 2121526,6 million so‘m sarflanishi belgilangan.

Jahon banki ishtirokida Sirdaryo viloyati Boyovut, Xovos, Mirzaobod, Sardoba va Oq oltin tumanlari, Buxoro viloyati Olot va Qorako‘l tumanlaridagi ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash loyihasi hamda Buzoro va Samarqand shaharlarida kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish loyihamar amalga oshirildi.

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Farhona, Marhilon va Jizzax shaharlarida kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish hamda Toshkent viloyati Qibray va Zangiota tumanlarida ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash loyihamarini amalga oshirish ko‘zda tuilgan.

Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida Samarqand viloyati Qo‘srobot tumanı qishloq aholisining ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash hamda Islom taraqqiyot banki ishtirokida Sirdaryo viloyatining Guliston, Yangiyer va Shirin shaharlarida kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish loyihamar amalga oshirilishi belgilangan.

Natijada aholi keng qatlamlari, ayniqsa, qishloq aholisi uchun yanada qulay va munosib ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratiladi. Hududlarda 995,9 km ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, 672 aholi punktida ichimlik suvi ta‘minoti yaxshilanadi. Tumanlar va shaharlarning ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlari rivojlanadi va modernizatsiya qilinadi.

o‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida aholiga transport xizmati ko‘rsatish tizimini yaxshilash vazifasi qo‘yilgan. Unga muvofiq mamlakatimiz hududlarida 86 ta yangi avtobus yo‘nalishlari tashkil etiladi. Yo‘lovchi tashish korxonalarini tomonidan 537 ta yangi avtobuslar sotib olinadi va qatnovga qo‘yiladi.

Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish. Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma‘no-mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqqib, uni quyidagicha izohlash mumkin:

yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarini paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir;

ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi;

ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi;

fan jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlari belgilangan.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi ta'lim dastrularining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

Maktabgacha ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim.

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.

Oliy ta'lim.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Maktabdan tashqari ta'lim.

Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi, taraqqiyotning 16 foizi – moddiy-texnik bazaga, 20 foizi – axborot resurslariga, 64 foizi – inson omiliga bog'liq. Bu uch omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiyaning moddiy-texnik bazasi, mavjud resurslaridan, imkoniyatlardan oqilona foydalanish inson manfaatiga xizmat qiladi va uning ratsional rivojlanishini belgilab beradi.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan xorijiy texnik yordam hajmi tobora ortib bormoqda. o'tgan davrda bu boradagi yordam 500 million dollardan ortib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining salkam 290 million dollar mablag'i, Janubiy Koreya hukumatining 110 milliondan ortiq, Jahon bankining 33 million, OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 million, Germaniya hukumatining "KfV" banki orqali yo'naltirilgan qariyb 20 million va boshqa donorlarning 100 million dollardan ortiq yordamini qayd etish lozim. Bu esa ta'lim jarayonining bevosita davlat nazoratida ekanining so'zsiz isbotidir. Ya'ni, davlat ertangi kun istiqbolini o'ylab, ta'lim jarayonida ana shunday yirik islohotlarni amalga oshirmoqda.

Ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini jadal rivojlantirish uchun 2015

va 2016 yillarda davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo‘naltirildi. Shu jumladan, ta’lim va ilm–fanni rivojlantirishga 34,3 foiz mablag‘ sarflandi.

Bugungi kunda ta’lim davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Davlat byudjetidan ta’limga ajratilgan mablag‘lar byudjet xarajatlar qismining 33,7 foizi darajasida rejalashtirilib ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YIM tarkibida 10–12 foizni tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko‘rsatkich 3–5 foizdan oshmaydi. Mamlakatimizda qariyb 9,5 ming maktab mavjud. Bu o‘quv maskanlarni zamонавиу о‘quv laboratoriya, mebel jihozlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga, ta’lim sifati va mazmuniga yuksak e’tibor qaratilmoqda.

Umumiy o‘rtalikta ta’lim sifatini oshirish, fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganishga yangicha yondashuv – barkamol avlodni tarbiyalash garovi. Bugungi kunda millionlab bolalarimiz yangidan barpo etilgan va rekonstruksiya qilingan 10 mingga yaqin maktablarda, 1,5 mingdan ortiq litsey va kollejda, 100 dan ortiq oliy o‘quv yurtlarida yangi ta’lim tizimi asosida bilim va tarbiya olmoqda.

Umumiy o‘rtalikta ta’lim tizimi islohotlarini yanada demokratlashtirish tufayli chet tillar hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqur o‘rganish yoshlarni bilim va salohiyatini yanada oshirishga, mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda yurtimizdagi umumtalim maktablarida 389 ming 740 nafar pedagog faoliyat yuritmoqda. Jumladan, 2016 yilda o‘qituvchilar bilim darajasini o‘rganish bo‘yicha sinovlar o‘tkazildi. Jami 20 ming 119 nafar o‘qituvchidan 17250 (89,5 foizi) nafari sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Qolgan 2869 nafar o‘qituvchi navbatdan tashqari malaka oshirish kurslarida o‘z bilimini oshirib bormoqda.

Yangi professional kasb ta’limi tizimi. 1997 yil 29–avgustda qabul qilingan o‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga asosan joriy qilingan 9 yillik umumiy o‘rtalikta ta’lim va 3 yillik o‘rtalik maxsus kasb–hunar ta’limi tizimi vaqt o‘tishi bilan kutilgan natijani bermadi. Shuning uchun 2017–2018 o‘quv yilidan boshlab 11 yillik umumiy o‘rtalikta ta’limga va 2020–2021 o‘quv yilidan boshlab kasb–hunar ta’limining quyidagi toifalariga o‘tildi.

2020–2021 o‘quv yilidan professional ta’lim tizimida Respublika bo‘yicha jami 726 ta ta’lim muassasalari, ya’ni 339 ta kasb–hunar maktablari, 211 ta kollejlar va 176 ta texnikumlar faoliyat ko‘rsatadi.

Ushbu uch toifadagi professional ta’lim muassasalarida Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan ta’lim dasturlari asosida oilaviy biznes, qurilish, xizmat ko‘rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim o‘rin egallagan 200 dan ortiq ishchi kasblari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o‘tishda oliy ta’lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishdagi ustuvor vazifalar. Respublikamizda 2017 yilda oliy ta’lim muassasalari soni – 60 ta, Oliy o‘quv yurtlari filiallari soni – 11 ta, xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarining filiallari 7 tani tashkil etar edi.

2016 yildan boshlab o‘zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan o‘zbekistonda ta’limning hamma bosqichlarida tub o‘zgarishlar davri boshlandi. 11 yillik umumiy o‘rtta ta’lim, ikki yillik kasb–hunar maktablari, yangi tipdagi 2 yiilik kollejlar va bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiyalashga texnikumlar tashkil etilishi boshlandi.

Oliy o‘quv yurtlariga qo‘yilayotgan talablar va ularga talabalar qabul kvotalari oshirildi. Agar 2016–2017 o‘quv yilida oliy o‘quv yurtlariga qabulda bitiruvchilarining 9 foizi qamrab olingan bo‘lsa, 2019–2020 o‘quv yilida 20 foizi, 2020–2021 o‘quv yilida esa 36 foizi qamrab olinmoqda. Ko‘plab xorijiy davlatlarning oliy ta’lim muassasalarining filiallari ochildi. Oliy ta’limda kechki va sirtqi ta’lim shakli tiklandi.

Agar iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, bu yuksalish zamirida ilm–fanni tubdan rivojlantirish turganiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun Yaponiyani olaylik, bu mamlakat ikkinchi jahon urushidan so‘ng juda og‘ir ahvolga tushib qolgan edi. o‘sha vaqtida bu mamlakat asosiy etiborini ilm–fanni rivojlantirishga, yoshlarga bilim berishga qaratdi. Natijada ilm–fanga ajratilgan sarmoya bugungi kungacha o‘zining ijobjiy samarasini berib kelmoqda. Bugun ilm–fanga qaratilayotgan e’tibor ham uzoqni ko‘ra bilish, yorug‘ kelajak sari tashlangan qadamdir.

Prezident Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm–fan namoyondalari bilan uchrashuvida ko‘p masalalar muhokama qilinib, taklif va mulohazalar o‘rtaga tashlandi, dolzarb masalalar tilga olindi:

Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e’tirof etilgan olimlar ko‘pligi, ular o‘z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim.

Jahonning yetakchi institutlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish. o‘zbek olimlari juda katta zaxira to‘plaganlar, uni rivojlantirish zarur.

Yuqori salohiyatga ega kadrlar tayyorlash masalasini takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar, dunyo darajasidagi olimlar avlodini tayyorlash zarur.

Ilm–fan iqtisodiyotning barcha tarmog‘i taraqqiyotida katta o‘rin tutadi, davlat esa bu yo‘lda avvalo, olimlarga suyanadi. Chunki, ilm–fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiya bo‘lishi – dolzarb masala.

Prezident Sh. Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14–yanvardagi kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida ilm–fan sohasidagi ikkita asosiy vazifani hal etish lozimligini qayd etdi:

1. Ilmiy muassasalarining moddiy–texnik bazasini ilg‘or xorijiy markazlar darajasida va olimlarning talablariga muvofiq, sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari hisobga olinishi shart.

2. Akademiklarni har tomonlama qo‘llab–quvvatlash, jumladan moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha aniq chora–tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” Qonuni qabul qilindi. Qonunda “Yoshlarga oid davlat

siyosati” tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart–sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy–iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora–tadbirlar tizimi tushuniladi, deyilgan.

Yosh avlodni tarbiyalash, uning ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida kompleks chora–tadbirlar rejasidishlab chiqilgan. Bu chora–tadbirlar quyidagilardan iborat:

“Biz – Vatanga tayanchmiz”, “Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz – yoshlar” degan shiorlar ostida aksiyalar tashkil etish;

“Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini boyitish va yuksaltirish omili” mavzusida yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, adabiyotshunos olimlar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish;

Vatanimiz ravnaqini ta’minalashda yoshlarning mas’uliyatini oshirishga qaratilgan “eng buyuk jasorat – ma’naviy jasoratdir” mavzusida davra suhbatlari tashkil etish,

Yoshlar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, yoshlarda Internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminar–treninglar tashki etish;

“Fuqarolik jamiyatida shaxs tarbiyasi va unda oila institutining o‘rni” mavzusida ilmiy–amaliy anjuman (konferensiya) o‘tkazish.

Yoshlarni kitobga oshno qilish, ularni madaniyat va san’at asarlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan hunarmandlik an'analarini targ‘ib qilish , yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va kasb–hunarga qiziqishini oshirish maqsadida “Xalq amaliy san’ati – yoshlar qalbida” xalqaro amaliy san’at ko‘rgazmasini o‘tkazish belgilangan.

Belgilangan dasturlarni bajarilishida yoshlarni ishtirokini ta’minalash ularni faolligini oshiradi.

### **3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.**

Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. o‘zb. Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g’risida”gi qonunida (14.04.1999–y.) Nodavlat notijorat tashkilotlariga shunday ta’rif beriladi: “Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini–o‘zi boshqarish tashkilotidir”

#### **Nodavlat notijorat tashkilotlari;**

- Siyosiy partiyalar;
- Iqtisodiy birlashmalar (assotsiatsiyalar);
- Jamoat birlashmalari;
- o‘zini–o‘zi boshqarish organlari;
- Nodavlat notijorat tashkilotlari;

- Jamoat fondlari (Amir Temur, Bobur va “Oltin meros” xalqaro jamg’armalari);

- Ommaviy harakatlar (“Yoshlar ittifoqi”, o‘zbekiston Ekologik harakati);
- Diniy tashkilotlar;
- Erkin ommaviy axborot vositalari.

Aholiga, ayniqsa og‘ir turmush sharoitiga tushib qolgan va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish o‘zbekistonda amalga oshirilayotgan manzilli ijtimoiy himoya qilish siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat tashkilotlari bilan birgalikda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faol va tobora o‘sib boruvchi o‘rin tutmoqda. NNT kam ta’minlangan oilalarga, imkoniyatlari cheklangan shaxslarga, yetim bolalarga, yolg‘iz, keksa, o‘zgalarning yordamiga muhtoj bo‘lgan shaxslarga hamda aholining boshqa zaif toifalariga kompleks moddiy, ijtimoiy, maslahat, huquqiy, psixologik xizmatlar va boshqa xizmatlar ko‘rsatmoqda.

NNT tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning dolzarbligini belgilash, ushbu sohada asosiy vazifalar va xavf–xatarlarni aniqlash, NNT salohiyatidan foydalanishni yanada oshirishga doir takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish ushbu tahliliy ma’ruzaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mehnat vazirligi va BMTTDning “Bandlikni ta’minlashda ijtimoiy sheriklik” deb nomlangan qo‘shma loyihasi doirasida tayyorlangan ma’ruzada:

- ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi NNTning afzalligi ko‘rib chiqiladi;
- NNT orqali ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq xavf–xatarlar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari qayd etiladi;
- NNT tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi, ularni hal etish yo‘llari taklif etiladi;
- ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi NNTni yanada qo‘llab–quvvatlashning maqsadga muvofiqligi asoslanadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo‘lgan nodavlat notizhorat tashkilotlar (NNT) dastlab jamiyatni o‘zini–o‘zi boshqarishi asosida, yani fuqarolik jamiyatining mustaqil izhtimoii birlik sifatida yashashini taminlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo‘ldi. XX asrga kelib nodavlat–notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g’risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun, avvalo, manfaatlari, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy manfaatlari tushunchalariga aniqlik kiritishga ehtiyoj seziladi. Malumki, manfaatlari –individlar va guruhlarning ijtimoiy hatti–harakatlarini belgilovchi sabablardir. o‘z vaqtida Tomas Gobbs «hokimiyatga intilish, inson xulqini harakatga keltiruvchi kuchlarning o‘zaro dushmanligi – shaxsiy manfaatlarning mantiqiy natijasidir» manfaatli bo‘lishining subyektiv irodasi shunga tengki, men harakat qilayotganimda men ishtirok etishim lozim» – deb ko‘rsatgan edi. Ma’lumki, rivojlangan mamlakatlarda hukumat alohida olingan fuqarolarga nisbatan ular a’zo bo‘lgan ijtimoiy guruhlar vositasida ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy guruhlarni birlashishga, harakat qilishga undovchi kuch,

bu ularning manfaatlaridir. Manfaatlar alohida ijtimoiy guruhlarning manfaatlari sifatida shakllangan bo‘lsa-da, bu guruhlarning a’zolari faqat mazkur bir guruhning emas, balki bir vaqtning o‘zida boshqa izhtimoiy guruhlarning ham a’zosi bo‘lishi mumkin.

Fuqarolarning ma’lum bir ijtimoii guruhga mansubligidan kelib chiqib nodavlat notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg’unlashuvi ro‘y beradi. Qaysi individning qanday ijtimoiy ahamiyatli guruhga a’zoligi, uning manfaatlarining qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, u o‘zining muhimroq bo‘lgan ijtimoiy guruh a’zoligiga ko‘proq e’tibor beradi. Ana shunday ahamiyatli guruhlar ta’siri ijtimoiy tuzulmalar irodasini ifodalaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo’llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o‘z iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko‘maklashmoqda. Fuqarolik jamiyatni institutlarining rivojlanib borgani sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchayib bormoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta’sirchanligi bois kishilar qalbida va ongida jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub ijobiy o‘zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

Jamiyat va uning a’zolari davlatga nisbatan ustunlikka ega bo‘lishi fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Agar “jamiyat” tushunchasini makonu zamonda mavjud bo‘lgan, turmush tarzi va manfaatlari mushtarak bo‘lgan insonlarning o‘zaro aloqadorligini ifodalovchi birlik deb tushunsak, “fuqarolik jamiyat” esa ana shunday jamiyatning rivojlanishida ma’lum sharoitlar ostida qaror topadigan uning yuqori bosqichidir. Agar “jamiyat” tushunchasi tarkibiga, masalan, davlatning ham kirishini unutmasak va ayni vaqtida “fuqarolik jamiyat” tushunchasi tarkibida davlatning mavjud emasligini anglasak, “jamiyat” va “fuqarolik jamiyat” tushunchalarining teng hajmli emasligini, ularning turlicha ma’no kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. Fuqarolik jamiyat – bu yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyat – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonun ustuvorligi ta’minlanadi, inson huquqlari va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining mavqeい yuksak bo‘ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatlarida keng ishtirok etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning jamoatchilik nazorati o‘rnataladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga

yuklanadi. Aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma–bosqich o‘tish orqali ro‘y beradi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” dasturi asosida davlatning ayrim vakolatlarini fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlariga bosqichma–bosqich topshirish jarayoni kechmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi, xususan, ular turlicha ijtimoiy guruuhlar manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolarning faolligini oshiradi, mamlakatda ro‘y berayotgan turli demokratik o‘zgarishlar ko‘lamini keng yoyishda muhim omil sanaladi, jamoatchilik nazoratini yuzaga keltiradi, huquqiy ong va madaniyatni shakllantiradi, huquqiy davlat barpo etishda katta hissa qo‘shadi.

#### **4. o‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun–mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.**

Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko‘hnadir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi:

Har qanday davlat tuzumida eng muhimi – bu qonunlar va tartib–qidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik orttira olmasin. Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan qonunlarda tilga olingan.

Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kohinga, qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqqa muayyan imtiyozni qo‘lga kiritish uchun haq to‘lash tabiiy bir hol sifatida qaralgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va professionallashuviga qarab vaziyat o‘zgarib borgan. Oliy martabali amaldorlar quyi turuvchi—xizmatchilar faqat tayinlangan maosh bilan qanoatlanishlarini talab qilganlar. Quyi daraja amaldorlar esa, aksincha, o‘z xizmat vazifalarini bajarganlik uchun arzgo‘ylardan yashirincha qo‘sishimcha haq olishni (yoki talab qilishni) ma’qul ko‘rganlar.

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o‘rtalariga taalluqli bo‘lgan matnlarda aytilishicha, shumer podshosi Urukagin o‘sha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qo‘ygan sudyalar va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo‘yish muammosini yechish yo‘llarini izlagan.

Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. «Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rishimiz zarur», deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 9-dekabr – “Korrupsiyaga qarshi kurash kuni” deb e’lon qilingan va har yili ushbu sana keng nishonlanadi. 2003 yilning ushbu sanasida BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi imzolangan. Mazkur hujjat uni imzolagan davlatlardan pora olish, byudjet mablag‘larini talon–taroj qilish va

korrupsiya ortidan boylik orttirish kabilarni jinoyat deb belgilashni talab etadi. Ushbu Konvensiyada korrupsiyaga shunday ta'rif beriladi: “Korrupsiya” bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sinqilik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qatiy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Korrupsiya past iqtisodiy ko‘rsatkichlarning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, kambag‘allik darajasini kamaytirish va rivojlanishni ta‘minlash uchun eng katta to‘siq hisoblanadi”. Mamlakatimizda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24–noyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2016 yil 13–dekabrda ma’qullangan. Prezident tomonidan 2017 yil 3–yanvarda tasdiqlanib, 4–yanvardan kuchga kirdi. Qonun 34–moddadan iborat. Ushbu qonunning 4–moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora–tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi. Qonunning 5–moddada esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari berilgan: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora–tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart–sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash.

Ta‘kidlash joizki, so‘ngi yillarda bu borada milliy qonunchiligidizda mukammal huquqiy baza shakllantirildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari Prokuratura, Milliy xavfsizlik xizmati, Adliya, Ichki ishlar, Bosh prokuratura qoshidagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti, Davlat bojxona xizmati hamda OAVlari va fuqarolik instituti o‘rtasida hamkorlikni ta‘minlash bu boradagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. o‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni davlat organlari faoliyatining ochiqligini hisobdorligini ta‘minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlari, mansabdor shaxslarning o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilmoqda. Qonundan ko‘zlangan maqsad korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Hujjatda “korrupsiya”, “korruption huquqbazarlik” va “manfaatlar mojarosi” kabi tushunchalarga izoh

berilgan. Qonun hujjatida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari sifatida: qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi keltirib o‘tilgan.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish nima?
3. Jamiyatda xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish qanday ahamiyatga ega?
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishda aholini uy–joylar bilan ta'minlashdan qanday maqsad ko‘zda tutilgan?
5. Ijtimoiy sohani rivojlantirishda ta'lim, madaniyat, ilm–fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish nimasi bilan muhim?
6. o‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun–mohiyati nimalardan iborat?
7. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qanday natijalar beradi deb hisoblaysiz?

## **9–MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA o‘ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT**

### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayot.
2. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar.
3. Milliy urf–odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi.
4. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi. Xalqaro ko‘rik–tanlovlarning o‘tkazilishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o‘rni.

**Tayanch tushunchalar:** Milliy davlat. Ma’naviy–ma'rifiy hayot. Milliy urf–odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi. Navro‘z umumxalq bayrami. Diniy marosimlarni nishonlanishi. Xalqaro ko‘rik–tanlovlari. Maqom, baxshichilik festivali.

**1.Mustaqillik yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayot.** Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, rivojlantirish borasida yangi imkoniyatlar yaratildi.

Ma'naviyat haqida, insonning ma'naviy kamolotga yetaklovchi mezonlar haqida ko'plab asarlar, manbalar, qadriyatlar, an'analar majmuasi yaratilgan bo'lib, shular jumlasidan Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat—engilmas kuch" asari asosida qaraydigan bo'lsak, "Ma'naviyat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon—e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir". Ushbu ta'rifda insonning botiniy va zohiriyligi tabiat, asl mohiyatini belgilovchi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarning o‘zaro mushtarakligi asoslab berilgan.

Shuningdek, milliy ma'naviy meros, qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osori—atiqalar, qadimiy qo‘lyozmalar;
- ilmu—fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot asarlari;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urf—odat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'lif—tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida tarixiy meros va tarixiy xotira muhim o‘rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko‘tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o‘rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

o‘zbek xalqi jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo‘sghan millatlar qatoridan faxrli o‘rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qadimiy qo‘lyozmalar – milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun bebaho bo‘lgan boyliklardir.

Ma'naviyatni shakllantirish uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda oila, mahalla, ta'lif—tarbiya hamohang, hamkorlikda olib borilishi juda muhim hisoblanadi. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar haqida gapirganda avvalo har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf—odat va an'analarini, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmasligini ta'kidlash o‘rinli. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar, ajdodlarimiz tafakkuri va aql—zakovati bilan yaratilgan eng qadimgi toshyoziuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming—minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir.

Mustaqillik yillarida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy ishlarni yuksaltirish doirasida yoshlarni barkamol, yetuk insoniy fazilatlarga ega komil shaxs sifatida shakllanishtirish maqsadida, avvalo oila, mahalla, ta'lim-tarbiya integratsiyasini ta'minlash, yoshlarni yot ta'sirlardan asrash, vatanimizning tarixiy, me'moriy, moddiy, ma'naviy, nomoddiy merosini asrab-avaylash, o'z tarixidan g'ururlanish kabi ma'naviy immunitetini yuksaltirishdan iborat.

Hozirgi globallashuv davrida ma'naviyat masalasi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi.

o'zbekiston jahonga yuz tutayotgan ekan, albatta ma'naviyat, ma'naviy meros, tarixiy-me'moriy obidalar, uning o'ziga xosligi va betakrorligi alohida ahamiyatga ega.

Avvalo ma'naviyat so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, "ma'naviyat"-arabcha "ma'no" fe'lidan olingan bo'lib, ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g'amxo'rlik kabi ma'nolarni anglatadi. Yana aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ma'naviyat insonning ichki dunyoqarashi, ruhiyati va uning jamiyatga, ota-onas, do'stu-birodar, qarindosh- urug', oddiy insonga, Vatanga, o'z xalqiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat – inson yaralibdiki, hukmdorlar, olimlar, shoiru-yozuvchilar, taraqqiyatparvar ziyyolilar diqqatida bo'lib kelgan. Ma'naviyatning shakllanishi oiladan boshlanadi va inson hayoti davomida rivojlanib takomillashib boradi. Ma'naviyatli inson qalbi toza, kishilarga mehr-muhabbatli, yomon kunlarda o'zining yordam qo'lini cho'zishga jasorati yetadigan, o'z xalqining va Vatanining fidoyisi bo'lishi bilan boshqalardan farqlanadi.

Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalbdan, vijdonan, aql va qunt bilan mehnat qilishi kerak. Insonda ma'naviyatni egallahsga, rivojlantirishga yo'l ochadigan is'tedod va imkoniyatlar ham bor.

"Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi" deb ta'kidlangan. Demak, ma'naviyat insonga xos bo'lgan iste'dod va qobiliyat kurtaklarini hayot tajribasi, bilim, axloq va odobni egallahsh asosida shakllantirilib, shaxsning hayoti, faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi ruhiy zamindir.

Yuksak ma'naviyatli inson, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi navbatda, ham diniy, ham dunyoviy bilimga ega iymon, insof,adolat, halollik, rostgo'ylik, poklik va albatta odob va axloq kabi fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Ma'naviy tarbiyani, eng avvalo oilada so'ng maktabda va jamoa orasida amalga oshirish darkor. Ma'naviy barkamollik uchun kurashish eng dolzarb vazifalardan biriga aylanmog'i lozim.

Har bir mustaqil millat o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarning tarixiy tajribasi va jahondagi ilg'or tamoyillar uyg'unligi asosiga qursa, yanglishmaydi.

Bunday mustaqil rivojlanish yo‘li istiqlolning dastlabki yillaridan e’tiboran izchil amalga oshirib kelinmoqda.

1999 yil 14 aprel kuni ochilgan Birinchi chaqiriq o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida ”o‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” deb nomlangan ma’ruzada Islom Karimov mamlakatimizni yangi asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi rivojlanish strategiyasini belgilab berar ekan, ”jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish” ni ustuvor yo‘nalishlardan ekanligini alohida ta’kidlab, ma’naviyatga mukammal ta’rif berish bilan birga bu sohada bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim masalani ham aniq ko‘rsatib o‘tgan edi.

Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzARB vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o‘z haq–huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqeA–hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Ma’naviyat ko‘ngil ko‘zgusidan taralgan nur, u inson qalbida yashiringan. Uning teranligi va ko‘lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to‘plagan yaxlit tarixiy–ma’naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham undagi nazariy xulosalarning manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda yana bir jihatni ta’kidlab o‘tish lozimki, jahon ilmida ma’naviyatga oid masalalar maxsus fan sifatida izchil o‘rganilmaganligi tufayli bugungi kunda ma’naviyatning umumbashariy muammolarini keng miqyosda o‘rganish uchun tadqiqiy asos yetarli emas. Shu sababli bu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda biz asosan o‘z ajdodlarimiz yaratgan nazariy merosga tayanishga majburmiz. Qolaversa, hech bir xalq o‘zga xalqlar madaniyati, urf–odatlari, falsafiy tizimlari, mafkura va dunyoqarashi asosida yashamaydi, ulardan ko‘r–ko‘rona ko‘chirma qilib baraka topmaydi.

—Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf–odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg‘otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo‘linsa, barcha ulug‘vor rejalarini amalga oshirish uchun voqe‘ imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg‘or tamoyillari darajasida yondoshilsa, milliy ta’limning eng muhim vazifasi ham ana shu imkonni shakllantirish, ya’ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik qudratini uyg‘otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan o‘zanlar sari yo‘naltira bilish bilan belgilanadi.

Ma’naviyat poydevori baquvvat bo‘lmasa, unday insonning butun g‘ayrati, jo‘shqin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun,

qolaversa, uning o‘z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, deb aytish qiyin. Imom Fazzoliy o‘z davrida bekorga aytmaganlar: –Shuni bilsinlarki, odamzodni azbaroyi o‘yin uchun yaratmamishlar, aning amali ulug‘dir va uning uchun buyuk xatar bordir. Ana shu ulug‘ amal va buyuk xatar oralig‘ida yo‘nalishni to‘g‘ri belgilab olmoq ko‘p jihatdan ma’naviy ogohlik va kamolotga bog‘liq. – Milliy ma’naviyat asoslarini o‘qitish jarayonida asosiy e’tibor ushbu – ma’naviy ogohlik masalasiga qaratiladi, shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda, imkon darajasida yosh avlodni milliy ma’naviyatimizning asosiy tamoyillari, uning ming yillik ildizlari, takomil bosqichlari, bosh qadriyatlari va tayanch nuqtalari, kelib chiqish manbalaridan ogoh etiladi.

Bugungi kunda – ma’naviyat nima? degan savolga xilma–xil javoblar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, 1997 yildan boshlab mamlakatimizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida – “Ma’naviyat asoslari” fani o‘qitila boshlanganligi munosabati bilan bu mavzuga olimlarimizning e’tibori yanada kuchaydi.

Qator risolalar, o‘quv qo‘llanma va dasturlar chop etildi. Matbuotda kun sayin bu mavzuda katta–kichik maqolalar e’lon qilinmoqda. Ushbu kitob va maqolalarda har kim aqli yetganicha ma’naviyat tushunchasiga ta’rif berishga, hech bo‘limganda, munosabat bildirishga urinib kelmoqda. Ba’zan bir kishining o‘zi bir maqolaning ichida turli ta’riflarni keltirgan holatlar ham uchraydi. Ma’naviyat nihoyatda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi sababli bunga hayron bo‘lmasa ham bo‘ladi.

Undan tashqari keltirilgan ta’riflarni barchasini dabdurustdan bekorga chiqarish, butkul noto‘g‘ri deb baholash ham to‘g‘ri emas, chunki ularning ko‘philibida masalaning qaysidir qirrasi o‘z aksini topgan bo‘lishi mumkin.

Ma’naviyat insonning ruhiyati bilan bog‘liq. Inson ruhiyati, albatta, tashqi ta’sirlar natijasida o‘zgarib turadi. Insonning iqtisodiy ahvoli, jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeい uning ma’naviyatiga ta’sir qilmay qolmaydi. Ammo, baribir, ma’naviyat o‘z mustaqil yo‘nalishiga ega. Masalan, inson qanchalik boy, o‘ziga to‘q bo‘lsa, shunchalik uning ma’naviy kamoloti yuqori yoki, aksincha, past bo‘ladi, desak, har ikki hukmda ham yanglishib qolamiz. Alisher Navoiy, Xoja Ahrori Valiy, Maxdumi A’zam, Xoja Sa’d Jo‘yboriy kabi allomalar ham ma’naviy barkamol, ham nihoyatda badavlat bo‘lishgan. Shu bilan birga, dunyo molidan yuz o‘girgan, umrini zohidlikda o‘tkazgan buyuk allomalarimiz ham kam emas. Aksincha, nihoyatda ziyod mol–davlat sohibi bo‘lgan holda ma’naviy kamolotdan uzoq kimsalar, yoki na dunyo molini, na ma’naviy kamolotni qo‘lga krita olmagan bechoralar ham hayotda uchrab turishini hamma biladi.

Demak, ma’naviyat insonning insoniylik mohiyatini belgilovchi o‘zak tomiri, insonni mustaqil shaxs sifatida qiyofalanishining bosh manbai desak, yanglishmas ekanmiz. Millat ma’naviyati esa o‘tmishda, bugun va kelajakdagi ushbu millatga aloqador barcha shaxslar ma’naviyatining majmuidan iborat, deyish mumkin. Shu bilan birga ajdodlarimiz yana qaysi manbani o‘z ma’naviyatlarini shakllantirishga asos qilib olgan bo‘lsalar, o‘sha manbalar ham millat ma’naviyatiga bevosita

aloqador bo‘lib qoladi. Masalan, xalqimiz 1300 yil ilgari islom dinini qabul qilgan bo‘lsa, demak, bu e’tiqodning asos manbalari bo‘lmish Qur’oni karim va Hadisi shariflarsiz milliy ma’naviyatimizni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Imomi A’zam, Imom G‘azzoliy, Ibn al–Arabiyning ma’naviy merosi haqida ham shunday deyish mumkin.

Ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy–siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o‘z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ma’naviyatni yuksaltirish borasida mustaqillikning dastlabki yillaridan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, bu borada ijtimoiy–gumanitar soha vakillari oldiga ham o‘ta mas’uliyatli vazifalar belgilab olindi. Keyingi paytlarda ma’naviyatga oid e’lon qilinayotgan maqolalarda, o‘tkazilayotgan anjumanlarda “Ma’naviyat” tushunchasiga ta’rif berish, uning jamiyat, inson va millat taraqqiyotidagi o‘rniga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, taniqli faylasuf A.Jalolov “Mustaqillik mas’uliyati” asarida “Ma’naviyat–insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql–zakovatining mahsuli”, – deb ta’riflagan. “Hayot falsafasi va falsafa hayoti” maqolasida bu ta’rifni yanada kengaytirib, mukammalroq tarzda quyidagicha ta’riflaydi: “Ma’naviyat–inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo‘lib, kishilar uning vositasida o‘zlarini anglaydilar, jamiyatni, tabiatni, ularning mavjudligi hamda taraqqiyoti xususiyatlarini o‘rganadilar, qonunlarini kashf etadilar va ularga tayanib, o‘z turmush sharoitlari, amaliy faoliyatlarini muammolarini hal etadilar”.

“Vatan tuyg‘usi” kitobining mualliflari “Ma’naviyat–jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha”, – deb ta’riflaganlar.

A. Erkayevning fikricha, “Ma’naviyat–insonning ijtimoiy–madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr–muruvvat,adolat, to‘g‘rilik, sofдillik, vijdon, or–nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy hislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”.

Ma’naviyat muammosi bilan anchadan buyon shug‘ullanib kelayotgan olimlarimizdan biri M. Imomnazarov mazkur masalaga bag‘ishlab ikkita kitob chiqardi. Muallif bиринчи kitobida “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur ...”, – deb yozgan bo‘lsa, ikkinchi kitobida “Ma’naviyat–inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi”, – deb yozadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma’naviyat – insonning ruhiyatini, uning o‘z–o‘zini anglashi, didi, farosati,adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql–

zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, – deb ta‘rif berish o‘rinli deb hisoblash mumkin.

**2. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar.** Mustaqil o‘zbekiston taraqqiyotining uzlusizligini ta‘minlash uchun xalqni bir maqsad yo‘lida birlashtirish muhim ahamiyatga egadir. o‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilan sobiq sovetlar tuzumining mafkuraviy aqidalaridan voz kechish lozim edi. Sovet mafkurasi kommunistik partiyaning g‘oyalariiga tayanuvchi va sovet totalitar rejimining g‘oyaviy tayanchi funksiyasini bajarar edi. Bu mafkura qadimiy va boy tarixiy ma‘naviy qadriyatlarga ega xalqning manfaatlariga mos kelmaydigan mafkura edi. Shu sababli undan voz kechildi. Mustaqillik mafkurasining konseptual asoslari hali yaratilmagan. Buning ustiga xalqimizning milliy mentaliteti mustamlakachilik davrlarida jiddiy deformatsiyaga uchragandi.

Bunday sharoitda, ya‘ni amaldagi mafkuradan voz kechilgan, yangi mafkuraning konseptual tamoyillari ishlab chiqilmagan bir sharoitda izchil oilaviy tarbiya ko‘rmagan, o‘zligini anglab olishga ulgurmagan ayrim yoshlarimiz ongida mafkuraviy bo‘shliq (vakuum) hukm surardi. Bunday yoshlarni begona mafkuralar ta’siridan himoyalash ham dolzarb vazifa bo‘lib qoldi.

Mustaqillik arafasida (oshkorlik davrida) va mustaqillikning ilk davrida turli ekstremistik oqimlar va diniy–konfessional yo‘nalishdagi missionerlik tashkilotlari mafkuraviy qadriyatlari shakllanmagan soddadil yoshlarimizni o‘z saflariga qo‘sib olishga harakat qilishdi va bunga erishishdi ham. Bu mamlakatimiz mafkuraviy mustaqilligini saqlashga, mamlakatda barqaror tinchlikni ta‘minlashga qarshi katta xavf edi. Ayniqsa, ko‘p millatlar va elat vakillari yashaydigan, turli din va diniy konfessiyalarga e’tiqod qiladigan bizning yurtimizda millatlararo, dinlararo mojarolar boshlanib ketish xavfi keskinlashishi mumkin edi. Buning ustiga xalqimiz 70 yillik kurashchan ateizm hukmronligi davrida musulmonchilik an'analaridan ham birmuncha begonalashgan edi. Mustaqillik munosabati bilan mamlakatimizda diniy e’tiqod erkinligiga keng yo‘l ochildi. Bu masalada o‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1992 yil 2 iyulda so‘zlagan nutqida shunday degan edi: “Dinga, diniy tashkilotlarga keng yo‘l ochib berildi. Buyuk hajga ilgari nari borsa besh–olti kishi borardi. Endi har yili minglab odamlar muqaddas joylarga emin–erkin ziyoratga borishyapti. Din odamzodni hyech qachon yomon yo‘lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o‘tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo‘lishga, harom yo‘llardan uzoq yurishga, yaxshi bo‘lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart–sharoitlarni yaratib beramiz. Diniy rasm–rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta’limga doimo jiddiy e’tibor beriladi”. (o‘zbekistonning Birinchi Prezidenti ilgari surgan bu g‘oyalarni bugungi kunda Sh.M.Mirziyoyev muvaffaqiyatli ravishda amaliyotga tatbiq etmoqda).

Dinga bunday demokratik yondashuvni o‘sha davrda hamma ham to‘g‘ri qabul qilmasdi. Yurtimizda e’tiqod erkinligi qaror topishi bilan xalqimiz emin–erkin ibodatlarini davom ettira boshlashdi, ammo, an'anaviy diniy ibodatlar bilan fundamentalistik g‘oyalarni ajrata olmaydigan ba‘zi yoshlar va soddadil kattalar dinni biryoqlama tushuna boshladи. Bunday kishilar ongiga diniy qadriyatlar

sifatida turli xil diniy aqidaparastlik g‘oyalari bilan mutaassiblashgan oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalari ham suqilib kira boshladi. Bunday vaziyatda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining konseptual asoslarini ishlab chiqish hayotiy zaruriyatga aylandi.

o‘zbekistonning birinchi Prezidenti mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga alohida e’tiborni qaratdi. Islom Karimovning jamoatchilik oldidagi chiqishlarida milliy manfaatlar, milliy istiqlol, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va milliy mentalitet masalalariga asosiy e’tibor qaratilgan edi. Buni ayrim siyosatdonlar Islom Karimovning millatchilikka yo‘l ochishi deb talqin eta boshlashdi. Ammo o‘zbek xalqining asrlar davomidagi ezgu niyati mustaqil davlatchiligidan rivojlantirish, milliy manfaatlarni himoya qilish yo‘li bilan amalga oshishi oddiy haqiqat edi.

Xalqni milliy manfaatlar himoyasi yo‘lida birlashtirish uchun xalqning mafkuraviy konsepsiyasini ishlab chiqishi lozim edi. Bu hayotiy zaruriyatni chuqur anglagan I.A.Karimov o‘zining asarlar to‘plamining 1–jildini “o‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” deb atadi. Bu kitobda o‘zbekistonning barcha sohalardagi milliy manfaatlari o‘z ifodasini topgan edi.

I.Karimov milliy mafkuraning konseptual asoslarini ishlab chiqish lozimligiga alohida e’tibor berib, o‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingan kunning bir yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali majlisda shunday dedi: “Asosiy qonunimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma–xilligi asosida rivoj–lanadi, deyilgan. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko‘tarilishi mumkin emas. Bu konstitutsiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo‘yadi.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr–oqibat, insof, sabr–toqat,adolat, ma'rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishga xizmat qilishi lozimligini hyech qachon unutmaylik“. Haqiqatdan ham bu masala nihoyatda dolzarb masala edi. I.Karimovning keyingi maqolalarida, ayniqsa, “Tafakkur” jurnali bosh muharriri Erkin A'zamov bilan suhbatda milliy mafkura masalasi bosh mavzu sifatida muhokama qilindi. Bu suhbatda mafkuraning mohiyati, uning asosiy vazifalari, totalitar mafkuraning oqibatlari. Jahondagi mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy poligonning har qanday harbiy poligonlardan xatarli ekanligi. Milliy mafkuraning xususiyatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, mafkuraviy bo‘shliqning vujudga kelish sabablari, mafkuraviy immunitet va uning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o‘rni, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish yo‘llari, mafkurasizlik, mafkuraviy nigelizm va boshqa masalalar bu suhbatda muhokama qilingan.

### **3. Milliy urf–odatlar, qadriyatlar va an'analarining qayta tiklanishi.**

Mustaqillik yillari Iydi Ramazон va Qurbon Hayit kunlari diniy qadriyatlarimizning bayram sifatida nishonlanishi, Navro‘z umumxalq bayrami xalqimiz hayotidan mustahkam o‘rin olganligi, har yili vatandoshlarimiz haj va umra safarlarini ado etayotganligi, mustaqillik yillarida masjid va madrasalar, qadamjolar ta'mirlandi.

Tarixdan ma'lumki, X asrning ikkinchi yarmi va XI asr boshlarida Xorazmda vujudga kelib keng faoliyat ko'rsatgan mashhur Ma'mun akademiyasi ilm-fan ravnaqiga ijobiy ta'sir etgan ilm maskanlaridan hisoblangan. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Mansur ibn Iroq singari ilm peshvolari ham dastlab shu fan maskanida ulg'ayib, kamolot bosqichiga ko'tarilganlar.

Shuningdek, IX–XII asrlarda Mavarounnahrda ilm-fan yuksalib, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, jo'g'rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma'noda shu davrda qo'yildi.

Shu o'rinda jahon fani va sivilizasiyasiga hissa qo'shgan Muhammad Muso al-Xorazmiy (783–850), Ahmad al-Marvoziy (780–880), Ahmad al-Farg'oniy (797–865), Abu Nasr Forobiy (873–950), Abu Bakr Muhammad Narshahiy (899–959), Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997y), Abu Rayxon Beruniy (973–1048), Abu Bakr al-Xorazmiy (935–993), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Ismoil Jurjoniy (1042–1136), Mahmud az-Zamahshariy (1075–1149), Burhoniddin Marg'inoniy (1123–1197), Mahmud Chag'miniy (XII–XIII asr boshlari) kabi buyuk allomalarimizlarni alohida ta'kidlash o'rinnlidir. Bu ulug' zotlar nafaqat ma'lum bir sohaga doir fundamental bilimlar balki, inson kamoloti, ma'naviyati, komilllik sari intilib yashash eng ezgu fazilatlardan ekanligi kabi g'oyalari bugungi kunda ham ma'naviy yetuk insonni shakllantirishda, ma'naviyatni yuksaltirishda juda ahamiyatlidir.

Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX–XII va XIV–XV asrlarda bamisoli po'rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy, ma'naviy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

o'rta asr Sharq allomalarining qoldirgan boy ma'naviy merosining ahamiyati nafaqat mamlakatimizda balki, jahon ilm-fanining rivoji uchun ham asos bo'ldi. Ulug' mutafakkir va allomalarimiz qoldirgan merosining ahamiyati faqatgina ilm, fan sohasida emas balki, ma'naviyat, tarbiya borasidagi konseptual qarashlari o'zbek xalqining asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan merosi, bebahoi xazinasidir.

Shuningdek, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzolarning nomi qayta tiklandi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug'bekning esa 600 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan yurtimizda beqiyos ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi.

Milliy-ma'naviy tiklanishimiz borasidagi amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatgi ega bo'lgan ishlar qatoriga yana quyidagilarni qo'shish lozim bo'ladi:

a) milliy-ma'naviy tiklanishimizning ilmiy nazariy konsepsiyasini ishlab chiqilganligi va istiqbolda ma'naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab berilganligi;

b) milliy-ma'naviy tiklanishning mamlakatimizning totalitarizmdan Demokratik jamiyatga o'tish sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berilganligi va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma'naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo'nalish boshlab bergenligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz maxluqotga xos, ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning ruhiy va aqliy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Yuqorida aytganimizdek, ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

Ma'naviyat ko'proq inson qalbiga, botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo'q.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yoshlarga avvalo o'zbekistonda erkin demokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda mustaqil va erkin fikrlay oladigan, barkamol, yetuk ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni shakllantirishga alohida e'tibor va g'amxo'rlikko'rsatib kelinayotganligi, komil insonni shakllantirish masalasi barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilganligi, xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat) dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezoni – ilmlilik, bilimli bo'lish kabi g'oyalar asosida ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Xullas, bugungi globallashuv davrida sharq mutafakkirlarining ilmiy merosini o'rganish, tadqiq etish barkamol, ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli, bilimli yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishda, ularni yot ta'sirlardan asrab-avaylashda ulkan ahamiyatga egadir. Buyuk mutafakkirlarimizning jahon ilm, fan va taraqqiyotiga qo'shgan beباه hissasini teran anglash, olim va mutaxassislarning hamkorligini, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod, talaba va yoshlarning o'zaro ilmiy – ijodiy aloqalarini kengaytirish dolzarb va muhim ahamiyatga egadir.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabi bosqinchilar hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjidu-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. o'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga

kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi.

Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, otabobalarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda.

Mustaqillik yillarda boy ma'naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalgalashirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo'yicha nishonlandi, asarlari nashr etildi. Ularning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlamoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Prezident Farmoni bilan 1996 yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar o'zbekistonda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida o'tkazildi. YUNESKO qarori bilan Sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Parijda Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi, "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi" mavzuida xalqaro konferensiya va ko'rgazmalar bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo'yildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi.

1999 yil vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, xalq dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000 yilligining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari chop etildi. Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui, "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Xotira maydoni" majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro'z qayta tiklandi, bu kunlar Prezident Farmoni bilan dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi.

Musulmonlar o'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy ravnaqi yo'lida xizmat qilmoqda.

Respublikada 16 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda o'zbekistonda yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalar, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi. 10 dan ortiq diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. 1999 yilda Toshkentda Islom Universiteti ochildi.

**4. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi. Xalqaro ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni.** o'zbekiston hududida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi. o'zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustamlakachilik davrida oyoq-osti qilingan, insonparvar urf-odatlari va an'analari, madaniy qadriyatlar ehtiyotlab tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan boyitildi.

Maqomchilar, to'y-marosim qo'shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o'nlab ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Pianinochi va skripkachilarning simfonik va kamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo'lib o'tmoqda. 1997 yildan e'tiboran "Sharq taronalari", Prezident Sh.Mirziyoyev qaroriga binoan 2018 yildan e'tiboran "Maqom", "Baxshichilik" Xalqaro festivallari o'tkazib kelinmoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish yuritish asosan o'zbek tilida olib borilmoqda.

Respublikamizning ma'muriy-hududiy birliklari, ko'chalari, geografik o'rirlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada o'zbek xalqining milliy qadr-qimmati qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, o'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmati ham o'z o'rniqa qo'yildi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda yoshlarni ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularni ma'nан yetuk, barkamol,

intellektual salohiyatli, komil shaxs sifatida shakllantirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda aholi keng qatlamini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish maqsadida yaxlit infratuzilma yaratildi, zamonaviy talablarga javob beradigan ko‘plab ob’ektlar barpo etilib, ulardan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yildi. o‘zbekiston yirik xalqaro musobaqalar, xususan, boks, taekvondo, erkin kurash, qilichbozlik va boshqa sport turlari bo‘yicha jahon va Osiyo championatlari o‘tkaziladigan mamlakatga aylandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2002 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilishi sog‘lom avlodni jismoniy jihatdan baquvvat qilib tarbiyalashda muhim qadam bo‘ldi. o‘tgan davr mobaynida ushbu jamg‘arma mablag‘lari hisobidan 1701 sport inshooti barpo etildi, ularda zamonaviy talablarga javob beradigan mustahkam moddiy–texnik va kadrlar bazasi jamlandi. Bular, shak–shubhasiz, sport bilan shug‘ullanishni ommalashtirishga, bolalar salomatligini mustahkamlashga, xalqaro arenalarda yoshlарimizning yuqori natijalarni qo‘lga kiritishiga, Vatanimiz nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, mutlaq sog‘lom bolalar soni 2014 yilda 64,5 foizga yetdi. Vaholonki, 2005 yilda bu ko‘rsatkich 52,7 foizni tashkil qilar edi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun mustaqil davlatchiligidan qabul qilingan ilk hujjalardan hisoblanadi. o‘zbekiston 1993 yilda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi, qator sport federatsiyalariga a‘zo bo‘ldi. Terma jamoamiz Olimpiada o‘yinlari, jahon chempionatlarida mustaqil o‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i ostida qatnasha boshladи. o‘tgan yillar davomida yurtimiz sporti jadal rivojlandi. Bugungi kunda vakillarimiz eng nufuzli musobaqalarda mamlakatimiz sha’nini munosib himoya qilib kelishmoqda. Ularning tayyorgarlik va mahorati sezilarli darajada oshdi. Sport amalda ommaviy harakatga aylandi. Hozirgi kunda ikki million nafardan ortiq yigit–qizlarimiz sport bilan muntazam shug‘ullanmoqda.

Darhaqiqat, o‘tgan davr mobaynida hayotimizda juda ko‘p ijobjiy o‘zgarishlar yuz berdi. o‘z navbatida, sohada malaka va talablar oshib borayotgani hamda tizimda kadrlar siyosatini yuritish amaldagi qonunchilikni takomillashtirish zaruratini tug‘dirdi. Yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning sifat jihatdan mutlaqo yangi huquqiy asoslarini yaratadi.

Bugungi kunda barcha hududlarda zamonaviy sport inshootlari qurilishi bilan bir qatorda, zarur sport inventarlari va jihozlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmoqda. Yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda bu masalaga alohida e’tibor qaratilgani nihoyatda muhimdir.

So‘nggi yillarda davlat va xalqaro standartlarga javob beradigan sport anjomlari, inventarlari va kiyimlarini ishlab chiqarish keng rivojlanmoqda. Mahalliy korxonalar salohiyati hisobga olingan holda sport tovarlari katalogi tuzib chiqilgan.

o‘zbekistonda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi asosida mahalliy xom ashyodan bolalar sporti inshootlarini jihozlashda foydalaniladigan 120 dan

ortiq turda inventarlar va yuzdan ziyod turda sport buyumlari ishlab chiqarilmoqda.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyatga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarini shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi farmoniga muvofiq, mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish maqsadida jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025 yilgacha asosiy yo'nalishlari etib belgilanib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish, davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha yetkazish kabi dolzarb masalalar belgilangan.

Yurtimizda yoshlar masalasi, ularning barkamol shaxs sifatida kelajakda har tomonlama yetuk, raqobatbardosh malakaga ega kadrlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasida qaralib, chuqur islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimiz rivojlangan xorijiy davlatlarning sportni rivojlantirishga qaratilgan taktikalari har tomonlama o'rganilib, o'zimizga xos va o'zimizga mos ravishda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etila boshlandi. Respublikamiz tarixida ana shunday strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy hujjat "o'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

Ta'kidlash lozimki, Mustaqillik yillarida yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarning yetishmasligi, Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarini shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish masalalarida kamchiliklarning ham borligi hyech kimga sir emasdi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan mazkur Farmon, avvalo, yuqorida ta'kidlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilganligi bilan, shuningdek, yurtimizda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'naliishlarni belgilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Eng asosiysi, mazkur strategik hujjatga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport tizimini 2025 yilgacha isloh qilishning asosiy yo'naliishlari belgilab berildi va bu bo'yicha Konsepsiya hamda Yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Quvonarli jihat shundaki, jamiyatimizda aholini sog'lom turmush tarzi tamoyillariga o'rgatishga yo'naltirilgan bir qator choralar belgilanganki, unga muvofiq jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini yillar kesimida 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma–bosqich 80 foizgacha yetkazishga alohida e'tibor qaratilgan.

o'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi–sportchilari o'rtasida "Bolalar sport o'yinlari"ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga erishish tizimining mexanizmi yaratildi.

Aholining keng qatlamlari, jumladan, umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida "Umumta'lim maktab sporti" festivali, "Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa" ko'rik–tanlovini bosqichma–bosqich (tuman, shahar, hudud, respublika) o'tkazish tizimini ishlab chiqib, tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, professional va oliy ta'lim muassasasi nominatsiyasini joriy etilishi esa oliy ta'lim bilan umumiy o'rta maxsus ta'lim muassasalarining uzbivligini ta'minlovchi yangicha mexanizm sifatida alohida ta'kidlash lozim.

Oldinlari kuzatilmagan yana bir o'ziga xoslik shundaki, yurtimiz yoshlari uchun yana bir imkoniyat yaratildi, ya'ni, olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha Olimpiya va Paralimpiya hamda Osiyo va Paraosyo o'yinlari, jahon, Osiyo va respublika championatlarida oxirgi uch yilda g'olib va sovrindor (1–3 o'rin) bo'lgan sportchi–yoshlarni oliy ta'lim muassasalariiga (tibbiyot yo'naliishidan tashqari) uch yil muddat davomida amal qiluvchi sertifikat asosida qo'shimcha davlat granti asosida imtihon sinovlarisiz qabul qilish tizimi yaratildi.

Olimpiya sport turlari bo'yicha respublika (1–o'rin) va xalqaro musobaqalarda (Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida, Osiyo va Paraosyo o'yinlarida, jahon championatida va Osiyo championatida 1–3 o'rinalar) g'olib chiqqan oliy ta'lim muassasalari talabalarini tayyorlagan jismoniy tarbiya va sport yo'naliishidagi kafedralar o'qituvchilariga navbatdagi ilmiy unvonlarni (dotsent, professor) to'g'ridan–to'g'ri berish tartibi joriy etiladigan bo'ldi.

Jumladan, o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin–qizlar bandligini ta’minalash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Ushbu yig‘ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy–ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari suradi.

**Birinchi tashabbus** yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi;

**Ikkinci tashabbus** yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan;

**Uchinchi tashabbus** aholi va yoshlar o‘rtasida komp'yuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan;

**To‘rtinchi tashabbus** yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan;

**Beshinchi tashabbus** xotin–qizlarni ish bilan ta’minalash masalalariga bag‘ishlanadi.

Bugungi kunda dunyo xalqlari o‘z milliy madaniyati, ma’naviyatini o‘rganish, targ‘ib qilish, boy an’alarini asrab–avaylash va rivojlantirish, ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro festivallar, ilmiy–amaliy konferensiyalar tashkil etish, tadqiqotlar olib borish borasida jiddiy harakatlar olib bormoqda. Bunda YUNESKO xalqarotashkilotining o‘rni kattadir. Bu tashkilot tashabbusi bilan nomoddiy, ma’naviy, madaniy meros ob’ektlarini o‘rganish, tadqiq etish masalasiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Tashkilotning “Ipak yo‘li–muloqot yo‘li”, “Musiqa tinchlik uchun”, “XX asr durdonalari ro‘yxati” loyihalari doirasidagi tadbirlarni alohida ta’kidlash mumkin.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagagi “o‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017 yil 3 avgust kuni o‘zbekiston ijodkor ziylilari vakillari bilan uchrashuvidagi “Adabiyot va san’at madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi nutqi, 2017 yil 15 avgustdagi ”o‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doirchora–tadbirlarto‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab–quvvatlash to‘g‘risida”gi, 2017 yil 8 avgustdagi “o‘zbekiston Davlat konservatoriyasifaoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora–

tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora—tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 16 oktyabrdagi “Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish haqida”gi qarori, 2017 yil 17 noyabrdagi “o‘zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora—tadbirlari to‘g‘risida”gi nutqlari, qaror va farmonlari, o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy—ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora—tadbirlari to‘g‘risidagi, 2018 yil 26 apreldagi “Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora—tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga doir ishlarni yuqori pog‘onaga ko‘tarishda varivojlantirishda oid qabul qilingan me'yoriy—huquqiy hujjatlar qabul qilindi va izchillik bilan hayotga tatbiq etilmoqda.

### ***NAZORAT SAVOLLARI.***

1. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qachondan faoliyat yurita boshladi?
2. Ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat so‘zlarining mazmun—mohiyatini tushuntirib bering
3. “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festifali qachondan o‘tkazila boshlandi?
4. Diniy qadriyatlarimizga qaysi qadriyatlar kiradi?
5. o‘zbekistonda nechta diniy konfessiya faoliyat yuritadi?
6. Ta’lim tizimidagi islohotlar haqida gapirib bering
7. Madaniy—ma'rifiy sohaga doir keyingi yillarda qabul qilingan qanday huquqiy—me'yoriy hujjatlarni bilasiz
8. Ma'naviyatga berilgan ta'riflarni izohlang.
9. Mustaqilлик yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.
10. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi “o‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining mazmun—mohiyati haqida ma’lumot bering.
11. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus haqida ma’lumot bering.

### **10—MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA o‘ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT**

#### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.
2. o‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati. Tarixiy shaharlar

(Buxoro, Samarqand, Marg‘ilon, Qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz) yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi.

3. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi va uning ahamiyati.

4. o‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati.

**Tayanch tushunchalar:** Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor. Buyuk ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklanishi. Tarixiy shaharlarning yubileylarini nishonlanishi. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi. Diniy bag’rikenglik, millatlararo totuvlik borasidagi davlat siyosati.

**1. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.** o‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlaboq xalqimizning boy ma’naviy merosini tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, uni ta’minlovchi madaniy–ma’rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi. Mustaqillik tufayli o‘zbekiston ma’naviy hayoti, madaniy taraqqiyoti uchun yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli xalqimiz ma’naviy zug‘umlardan ozod bo‘ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviy hayotdagi tub sifat o‘zgarishlar xalqimiz ma’naviy salohiyatini mamlakatimizning ertangi porloq istiqboli uchun, milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi uchun va qolaversa, milliy ongi va g‘ururi, uyg‘oq vatanparvar insonni tarbiyalashga qaratildi. Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Davlatimizning qanchalik tez ulg‘ayishi, kuch–quvvat ado etishi, dunyo hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi, avvalambor, xalqimiz ma’naviy saviyasi, g‘ururi va faxri nechog‘liq yuksak bo‘lishiga bog‘liqdir. Ana shuni inobatga olgan holda yangi jamiyat barpo etmoqchi bo‘lib, eng asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasini qo‘ydik”. Darhaqiqat, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013–yil 12–iyundagi “o‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarorida ham buhaqda “davlatimiz tomonidan mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab aholi, birinchi navbatda, yoshlarimizning jismonan baquvvat, ma’naviy jihatdan yetuk avlod bo‘lib ulg‘ayishiga berilayotgan yuksak e’tiborning tasdig‘i sifatida mamlakatimizda davlat budjeti xarajatlar qismining 60 foizga yaqini ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm–fan, madaniyat va san’at, sport sohalari rivojiga yo‘naltirilgani dunyo tajribasida kamdan–kam uchrashini, o‘zbekiston ayni sohalarda jahonda yetakchi o‘rnlarni egallab borayotgani nufuzli xalqaro ekspertlar va tahlil markazlari tomonidan

e'tirof etilayotgani" qayd etilgan. Bu boradagi tarixiy ishlarning amalga oshirilishi yangi jamiyatimiz ma'naviyati binosining qad rostlashiga muhim omil bo'lmoqda. Natijada respublikamizda madaniyat, ma'naviyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Ta'lim markazi", "o'zbekkino", "o'zbeknavo", "o'zbekraqs", "o'zbekteatr", "o'zbekmuzei", Badiiy akademiya, o'zbek amaliy san'at markazi, Milliy madaniy markazlar, Markaziy Osiyo madaniyat xodimlari assotsiatsiyasi kabi madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va ko'plab jamg'armalarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining tarkib topishi va rivojlanishiga zamin bo'ldi.

1994 yildayoq respublikamizda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida farmon chiqarilganligi, mustaqillik yillirida ma'naviy me'rosimiz rahnamolarining nomlari tiklandi hamda ular tavallud topgan kunlar keng nishonlandi, asarlari chop etildi va etilmoqda. Chunonchi, Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi; Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi keng nishonlandi. 1998 yilda Imom al-Buxoriy hazratlarining 1225 yilliklari, Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi nishonlanganligini ta'kidlash mumkin.

Mustaqillik yillari Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib ko'p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to'rt jildlik hadislari chop etish tugallandi. Xoja Ahmad Yassaviyning "Xikmatlar" to'plami chop etildi. Ko'plab Qur'oni Karim sharhlariga oid kitoblar ham chop etilganligini va ulardan xalqimiz bahramand bo'layotganligi yuqorida ta'kidlangan fikrlar sirasiga kiradi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq dunyo taraqqiyotiga, jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz – buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari ma'naviy merosini va hayotini o'rganish yo'lga qo'yildi. Jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Burhonuddin Rabg'uziy kabi mutafakkirlarning asarlari chop etilishi milliy qadriyatlarimizni tiklashda katta yutuq bo'ldi. Vatanimiz ozodligi yo'lidashahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa allomalarimizning hurmati o'z joyiga qo'yildi va ma'naviy meroslari xalqimizga qaytarildi. Buyuk ajdodlarimiz tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning ulug'vor an'analariga aylanmoqda. Jumladan, istiqlol yillarida Alisher Navoiy (1991), Zahiriddin Bobur (1993), Feruz (1995) kabi buyuk ajdodlarimizning tavallud kunlari, shuningdek, Mirzo Ulug'bekning 600 yillik (1994), Amir Temurning 660 yillik (1996), Ahmad Farg'oniyning 1200 yillik (1998), Jalolliddin Manguberdining 800 yillik (1999), Kamoliddin Behzodning 545 yillik (2000), islom olamining donishmandlari, mutafakkirlari Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Imom Termiziyyning 1200 yilligi, Abu Mansur Moturidiyning 1130 yilligi, Mahmud Zamashshariyning 920 yilligi, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning 900 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Burhoniddin Marg'inoniyning 910 yilligi, Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi yubileylariga bog'liq tadbirlar nafaqat

o'lkamizda, balki YUNESKO homiyligida xalqaro doiralarda nishonlanishi vatandoshlarimizda milliy faxr tuyg'ularini kuchaytirdi.

Buyuk allomalarimiz yubileyлari munosabati bilan ularning o'nlab noyob asarlari turli tillarda nashr etildi, ularga atab haykallar o'rnatildi, ziyoratgohlar, bog'lar yaratildi. Masalan, 1991-yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili o'zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Yubiley yilida "Lisonut-tayr", "Sab'ai sayyor", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Hayrat-ul Abror" asarlari nashr qilindi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991-yil 28-sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Alisher Navoiy haykali va Navoiy nomidagi o'zbekiston Milliy bog'ining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 1994-yil oktabr oyida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubileyi o'tkazildi. Ulug'bek madrasasi, Ulug'bek yashagan davrdagi astronomic asboblar, Toshkentdagи Ulug'bek haykali aks etgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. o'sha yil 24-oktabrda Parijda YUNESKO zalida "Ulug'bek va Temuriylar davri" mavzusida Xalqaro konferensiya hamda "Ulug'bek va an'anaviy san'at" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug'bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga molik ekanligini yana bir bor isbot etdi.

1998-yil 23-oktabrda Farg'onada buyuk alloma Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik yubileyi nishonlandi. Uning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. Farg'ona shahrida al-Farg'oniy bog'i yaratildi va buyuk allomaga haykal o'rnatildi.

Atoqli ma'rifatparvar allomalarimizning ijodiy meroslarini tadqiq etish va hozirgi zamon o'zbek tiliga ko'chirish va nashr etish ishlari amalga oshirildi. Tarixiy adolat qaror topib, Xorazmda Ma'mun akademiyasi qayta tiklandi. Zero, buyuk vatandoshlarimiz bo'l mish olim-u fuzalo va mutafakkirlarning boy madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilishni yo'lga qo'yish hozirgi jamiyatimiz uchun g'oyaviy jihatdan yetuk, ilmli, barkamol milliy kadrlarni yetishtirishni ta'minlashga ko'mak berishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Fayzulla Xo'jayev va boshqa arboblarning yubileylarini o'tkazish yuzasidan ko'rilgan chora tadbirlar ham ma'naviy hayotdagi muhim qadamlar bo'ldi. Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000-yil 12-mayda Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv bo'yida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui ochildi. 2001-yil 31-avgust – qatag'on qurbanlarini yod etish kuni sifatida o'zbekistonda ilk bor o'tkazildi. 2002-yil 31-avgust kuni Toshkentning "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyi tashkil qilinib, 2008-yil 31-avgustda uning yangi ekspozitsiyasi ochildi. Yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini (1999), "Avesto" yaratilganligining 2700 yilligini (2001) nishonlash ham muhim voqeа bo'ldi.

Respublika rahbariyati, eng avvalo xalqimizning ehtiyoji, orzu istaklarini hisobga olib, azaliy milliy bayramlarni tiklashga yangi istiqlol bayramlarini

xalqning qadimiy an'analariga monand holda shakllantirishga katta e'tibor berdi. Masalan, Prezident farmonlari asosida Navruz, Ramazon va Qurban bayram kuni sifatida nishonlana boshlandi. Undan tashqari, istiqlol sharofati bilan "Mustaqillik kuni", "Konstitutsiya kuni" va "o'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramlari joriy etildi. Davlat tili haqidagi qonun chiqqan kun – 21-oktyabr tabiiy ravishda "Til bayrami"ga aylandi. Tilimizga davlat tilimaqomining amalda qaytarilishi, o'zbek tilida rasmiy idoraviy ish yuritish, boy adabiy-tarixiy merosimizni o'qib o'rganish, milliy qadriyatlarni tiklash va izchil davom ettirish imkoniyatini berdi. Shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining joriy etilishi mamlakatning har tomonlama rivojlanishi va jahon kommunikatsiyasi tizimiga kirish uchun ancha qulay shart-sharoit yaratib berdi. Ayni paytda Mehrjon, Hosil bayrami, Qovun sayli, xalq bayramlari, sportning milliy turlari hamda turli xalq o'yinlari keng o'rin oluvchi badiiy sport bayramlarining keng ko'lamma tiklanishi fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashi – e'tiqodini shakllantirish va mustahkamlashda, ularda ona zaminga mehr-muhabbat bilan qarash, rizq-ro'zimiz asosi bo'lmish suvni tejab-tergab sarflash, tabiatni, yer osti va yer usti boyliklarini asrash, bobodehqon mehnatini e'zozlash, umuman, o'lkamizdagi jamiki jonzod va tabiatni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. 1999-yil 2-martda o'zbekiston Respublikasi Prezidentining "9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonning ijrosi sifatida 1999-yil 9-mayda mamlakatimizda birinchi bor 9-may – Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlandi. Mazkur tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotiraning tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

**2. o'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati.** Tarixiy shaharlar (Buxoro, Samarqand, Marg'ilon, Qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz) yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi. Ma'naviy-madaniy merosimizni tiklashda katta ahamiyatga molik tadbirlardan biri olamshumul tarixiy me'morchilik inshootlarining keng ko'lamma ta'mirlanishi, jumladan Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent kabi shaharlarda hamda Quva, Chelak shaharlarida tarixiy me'moriy yodgorliklarning tiklanishi, o'lkamizning o'nlab ko'hna shaharlari yubileyлari nishonlanishi: Samarqand shahrining – 2750 yilligi, Qarshi shahrining – 2700, Shahrisabz shahrining – 2700, Buxoro shahrining – 2500, Xiva shahrining – 2500, Termiz shahrining – 2500, Andijon shahrining – 2500, Toshkent shahrining – 2200 yoshi, Marg'ilon shahrining – 2000 yilligi nishonlanish tantanalari, "Buyuk ipak yo'li"ni tiklash borasidagi amaliy ishlar xalqimiz madaniy hayotida muhim voqeа bo'ldi.

Jumladan, 1997 yil 20 oktyabr – Xiva shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. Shahar memoriy ansanbili yaxlitligi jihatdan o'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Bu ansanblning ichida dastlab Ichan qala (yani ichki qala, shahriston) bunyod etilgan. Ichan qalada – xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Ichan qalaning umumiy maydoni 26 hektar. Devorning uzunligi 2200 metr. Ichan qalada o'zar kesishadigan ikkita katta ko'cha o'tgan. Bu ko'chalarda to'rtta darvoza

qurilgan. Bu darvozalardan Dikan qalaga chiqiladi. Dikan qalada esa hunarmand, kosiblar, savdogarlar yashashgan va ularning rastalari joylashgan. Dikan qalaning uzuligi 1250 metr bo'lib, uning o'nta darvozasi bo'lgan. Xiva nafaqat o'rta Osiyoda, ayni paytda dunyoga ham mashhur shahar. Buning isboti – 1997 – yilda YUNESKO qarori bilan shu shahar 2500 yilligi nishonlanganligidir. Bugungi avlod o'z ota–bobolarning madaniy meroslari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Xiva xonligining yana bir yirik shahari – Ko'hna Urganchdir. Bu shaharga asos solinganiga 2000 yildan oshdi. Bu bayram dastlab YUNESKO ning Parijdagi Bosh qarorgohida boshlandi. Xiva shahrining Ark maydonida 1997 yil 20 oktyabrdagi o'tgan teatrlashgan tomosha o'z mohiyati, tarixiy falsafiy teranligi (muallif O.Matjon, rejissyor Rustam Hamidov, bastakor Rustam Abdullayev) bilan e'tiborga molik. Unda shahar tarixi umumlashgan badiiy sahnnaviy yechimlarda taqdim etilgan.

Xiva shahri haqidagi rivoyat asosidagi "Farishtalar raqsi"da tariximizning o'qilmagan sahfalari qayta jonlandi. Xivaning qutlug' bayramiga kelgan mehmonlar – vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar vakillari bayramona bezatilgan ark maydonidan joy oldilar. Yig'ilganlar nigohida shahar sechu sinoatidan hayrat, qalbida hayajon: go'yo ular shu onlarda olis moziy bag'rida turgandek. Badiiy lavhalarida Xorazm ahlining jo'shqin va jozibali san'ati yana bir karra namoyon bo'ldi. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanalar shodu xurramlik bilan ko'tarinki ruhda nishinlandi.

1997 yilda YUNESKO Bosh assambleyasining qaroriga ko'ra, Buxoro shahrining 2500 yillik to'yi o'tkazilishi munosabati bilan shaharni zamonaviy me'morchilik tarhiga asosan qayta qurishga kirishildi. Sport–sog'lomlashtirish maskanlari, stadion yangicha ko'rinishda bunyod etildi. "Dehqon bozori" kengaytirilib, milliy an'analar asosida barpo qilindi. Shahar bag'rida ichki aylanma yo'1 ishga tushirildi. Bu eski va yangi shaharni o'zaro bog'ladı. Viloyat hokimiyati inshootlari atrofida shaharning zamonaviy markazi vujudga keltirildi. Yangi maydonlar, xiyobonlar yaratildi. Buxoro davlat universitetining ta'mirlangan, qayta qurilgan imoratlari, o'quv dargohlari, kollejlar va litseylarning yangi binolari shahar ko'rkiga ko'rk qo'shdi.

Buxoroda zamonaviy va milliy shaharsozlik an'analari asosida qayta qurish, bunyodkorlik ishlari 2010 yildan keyin yanada kuchaydi. Shaharga sharq tomondan kiraverishdagi 107 gektarlik joy haqiqiy qurilish, bunyodkorlik maskaniga aylandi. Bu yerda nihoyatda muazzam maydon, bog'–xiyobon yaratishga kirishildi. Bog'–xiyoboning markazida viloyat musiqali drama teatrining muhtasham binosi barpo etildi. Old qismi yoy shaklida, ulug'ver ustunlar bilan bezatilgan binoga tepadan nazar tashlasangiz, bino bag'rini ochib, odamlarni kutayotganga o'xshaydi. Binoning ichki qismlari ham nihoyatda hashamatli qilib bezatilgan. Teatr foyesi, zali tomoshabinlarning madaniy dam olishlari uchun qulay qilib yaratilgan. Zamonaviy, hamma imkoniyatlarga ega tarzda ishlangan teatr sahnasi drama san'atining barcha turdag'i asarlarini ijro qilishga mos tarzda bunyod qilingan. Shuning uchun ham bino haqiqiy san'at koshonasiga aylandi. Teatr binosiga yaqin joyda yozgi amfiteatr ham qurildi. Bu

yerda konsertlar uyushtirish, har xil anjumanlar o'tkazish, teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil qilish uchun barcha qulayliklar mavjud.

Bog‘-xiyobonning eng baland nuqtasida yana bir mahobatli inshoot — “Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumenti qad rostladi. Monument—yodgorlik bog‘-xiyobonning barcha nuqtalaridan ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Yodgorlikning eng tepa qismiga dunyo xaritasini namoyon qiluvchi globus joylashtirilgan. Globusda ona yurtimiz o‘zbekiston joylashgan hudud alohida bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Mamlakatimiz xaritasining globusda alohida kattalashtirib ko‘rsatilishi bejiz emas. Unda o‘zbekiston Buxoro, Samarcand, Shahrисabz, Xiva, Toshkent kabi ulug‘vor shaharlar o‘rin olgan buyuk davlat ekanligi e’tirof etilgan. Yodgorlikning o‘rta qismida Buxoroning olis va yaqin o‘tmishi tarixi bilan bog‘liq ko‘rinishlar — Ark, Somoniylar maqbarasi, Kalon masjidi va minorasi, Chor minor, Labi hovuz majmuasi, Mag‘oki attor masjidi, shahar taqdiri bilan nomi bog‘langan ulug‘ allomalar, muarrixlar, shoirlar, adiblar, siyosatchi va jamoat arboblarining toshga o‘yma hamda bo‘rtma shaklda ishlangan tasvirlari o‘rin olgan. Tasvirlar markazida zaminga daraxt o‘tqazayotgan bobo va nabira holati ham mavjud. Bu ajdoddlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan sharif shahar taqdiriga ham ishora. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu monument Buxoro shahriga, uning tarixi va bugungi kuniga, kelajagiga qo‘yilgan yodgorlikdir. Shuning uchun ham yodgorlik nomi “Ko‘hna va boqiy Buxoro”, deb ataladi.

Shuningdek, 2006 yil 27 oktyabr – Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimlar ko‘tarinki va jozibali tarzda bo‘lib o‘tdi. Qarshi mustaqillik yillarda qayta tug‘ildi. Shahar tarixida katta voqyea bo‘lgan o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil “Qarshi shahrining 2700 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori shahrimiz hayotini, jamolini butunlay o‘zgartirib yubordi. Nafaqat Qashqadaryo vohasi, balki butun o‘zbekiston hayotida qutlug‘ sana bo‘lib qolgan shaharning 2700 yillik to‘yi keng miqyosda nishonlandi. Qarshining 2700 yillik to‘yi shaharning ijtimoiy, madaniy hayotida yangi sahifalar ochdi. Shahar tarixi, bugungi hayoti haqida o‘nlab tarixiy–ilmiy, badiiy, publisistik, teatr va san‘at asarlari yaratildi. Tariximizga doir hamda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy–ma’rifiy, madaniy sohalarda amalga oshirilgan ishlar Qashqadaryo viloyati xalqining moddiy va ma’naviy mulkiga aylanib qoldi. Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag‘ishlangan kitob ham nashr etildi. Kitob ingliz tilida yozilgan bo‘lib asosan yurtimiz tarixi bilan yaqindan tanishmoqchi bo‘lgan xorijlik mehmon, sayyoh va turistlar uchun foydali malumot manbai hisoblanadi. Bunda Qarshi shahrining tarixiy obidalari tasvirlanib ularning tarixi yozilgan. Qarshi (1926 – 37 yillarda Behbudiy) — Qashqadaryo viloyatidagi shahar (1926 yildan), viloyat markazi (1943 yildan). Qashqadaryo vohasining markazida, Qashqadaryo bo‘yida, xalqaro temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishgan joyda joylashgan.

Qarshi o‘zbekistonning qadimiylari shaharlaridan biri. U turli davrlarda Bolo, Nashebolo, Naxshab, Nasaf, nomlari bilan yuritilib, XIV–asrdan Qarshi deb atala boshlagan. "Qarshi" nomining kelib chiqishi to‘g‘risida turli fikr va taxminlar mavjud. V.V. Bartold shaharning nomi mo‘g‘ul xoni Kepakxon qurdirgan "Qarshi" (qadimgi turkiychada "saroy" ma’nosini anglatgan) bilan bog‘liq deb ta’kidlaydi.

"Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") dostonida "Qarshi" atamasi "saroy" va "qarama-qarshi turish" ma'nosida qo'llangan. "Boburnoma"da ham bu nom mo'g'ul tilidan olinganligi ta'kidlangan. Keltirilgan taxminlarda atamaning "qarshi"- saroy, qasr ma'nolari ko'proq qo'llanadi. Dastlabki shahar Qashqadaryo vohasida "Naxshab" (suv obod qilgan, suv naqsh bergan manzil) nomi bilan miloddan avvalgi VII-asrda Yerqo'rg'on o'rniда vujudga kelib, uning atrofi qal'a devori bilan o'rab olingen (ushbu qal'a devorlarining qoldiqlari arxeologlar tomonidan 1999 yilda o'rganilgan).

### **3. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e'lon qilinishi va uning ahamiyati.**

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq dinga munosabat tubdan o'zgarib, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi. o'zbekiston dunyoviy davlat, binobarin diniy tashkilotlar davlat va maktabdan ajratilgan. Din, shu jumladan, islom dini ham xalqning dunyoqarashi va ma'naviy olamining mazmunini tashkil etadi. "Biz, – deydi I. Karimov, – o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz". Diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski masjid va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlarning nashr etilishi, musulmonlarning Haj va Umra amallarini ado etishi uchun davlat tomonidan imkoniyatlarning yaratilishi va boshqa chora–tadbirlar respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda. Mustaqillik sharofati bilan mo'tabar Qur'oni Karim va Hadislarni chop etish imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan, 1991-yilda Qur'oni Karim ilk bor o'zbek tilida Alouddin Mansur tarjimasini va Imom al-Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" – 4 jildlik hadislar to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. 1991-yil 14-iyulda o'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. o'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, vijdon erkinligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solindi. 1998-yil 1-may kuni ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qur'oni Karimning va Hadislarni to'plamining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi ma'naviy hayotimizda katta voqeа bo'ldi.

Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy va madaniy merosini chuqur tadqiq etish maqsadida Prezidentimizning 1992-yil 7-martdagi Farmoni bilan islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba–yoshlar ta'lim olmoqda. 1995-yilda Toshkentda Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil etilib, unga ilmiy tekshirish instituti maqomi berildi. Diqqatga sazovor tomoni, davlatimiz rahbari tashabbus bilan islom ta'limotini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy va tarixiy–madaniy merosini tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida 1999-yil 7-aprelda Toshkent islom universiteti tashkil etildi.. Mustaqillik yillarda 32 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga

qaytarildi, yangilari barpo etildi. “Islom nuri” gazetasi va “Hidoyat” jurnali nashr etilmoqda.

Istiqlol sharofati bilan ulug‘ qadamjolardan biri bo‘lmish buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriy hazratlari ziyoratgohi qayta tiklandi. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, 1998-yilda Samarqandda hadis ilmining sultonni Imom Buxoriy hazratlari sharafiga yodgorlik majmuasi barpo etildi, 2008-yilda majmua qoshida Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etildi. Mazkur markazda diniy xodimlarning kasb malakasi oshirilishi bilan bir qatorda, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar hayoti va ularning boy ilmiy-ma’naviy, diniy merosi chuqur o‘rganilib, xalqimizga yetkazilmoxda, ular merosini nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham keng targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

2007 yil – Islom konferensiyasi tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi – AYSESKO (ISESCO) tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyatining 2007-yildagi poytaxti deb e’lon qilindi. 2007-yil 14–15–avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishiga bag“ishlangan “o‘zbekistonning islam sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shegan hissasi” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi.

Bugungi kunda respublikamizda 16 ta diniy konfessiya ro‘yxatga olingan va rasman faoliyat ko‘rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi. Shuningdek, 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari va boshqa diniy markazlar ta’mirlandi va yangidan qurildi. Umuman olganda, turli dinlarga e’tiqod qiluvchilar o‘zaro tinch-totuv yashamoqdalar. Buning zamirida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi tamoyillar katta ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat: 1) dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish; 2) diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining hususiy ishi deb tan olish; 3) diniy qarashlarga amal qiluvchilar va qilmaydiganlarning huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik; 4) dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik; 5) diniy tashkilotlarni hokimiyyat uchun kurashiga, siyosat, iqtisodiyot, qonunchilikka aralashishga yo‘l qo‘ymaslik; 6) ma’naviy tiklanish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishda diniy uyushmalar bilan hamkorlik qilish.

Lekin, shuni ham e’tirof etishimiz kerakki, so‘nggi paytlarda dinimizdan g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanuvchilar paydo bo‘la boshladи. Ular xorijdan yurtimizga kirib kelgan turli xil buzg‘unchi oqimlar, din niqobi ostida o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlovchi kimsalardir. Bizning fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz “haqiqiy” va “soxta” dindorlik nima ekanligini aniq tasavvur qilishlari lozim. o‘zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchi deb hisoblaydigan vahhobiylar, xizbut tahrirchilar, diniy ekstremistik guruuhlar xalqimizga mudhish tasavvurlarni qabul qilishni istaydigan terrorchilikni, jangarilikni yoqlashga urinadilar. Ba’zi ekstremistik guruuhlarning jinoiy harakatlarini 1999–2004–yillarda Toshkentda, Surxandaryo, Buxoro viloyatlarida ro‘y bergen voqealar misolida ko‘rish mumkin. Aqidaparastlarning tinch hayotimizga rahna solishi mumkin bo‘lgan tahdidlarining oldini olish uchun mafkuraviy, madaniy, ma’rifiy tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda

olib borish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Din siyosat emas, balki imon, e’tiqod ekanligini unutmagan holda, diniy–axloqiy qadriyatlardan, islom dinida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan mustaqilligimizni mustahkamlashda oqilona ijodiy foydalanish, turli madaniyatlarnig yonma–yon tinch yashashi, ekstremizm, fundamentalizm xavfining oldini olish uchun respublikamizda zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma’rifatparvar allomalar Beruniy, Ibn Sino, al–Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamashshariy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Nasafiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Mahdumi A’zam va boshqa bobokalonlarimizning boy ma’naviy meroslari, ma’rifat va madaniyat ravnaqi borasidagi dunyoqarashi, nazariy qarashlari, jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi xizmatlari hozirda mustaqil o‘zbekistonimizda yashayotgan millat va elat vakillarini ezgu orzular sari yetaklamamoqda, xalqlar o‘rtasida birodarlik va hamjihatlik ruhini kuchaytirmoqda. Shu bois, buyuk ma’rifatparvar allomalarimizning ijodiy meroslarini tadqiq etish va hozirgi zamon o‘zbek tiliga ko‘chirish muhum ahamiat kasb etmoqda. Zero, buyuk vatandoshlarimiz bo‘lmish olimu fuzalo va mutafakkirlarning boy madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishni yo‘lga qo‘yish hozirgi jamiyatimiz uchun g‘oyaviy jihatdan yetuk, ilmli, barkamol milliy kadrlarni yetishtirishni ta’minlashga ko‘mak berishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi. Bunga tarixdan ko‘plab misollar topiladi. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma’naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o‘sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak–shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z–o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir–oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq–odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg‘ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo‘lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo‘lmoqda. Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni, avvalo, beg‘ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan xatarlidir.

**4. o‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati.** Bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan chinakam islomiy fazilatdir. U samimiyat, ochiq muloqot

hamda vijdon va e'tiqod tufayli vujudga keladi. Shuningdek, u faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir.

2017–2021 yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, yon–atrofimizda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini rivojlantirish, yurtimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu bilan millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi.

Hukumatimiz rahbariyati barcha fuqarolarimizga diniy marosimlarini, ibodatlarini emin–erkin ado etishlari uchun lozim bo‘lgan barcha shart–sharoitlarni yaratib bermoqda. Dinimizning asosi – Qur’oni karimda ham bag‘rikenglik keng targ‘ib qilingan.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ko‘plab hadislarida g‘ayridinga ham insoniylik yuzasidan yaxshi muomalada bo‘lishni targ‘ib qilganlar. Masalan, "Kimki bir daraxt ekса va undan hayvonmi, qushmi, hasharotmi, odamzotmi yesa, uni ekkан odamga savob bo‘ladi", degan mazmundagi hadisni olaylik. Mana shu kabi hadislardan ham dinimizning bag‘rikengligini yaqqol ko‘ramiz.

Yurtimiz mo‘min–musulmonlari bu an'analarga sodiq qolib, diniy va milliy totuvlikka katta hissa qo‘shib kelmoqdalar. Mamlakatimizda turli dinlar vakillari yagona maqsad – Vatanimiz o‘zbekistonning yanada gullab–yashnashi yo‘lida birlashmoqda. Dinimizning bag‘rikenglik fazilatini o‘rganar ekanmiz, gap borib aslida odob–axloqqa borib taqalishini ko‘ramiz. Biroq bugun nima uchun musulmon birodarlar bir–biri bilan urush qilyapti? Hazrati Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam butun odamzotga yaxshi muomala qilishni buyurganlar. Demak, dinimizning javhari, asl mohiyati ham inson zotini sevish ekan.

Xalqimizga xos bag‘rikenglik ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Mamlakatimizda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta‘minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta‘minlashda, fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirishda, yurt istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishda xalqimizning bag‘rikenglik xislati asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Diniy bag‘rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o‘ziga xos qalqon vazifasini o‘tagan. U turli e’tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo‘lishiga, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo‘l ochgan. Bu esa o‘z navbatida yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyatning keng rivojlanishiga xizmat qilgan.

Ming afsuski, hozirgi vaqtga kelib, ba'zi davlatlarda milliy–etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi turli ko‘rinishdagi nizo va kelishmovchiliklarga olib kelayotganini barchamiz eshitib, ko‘rib turibmiz. Bunday tahdidlarni bartaraf etish oldimizdagи muhim vazifalardan biridir. Yurt osoyishta bo‘lishi, turli millatlar ahil yashashi uchun eng avvalo, millatlararo

munosabatlarda bag‘rikenglik, bir millatni boshqasidan ustun qo‘ymaslik tamoyillariga amal qilinishi lozim.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o‘zaro hamjihatlik sharoitida yashab kelishmoqda. Ularning huquq va erkinligi, manfaatlarini ta‘minlash, ta‘lim olishi, kasb–hunar egallashi, an‘ana hamda qadriyatlarini saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e’tibor natijasida ko‘p millatli xalqimizning boy tarixiy–madaniy merozi qayta tiklandi va qadr topdi.

Insoniyat tarixida kishilar orasidagi teng huquqlilikning buzilishiga, o‘zaro ziddiyatlarga sabab bo‘luvchi omillardan biri bu turli din vakillarining boshqa dinka e’tiqod va amal qiluvchilarga diniy ayirmachilik asosida qarashi, o‘z diniga bo‘lgan tarafkashlik tuyg‘usi, o‘zga dindagi kishilarga boshqacha nazar bilan qarashlaridir. Mana shunday qarashlar oqibatida bugun dunyoning turli davlatlarida har xil nizo va qarama– qarshiliklar yuzaga kelayotir. Diniy bag‘rikenglik aynan mana shu hodisalarining oldini olishda juda muhim sanaladi.

Istiqlol yillari Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, teng huquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga, uning qonuniy asoslarini yaratishga jiddiy e’tibor qaratildi. Ushbu tamoyillar o‘zbekiston Konstitutsiyasi va barcha qonunlarimizda aniq va qat’iy muhrlab qo‘yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 4–moddasida o‘zbekiston davlati o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf–odat va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlashi, ularning rivoji uchun sharoit yaratishi alohida ko‘rsatib o‘tildi. Konstitutsiyamizning 18–moddasida esa mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqyeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo‘yildi.

Yaxshi bilamizki, Vatanimiz qit‘alararo madaniy–tijoriy aloqalarni yaxshilashga xizmat qilgan Buyuk Ipak yo‘lining qoq markazida joylashgan. Bu yerda turli xalqlarning milliy an‘ana va urf–odatlari o‘zaro uyg‘unlikda rivojlangan. Demak, o‘zbekona bag‘rikengligimizning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi va bu borada biz hamisha jahon ahliga namuna bo‘lib kelganmiz.

Xalqimiz sho‘rolar zamonda qatag‘on, quvg‘inga uchragan ko‘plab millat vakillariga boshpана berdi, og‘ir damlarda bir burda nonini ular bilan baham ko‘rdi. Natijada koreys, nemis, polyak, yunon, qrim–tatar, turk, tojik va boshqa ko‘plab millat vakillari o‘zbek elida muqim yashab qolishdi. Ularning surriyotlari esa shu zaminda tug‘ilib–o‘sib, shu yerda ta‘lim–tarbiya oldilar.

Hozirgi vaqtida diyorimizda Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Ushbu markazning bugungi kundagi asosiy vazifasi millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mamlakatimizdagи turli millat vakillarining milliy–ma‘naviy urf–odat va an‘analarini saqlab qolishga ko‘maklashish, bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab–quvvatlashdan iborat ekanligini alohida e’tirof etish lozim. Yurtimizning qator shahar va tumanlarida turli xalqlarning milliy–madaniy markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar har xil millat farzandlarining o‘ziga xos

do'stlik koshonasiga aylangan. Respublikamiz ta'lim muassasalarida esa o'quv dasturlari o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va boshqa qardosh xalqlarning tillarida olib borilmoqda. Radio va televideanielar o'z eshittirish va ko'rsatuvarlarini bir necha tillarda uzatadi. Shuningdek, 10 dan ortiq tillarda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Tabiiyki, bu yerda har xil millat vakillari o'zlariga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rliklarga javoban davlat boshqaruvi ishlarida, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotda faol va erkin qatnashmoqdalar.

Dunyoda milliy-etnik munosabatlar tobora murakkablashib, hatto eng ilg'or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, xo'rash va siqib chiqarish holatlari kuzatilayotgan bir davrda diniy bag'rikenglik, totuvlik, o'zaro hamkorlik masalasi mamlakatlarning tinchligi va taraqqiyoti uchun eng muhim tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarning bir jamiyatda diniy bag'rikenglik, dinlararo o'zaro hamkorlik tamoyillari asosida, tinch-totuv va teng huquqli tarzda hayot kechirishlari avvalo shu jamiyat gultoji bo'lgan insonlarga bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, har birimiz jamiyatdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi olivjanob fazilatlarni qaror toptirishda, ajdodlardan meros milliy va umumbashariy qadriyatlarimizni davom ettirish va asrash har birimizning burchimizdir.

Xususan, "2017–2021 yillarda o'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning beshinchi yo'naliishi aynan diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasiga bag'ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgani yuksak e'tiborining namunasi hamdir.

Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani jahon hamjamiyatining diqqatini tortgan edi. Mazkur hujjat barchanining ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashish, eng muhimi, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlashga qaratilgani bilan e'tiborga molikdir.

o'zbekistonda turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi ahil-inoqlik, hamjihatlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, tinchlik-osoyishtalik, barqarorlikni saqlash yo'lida olib borilayotgan oqilona islohotlar, amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan takliflar haqida ma'lumot bering.
2. Qachon Toshkent shahri Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi?

4. Qachon respublikamizda “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tuzish to‘g‘risidagi farmon e’lon qilindi?
4. Toshkent Islom universiteti qachon tashkil etildi?
5. Mustaqillik yillarida tarixiy shaxslarning tavalludiga bag’ishlangan muhim sanalar haqida ma’lumot bering.
6. Qarshi shahrining 2700 yilligi qachon nishonlandi?
7. Buxoro va Xiva shaharlarining yubiley sanalari qachon nishonlandi?
8. Mustaqillik yillarida me’morchilik rivoji to‘g‘risida gapirib bering.
9. Milliy adabiyot sohasida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
10. Milliy san’at rivojidagi o‘zgarishlar nimalarda o‘z ifodasini topmoqda?
11. Milliy musiqa va qo‘schiqchiligidan qurilishning o‘sishi haqida so‘zlab bering.
12. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda muzeylar faoliyati haqida so‘zlab bering.
13. o‘zbekistonda faoliyat yuritadigan diniy konfessiyalar haqida ma’lumot bering.

## **11–MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR. MUSTAQILLIK YILLARIIDA TA’LIM VA ILM–FANNING RIVOJLANISHI**

### **Reja:**

1. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni va roli. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.
2. O‘zbekistonda yangi avlod kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar. Ta’lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichi.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi. 11 yillik maktablarning tiklanishi. Yangi tipdagi kasb–hunar maktablarining, kollej va texnikumlarning tashkil etilishi.
4. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar. Oliy ta’limda ta’lim kvotalarining oshirilishi. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.

**Tayanch tushunchalar:** Ta’lim, milliy model, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta’lim standartlari, maktab, maktabgacha ta’lim, kasb–hunar ta’limi, kollej, texnikum, oliy ta’lim, islohotlar.

1. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni va roli. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va

## **bosqichlari. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.**

Ma’lumki, qadimdan bizning avlod—ajdodlarimiz, ota—bobolarimiz ilm—ma’rifatni yuksaltirishda, yangiliklar yaratishda tinmay izlanishlar olib borganlar. O‘z davrining hukmdorlari ham ilmi—ma’rifat homiylari, san’at ixlosmandlari bo‘lib kelishgan. Bunga misol tariqasida X—XI asrlarda yashagan hukmdor Ma’mun ibn Ma’mun tuzgan «Ma’mun akademiyasi» bunga misol bo‘la oladi. Akademiyada yuzdan ortiq olimu—fuzalolar, shoirlar, san’atshunoslar bir qancha yo‘nalishlarda ish olib borishgan. Bulardan Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Forobiy kabilar ilm—fanga kiritgan yangiliklari, kashfiyotlari barchaga ma’lum va mashhurdir.

Temuriylardan esa Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabilar ilm—fanga yuksak darajada hissa qo‘shganlar. Vaqt o‘tishi natijasida ilm—ma’rifatga salmoqli hissa qo‘shgan Jadidlar harakati Turkiston xalqini ilmli, savodli, ma’rifatli qilish yo‘lida, yangi usulni qo‘llash ustida ish olib bordilar. Bulardan, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidov kabi ma’rifatparvarlar edilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Sobiq ittifoq davridan qolgan o‘qitish va ta’lim berish uslubini o‘zgartirishga katta e’tibor berildi. Vatanimiz kelajagini yaratuvchi, uning gullab—yashnashiga hissa qo‘shadigan kadrlarga ehtiyoj sezildi. Avvalo, nutqda ta’lim mazmuni, «eski sho‘rolar zamonidan qolgan ta’lim—tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan butunlay xalos bo‘lmagan»ligi, ayniqsa, ijtimoiy gumanitar yo‘nalishdagi fanlar, estetik yo‘nalish predmetlarini o‘qitish, tarbiyaviy—mafkuraviy faoliyat mazmuni va uning dolzarb muammo ekanligi ta’kidlandi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning sanoati, ilm—fan va aholisining turmush darjasini yuksak saviyada taraqqiy etgan buyuk davlatga aylantirishni jadallashtirish masalalarini hal etishga harakat qilinayotgan bir jarayonda ushbu taraqqiyot esa mamlakatimizda tarkib topgan ta’lim tizimini ham isloh etilayotgan rivojlanish masalalari tomon burish, ta’lim tizimining kelajakdagi taraqqiyot yo‘lini tanlab olish vazifasini ilgari surdi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini endigma qo‘lga kiritgan paytlarda kadrlar tayyorlashda amalga oshirilayotgan islohotlar qoniqtirmasdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XX sessiyasida ta’lim tizimida erishilgan muvaffaqiyat va kamchiliklar obyektiv tahlil qilinib, kadrlar tayyorlash «inqilobiy» islohotga ehtiyoj borligini isbotlab berdi. 1992 yilgi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun o‘z vaqtida muhim bo‘lgan bo‘lsada, omma ta’lim tizimini isloh qilishning amaliy chora—tadbirlarini, ta’lim—tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini, bir—biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzlusizlikni ta’minlash muammolarini yecha olmadidi.

O‘quv rejalarida yoshlar ahloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o‘rgatadigan fanlarga, xorijiy tillarni o‘rganishga yetarli o‘rin berilmadi. Bu boradagi kamchiliklarni to‘ldirib, to‘g‘rilash maqsadida ta’lim tizimiga o‘zgarishlar kiritish kun tartibiga qo‘yildi va bunga harakat boshlandi. Qolaversa, unda 1997 yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ilk chizmalarini ko‘rish mumkin edi. Ta’lim tizimida Oliy ta’limda fanlar asosida o‘qishga qabul qilish ham adolatli tartibda kechishini ta’minlash uchun test tizimiga o’tildi.

1993 yilda Oliy ta’lim tizimidagi islohotlarga keng e’tibor berildi. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida alohida yig‘inda tahlil etildi. Oliy o‘quv yurtlarining ahvoli va ularni ishlab chiqarish korxonalari bilan munosabatlari takomillashtirish maqsadida test tizimiga o‘tish zarurligi kun tartibiga qo‘yildi.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim–tarbiya tizimini tubdan isloq qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb–hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nani yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

## **2. O‘zbekistonda yangi avlod kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar. Ta’lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichi.**

Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldaggi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm–fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan.

Hujjatda ta’lim muassasalarining moddiy–texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash barobarida ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, o‘quv–metodik qo‘llanmalar bilan ta’minalash nazarda tutilgan.

2017–2021 yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqildi, o‘quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko‘rsatish va moliyalashtirishning qo‘sishimcha manbalarini izlashda oliy o‘quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo‘li bilan ularning mustaqilligi bosqichma–bosqich rivojlantirib borilmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmisiga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tomona ma’noda ta’lim tizimidagi o‘zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Ijtimoiy–iqtisodiy jabhalarda kechayotgan islohotlar muvaffaqiyati, yurt taraqqiyoti yuqori bilim va malakaga ega mutaxassislarga bog‘liq. Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida kechayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham ayni ezgu intilishlarni ko‘zlashi bilan ahamiyatli bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga oid ishlarni takomillashtirish, mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, oliy o‘quv yurtlari nufuzini yuksaltirish, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish zarurligiga alohida e’tibor qaratgan edi.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan zamonaviy talablar va ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq qilish asosida yuqori malakali mutaxassislar, pedagog va

ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan vazifalar ijrosiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi. 11 yillik maktablarning tiklanishi. Yangi tipdagi kasb–hunar maktablarining, kollej va texnikumlarning tashkil etilishi.

Umumta’lim maktablariga 2017 yilda 10–sinfga o‘quvchilar qabul qilish qayta yo‘lga qo‘yildi. Bu akademik litsey va kasb–hunar kollejlariga qabul jarayoni bilan barobar olib borildi. Bunda ota–onalar va o‘quvchilarning xohish–istaklari inobatga olindi.

2020 yil 23 sentabr kuni “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Qonundagi eng muhim o‘zgarishlar quyidagilardir:

- Qonunga ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi prinsipi kiritildi;
- 11 yillik ta’limning hamda 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiyo‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi o‘rnatildi;
- Nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan umumiyo‘rta va o‘rta maxsus ta’limning amalga oshirilishi mumkinligi mustahkamlandi;
- Ta’lim olishning quyidagi shakllari belgilandi:
  - ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
  - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy, dual);
  - oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
  - katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
  - mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibida ta’lim olish.
- Umumiyo‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarining sinflarida ta’lim oluvchilar soni 35 nafardan oshmasligi belgilandi;
- Bakalavriat yo‘nalishida ta’lim olish davomiyligi kamida 3 yil, magistraturada esa kamida 1 yil etib belgilandi;
- Oilada ta’lim olgan va mustaqil ta’lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat berilishi mumkinligi belgilandi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo‘lgan davlat talablariga rioya etilishiga doir vakolatlari bekor qilindi;
- Ta’lim tashkilotlarida siyosiy partiyalarning tashkiliy tuzilmalarini tashkil etish taqiqlandi;
- Chet davlatlari va O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida ularning bitiruvchilariga ikki tomonlama diplom (Double Diploma) berilishi mumkinligi belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 7.08.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ–huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 466–son qarori qabul qilindi.

Prezidentning 6.09.2019 yildagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida” PF–5812–son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzlusiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim to‘g‘risidagi nizom;
- Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb–hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlar va texnikumlar bo‘lgan vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo‘lga qo‘yish topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.04.2020 yildagi 232–son qaroriga muvofiq kasb–hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida ta’lim oladigan o‘quvchilarga 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab BHMning 1 baravari miqdorida oylik stipendiya uchun mablag‘lar ajratilishi hamda uch mahal ovqat bilan ta’minlanishi belgilab berildi.

Quyidagilar professional ta’limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg‘unlashgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini hamda o‘qitishning kredit–modul tizimini bosqichma–bosqich joriy etish;
- “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida ta’lim olishga o‘tish uchun sharoitlar yaratish.

**4. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.** Oliy ta’limda ta’lim kvotalarining oshirilishi. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi: yutuqlar va kamchiliklar. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini izchil rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ta'lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi, o'z vaqtida qabul qilingan muhim hujjat bo'ldi. Qarorda oliv ta'lim tizimida bugungi kunda uchrayotgan og'riqli nuqtalar ochiq-oydin sanab o'tilgani holda, ushbu muammolarning yechimlari ham to'liq ko'rsatib berildi. Hujjatga ko'ra, alohida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo'lgan magistraturani joriy etish, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab tayanch oliv ta'lim muassasalari tomonidan tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalarini hamda dasturlarining kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga ko'ra, mustaqil ravishda ishlab chiqilishi hududlarda malakali kadrlar bilan bog'liq muammolarga yechim topilmoqda.

Yana bir muhim jihat shuki, endi talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash borasida yangicha yo'l tutiladigan bo'ldi. Bunda ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlari inobatga olingan holda, avtomatlashtirilgan, talabalar bilimini baholashning portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat kabi zamonaviy, shaffof hamda adolatli usullarini joriy etish ko'zda tutilmoqda. Muayyan fanlardan dars bergan o'qituvchi-pedagoglarning yakuniy nazorat jarayonidagi ishtirokini istisno qiladigan tizimning qo'llanilishi ham ta'lim tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliv ta'lim muassasalarida "talabaning o'zlashtirish darajasi — professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni" tamoyilini joriy etila boshlandi. Bu ayrim o'qituvchilarining ko'r-ko'rona dars o'tib, o'zining ham, talabaning ham, eng ayanchlisi, yetuk yosh kadrlarga ko'z tikib turgan jamiyatimizning ham vaqtini o'g'irlashdek og'ir oqibatlarni bartaraf qilishga imkon beradi. Qolaversa, Prezidentimiz qarori bilan oliv ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'limgan yig'ilishlarga, tadbirlarga jalb etish taqiplandi.

Bugungi davr talablari kechagi kunning mezonlaridan butkul farq qiladi. Hozir zamonaviy fikrلайдиган, eng so'nggi yangiliklar bilan hamnafas yashaydigan, kun sayin dunyoqarashini boyitib boradigan kadrlarni tayyorlashga ehtiyoj oshib bormoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, oliv ta'lim tizimi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Prezidentimizning mazkur qarorida belgilangan kompleks chora-tadbirlar yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga egadir.

Yurtimizda oliv ta'lim sohasida kechayotgan tub o'zgarishlar jarayoni otonalar, o'qishga ishtiyobiq baland bo'lgan yoshlar, keng ma'rifiy jamoatchilikning fikri, taklif va mulohazalari asosida amalga oshirilayotgani e'tiborga molikdir. Jumladan, kunduzgi ta'lim bilan birgalikda kechki, sirtqi o'qitish shakllarining qaytadan joriy etilgani, yangi-yangi oliv o'quv dargohlarining tashkil etilayotgani, oliv ta'limda yoshlar qamrovining tobora kengayib borayotgani bu yo'nalishdagi ezgu tashabbuslarning hayotiy ifodasidir.

Hozirgi kunda yurtimizda oliv ta'lim muassasalari va ularning filiallari jami 126 taga, xorijiy oliv ta'lim muassasalarining filiallari 24 taga yetdi. Bu

ko‘rsatkich 2016/2017 o‘quv yilida 77 tani, 2017/2018 o‘quv yilida esa 86 tani tashkil etgan.

Yoshlarni oliy ta’limga yanada kengroq qamrab olish maqsadida oliy ta’lim muassasalariga talabalar qabul kvotalari oshirilmoqda. Yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilmoqda, yangi oliy ta’lim muassasalari hamda xorijiy davlatlardagi nufuzli universitetlar filiallari tashkil etilmoqda.

2018/2019 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarida kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha qabul kvotalarining ortganligi bilan bir qatorda, 51 ta oliy ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim, 22 ta oliy ta’lim muassasasida maxsus sirtqi ta’lim va 9 ta oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakllari bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Yurtimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2016/2017 o‘quv yilida 15 ta’lim yo‘nalishi va 14 ta mutaxassislik, 2017/2018 o‘quv yilida 8 ta ta’lim yo‘nalishi va 10 ta mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018/2019 o‘quv yilida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 66 tani, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 48 tani tashkil etdi.

2019 yil holatida yurtimizda tahsil olayotgan talabalar soni 344790 nafarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2016/2017 o‘quv yilida 264095 nafarni, 2017/2018 o‘quv yilida esa 279674 nafar edi.

Talabalar sonining oshishi, o‘z navbatida, professor-o‘qituvchilar sonining ham ortishini taqozo etmoqda. Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar 2016/2017 o‘quv yilida 23368 nafar, 2017/2018 o‘quv yilida 24904 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2018/2019 o‘quv yilida professor-o‘qituvchilar soni 25418 nafarga yetdi.

2018/2019 o‘quv yilidan boshlab 11 oliy ta’lim muassasasida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda qo‘shma ta’lim dasturi asosida jami 1130 nafar talaba tahsil olmoqda.

2017 yil fevralda Prezidentimizning ilmiy kadrlarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimiga o‘tish to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi va unga ko‘ra birinchi bosqich falsafa doktori (PhD) xalqaro talablarga muvofiq tayyorlana boshladи. Doktoranturaga qabul kvotasi ikki barobar oshdi. Dissertatsiyani ko‘rib chiqish tartibi soddalashtirildi. Ilmiy ishlар himoyasi 2017 yilda 2016 yil bilan solishtirganda 2 martaga va 2018 yilning yarim yil natijalari bo‘yicha 2,5 marta ko‘paydi.

Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati 2017/2018 o‘quv yilida o‘tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada ortdi. Shu bilan birga tizimdagi rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. 2017 yildan oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimiga masofaviy o‘qitish shakllari joriy etildi, bugungi kunga qadar 1855 nafar tinglovchi mazkur kurslarda malakasini oshirdi. Ayni paytda masofaviy kurs

tinglovchilari uchun vebinar texnologiyalar asosida onlayn ma’ruzalar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yilgan.

2018 yil davomida maktabgacha ta’lim muassasalarini oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minlash maqsadida 14 tayanch oliy ta’lim muassasasida kasbiy qayta tayyorlash kurslari faoliyati tashkil etilib, bugungi kunga qadar 15110 nafar tinglovchi bu kurslarni muvaffaqiyatli yakunladi va maktabgacha ta’lim muassasalariga ishga yuborildi. Ayniqsa “Defektolog (logoped)”, “Amaliy psixolog”, “Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi” kabi ixtisosliklar bo‘yicha tahsil olgan yoshlar joylarda muvaffaqiyatli ishga joylashmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimizda oliy ta’limni davr talabi, ijtimoiy-iqtisodiy soha talabidan kelib chiqqan holda isloh etish, yoshlarning oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, yurtimizni jadal ravnaq toptirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning yorqin ifodasidir.

### ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. O‘zbekiston Respublikasida hozirga qadar necha marta Ta’lim to‘g‘risida qonun qabul qilingan?
2. O‘zbekistonda ta’limni rivojlanishi jarayonining tarixiy ildizlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashning ikki bosqichli tizimiga o‘tish deganda nimani tushunasiz?
4. Hayot davomida ta’lim olish prinsipi nima?
5. 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning asosiy yangiliklari nimalardan iborat?
6. Qachondan boshlab 11 yillik o‘rtta ta’limga o‘tildi va nima uchun?
7. Bugungi kunga kelib yoshlarni oliy ta’limga kengroq jalb qilish maqsadida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
8. Oliy ta’limning kunduzgi, sirtqi, kechki ta’lim turlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Qachondan boshlab oliy ta’lim muassasalarida “talabaning o‘zlashtirish darajasi — professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni” tamoyilini joriy etila boshlandi?
10. Professional ta’limning asosiy vazifalari nimalarda namoyon bo‘ladi?

### **12-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG’ISTON RESPUBLIKASI**

#### **Reja:**

- 1.Mustaqillik yillarida Qoraqalpog’iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar.
- 2.Qoraqalpog’istonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar. Ma’naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar.
- 3.Qoraqalpog’iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar.

4.Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojeasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

**Tayanch tushunchalar:** Milliy model, maktab, maktabgacha ta'lif, kasb-hunar ta'limi, kollej, oliy ta'lim, islohotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Nukus shahri, BMT, Demokratiya, Amudaryo tumani, Beruniy tumani.

### **1.Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar.**

Qoraqalpog'istonda mustaqillik yillarida ijtimoiy–iqtisodiy sohadagi o'tkir masalalar, aholi turmushidagi qiyinchiliklar bosqichma–bosqich bartaraf etib borildi. Masalan, istiqlolning dastlabki yilida minglab aholini ichimlik suvi bilan ta'minlagan 243 kilometrlik Tuyamo'yin–Nukus–Chimboy–Taxtako'pir suv tarmogi, 2000-yili Nukus shahrini Xo'jayli tumani bilan bog'lovchi yangi ko'prik, 2001-yilda Nukus–Sulton Uvaystog'–Miskin–Uchquduq–Tinchlik–Navoiy temir yo'li ishga tushirildi.

Mustaqillik yillarida barpo etilgan va o'z mahsulotini xorijga chiqarayotgan Qo'ng'iroq soda zavodi, Ust–yurt gaz–kimyo majmuasi Qoraqalpog'iston sanoatining yuksalish davrini boshlab berdi. Xorijlik sheriklar bilan kashf etilgan «Jel», «G'arbiy Orol», «Tillali», «Sayhun», «In'om», «Arslon» konlari mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Amudaryo tumanidagi «Kameks–KK» korxonasida momiq, Kegayli tumanidagi «Avto Qayip maishiy» mas'uliyati cheklangan jamiyatida oyiga 50 ming juft paypoq ishlab chiqarish o'zlashtiriladi. o'lkada namunali loyihamalar asosida 2982 ta qishloq uylari qurib bitkazildi. Bu ishlar davom ettirilmoqda. 93 ta kasb–hunar kolleji, 10 ta akademik litsey barpo etildi.

2015 yili Nukus shahrida zamonaviy «Baxt uyi», Do'stlik kanali qirg'og'ida ko'plab ko'ngilochar, dam olish maskanlari hamda «Toshkent» mehmonxonasi qoshida zamonaviy «Yoshlar markazi» foydalanishga topshirildi. Nukus shahri, Amudaryo, Ellikqal'a, Beruniy, Xo'jayli tumanlaridagi «Kamolot» uylarida hovli to'ylar nishonlandi.

2016 yilda respublikada 37 ta zamonaviy shifoxona, 230 ta ambulatoriya–poliklinika muassasalari, jumladan, 188 ta qishloq vrachlik punkti aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda.

1994 yil 24 sentabrda o'tkazilgan o'n ikkinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Sovetining o'n yettinchi sessiyasi kun tartibiga muvofiq "Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi va o'sha kundan e'tiboran Qonun harakatga kiritildi.

1994 yil 31 oktabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Reglamentini kuchga kiritish to'g'risida" Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Sovetining Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining reglamenti 5 bob, 10 bo'lim hamda 117 moddadan iborat bo'ldi.

Xalqimiz tomonidan istiqlol yillarida bosib o‘tilgan tarixiy yo‘l, erishilgan ulkan yutuq va marralar, ularning mazmun va mohiyatini har tomonlama bilish, uni zamondosh ongiga singdirish va fuqarolarda mustaqil hayotda erishilgan natijalarni his qilib yashash tafakkurini shakllantirish bugun tobora globallahib borayotgan jarayonlarga to‘la zamonda katta ahamiyatga ega.

Qoraqalpog’iston Respublikasining Mo‘ynoq tumani tabiiy resurslarga boyligi, geografik joylashuvi, yuksak turizm salohiyati, madaniy meros obyektlari va ulkan mehnat resurslari bilan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. o‘tgan davrda Qoraqalpog’iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanini kompleks ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish, aholiga qulay yashash sharoiti yaratish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018 yilda 12 mlrd so‘mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilishi hisobiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirishga va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda qurilish ishlarining o‘sishiga erishildi.

2017 yil 17 yanvarda Qoraqalpog’iston Respublikasi hududlarini ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora–tadbirlar dasturi to‘g’risida o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qoraqalpog’iston Respublikasini ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining kelgusidagi istiqbollarini belgilash, fan–ta’lim, ma’naviy–ma’rifiy ishlarni yanada kuchaytirish, aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash, shuningdek, o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Qoraqalpog’iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashuvi davomida Saylovoldi dasturida qo‘yilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qoraqalpog’iston Respublikasi hududlarini ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora–tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

Quyidagilar Dasturning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

- ✓ iqtisodiy va ijtimoiy sohani keng rivojlantirish, hududlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari barqarorligini ta’minlash, tuman, shahar hamda hududning mahalliy budgetlaridagi subvensiya ulushini qisqartirish va bartaraf etish;
- ✓ kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab–quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish va erkinliklarining kafolatlarini ta’minlash, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, yangi korxonalar, shu jumladan, kichik va xususiy tadbirkorlik yo‘nalishida korxonalar tashkil etish;
- ✓ hududlarda va tarmoq korxonalarida sanoat ishlab chiqarishi, xizmat ko‘rsatish loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish uchun tijorat banklari kreditlari, chet el va mahalliy investitsiyalarni keng jalb etish hisobiga iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- ✓ qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab–quvvatlash, mazkur sohani industrlashgan tarmoqqa aylantirish maqsadida qishloq xo‘jaligining barcha turdagi mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil qilish;

- ✓ ishlab chiqarilgan mahsulotlar turini va hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga hududlarning eksport salohiyatini oshirish, yangi turdag'i mahsulotlarni o'zlashtirish hamda ularning yangi bozorlarga eksport qilinishini ta'minlash;
- ✓ qurilish, obodonlashtirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish hisobiga aholiga namunali hamda sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- ✓ yangi ish o'rnlari yaratish va aholining turli qatlamlari bandligi masalalarini hal etish hisobiga inson manfaatlarini ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarda aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, yanada farovon hayot kechirishi uchun mustahkam zamin yaratish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, ayniqsa, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar siyosati masalalarini izchil hal etish.

2020 yilning 2–6 sentabr kunlari o'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari S.Umurzakov boshchiligidagi va vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlarining rahbarlaridan iborat ishchi guruhi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy holati hamda investitsiya va infratuzilmaviy loyihamalar amalga oshirilishini joylarga chiqqan holda o'rganish bo'yicha ish olib borildi.

Tashrif davomida tadbirkorlar va investitsiya loyihamalarining tashabbuskorlari bilan mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etishning samarali algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha manzilli uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek, infratuzilma va ijtimoiy obyektlarning bugungi holati tahlili ham amalga oshirildi va uning natijasida mas'ul rahbarlarga har bir obyektdan kelgusida foydalanish bo'yicha o'z xarajatlarini o'zi qoplashiga erishish va aholini ijtimoiy xizmatlar bilan keng qamrab olishni nazarda tutuvchi kompleks strategiyalarni ishlab chiqish topshirildi. Hududda investitsiya va sanoat sohasida faollikni oshirish borasida kelgusidagi qadamlar muhokama qilindi. Mas'ul rahbarlarga mavjud xom ashyo salohiyati va sanoat quvvatlariga asoslangan qo'shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirish uchun optimal sharoit yaratishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish topshirildi. Shu nuqtai nazardan loyiha takliflarini ishlab chiqishda jalb qilingan investitsiyalardan sezilarli iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradigan "iqtisodiy o'sish nuqtalari"ni aniqlash va ulardan foydalanishning ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Investitsiya jozibadorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Tegishli vazirlik va idoralar rahbarlariga infratuzilmaviy loyihamarni amalga oshirishni jadallashtirish va yangi loyiha takliflarini ishlab chiqish ishlarini muvofiqlashtirish topshirildi.

Shu bilan birga, aholi bandligini ta'minlash va mahalliy aholini jumladan, kasanachilik asosida sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish orqali barqaror daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish zarurligi ta'kidlandi. Tashrif yakunlari bo'yicha tegishli vazirlik, idora, tijorat banklari va mahalliy hokimliklar rahbarlariga tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirish, tarmoqlararo

hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va qo'shimcha ish o'rinnari yaratishga qaratilgan aniq ko'rsatmalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev o'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi tashrifini qoraqalpoq zaminidan boshlagani muhim ahamiyatga ega. Bu albatta davlatimiz rahbarining Qoraqalpog'istonga, qoraqalpoq xalqiga bo'lган yuksak hurmat-e'tiboridan dalolat beradi.

## **2.Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar. Ma'naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar.**

Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 10 noyabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumanida bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvida: "**Men nafaqat o'zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandiman!**", deb ta'kidlagan edi. Shu bilan birga, ushbu mintaqada yashayotgan aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan keng ko'lamli ishlar haqida to'xtalib, jumladan: "**Bundan buyon har bir tuman va shaharga, kerak bo'lsa, chekka-chekka qishloq va ovullargacha kirib boramiz. U yerda istiqomat qilayotgan odamlarning dardini eshitamiz, muammolarini hal qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqamiz va ijrosini qat'iy nazoratga olamiz**", degan edi.

Aytish mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif ana shunday ezgu maqsadlarning, Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilda belgilangan vazifalarning yana bir amaliy ijrosi sifatida namoyon bo'ldi. Ma'lumki, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat, qurilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalari ham jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda yalpi hududiy mahsulotning qariyb yarmi, hududiy eksportning 75 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ish bilan band bo'lган aholining 75 foizi aynan shu sohada mehnat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xo'jayli tumani markaziy shifoxonasiga tashrif buyurdi. Zamona viy tibbiy texnika bilan jihozlangan ushbu muassasa tumandagi 11 qishloq vrachlik punkti va 4 poliklinika bilan bиргаликда 130 mingdan ziyod aholiga sifatlari xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Shavkat Mirziyoyev shifoxonadagi sharoit bilan tanishdi, qabul, rentgen, diagnostika va qator boshqa bo'limlarni ko'zdan kechirdi. Shifokorlar bilan muloqotda malakali tibbiy kadrlar yetishtirish, tibbiy jihozlardan unumli foydalanish, xizmat malakasini oshirish, shifoxonalar qurishda har bir hududning o'ziga xos iqlim sharoitidan kelib chiqish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Shundan so'ng Prezidentimiz "Muruvvat" ayollar internatiga borib, ushbu muassasa faoliyati bilan tanishdi. Shifokor va hamshiralalar bilan suhbatlashib, bu maskanda yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash uchun davlat tomonidan yordam ko'rsatilishini ta'kidladi.

2017 yilning 20-21-yanvar kunlari Muhtaram Prezidentimizning Qoraqalpog'istonga tashrifi davomida qabul qilingan bayon ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida axborot.

Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta va Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarorlari qabul qilindi.

1) o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagи “Qoraqalpog’iston Respublikasi Muynoq tumanı aholisini sifatlı ichimlik suvi bilan ta’minlash choralari to‘g’risidagi” PQ-2754 sonli qarori;

2) o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 sentabrdagi “Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida quvvati 230–280 MVt bo‘lgan ikkita bug’-gaz qurilmasini qurish loyihasin amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-3264–sonli qarori;

3) o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 maydagi “Qizilmiya ildizini yetishtirish va qayta ishslash xajmini oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2970–sonli qarori;

4) o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 17 martdagи “Qoraqalpog’iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda qo‘srimcha qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2843 sonli qarori;

5) o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagи PQ-2844 sonli “Tadbirkorlik subyektlari va aholining keng qatlamlarini mikrokreditlash tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori;

6) o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 22 maydagi “Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali material-texnik bazasini mustahkamlash to‘g’risida”gi R-4947–sonli Farmoyishi;

7) o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 fevraldagи «Qoraqalpog’iston Respublikasi Nukus shahridagi «Muruvvat» ayollar internat–uyi qurilishi va jihozlash chora-tadbirlari to‘g’risida»gi 88–son qarori;

8) o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 fevraldagи “2017–2018 yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasining sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish loyihibarining ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g’risida”gi №111–sonli qarori.

Shuningdek, Nukus shahrining markaziy ko‘chasi hisoblangan Ernazar Alako‘z ko‘chasi va Xo‘jayli tumanining Mustaqillik ko‘chasida keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda va uning bo‘yida jami 50 ta ko‘p qavatli zamonaviy uy–joylari qurildi. Xususan, ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish dasturi asosida 1 trln. so‘mdan oshiq loyihibar belgilab olingan bo‘lsa, 2018 yilning dasturida esa 4 karra ko‘p investitsiyalar jalb qilinishi, ya’ni 4 trln. so‘mdan oshiq 367 ta yirik loyihibar amalga oshirilishi belgilab olindi.

2018 yilda davlat–xususiy sektor sherikchiligi asosida tashkil qilinadigan jami 174 ta maktabgacha ta’lim muassasasining manzilli dasturi tasdiqlandi.

2018–2019 yillarga mo‘ljallangan Qoraqalpog’iston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Tashrif yakunlariga ko‘ra ishlab chiqilgan dasturga muvofiq, sanoatni rivojlantirish borasida umumiyligi qiymati 160 milliard so‘mga yaqin 242 loyiha bajarildi. Bu qariyb 4 ming ish o‘rnini yaratish imkonini berdi.

Masalan, Qorao‘zak tumanidagi “Qoraqalpoq sement” korxonasida birinchi bosqichda yiliga 200 ming tonna sement, Nukus shahridagi “Texnik global” korxonasida “Samsung” brendi ostida yiliga 150 ming televizor, “Nukus polimer” korxonasida yiliga 8 ming tonna polietilen quvurlar va xo‘jalik buyumlari ishlab

chiqarish yo‘lga qo‘yildi. To‘rtko‘l tumanidagi “Vegateks global” korxonasida yiliga 5 ming tonna ip–kalava ishlab chiqarilmoqda.

Qoraqalpoq aholisi uchun nihoyatda muhim va dolzarb masala bo‘lgan ichimlik suvi muammosi yillar davomida hal etilmay kelinayotgan edi. Shuni inobatga olib, qisqa vaqtida 101 kilometrlik “Qo‘ng’irot – Mo‘ynoq” suv quvuri va “Qo‘ng’irot” suv taqsimlash inshooti qurib bitkazildi. Buning natijasida Mo‘ynoq tumanidagi 25 ming aholi toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, investitsiya dasturiga muvofiq budjet mablag’lari va Orolbo‘yi hududini rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari hisobidan mavjud suv tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va yangilandi. Shu tariqa 35 aholi punktida 50 mingdan ziyod odam ichimlik suvi bilan ta’minlangani bu boradagi ishlarning izchil davomi bo‘ldi.

Nafaqat Qoraqalpog’iston, balki butun mamlakatimizning faxri bo‘lgan, dunyoda “Sahrodagi Luvr” deb shuhrat qozongan I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san’at muzeyining muhtasham ikkinchi korpusi qurilib, yuksak xalqaro standartlar asosida jihozlandi va foydalanishga topshirildi.

Qoraqalpoq davlat o‘lkashunoslik muzeyi binosi, o‘zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov nomidagi iqtidorli bolalar maktabi, Amir Temur nomidagi istirohat bog’i, zamonaviy imkoniyatlarga ega yirik sport majmuasi bunyod etildi. Imam Eshon Muhammad jom’e masjidi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

Bunday o‘zgarishlar barcha tumanlarda, qishloq va ovullarda ro‘y berdi. Hudud iqtisodiyoti rivojlandi, aholi turmush darajasi oshdi. Eng muhammi, odamlar buni o‘z hayotlarida sezmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog’iston Respublikasiga tashrifini Chimboy tumanidagi 8–maktabgacha ta’lim muassasasidan boshladi. Tashrif bolalar bog’chasidan boshlanganida katta ma’no mujassam. Prezidentimiz o‘zining har bir chiqishi va hududlarga tashrifida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim–tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish tashabbusini ilgari surmoqda va bu borada muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

Prezidentimizning 2016–yil 29–dekabrdagi “2017–2021–yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g’risida”gi qarori qabul qilinib, maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy–texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi ana shunday inshootlar qurish, ularni zamonaviy uskunalar, o‘quv–metodik qo‘llanmalar, multimedia resurslari bilan ta’minalash choralarini ko‘rilmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 30–sentabrdagi "Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g’risida"gi farmoni bilan Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma–bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta’lim tizimiga qamrab olish, o‘zaro raqobat qiluvchi davlat va nodavlat MTMlari tarmog’ini yaratish, amaliyotga maktabgacha ta’lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etishdan iborat.

Mazkur qaror va farmon ijrosi yuzasidan bugun Qoraqalpog'iston Respublikasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududda 318 ta maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, ularning 3 tasi xususiy, 7 tasi turli tashkilotlar tasarrufida, ularda 48 ming 106 nafar, umumiy bolalarning 32 foizi ta'lim-tarbiya olmoqda.

2020 yil 26-28 avgust kunlari o'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari Sardor Umurzaqov rahbarligida va vazirliklar, idoralar, sanoat birlashmalari, tijorat banklari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlaridan iborat eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi joylarga chiqqan holda hududlarning investitsiya, sanoat va eksport imkoniyatlarini o'rganish hamda mavjud salohiyatidan to'liq foydalanish bo'yicha birinchi darajali choralarini ishlab chiqish uchun Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'ldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 303 ta sanoat korxonasida muammoli masalalar o'rganildi. Ular orasida 84 ta korxona ishlab chiqarish hajmlari va tushumlarni, 64 ta korxona budgetga soliq tushumlarini kamaytirdi, 5 ta korxona o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatdi, 5 ta korxona to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatmayapti va 3 ta korxona hozirda ishga tushirilmay turibdi. Hozirgi kunga kelib 19 holatda ishlab chiqarish uchun xom-ashyo yetishmovchiligi, kredit mablag'lari ajratilishi zarur bo'lgan 31 holat, muhandislik kommunikatsiyalariga ulanish bilan bog'liq 9 masala, 2 holatda esa ilgari ajratilgan kreditlar bo'yicha to'lovlarni tarkibiy o'zgartirish zarurligi ma'lum bo'ldi.

### **3.Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim tizimi va undagi islohotlar.**

Oliy ta'lim mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda va shu bilan birqalikda hal qiluvchi vazifani bajaruvchi tizim hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzlusiz ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirilmoqda.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990 yil 20 avgustidagi "Nukus shahrida davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida"gi 297-sonli Qarori va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1990 yil 14 sentabrdagi "Nukus davlat pedagogika institutini Nukus davlat universiteti bazasida tashkil etish to'g'risida"gi 227/9-sonli qarori asosida tashkil qilindi. o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabrdagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3289-sonli Qarori bilan Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidan chiqarilib, o'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagи PQ-3183-son «Oliy ta’lim muassasalarida pedagog yo‘nalishida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g’risida»gi qarori hamda o‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2017 yil 9 avgustdagи 07/1-1926-son topshiriqlarini ijrosini ta’minlash maqsadida o‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’limi vazirining 2017 yil 12 avgustdagи 559-sonli buyrug‘i asosida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida pedagogika yo‘nalishida maxsus sirtqi bo‘lim tashkil etildi.

Mustaqillik yillarda Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti va Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini o‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi tasarrufiga berildi va shu bilan bir qatorda Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarini tegishli hududdagi oliy ta’lim muassasalari tasarrufiga berish hamda ular negizida Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tashkil etildi.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 15 dekabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrifdan asosiy maqsad avval berilgan vazifalar ijrosini ko‘rish, tahlil qilish va kelgusi ikki yilda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olishdan iborat bo‘ldi.

Prezidentimiz Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining Chimboy tumanidagi akademik litseyiga tashrif buyurdi. Shu yerda farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ichki bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to‘ldirish borasida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihamalar taqdim etildi. Davlatimiz rahbari mazkur soha istiqbolini yuqori baholab, bu borada mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini ta’kidladi. Jumladan, maktab o‘qituvchilariga navbatdan tashqari attestatsiyada ishtiroy etish imkonini berildi.

Avvalgi tartib bo‘yicha pedagog qanchalik malakali, o‘z bilimi va salohiyatiga ishonsa-da, har besh yilda attestatsiyaga jalb etilgani sababli mutaxassislikdan oliy toifali o‘qituvchilikka qadar 13 yil vaqt kutish lozim edi. Yangi tartibga ko‘ra, endilikda o‘z bilimi va tajribasiga ishongan pedagog besh yillik muddatni kutmasdan arizasiga binoan navbatdan tashqari attestatsiyada ishtiroy etishi mumkin.

#### **4.Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.**

Orol dengizi – o‘rtalik Osiyodagi eng katta berk sho‘r ko‘l bo‘lib, uning paydo bo‘lishi – Amudaryo va Sirdaryo tufayli bundan 2 – 2,5 mln. yil muqaddam ro‘y bergen. Ma’muriy jihatdan Orol dengizning yarmidan ko‘proq janubiy – g‘arbiy qismi o‘zbekiston (Qoraqalpog‘iston), shimoliy – sharqiy qismi Qozog‘iston hududida joylashgan. o‘tgan asrning 60 – yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o‘rtacha 68,0 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan. 1960 yildan bosholab Amudaryo va Sirdaryo havzalarida yangi yerlarni o‘zlashtirish sohasida keng

miqyosli ishlar boshlab yuborildi, bular uchun daryo suvini qo'shimcha ravishda tortib olish talab qilinardi. Natijada, Qoraqalpog'istonda paxtachilik bilan bir qatorda sholichilik ham yuksak sur'atlar bilan rivojlandi. Biroq yerlarni o'zlashtirish ilmiy asosda olib borilmadi. Dehqonchilikni rivojlantirish ham ekstensiv usulda amalga oshirilganligi sababli, suv resurslarining asossiz ravishda haddan ortiq darajada isrof qilinishiga olib keldi. Orolga esa uning «ulushi» berib turilmadi, bu esa dengizning qurib borishiga sabab bo'ldi. 80 – yillar o'rtalariga kelib Orol dengizining sathi 13,8 metr pasayib ketdi, suv hajmi 390 mln. kub. metr, maydoni 40 ming kv. m. kamaydi. Natijada Orol va Orolbo'yi muammosi jiddiy ravishda paydo bo'ldi. Havoga, yerga sochilgan tonnalab qum – tuzlar Orolbo'yi atrofida ham jonli, ham jonsiz tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Aholi dengiz atrofidagi o'z makonlarini tashlab ketishga majbur bo'ldi. Endilikda yuzaga kelgan ana shu ekologik va iqtisodiy muammolar faqat Orolbo'yi uchun emas, balki butun Markaziy Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlar uchun ham yaqqol ko'zga tashlanib turgan muammo bo'lib qoldi.

2017–2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturining amalga oshirilishini muvofiqlashtirish hamda tizimli nazorat qilishni ta'minlash Respublika komissiyasiga yuklandi. Dasturda belgilangan chora–tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirib borilmoqda.

Orol dengizi hududida 5,5 million gektardan ortiq Orolqum sahrosining paydo bo'lishi, har yili 100 million tonna qum va tuzning atrof–muhitga tarqalishiga qaramasdan aholining barcha qiyinchiliklarni matonat bilan yengib, tumanni «Sahro marvaridi»ga aylantirish uchun fidokorona mehnat qilayotgani va vatanparvarligi alohida e'tirofga sazovor.

Qoraqalpog'istonning murakkab sharoiti, Orol dengizi bilan bog'liq mintaqada yuzaga kelgan ekologik ofat aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, sifatli tibbiy yordam ko'rsatish, onalik va bolalikni himoya qilish, oila va mahalla institutlariga e'tibor qaratish, ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish kabi bir qator muhim masalalar yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan amaliy ishlarni talab etmoqda.

2013–2017–yillarda Orolbo'yi mintaqasida budget va markazlashgan kapital mablag'lar hisobidan 248 milliard so'mlik irrigatsiya–melioratsiya tadbirlari amalga oshirilib, 140 ming hektar maydonning suv ta'minoti va 231 ming hektar yerning meliorativ holati yaxshilandi. Prezidentimizning 2017 27 noyabrdagi “2018–2019–yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to‘g'risida”gi qarori bu boradagi ishlar ko'lамини yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu qarorga muvofiq, kelgusi ikki yilda qariyb 140 kilometr kanallar hamda 63 gidrotexnik inshoot rekonstruksiya qilinib, 60 ming hektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilanadi. 246 kilometrdan ortiq kollektorlarni qurish–rekonstruksiya qilish, 3 ming 735 kilometr uzunlikdagi kollektorlarni ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshiriladi. Natijada 89 ming hektar maydonning meliorativ holati yaxshilanib, qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan hosildorlikni oshirishga erishiladi.

To‘rtko‘l tumanida barpo etilishi rejalashtirilayotgan Sho‘rbuloq suv ombori Amudaryoning quyi oqimida suv taqchil yillarda suv ta’minotini yaxshilash, hududda baliqchilik, chorvachilik, bog’dorchilikni rivojlantirish va qo‘s Shimcha ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

Ma’lumki, Orol dengizi sathi pasayib, qirg’oqdan 180–200 kilometr uzoqlashib ketgani Amudaryoning quyi oqimiga kirib keluvchi suvlar yuqori nishablikdan tushishi va Mo‘ynoq tumanidagi Daryo oralig’i suv ombori yaqinida jarliklar hosil bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu Mo‘ynoq suv ombori, Ribache, Maqpalko‘l, Zakirko‘l ko‘llariga suv yetib bormasligi, hududdagi baliq va hayvonot dunyosi yo‘q bo‘lib ketish xavfini tug’dirmoqda.

Ushbu xavfning oldini olish maqsadida 2013–2017–yillarda shimoliy va sharqiy dambalarni rekonstruksiya qilish hamda suv o‘tkazish qobiliyatini tiklash ishlari bajarildi. Navbatdagi bosqichda Maypost ko‘li bo‘ylab to‘g’on yo‘lini tiklash va ko‘ldan Amudaryoning eski o‘zaniga suv o‘tkazish imkonini beradigan gidrotexnik inshoot qurish mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbariga janubiy Qoraqalpog’istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash loyihasi to‘g’risida ham ma’lumot berildi. Loyiha asosida amalga oshirilayotgan ishlar tufayli Ellikqal’a, Beruniy va To‘rtko‘l tumanlarida 100 ming gektarga yaqin maydon suv bilan ta’milanib, yiliga 269 million kubometr suv tejaladi. 23 nasos stansiyasi, Suv iste’molchilari uyushmasi va fermer xo‘jaliklari hisobidagi 450 dan ortiq nasos agregatlari to‘xtatilishi har yili 52 million kilovatt soat elektr energiyasini iqtisod qilish imkonini beradi.

Prezidentimiz irrigatsiya sohasidagi loyihalarni sifatli bajarish va mintaqada suv resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan tavsiyalar berdi.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrida Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo‘qorg’i Kengesi deputatlari va faollari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Unda shu kungacha bajarilgan ishlar tanqidiy tahlil qilinib, barcha sohalarni rivojlantirish bo‘yicha kelgusi ikki yilda amalga oshiriladigan ustuvor yo‘nalishlar va dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimizning tegishli vazirliklari, shuningdek, kompaniya va banklar rahbarlarini muntazam ravishda hududlarga yuborib, joylardagi qo‘s Shimcha rezervlarni izlab topish, aniq investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar izchil davom ettirilmoqda, dedi Shavkat Mirziyoyev. Qoraqalpog’istonga bugungi safardan oldin ikki hafta mobaynida ishlar xuddi shu tartibda tashkil etildi va qo‘s Shimcha investitsiyalarni jalb etishga yo‘naltirilgan yangi dastur loyihasi ishlab chiqildi.

2020 yil 29 sentabr kuni o‘zLiDeP Qoraqalpog’iston Respublikasi Kengashi "Siyosiy ta’lim" markazi tomonidan davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 75–sessiyasidagi nutqi mazmun–mohiyatini o‘rganish maqsadida ZOOM dasturi orqali onlayn seminar tashkil etildi.

Seminarda partianing shahar va tuman Kengashi mas’ul xodimlari, boshlang’ich partiya tashkiloti a’zolari va partiya faollari ishtirot etdi. Onlayn muloqotda Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi A.Abatov va Yoshlar parlamenti a’zosi D.Sarsenbayevlarning ma’ruzalari tinglandi. Unda so‘zga

chiqqanlar davlatimiz rahbari o‘z nutqida o‘tkir va juda dolzarb xalqaro tashabbuslarni ilgari surganligini ta’kidlab o‘tdi.

Xususan, Prezidentimiz nutqida Markaziy Osiyo mintaqasining global iqtisodiy, transport va tranzit yo‘laklariga chuqur integratsiyasini ta’minalash zarurligi va shu munosabat bilan transport–kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish, Afg’onistonda tinchlik va barqarorlikning o‘rnatalishi, Orol halokati hamda hozirgi davrning turli ekologik muammolarni hal qilish, jahonning yirik bozorlariga chiqish imkoniyatini beradigan transport–kommunikatsiya yo‘laklarining ko‘p variantli tizimlarini shakllantirish uchun istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muhim g’oyalar ilgari surilgan.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1.Mustaqillik yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasi ijtimoiy–iqtisodiy jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?

2.Mustaqillik yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasi siyosiy jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?

3.Qoraqalpog’istonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?

4.Mustaqillik yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasidagi ma’naviy–madaniy sohadagi yangilanishlar haqida ma’lumot bering?

5.Qoraqalpog’iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar haqida nimalarni bilasiz?

6.Qoraqalpog’iston Respublikasida ekologik ahvol haqida ma’lumot bering?

7.Orol fojiasi sabablari haqida nimalar bilasiz?

8.Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati xususida fikr bildirin?

### ***13–MAVZU. o‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI. o‘ZBEKISTONNING TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI VA UNING JAHON HAMJAMIYATI TOMONIDAN TAN OLISHI.***

Reja:

1. o‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. o‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.

2. o‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi. o‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. o‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. o‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh,

Xitoy mamlakatlarining o‘rni. o‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati.

3. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda o‘zbekiston Respublikasining faolligi. o‘zbekistonning ShHT bilan aloqalari. o‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.

4. o‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. o‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

**Tayanch tushunchalar:** BMT, Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mitasi, Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg’armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, Butunjahon Sog’liqni saqlash tashkiloti (VOZ), BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEK), Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMT konferensiyasi (YuNKTAD), Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS), Xalqaro Mehnat tashkiloti (MOT), Butunjahon Savdo tashkiloti (VTO), BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (YuNEP), OITS bilan kurashish bo‘yicha BMT dasturi, Parlamentlararo ittifoq.

**1. o‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. o‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.**

o‘zbekistonning jamiyatni demokratlashtirish hamda iqtisodiyotni liberallashtirish, o‘z fuqarolari uchun yuksak darajadagi turmush sharoitlarini yaratish va ularning farovonligini oshirish yo‘lidagi qadamlari jahon miqyosida yuqori bahoga sazovor bo‘lmoqda. Ko‘pgina xalqaro institutlar hamda tadqiqot tashkilotlarining reyting ma’lumotlari ana shundan dalolat beradi. Ular e’lon qilayotgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatimiz borgan sayin yuqori o‘rnlarga ko‘tarilmoxdaki, bu dillarimizda faxr va daxldorlik tuyg’ularini uyg’otmasligi mumkin emas.

1992-yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to‘la teng huquqli a’zosi bo‘ldi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yilda bo‘lib o‘tgan 48-sessiyasida ishtiroy etishi va

unda 27-sentyabrda qilgan ma’ruzasi o‘zbekistonni jahonga ko‘hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi.

1993-yil 24-oktyabrdan Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. o‘zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa’y-harakatlari natijasida o‘zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mitasi, Jahon sog’lijni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg’armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalariga a’zo bo‘ldi.

Bugun o‘zbekiston izchil taraqqiy topayotgan davlat va jahon hamjamiyatining xalqaro munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutayotgan teng huquqli a’zosidir. Uning keng miqyosli demokratik hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi tajribasi izchil rivojlanishning muvaffaqiyatli modeli sifatida xalqaro jamoatchilikda katta qiziqish uyg’otayotgani holda, ko‘plab mamlakatlarning ekspertlari va siyosatchilari tomonidan atroflicha tadqiq qilinmoqda.

Bunga, ko‘p jihatdan, o‘zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi faol hamkorligi ko‘maklashayapti. Ular mamlakatimizga xalqaro miqyosdagi dolzarb muammolarning hal etilishidagi muhim hamda vaqt sinovidan o‘tgan sherik sifatida qarashmoqda.

Shu bilan birga, nufuzli xalqaro tuzilmalar respublikamizda ro‘y berayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga, davlat hamda jamiyat hayotidagi izchil islohotlar natijasida qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta’milanishi hamda ularning farovonligi yuksalishiga katta qiziqish bildirishayotir.

So‘nggi paytlarda o‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti va erishgan muvaffaqiyatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sstligi singari ko‘p tomonlama institutlar hamda boshqa tashkilotlar doirasida alohida qiziqish bilan ko‘rib chiqilayotgani ham tez-tez kuzatilayotir.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijalari haqidagi ma’lumotlar muntazam ravishda Bosh Assambleya yig’ilishlarining rasmiy hujjati sifatida qabul qilinmoqda. Mazkur hujjatlarda iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlari ta’milanishi, aholi farovonligining oshishi, sud-huquq tizimi islohotlari, ta’lim va sog’lijni saqlash, ekologiya, yoshlar siyosati, oziq-ovqat xavfsizligi, fuqarolik jamiyatni hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining shakllanishi va

mustahkamlanishi singari sohalarda erishilayotgan natijalarning mazmun–mohiyati o‘z ifodasini topmoqda.

o‘zbekistonning davlat va jamiyatni modernizatsiyalash bo‘yicha e’tiborga molik tajribasi BMT tizimiga kiradigan xalqaro institutlarda ham alohida qiziqish uyg’otayapti. Ular orasida Jenevadagi BMT bo‘limi, Butunjahon Sog’lijni saqlash tashkiloti (VOZ), BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEK), Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMT konferensiyasi (YuNKTAD), Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS), Xalqaro Mehnat tashkiloti (MOT), Butunjahon Savdo tashkiloti (VTO), BMTning Atrof–muhit bo‘yicha dasturi (YuNEP), OITS bilan kurashish bo‘yicha BMT dasturi, Parlamentlararo ittifoq hamda boshqa tashkilotlar mavjud.

2015–yil boshidan buyon o‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy–huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimiz tajribasi, 2014–yilda o‘zbekistonning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2015–yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvorliklari haqidagi axborot materiallari BMT Bosh Assambleyasi 69–sessiyasining rasmiy hujjati sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida tarqatildi. Shuningdek, mazkur axborot materiallari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 57 ishtirokchi mamlakati, ushbu tashkilotning 11 hamkor davlati, YeXHT institutlari hamda dala missiyalari va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Ijroiya qo‘mitasi hamda MDHga a’zo mamlakatlar o‘rtasida ham tarqatildi. Yuqoridagilardan tashqari, BMTning Nyu–York va Jeneva shaharlaridagi, YeXHTning Venadagi, MDHning Minskdag‘i qarorgohlarida o‘tkazilayotgan turli tadbirlar – briefing, taqdimot marosimlari va uchrashuvlar chog’ida ham yurtimizda kechayotgan o‘zgarishlarga nisbatan xalqaro hamjamiyatning e’tibori va qiziqishi tobora o‘sib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizda inson huquqlari hamda manfaatlarini ta’minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda liberallashtirish jarayonlari xususidagi o‘zgarishlar yuzasidan nufuzli davlatlararo tuzilmalarning rahbarlari va vakillari tomonidan bildirilgan ko‘pdan–ko‘p fikr–mulohazalar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

“o‘zbekiston xalqaro jarayonlarga tobora faolroq kirib bormoqda, global va mintaqaviy kun tartibini shakllantirishda dadil qatnashib, o‘z salohiyatidan jahon hamjamiyatining ko‘p tomonlama tuzilmasi doirasida maqsadli foydalanishga kirishdi. Shunday yondashuv tufayli o‘zbekistonning obro‘sisi va nufuzi ortib bormoqda”.

Ushbu iqtibos “Political Events” haftalik tahliliy jurnali bosh muharriri Muhammad Ismoil Xonga tegishli bo‘lib, o‘zbekiston rahbarining Birlashgan

Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75–sessiyasidagi nutqi yuzasidan aytilgan va mamlakatimizning keyingi to‘rt yil ichida jahon hamjamiyatida egallagan mavqeini ro‘y–rost ko‘rsatib turibdi. Hindistonlik hamkasbimizning so‘zlaridan anglashiladiki, bugun turli davlatlar rahbarlari hamda ekspertlar jamiyatining diqqat–e’tibori Prezident Shavkat Mirziyoyevning puxta o‘ylangan tashqi siyosati, asosli tashabbuslari va izchil islohotlari tufayli bizning mamlakatimizga qaratilgan.

**Shu davrgacha BMT bosh minbarida o‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning barcha chiqishlari:**

1. 1993–yilda o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 48–sessiyasida Ilk bor birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1993–yil Nyu–Yorkdagi Bosh qarorgohda nutq so‘zlagan edi. Unda mamlakat Markaziy Osiyoniy yadro qurolidan xoli hududga aylantirish taklifini ilgari surgan. Buning amaliy natijasi o‘laroq, 2009–yil 20–martda "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish to‘g’risida"gi shartnoma kuchga kirdi. Aynan ushbu tashabbus keyinchalik Monterey xalqaro tadqiqotlar instituti huzuridagi yadro quroli tarqalishining oldini olish masalalarini o‘rganish markazi eksperti Tijey Bouz tomonidan alohida ta’kidlanib, o‘z vaqtida bildirilgan oqilona tashabbus, deya baholangan.

2. 1995–yilda BMT tashkil etilganiga 50 yil to‘lgani munosabati o‘tgan sessiya. 1995–yilning oktyabr oyida tashkil etilgan mazkur yirik tadborda Islom Karimov ishtirok etgan va nutq so‘zlagan. Ana shunda mamlakat sobiq rahbari qo‘shni Afg’oniston muammosiga konstruktiv yondashish kerakligini ta’kidlab, o‘z fikrlarini bildirgandi.

3. 2000–yilda BMT Bosh Assambleyasining “Mingyillik sammiti”da Yangi mingyillikning ilk davrida tashkil etilgan maxsus yig’ilishda Islom Karimov xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog’liq muammolarni hal etish, mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minalash, jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi. Ushbu nutq ko‘pchilikda katta qiziqish uyg’otdi, oradan biroz muddat o‘tib, ya’ni 11–sentyabr voqealari yuz bergenidan so‘ng, o‘zbekiston vakilining so‘zlarida achchiq haqiqat borligi ayon bo‘ldi.

4. 2010–yilda BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag’ishlangan yalpi majlisida davlatimiz rahbari mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni hamda izchil taraqqiyotni ta’minalash, atrof–muhitni muhofaza qilish masalalari ustuvor vazifalardan ekanini alohida ta’kidladi. BMTning mazkur anjumanidan so‘ng mamlakatimizda 2011–2015–yillarda

Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar kompleksi tasdiqlandi.

5. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017–yil 19–sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72–sessiyasida nutq so‘zladi. Nutqida dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan muammolar haqida fikr yuritdi va ularni hal etish bo‘yicha qator takliflarni ilgari surdi. Ularni amalga oshirish doirasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari muntazam o‘tkazilmoqda. Xususan, ikkinchi shunday uchrashuv o‘tgan yili noyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. 2018–yil mart oyida poytaxtimizda Afg’oniston bo‘yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiya muvaffaqiyatli tashkil etildi, uning yakunida afg’onlararo tinchlik muzokaralarini boshlash bo‘yicha o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”ga aylangan deklaratsiya qabul qilingan edi.

o‘sha yilning dekabr oyida esa BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda BMTning Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyasi loyihasini tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu konvensiyaning dolzarbliji joriy yil avgust oyida o‘tgan “Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” Samarqand forumining xalqaro ishtirokchilari tomonidan yana bir bor qayd etildi.

Ikki yil avval tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik asosidagi Trast fondi amaliy faoliyat ko‘rsatmoqda. Qayd etish joizki, o‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo‘llab–quvvatlanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

6. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020–yil 23–sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75–sessiyasida Vatanimiz tarixida birinchi marta o‘zbek tilida nutq so‘zladi. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining sessiyasi tarixda birinchi marta butunlay yangi formatda — koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo‘lib o‘tayotganliini qayd etdi. «Bunday global falokat sayyoramizda so‘nggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko‘rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat yer yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog’liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi», ded qayd etdi Prezidentimiz.

«Shu yo‘lda barchamiz hukumatlar, parlamentlar va fuqarolik jamiyatlarining o‘zaro sa’y–harakatlarini birlashtirish, umumiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish, Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish

lozimligini chuqur angladik. Maqsadimiz – har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta'minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir», – deya ta'kidladi Prezident.

Shavkat Mirziyoyev BMT shafeligida Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g’risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etdi. Ushbu hujjatda har bir davlatning o‘z fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatlari aks etishi lozim. Shuningdek, Prezident tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrishning inqirozli vaziyatda oziq–ovqat xavfsizligini ta’minalashning dolzarb muammolariga bag’ishlangan sammitni o’tkazish bo‘yicha taklifini ma’qullashini ta’kidladi. Ushbu sessiyada Pandemiya davrida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Yoshlar siyosati, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik, «Afg’iston – Markaziy Osiyoning ajralmas qismi», Global iqlim o‘zgarishi va Orol muammozi, Jahonda qashshoqlikka qarshi kurashish kabi bir qator muhim masalalar ham Yurtboshimiz tomonidan ta’kidlangan edi.

**2. o‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi. o‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. o‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. o‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o‘rni. o‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minalash borasida olib borgan siyosati.**

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991–yil 8-dekabrdan Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketishi natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uch davlat rahbarlari siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991–yil 21-dekabrdan Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog’iston, Qirg’iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, o‘zbekiston qo‘sildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to‘g’risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdilar. 1993–yil MDHga Gruziya qo‘sildi. 1993–yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy maklonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog’lig’i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy a’zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a’zolar bo‘lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil etilgan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashki ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy

qo‘mita, markazi Sankt–Peterburgda bo‘lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiglashtiruvchi maslahat qo‘mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi bir yilda kamida 2 marta o‘tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma–bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko‘mak berdi. MDH o‘z faoliyati davomida haddan tashqari ko‘p qarorlar qabul qildi–yu, lekin aksariyat hollarda ularning ko‘pi bajarilmadi. Hozir MDHga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln kishini tashkil etadi. Bu aholining 120 millondan ortiqrog‘i iqtisodiyotda mashg’uldir. ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

o‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiglashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqliligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o‘rtasida savdo–iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

### **MDHning barcha a’zolari (alfavit bo‘yicha)**

-  Armaniston
-  Belarus
-  Moldova
-  Ozarbayjon
-  Qirg’iziston
-  Qozog’iston
-  Rossiya
-  Tojikiston
-  Turkmaniston
-  o‘zbekiston
-  Ukraina

Bugungi kunda ijtimoiy–iqtisodiy jihatdan jadal taraqqiy etib borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy olmoqda. Bunga keyingi ikki yilda mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati yanada o‘zgacha joziba va nufuz kasb etdi. Xalqaro miqyosdagi nufuzli ommaviy axborot vositalari o‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar ko‘lami va qamrovi xususida so‘z yuritib, bu buyuk istiqbol sari bosilgan odil qadam ekanligini e’tirof etishmoqda.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishi xususida to‘xtalib, shuni ta’kidlash joizki, mazkur tizimning taraqqiy etishi mamlakat aholisi ijtimoiy hayotining yaxshilanishiga mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

Statistik raqamlarga yuzlanib, o‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasiga baho bersak. o‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy–iqtisodiy jihatdan rivojlanish darjasи va shart–sharoitlari nisbatan yaqin va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tgan sobiq ittifoq davlatlari bilan iqtisodiy ko‘rsatkichlarni solishtirish respublikamizning qay darajada dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashayotganligini ko‘rish imkonini beradi.

XXI asr boshlanishidan keyingi davrda MDH mamlakatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlari barcha davlatlar bo‘yicha barqaror ko‘rinishni kasb etmagan. Nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari uglevodorod resurslariga boy mamlakatlarda kuzatildi. Neft va gaz resurslari bo‘yicha katta salohiyatga ega mamlakatlar – Ozarbayjon, Qozog’iston va Turkmaniston davlatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlari ayrim yillarda juda katta miqdorlarni, misol uchun, mos ravishda 126,4 foiz (2005–y.), 113,5 foiz (2001–y.) foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2000–yildan keyingi davrda mustaqil davlatlar hamdo‘stligidagi ayrim mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari salbiy ko‘rinishni ham kasb etdi.

Tahlil etilayotgan davrda Rossiya, Ukraina, Moldova va Belorus mamlakatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlari 0.4–9.8 foizgacha kamaydi. Buning asosiy sababi, Rossiya mamlakatiga AQSh va Yevropa ittifoqi davlatlari tomonidan iqtisodiy embargoning joriy etilishidir. Qayd etilgan boshqa mamlakatlar iqtisodiy o‘sishida salbiy tendensianing kuzatilishi – mazkur davlatlarning Rossiya iqtisodiyoti bilan chuqur integratsiyalashganlidir.

Yuqorida ta’kidlangan mamlakatlardan farqli o‘larоq Ozarbayjonda ham iqtisodiy o‘sish sur’atlari 2016–yilda 3,1 foizga kamaygan. Biroq bu, jahon bozorida neft xom ashyosi narxining pasayishi va uning ishlab chiqarish sur’atlariga aks ta’siri negizidadir.

2000–yildan keyingi davrda mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari ichida o‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘sish sur’atlari birmuncha muqim va barqaror ko‘rinish kasb etdi. 2004 yildan to 2016 yilgacha 7–9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o‘sish sur’atlari kuzatildi. Bu mamlakatimizda tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilganligi, ichki va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etilayotganligi, sanoat ishlab chiqarishini texnik va texnologik jihatdan yangilash va qayta qurilayotganligi, boshqarishda xorijiy menejmentni joriy etilishi asosida – deb ta’kidlashimiz o‘rinlidir. o‘zbekiston Respublikasining 2010–2016–yillarda YaIMning fizik hajm indeksi o‘zgarishi MDH mamlakatlari ichida Turkmaniston Respublikasidan (175 foiz) keyin 159 foizlik natija bilan ikkinchi o‘rinni egalladi. Oxirgi yetti yillik davrda

Tojikiston YaIMning fizik hajm indeksi o‘zgarishi – 150 foiz, Qirg’izston – 132 foiz va Qozog’iston – 127 foizni tashkil etdi.

Tahlil etilayotgan davrda Rossiya va Belarus Respublikasi YaIMning fizik hajmi indeksi o‘zgarishi 103 foizga teng bo‘ldi. Bu MDH mamlakatlari umumiy YaIMning fizik hajmi indeksi o‘zgarishi (110 foiz) natijasidan 7 foiz punktiga kamdir. Aytish joizki, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyoti MDH mamlakatlari ichida juda ulkan salmoqqa ega. 2016–yil ma’lumotlari bo‘yicha mustaqil davlatlar hamdo‘stligidagi barcha mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (valyutaning xarid pariteti bo‘yicha hisoblangan) hajmida Rossiya Federatsiyasining ulushi — 70.7 foizga teng.

MDH mamlakatlari ichida o‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining (YaIMning VXP bo‘yicha hisoblangan hajmi) salmog’i (3.6 foiz) bo‘yicha Qozog’iston (8,8 foiz) va Ukrainadan (6,7 foiz) keyin to‘rtinchchi o‘rinni egalladi. Ta’kidlab o‘tish joizki, 2016–yil ma’lumotlariga asosan o‘zbekiston Respublikasi valyutaning xarid pariteti bo‘yicha yalpi ichki mahsuloti hajmi – Qirg’iziston YaIMdan 8,9 marta, Tojikistondan 8,1, Armanistondan 7,4, Turkmanistondan 2.0, Ozarbayjon va Belarus Respublikasidan 1,1 marta ko‘pdir. Biroq, respublikamiz – aholi soni va mamlakat hududi bo‘yicha mazkur davlatlardan ancha katta hisoblanadi.

o‘zbekiston Respublikasi MDH mamlakatlari ichida aholisi soni bo‘yicha Rossiya (146.7 mln. kishi) va Ukrainadan (42.6 mln. kishi) keyin uchinchi, hududi bo‘yicha esa Rossiya (17125.2 ming km<sup>2</sup>), Qozog’iston (2724.9 ming km<sup>2</sup>), Ukraina (577.5 ming km<sup>2</sup>) va Turkmanistondan (4912 ming km<sup>2</sup>), keyin beshinchi o‘rinni egallaydi.

2016–yilda o‘zbekiston Respublikasining aholi jon boshiga YaIM va valyutaning xarid pariteti bo‘yicha YaIM mos ravishda 2115 va 5952 AQSh dollarini tashkil etdi. Aytish joizki, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha MDH davlatlari ichida mamlakatimiz natijalaridan baralla maqtana olmaymiz. Shuning uchun, bizning nazarimizda, istiqbolda mamlakatimizning ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiy ettirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarga qaratilishi lozim:

- iqtisodiy o‘sish sur’atlarini aholi soni o‘sishi va inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda oxirgi o’n yillikning o‘rtacha darajasidan kam bo‘lmagan ko‘rsatkichga olib chiqish;
- tashqi mehnat migratsiyasidagi mamlakatimiz aholisini (mehnat resurslarini) respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish orqali iqtisodiy samaraga erishish;
- mamlakat maydonining cheklanganligi, suv va yer resurslarining tanqisligini nazarda tutib, ulardan oqilona foydalanish;

- qo'shni respublikalar bilan ikki tomonlama manfaat topishga asoslangan shartnomalar asosida ish yuritish orqali o'zaro integratsiyalashish;
- yaqin kelajakda aholi jon boshiga YaIM – iqtisodiy indikatori bo'yicha daromadi o'rtacha ko'rsatkichga ega rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy egallash va hokazo.

o'zbekistonning to'qqizta banki «RIA Reyting» agentligi e'lon qilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 200 ta yirik banki yillik reytingiga kirdi. Reyting ochiq manbalar – oshkor moliyaviy hisob-kitoblarga asoslanadi. MDH davlatlarida mavjud 1100 ta bankdan 10 ta mamlakat:

o'zbekiston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya (2009–yili MDHdan chiqib ketdi), Qozog'iston, Moldova, Rossiya, Turkmaniston va Ukrainianing 200 ta yirik banki ushbu ro'yxatga kirdi.

o'zbekiston banklari o'rtasida reytingdagi birinchi o'rinni Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki (umumiyligi reytingdagi o'rni – 43, 1 yanvar holatiga ko'ra aktivlari – 5,3 mlrd dollar, ya'ni mamlakat bank tizimi kapitalining 22,8 foizi), ikkinchi o'rinni o'zsanoatqurilishbank (3,23 mlrd dollar, 13,9 foiz), uchinchi o'rinni «Asaka» banki (2,17 mlrd, 9,3 foiz) egalladi.

«RIA Reyting» ekspertlari bahosiga binoan, MDHdagi 200 ta yirik bankning jami aktivlari 1 yanvar holatiga ko'ra 1,47 trln dollar bo'ldi va bir yil oldingi TOP-200 aktivlaridan 355 mlrd dollar yoki 19,5 foiz kamdir.

### **3. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda o'zbekiston Respublikasining faolligi. o'zbekistonning ShHT bilan aloqalari. o'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.**

1996–yilda Shanxayda, 1997–yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangan edi. Shu tariqa, «Shanxay forumi» yoki «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan edi. 2001–yil 14–15–iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida o'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va o'zbekistonning "Shanxay forumi"ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi. o'zbekistonning "Shanxay forumi"ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT, deb o'zgartirildi.

«Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil etilganidan buyon o'tgan davr mobaynida haqli ravishda nufuzli xalqaro tashkilotlar qatoridan munosib joy oldi, barqaror taraqqiyot, tinchlikni mustahkamlash, zamonaviy tahdid va xatarlarga

qarshi kurashish, mintaqaviy va global darajada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ta'sirchan omiliga aylandi».

o'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so'zlagan nutqidan, 2016-yil, iyun. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining uchrashuvlari nafaqat mintaqa, balki umumjahon miqyosida ham borgan sari muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeа sifatida talqin etilmoqda. Bu, shubhasiz, mazkur tuzilmaning salohiyati hamda obro'-e'tibori tobora oshib borayotganidan dalolat beradi. Tez o'zgaruvchan umumbashariy vaziyatda, yangi tahdid va xavf-xatarlar yuzaga kelayotgan bir sharoitda oliv darajadagi muntazam muloqot xavfsizlikning o'ta muhim muammolari hamda xalqaro rivojlanish bo'yicha ShHT mamlakatlarining nuqtai nazarlarini muvofiqlashtirishga ko'maklashayapti.

ShHTning 2025-yilgacha rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2016–2020–yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasи tashkilotning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va xavfsizlik sohalaridagi hamkorligini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga zamin hozirladi. Shanxay xalqaro tadqiqotlar akademiyasi huzuridagi Markazi Osiyo mamlakatlarini o'rganish markazi direktori o'rinnbosari Syan Syao Yunning e'tiroficha, 2015–2016–yillarda ham o'zbekiston ShHT rivojlanishini ilgari surish maqsadida keng ko'lamli ishlarni hayotga tatbiq etdi. ShHT faoliyati unga a'zo davlatlarning birgalikda gullab-yashnashi uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda, — dedi S. Syao Yun. Darhaqiqat, tashkilotning mas'uliyat hududi resurslarga o'ta boy hamda ulkan bozorga ega bo'lgan Yevropa va Osiyo qit'asini qamrab olgan. Shu boisdan uning savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish salohiyati nihoyatda kattadir. o'zbekistonning ShHTga raisligi davridagi sa'y-harakatlari tuzilma rivojlanishiga juda katta turtki berdi. Berlindagi Kaspiy mintaqasini o'rganish markazi katta ilmiy xodimi Matias Dornfeldning aytishicha, o'zbekistonning ShHT doirasida ko'p qirrali aloqalarini mustahkamlashga bo'lgan intilishi uning raisligidagi ustuvorliklarda hamda mamlakat rahbariyatining tegishli tashqi siyosiy tashabbuslarida o'z ifodasini topdi.

2018-yilning iyun oyida Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotining 18-sammiti bo'lib o'tdi. Ekspertlar uni tarixiy va qator muhim tashabbuslar qo'llab-quvvatlangani bois, hatto tashkilotning keyingi davrini belgilab berdi, deya ta'riflamoqdalar. Ana shu sammitda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari o'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Vladimir Norovni ShHT Bosh kotibi lavozimiga tasdiqladilar. U 2019-yil 1-yanvardan o'z lavozimiga rasman kirishdi. o'z navbatida, qayd etish joizki, tashkilot o'z ishida ochiqlik va uchinchi tomonga

qarshi yo‘nalmaslik tamoyillariga tayanmoqda. Ishonch, tenglik, o‘zaro manfaat va maslahatlashuvlar, madaniyatlar xilma–xilligini hurmat qilish, hamkorlikda rivojlanishga intilishga asoslangan “Shanxay ruhi”ga sodiqlik qo‘shni va uzoq mintaqalar mamlakatlari, xalqaro va hududiy tashkilotlarning ShHT bilan hamkorlik qilishga qiziqishini oshirdi. XXRning raislik qilgan davrida o‘tkazilgan 160 dan ziyod tadbirlarning ijobiy samarasi o‘larоq hamjihatlik va yakdillik poydevori yanada mustahkamlandi.

Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2019–2021– yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi, Atrof–muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik konsepsiysi, ShHTga a’zo mamlakatlarning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan narkotiklarga qarshi strategiyasi, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarni suiste’mol qilishning oldini olish bo‘yicha ShHT Konsepsiysi kabilardir. ShHTga a’zo davlatlar yetakchilarining Yoshlarga qo‘shma murojaati hamda Davlat rahbarlarining savdo tartib–taomillarini soddalashtirish to‘g’risidagi bayonoti qabul qilindi.

ShHT kengayib borayotgan bir paytda o‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Markaziy Osiyoda, ham ShHT makonida yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlikning yangi muhitini shakllantirishga qaratilgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi. Ekspertlarning fikricha, o‘zbekiston tashabbuslari ShHTni yanada rivojlanirish, uning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini oshirish, xalqaro ta’sirini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Sindao deklaratsiyasida ishtirokchi davlatlar BMT Bosh Assambleyasi 72–sessiyasida o‘zbekiston ilgari surgan “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini qo‘llab–quvvatladilar. Shuningdek, joriy yil mart oyida bo‘lib o‘tgan “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi Afg’oniston bo‘yicha Toshkent konferensiysi yakunlarini ushbu mamlakatda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayoniga katta hissa qo‘shgan qadam sifatida olqishladilar. Bugungi kunda yoshlarni terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik guruhlarga jalb qilishga urinishlarga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyatning kuchlarini birlashtirish masalasi birinchi o‘ringa chiqmoqda. ShHT mamlakatlari yoshlar o‘rtasida radikal va buzg’unchi g’oyalar tarqalishiga qarshi o‘zaro uyg’un, kechiktirib bo‘lmaydigan choralar zarurligini anglab yetmoqda. A’zo mamlakatlар birgalikda ishlash fikrida qat’iydirlar. Bu, xusan, Yoshlarga qo‘shma murojaat qoidalari ijrosi bo‘yicha Harakatlar dasturida ham aks etgan. Unda har tomonlama barkamol shaxsni, buzg’unchi kuchlarga qarshi turish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlarni zamonaviy bilimlarni egallahsga jalb qilish, millatlararo bag’rikenglikni mustahkamlash, vatanparvarlik va hamjihatlik tuyg’ularini uyg’otish bo‘yicha vazifalar ko‘zda tutilgan. Dastur yoshlarni tadbirkorlik faoliyati va innovatsion loyihalarga jalb qilish, ilmiy–texnikaviy tajriba almashuvlar hamda birgalikdagi

tadqiqotlarni faollashtirish, xalqaro terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish uchun yoshlar tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan qo‘shma iqtisodiy va ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surishni nazarda tutadi.

Bunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ShHT Yoshlar kengashi mazkur dasturning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘la olishi haqidagi bayonoti amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuni hisobga olish lozimki, XXR jamiyat va davlatni raqamli tizimga o‘tkazish borasida dunyoning eng yetakchi davlatlaridan biridir. Xitoy tomonidan to‘plangan tajriba ushbu yo‘nalishni ShHTga a’zo boshqa mamlakatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutishi mumkin. Ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, XXR yalpi ichki mahsulotida axborot texnologiyalari sohasining ulushi 4,7 foizga teng. Dunyo bo‘yicha elektron savdolar tranzaksiyalari umumiy hajmining 40 foizi ushbu davlat hissasiga to‘g’ri keladi. “The Boston Consulting Group” kompaniyasi ma’lumotlariga qaraganda, 2016-yilda xitoylik iste’molchilar internet orqali savdolarda 750 milliard dollarga yaqin pul sarflashgan. Yirik internet-kompaniyasi “Alibaba” Xitoy raqamli iqtisodiyotida shu paytgacha 31 million ish o‘rni yaratdi va 2035-yilga borib bu ko‘rsatkichni 122 millionga yetkazmoqchi. Hozir mazkur kompaniya ShHT hududida ham faol ish boshlagan: 2017-yilda ShHT mamlakatlardan 20 million iste’molchi “AliExpress” orqali Xitoydan tovarlar sotib olgan.

“Alibaba” biznes maktabi elektron tijorat sohasida mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha global dasturni ishga tushirdi. Undan ko‘zlangan maqsad talabalar va tadbirkorlarga raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali butun dunyoda elektron tijorat rivojini tezlashtirishdir. Besh yil ichida 1,2 million nafar kishini o‘qitish rejalashtirilmoqda. Hozirgi paytda ASEAN mamlakatlari talabalari ushbu dasturda qatnashmoqda. ShHT davlatlari oliy o‘quv yurtlari ham unga faol qo‘shilishlari lozim, deb o‘ylayman. Ahamiyatlisi, yoshlar uchun AKT sohasida qo‘shma loyihalar ishlab chiqish va kelishish ShHTga a’zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga qo‘shma murojaati qoidalari ijrosi bo‘yicha Harakatlar dasturidagi asosiy bandlar sanaladi.

Bugun xalqaro hamjamiyat, xususan, 3,2 milliard aholiga ega ShHT mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdek dolzarb masala qarshisida turibdi. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 1956-yilda 20 million nafar bo‘lgan Markaziy Osiyo aholisi hozirgi kunga kelib 70 million nafarga yetdi. 2050-yilga borib esa mazkur ko‘rsatkich 94 million nafarga chiqadi va bu mintaqani oziq-ovqat bilan ta’minlash muammosini, shubhasiz, yanada chuqurlashtiradi. Bu bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan choralar qabul qilishni taqozo etadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumot berishicha, 30 yildan so‘ng Yer yuzi aholisini boqish uchun hozirgidan ko‘ra 70 foiz ko‘proq oziq-ovqat kerak bo‘ladi. Bu esa innovatsion texnologiyalar joriy etish, jumladan, maxsus texnologik qishloq xo‘jaligi parklarini yaratish hisobiga agrar soha samaradorligini oshirishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi uchun “yashil yo‘laklar” tashkil etish, ularni yetishtirish va qayta tayyorlashning klaster tizimini rivojlantirish g’oyasi alohida e’tiborga sazovor. Bu taklif barcha tomonning manfaatlariga javob beradi, chunki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ShHTga a’zo davlatlar bozoriga eksportini kengaytirish ularning o‘zaro faol hamkorligi uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Barcha uchun manfaatli bunday rejalar ShHTga a’zo davlatlar yetakchilarining “Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorligi dasturi loyihasini ishlab chiqish to‘g’risida”gi qarorini o‘z vaqtida qabul qilingan va dolzarb, deya baholash uchun to‘la asos bor.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020–yil 10– noyabr kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuman shaklida o‘tgan navbatdagi majlisida ishtirok etdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o‘tgan yig’ilishda, shuningdek, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qирг’из Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vaziri Sadir Japarov, Qozog’iston Respublikasi Prezidenti Qasim–Jomart Toqayev, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi ishtirok etdilar. Bundan tashqari, sammit ishida ShHT huzuridagi kuzatuvchi davlatlar vakillari – Afg’oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G’ani, Mo‘g’uliston Prezidenti Xaltmaagiyn Battulg’a, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoni, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Roman Golovchenko hamda ShHT Bosh kotibi Vladimir Norov va ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi direktori Jumaxon G’iyosov qatnashdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish sammit ishtirokchilariga videomurojaat yo‘lladi. Uchrashuv kun tartibiga muvofiq yangi global xatar va tahdidlarning kuchayishi sharoitida ShHT doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Tashkilotga a’zo va kuzatuvchi maqomidagi davlatlar delegatsiyalarining rahbarlari ustuvor yo‘nalishlarda ko‘p tomonlama munosabatlarning bugungi holatini tahlil qilib, ularni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qildilar, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutq so‘zlar ekan, Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘z taraqqiyotining prinsipial jihatdan yangi bosqichida turganini alohida ta’kidladi. Davlatimiz rahbari yaxshi qo‘sni chilik, teng huquqlilik, o‘zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish an’analarini asrash va ko‘paytirishga chaqirdi. “Umumiy qadriyatimiz, birgalikda rivojlanishga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmatimiz ifodasi bo‘lgan ko‘p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasi – “Shanxay ruhini” mustahkamlash bugun har qachongidan muhim” ekanini ta’kidladi.

o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, Shanxay hamkorlik tashkiloti kun tartibidagi asosiy masalalarga birgalikda murosa izlash keng Yevroosiyo makonida xavfsizlik, barqaror taraqqiyotni ta’minalashning bosh sharti sifatida qayd etildi. “Har birimiz kuchli bo‘sakkina ShHT ham kuchli bo‘ladi”.

Shu munosabat bilan, Prezidentimiz tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qator dolzarb tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, pandemiya salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida ShHTning savdo-iqtisodiy hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va sanoat kooperatsiyasini rag’batlantirish bo‘yicha uzoq muddatli hujjatlarni qabul qilish orqali savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni kuchaytirish taklif etildi. Davlatimiz rahbari iqtisodiy o‘sishni ta’minalashda axborot texnologiyalarining roli ortib borayotganini qayd etib, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va aholini o‘qitishga qaratilgan ShHTning raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha dasturini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. o‘zbekiston rahbari kambag’allikni qisqartirish masalalarida yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning dolzarb ahamiyatini alohida qayd etdi. Tashkilot doirasida mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari yig’ilishlari mexanizmini yaratish va tegishli dasturiy hujjat tayyorlash taklif etildi. Kambag’allikka qarshi kurashish bo‘yicha kelishilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida mamlakatimiz xalqaro forum o‘tkazishga tayyor ekani bildirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ShHTning pandemiya tahdidlariga qarshi kurash bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarning kompleks rejasi tasdiqlanganini ma’qullab, xavfli infektion kasalliklarning tarqalishiga qarshi hamkorlikni yanada faollashtirish, yuqumli kasalliklar bo‘yicha tibbiyot muassasalari tarmog’ini yaratish, Telemeditsina sohasidagi hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbari yangi shakllar kasb etayotgan terrorizm, ekstremizm va narkobiznes tahdidlariga qarshi kurash masalalari Shanxay hamkorlik tashkiloti e’tibori markazida bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Bunga ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasini tashkilot makonida xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga moslashtirish hamda vakolatli

idoralar ortasidagi muloqotlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. o‘zbekiston Prezidenti sammit ishtirokchilarini Afg’onistondagi tinchlik jarayonlarini va ushbu mamlakatni mintaqaviy savdo–iqtisodiy aloqalarga jalg etishni qo‘llab–quvvatlashga chaqirdi. Shu munosabat bilan “ShHT–Afg’oniston” muloqot guruhi doirasida Afg’onistonning ijtimoiy–iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish bo‘yicha amaliy chora–tadbirlar rejasini tez fursatda qabul qilish taklif etildi. Afg’onistonga uning Markaziy va Janubiy Osiyoni bog’lab turuvchi ko‘prik sifatidagi tarixiy rolini qaytarishga xizmat qiladigan transport yo‘laklarini barpo etish tashabbuslariga alohida e’tibor qaratildi. Shu va boshqa masalalar o‘zbekiston tashabbusi bilan 2021–yilning aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog’liqlik. Xatar va imkoniyatlar” xalqaro konferensiyasining kun tartibiga kiritilishi mumkin. Kelgusi yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti 20 yoshga to‘ladi. Prezidentimiz ushbu muhim sana arafasida “ShHTning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi roli” xalqaro forumini o‘tkazishni taklif etdi. Sammit yakunida ShHTga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining Moskva deklaratsiyasi qabul qilindi hamda tashkilot doirasidagi o‘zaro manfaatli ko‘pqirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan hujjatlar to‘plami imzolandi. o‘zbekiston tashabbusi bilan sammitda ShHTga a’zo davlatlar rahbarlarining Raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlik to‘g’risidagi bayonoti qabul qilindi.

**4. o‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. o‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minalash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.**

o‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosati bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda yangi bosqichiga ko‘ratilib bormoqda. o‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minalash borasida olib borayorgan siyosati, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar ishlab chiqildi. Jumladan, xavfsizlik, diniy bag’rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minalash sohasida:

1. Mamlakat mudofaa va xavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish. o‘zbekiston Respublikasida xavfsizlikni ta’minalash sohasida joriy yilning birinchi yarim yilligida bir qator chora–tadbirlar amalga oshirildi. Qurolli Kuchlarni 2020–2025–yillarda rivojlantirish bo‘yicha Kompleks dasturni tasdiqlovchi Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi.

Qo'shinlar tayyorgarligining intensivligi va sifatini kuchaytirish, jangovar va tezkor tayyorgarlik bo'yicha turli mashqlar o'tkazish hamda boshqa tadbirlarni amalga oshirish dasturlari tasdiqlandi.

Harbiy okruglar va harbiy ma'muriy sektorlar hamkorligida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritalari" asosida dala o'quv maydonlari ob'ektlari xalqaro talablar asosida kapital ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Mamlakatning kiberxavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'zbekiston Respublikasi Prezidentining "o'zbekiston Respublikasida kiberxavsizlikni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. (Davlat dasturining 243-band). Shuningdek, atom energiyasidan foydalanish xavfsizligi tizimini takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

2. Chegara o'tkazish punktlarida chegara va bojxona nazorati sifatini yaxshilash. Mintaqalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, o'zaro qo'shnichilik va savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlash hamda chegaralarda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida chegara o'tkazish punktlarida chegara va bojxona nazorati sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasidagi qabul qilindi. (Davlat dasturining 247-band).

Shu maqsadda "G'ishtko'prik", "Oybek", "Jartepa", "Toshkent xalqaro aeroporti" va "Ayritom" chegara bojxona postlariga 5 ta "bodi-skaner" qurilmalari ajratildi.

Bundan tashqari, "Yallama" chegara bojxona postiga "Avtotransport vositalari davlat raqamini aniqlash tizimi" qurilmalari, postning kirish qismiga, radiatsion portal monitorlari (avto va piyoda), 5 ta komplekt rentgen apparati, 3 ta komplekt avto tarozi, 2 ta komplekt muqim metall izlagich, avtomatik to'siq (elektron shlagbaum 9 ta komplekt), 10 ta kompyuter hamda video kuzatuv tizimi o'rnatildi. Bundan tashqari, chegara oldi hududlarda joylashgan temir yo'l bekatlari xavfsizligini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasidagi qabul qilindi.

3. Mamlakatda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash. o'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida ham bir qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatda "Jaholatga qarshi ma'rifat" degan g'oya asosida Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik maqsadlariga xizmat qilishini hamda yurtimiz allomalari hayoti, ilmiy merosini dunyo hamjamiyatiga yetkazish maqsadida 2020-yilning 3-5-mart kunlari Samarqand shahrida Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiylilikning mafkuraviy asosi, ushbu ta'limotning bugungi kundagi ahamiyati muhokamasiga bag'ishlangan "Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Ushbu tadbirda 15 ta davlatdan 55 nafar taniqli ulamolar, muftiyalar, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilar qatnashdi. Konferensiya yalpi majlisida 11 ta, sho‘ba yig’ilishlarida 32 ta ma’ruza tinglandi. Shu bilan birga, Imom Buxoriyning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini yangi loyiha asosida qayta barpo etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining farmoyishi qabul qilindi.

Ayni paytda o‘zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi muslimon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, o‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Xalqaro diniy erkinlik bo‘yicha AQSh komissiyasi (USCIRF) o‘zbekistonni “Alohida xavotirga molik davlatlar” ro‘yxatidan chiqardi. Komissiya hisobotida o‘zbekiston tomonidan so‘ngi yillarda diniy sohada amalga oshirilgan o‘zgarishlar e’tirof etilib, ayniqsa «Jasliq» qamoqxonasining yopilgani alohida qayd etildi. Mamlakatda inson huquqlarini ta’minalash sohasida esa o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g’risidagi Farmoni qabul qilindi. Hujjat bilan, Inson huquqlari bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, Inson huquqlari bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko‘rib chiqish yuzasidan o‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g’risidagi nizom tasdiqlandi.

### **Tashqi siyosat sohasida:**

1. Xorijiy mamlakatlар bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish. 2020–yilning birinchi yarim yilligida o‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatida ham bir qator samarali chora–tadbirlar va sa’y–harakatlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2020–yilning 19–20–fevral kunlari o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g’anning taklifiga binoan, rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari o‘rtasida tor doirada muzokara bo‘lib o‘tdi. Unda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va savdo–investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Shuningdek, Prezidentlar raisligida Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining birinchi yig’ilishi bo‘lib o‘tdi. Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig’ilishi natijalari to‘g’risida qo‘sma bayonot, shuningdek, iqtisodiyot, savdo, texnologiyalar sohasiga oid hujjatlar imzolandi.

Bundan tashqari, 2020-yilning 23-iyun kuni o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Ikkinchiji jahon urushida erishilgan g’alabaning 75 yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan g’alaba paradida ishtirok etish uchun Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva shahriga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Prezident Sh. Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuv davomida siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va madaniy sohalarda birgalikda olib borilayotgan ishlarga to‘xtalib, ushbu sohalarda bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, Prezident V. Putin o‘zbek xalqining Ikkinchiji jahon urushidagi g’alabaga qo‘sghan ulkan hissasini alohida ta’kidlab o‘tdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qo‘schnichilik aloqalarini hamda barcha sohalardagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish sohasida ham samarali sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan mintaqaviy hamkorlik doirasida turizmning har xil turlarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi.

Qolaversa, joriy yilning birinchi yarim yilligida xorijiy mehmonlarning 10 ta qabuli amalga oshirildi. Pandemiya sharoitida 20 dan ortiq oliy darajadagi onlayn-muloqot tashkillashtirildi (Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Afg'oniston, Abu Dabi Amirligi, Eron davlatlari rahbarlari hamda Vengriya bosh vaziri, Yevropa Kengashi Prezidenti, Belarus Prezidenti bilan muloqotlar).

o‘zbekiston manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan 80 dan ortiq yuqori darajadagi hamda idoralararo tashrif va uchrashuvlar, onlayn muloqotlar tashkillashtirildi. Ularda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, ko‘pqirrali hamkorlik, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalar, ta’lim va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi hamkorlik masalalari muhokama etildi.

Mamlakat tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal qilishda parlament diplomatiyasining roli hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaytirildi. Hisobot davrida parlamentlar hamda xalqaro tashkilotlar darajasidagi jami 48 ta tashrif va uchrashuvlar, onlayn muloqotlar tashkillashtirildi. o‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va tegishli Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida o‘zbekiston hukumati rasmiylari va tashkilotlari delegatsiyalarining 48 ta xorijiy davlatga tashrifi tashkillashtirildi. Ular doirasida hamda o‘zbekiston vakolatxonalarining kundalik faoliyati mobaynida tegishli savdo-sotiq, iqtisodiy idoralar rahbarlari va vakillari bilan 252 dan ziyod uchrashuv va maxsus

ahamiyatga ega bo‘lgan sarmoyaviy tadbirlar, biznes–forumlar, o‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati taqdimotlari uyuştirildi.

Shuningdek, vazirlik darajasidagi delegatsiyalarning 15 dan ortiq xorijiy davlatning iqtisodiy va savdo vazirlik hamda mutasaddi tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar uyuştirildi.

Xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy–gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bugunga qadar 130 dan ortiq “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jaligi, sanoat, kommunal xizmatlar, qurilish, tibbiyot, farmatsevtika, ta’lim, madaniyat va boshqa sohalarda 635 ta investitsion loyiha bo‘yicha 945,4 mln AQSh dollari miqdorida sarmoyalar o‘zlashtirildi.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash, uning mamlakatimiz hududida keng tarqalishini oldini olish hamda uning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida 57 ta loyiha asosida o‘zbekistonga Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, XXR, Singapur, Ukraina kabi mamlakatlardan asbob–uskunalar keltirildi. Keltirilgan yuklar tarkibida yuqori texnologiyali tibbiyot jihozlari, zamonaviy shpritsli nasoslar, antiseptik vositalar, avtomat mexanizmli tibbiy karavot va ko‘p funksiyali ko‘rpalar, IVL apparati, tibbiy niqoblar, himoya xalatlari va himoya ko‘zoynagi, dori–darmonlar hamda PSR diagnostika test tizimlari mavjud.

Shu bilan birga, 9 ta mamlakatga o‘zbekistonning gumanitar yuklari yetkazildi (Ozarbayjon, Belarus, RF, XXR, Eron, Vengriya, Qirg’iziston, Tojikiston, Afg’oniston). o‘zbekistondan boshqa mamlakatlarga yuborilgan yuklar tibbiy vositalar va oziq–ovqat mahsulotlaridan iborat bo‘lib, ularning orasida mobil tibbiy konteynerlar, himoya kombinezonlari, tibbiy niqoblar, tibbiy doka, ko‘zoynaklar, suyuq natriy gipoxlorid, respirator, steril tibbiy qo‘lqoplar, pirometrlar hamda un, turli xil oziq–ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar mavjud.

Xalqaro nufuzli reytinglarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash, uning xalqaro maydondagi imijini yuqori darajalarga ko‘tarish hamda mamlakatni xorijiy investorlar uchun jozibador sarmoyaviy makonga aylantirish maqsadida o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “o‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g’risida”gi Farmoni qabul qilindi.

2. Nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida ko‘p tomonlama hamkorlikni jadallashtirish. Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni rivojlantirish va hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Markaziy Osiyo bo‘yicha Yevropa Ittifoqining

yangilangan Strategiyasini amalga oshirishda o‘zbekistonning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora–tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

o‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik shartnomasining savdo qismini muhokama qilish bo‘yicha navbatdagi muzokaralar davrasini tashkil etish masalasini tezlashtirish yuzasidan chora–tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

2020–yilning 11–may kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining to‘rtinchi yalpi majlisida o‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi davlat maqomida ishtirok etish taklifi maqullandi hamda mazkur masala bo‘yicha Senatning tegishli qarori qabul qilindi. Agarda o‘zbekiston Ittifoqqa kuzatuvchi sifatida qo‘silsa unda ittifoq organlari yig’ilishlarida ishtirok etish va qabul qilingan qarorlar bilan tanishish huquqiga ega bo‘ladi. Ta’kidlash joizki ushbu tashkilot bilan hamkorlik tashqi savdo hajmining o‘sishi, mamlakatimizda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududiy klasterlar, sanoat va savdo zonalarini tashkil etishda mintaqalararo aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakat o‘z tarixida birinchi marta 2020–yilda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi raisligini qabul qildi. Ko‘p tomonlama hamkorlikni izchil kengaytirish va samaradorligini oshirish raislikning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi.

Shu munosabat bilan, 12–may kuni o‘zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan videokonferensaloqa rejimida MDH ishtirokchi davlatlari Tashqi ishlar vazirlari kengashining majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda transport, ta’lim, turizm, jismoniy tarbiya va sport sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar ko‘rib chiqildi va ma’qullandi.

2020–yilning 3–aprel kuni o‘zbekiston Respublikasining Jenevadagi BMT vakolatxonasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakolatxonalari Jahon savdo tashkiloti (JST) vakillari bilan o‘zbekistonning ushbu tashkilotga kirish masalalarini muhokama qilish uchun videokonferensiya o‘tkazdi. Videokonferensiya chog’ida JST kotibiyati bilan o‘zaro hamkorlik masalalari hamda o‘zbekistonning JSTga kirishi bo‘yicha ishchi guruhining navbatdagi yig’ilishiga tayyorgarlik jarayoni muhokama qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 28–maydagi «Jahon savdo tashkiloti bilan ishslash bo‘yicha idoralararo komissiya to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 339–sonli qarori qabul qilindi. Qaror bilan Jahon savdo tashkiloti bilan ishslash bo‘yicha Idoralararo komissiya tuzildi.

Mazkur komissiya o‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi va yo‘nalishlarni belgilaydigan kollegial organ hisoblanadi.

Nizom bilan Idoralararo komissiyaning vazifalari va funksiyalari, tarkibi, faoliyatini tashkil etish va ishlash tartibi belgilandi.

o‘zbekiston Respublikasi Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari Sanoat xavfsizligi kengashining to‘laqonli a’zosiga aylandi. MDH davlatlarining sanoat xavfsizligi kengashi tarmoqlararo hamkorlik organi bo‘lib, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariya hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish harakatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

o‘zbekiston Xalqaro xususiy huquq bo‘yicha Haaga konferensiyasi Ustavini ratifikatsiya qildi. Xalqaro xususiy huquq bo‘yicha Haaga konferensiyasi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo‘lib, 1893–yilda tashkil etilgan. Haaga konferensiyasiga a’zolik o‘zbekistonda qabul qilinayotgan qonunlarni xalqaro qonunlarga unifikatsiya qilishga yordam beradi. Shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yaxshilash, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

o‘zbekiston YuNESKOning Madaniy ifodalarning turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo‘llab–quvvatlash to‘g’risidagi konvensiyasi ishtiroychisiga aylandi. Konvensiyaning asosiy maqsadi – madaniy o‘zini ifodalashning turli xil shakllarini himoya qilish va rag’batlantirish, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni mustahkamlash yo‘li bilan turli madaniyatlarning o‘zaro erkin aloqa qilishi va rivojlanishi uchun shart–sharoitlar yaratishdan iborat.

3. Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishida nazarda tutilgan davlat chegarasini qo‘shti davlatlar bilan hamkorlikda muvaffaqiyatli delimitatsiya va demarkatsiya qilishda ham joriy yilning birinchi yarim yilligida samarali choratadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2020–yilning 7–yanvar kuni Toshkent shahrida o‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi Qo‘shma demarkatsiya komissiyasining birinchi yig’ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig’ilishda o‘zbekiston–Tojikiston davlat chegarasini demarkatsiya qilish uchun asos bo‘ladigan normativ–huquqiy va texnik hujjatlar tasdiqlandi.

17–21–fevral kunlari esa Olmaota shahrida Qo‘shma demarkatsiya komissiyasida o‘zbekiston Respublikasi va Qozog’iston Respublikasi hukumatlari delegatsiyalarining navbatdagi yig’ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig’ilishda o‘zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati va Qozog’iston Respublikasining Qizilo‘rda va Turkiston viloyatlari chegaralari tutashgan uchastkada davlatlararo chegarani demarkatsiya qilishning yakuniy hujjatlari loyihalari tayyorlandi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. o‘zbekiston Respublikasi qachondan BMTga a’zo bo‘ldi va natijada respublika hududida qanday ishlar amalga oshirildi?
2. So‘nggi paytlarda o‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti va erishgan muvaffaqiyatlarini qanday ifodalaysiz?
3. o‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMTdagi nutqlaridagi ilgari surgan masalalari nimalardan iborat edi?
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75–sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlaganligi qanday baholaysiz?
5. ShHTda o‘zbekistonning ishtiroki qanday ta’sir ko‘rsatdi?
6. o‘zbekiston Respublikasining bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda faol tashqi siyosatining yangi bosqichiga ko‘ratilib borayotganligini tununtirib bering.
7. o‘zbekistonda mavjud diniy tashkilot va diniy konfessiyalar to‘g’risida qisqacha ma’lumot bering.

## **14–MAVZU: YANGILANAYOTGAN o‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI. 2017–2021 YILLARDA o‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISHNING BESHTA USTUVOR Yo‘NALISHI Bo‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASINING ISHLAB CHIQILISHI, HAYOTGA JORIY ETILISHI VA UNING AHAMIYATI**

Reja:

1. 2017–2021 yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar:

- davlat va jamiyat qurulish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- qonun ustuvorligini ta’minalash va sud–huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari;
- iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

**Tayanch so‘zlar:** milliy taraqqiyot modeli, taraqqiyotning innovatsion modeli, Harakatlar strategiyasi milliy taraqqiyotning yangi bosqichi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbekiston hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan 10 ta islohoti:

1. Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaralarning ochilishi va o‘tib qaytishning yo‘lga qo‘yilishi;
2. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, naqd pul aylanmasining yaxshilanishi;
3. Majburiy mehnatga barham berilishi;
4. Oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi, kirish imtihonlarida shaffoflikning ta’milanishi;
5. Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalari rolining oshirilishi;
6. Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalarining ochilishi;
7. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlar tizimini isloh qilinishi;

8. Soliq islohotlarining amalga oshirilishi;
9. Xalq davlat organlariga emas, davlat organlarining xalqga xizmat qilishga o‘tishi;
10. Mintaqaviy xavfsizlikning ta’minlanishi, qo‘sni davlat Afg’onistonda tinchlikni o‘rnatish bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslari.

**1. 2017–2021–yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar:**

**1. Davlat va jamiyat qurulish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.**

2017–2021–yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy–siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e’tibor bilan o‘rganilmoqda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi rahbarlar o‘z fikr–mulohazalarini bildirmoqdalar. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g’oyat muhim ahamiyatga egadir.

Aytish mumkinki, 2017–2021–yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘tgan 25 yil davomida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo‘ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, u o‘zining mohiyat e’tibori bilan o‘zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarishni ta’minlaydigan strategik dasturdir.

Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘zbekiston Respublikasining 2030–yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahoning 50 ilg’or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- barcha darajada ta’lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta’minlash;
- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy–tadqiqot, tajriba–konstrukturlik va texnologik ishlarni keng joriy etish uchun ta’lim, ilm–fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish;
- innovatsiyalar, ilmiy–tadqiqot, tajriba–konstrukturlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag’lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi

tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

9. Boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

10. Mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratilishi.

### **Strategyaning asosiy yo‘nalishlari.**

#### ***I. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish***

1. Loyihaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalangan holda dasturiy-maqсадli tamoyil asosida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini o‘tkazishga davlat tomonidan buyurtma berish orqali tadqiqotlar tashkil etish mexanizmini joriy etish.

2. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Noyob ilmiy-texnik uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlarini tashkil etish.

4. o‘zbekiston Respublikasida ilmiy faoliyat nufuzini oshirish.

5. Mamlakatimiz va xorijdagi ilmiy-texnik axborot manbalarini to‘plash, saqlash va qayta ishslashga, axborot fondlari, ma’lumotlar bazalari va banklarini shakllantirish, yuritish va ulardan foydalanishga ixtisoslashgan respublika, tarmoq va hududiy ilmiy-texnik axborot resurslari va tashkilotlaridan iborat davlat ilmiy-texnik axborot tizimini yaratish.

6. Intellektual mulk ob’ektlarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish.

7. Texnologiyalar transferi bo‘yicha milliy va hududiy ofislarni tashkil etish.

8. Ilg’or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun texnoparklar xabi, erkin iqtisodiy zonalar, erkin sanoat zonalari, kichik sanoat zonalari va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish.

9. Xorijiy hamkorlar bilan mahalliy ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda sotish bo‘yicha qo‘shma tashkilotlarni shakllantirish uchun davlat ko‘magini kuchaytirish.

#### ***II. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.***

1. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini ko‘paytirish va 2021-yilga borib bu ko‘rsatkichni yalpi ichki mahsulot hajmining 0,8 foiziga yetkazish.

2. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar (innovatsiya jamg’armalari, innovatsiya banklari, venchur jamg’armalari) tashkil etish.

3. Mamlakatni innovatsion rivojlantirishni rag'batlantirish uchun bank kreditini olish tartib–taomillarini va talablarini soddalashtirish.

4. Innovatsion taraqqiyotni mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

5. Ilmiy–texnologik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish.

6. Innovatsion loyihalar va salohiyatli investorlarning doimiy ravishda yangilab boriladigan yagona ma’lumot bazasini tashkil etish.

7. Innovatsion loyihalar uchun grantlar va texnik ko‘mak mablag’larini olish va ulardan foydalanish tartib–taomillarini soddalashtirish va shaffofligini oshirish.

### ***III. Infratuzilma va axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish.***

1. Telekommunikatsiya sohasini normativ–huquqiy tartibga solish tizimini, shu jumladan, davlat–xususiy sherikligi asosida tadbirkorlik sub’ektlari ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish.

2. 2021–yilgacha axborot–kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar eksporti ulushini ular umumiy hajmining 4 foiziga yetkazish.

3. Barcha operatorlar uchun xalqaro telekommunikatsiyalar tarmoqlariga to‘g’ridan–to‘g’ri ulanishni erkinlashtirish.

4. Aholini axborot–kommunikatsiyalar texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish.

5. Startap loyihalar uchun texnopark tashkil etish orqali mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish tarmog’ini rivojlantirish.

### ***IV. Ta’lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish***

1. o‘quv–tarbiya jarayoniga yangi ta’lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart–texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o‘qitishni joriy etish).

2. Nogiron bolalar ta’lim va tarbiyadan teng sharoitda bahramand bo‘lishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, shu jumladan, ta’lim muassasalarida ko‘tarish qurilmalari, panduslar, sanitar xonalarda maxsus moslamalar o‘rnatish, tutqichlar, maxsus partalar, stollar va boshqa maxsus kompensator vositalari bilan jihozlash orqali «to‘siksiz muhit» yaratish.

Imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiyalashgan holda o‘qitish dasturlarini yaratish.

Ta’lim muassasalarini tegishli kadrlar (pedagog–defektologlar, bolalarni ruhiy–pedagogik qo‘llab–quvvatlash bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minalash.

3. Hududiy va milliy darajada ta’lim jarayoni natijalarini tizimli monitoring qilish asosida ta’lim sifatini va uning mamlakat innovatsion rivojlanishi darajasiga ta’sirini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

4. Mehnat bozoridagi tendensiyalar o‘zgarib borishini hisobga olgan holda qayta tayyorlashga muhtoj yoshlar uchun kasb–hunar kollejlarida qisqa muddatli o‘quvlar tashkil etish.

5. Aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinishini oshirish.

6. Tabiiy va texnik fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha talabalar ulushini ko‘paytirish.

7. Chop etilgan ilmiy maqolalar soni, ulardan iqtibos keltirish indeksi, xalqaro konferensiylar va seminarlarda ishtiroki, olingan patentlari soni bo‘yicha tanlab olingan sohadagi eng faol oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlash asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining tadqiqot yo‘nalishini kuchaytirish.

8. Tarmoq va mintaqaviy iqtisodiyot ssenariylar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida innovatsion faoliyat rivojini prognozlashtirish tizimining alohida bo‘g’ini sifatida yetakchi oliy ta’lim muassasalarida forsayt markazlarini tashkil etish. Oliy ta’lim muassasasining ichki va tashqi muhitini ilmiy–texnologik prognozlashtirishni ta’minalash, ularning texnologik va innovatsion muhitini va ustuvor innovatsion yo‘nalishlarini rivojlantirish.

### ***III. Raqobatni rivojlantirish va ma’muriy to’siqlarni kamaytirish.***

1. Xalqaro tajribani hisobga olgan holda korporativ huquqni rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplarini joriy etish.

2. Iqtisodiyotni taraqqiyotning innovatsion yo‘liga o‘tishini ta’minalaydigan raqobatbardosh bozorni shakllantirish va resurslardan samarali foydalanish.

3. Monopoliyaga qarshi siyosatni, shu jumladan davlat–xususiy sherikligini joriy etish hisobiga takomillashtirish, barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun tabiiy monopoliyalar sub’ektlari tovarlari, ishlari va xizmatlaridan foydalanishda teng sharoitlarni ta’minalash, monopol korxonalar mahsulotlariga narx shakllanishining samarali mexanizmlarini joriy etish.

4. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun teng shart–sharoitlar yaratish va ichki bozorning monopollashuvining oldini olish.

5. 2021–yilga borib davlat kadastri ishlarini yuritishning to‘liq raqamlashtirilishini ta’minalash va mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib–taomilini soddalashtirish.

6. Qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasini ishlab chiqarish ulushini 2025–yilga borib 20 foizdan ziyodga oshirish.

7. o‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi – milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi. Harakatlar strategiyasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani

tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e’lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o‘tib, Prezidentning 2017–yil 7–fevraldagি Farmoni bilan tasdiqlangan.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshiriladi, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, “2017–yil – Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilindi, shunga mos ravishda 2017–2021–yillarda o‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining Davlat dasturi qabul qilindi.

2017–2021–yillarda o‘zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishlarida quyidagilar nazarda tutilgan:

- davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy–huquqiy asoslarini rivojlantirish, «*Elektron hukumat*» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

- qonun ustuvorligini ta’minalash va sud–huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchilagini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag’batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

- ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog’lig’ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish, arzon uy–joylar barpo etish, yo‘l–transport, muhandislik–kommunikatsiya va ijtimoiy

infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm–fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

8. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minalash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, o‘zbekistonning yon–atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘schnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Farmon bilan 2017–2021 yillarda o‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha milliy markaz va Milliy komissiya, shuningdek ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar tashkil etildi. Milliy komissiyaga Prezidentning o‘zi boshchilik qiladi.

Hujjatda harakatlar strategiyasini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining birlamchi vazifasi va bosh ustuvor yo‘nalishi hisoblanishi belgilangan.

Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun mas’ul davlat organlari va tashkilotlarga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning yangi, samarali mexanizm va usullarini joriy etish, mansabdor shaxslarning aholi oldida hisobot berishi tizimini amalda tatbiq etish, shu asosda xalqning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish topshirildi.

Farmonda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda byurokratik to‘sinq va g’ovlar yaratilishiga, aholi bilan muloqot jarayonini kampaniyabozlikka aylanishiga yo‘l qo‘ymasligi qayd etildi. Bundan tashqari, davlat dasturi doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlarning ochiqligi, ularda fuqarolar, barcha darajadagi davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar, ijodiy va ilmiy muassasalar vakillarining keng ishtirok etishini ta’minalash belgilangan.

2017–2021–yillarda o‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining yo‘nalishlari:

## **I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.**

Ushbu yo‘nalishda uchta eng muhim vazifalar qo‘yilgan, ular:

*1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish belgilangan, buning uchun:*

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi.

*1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, bunda:*

davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan va aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish belgilangan.

*1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:*

xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy etish;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish.

## **II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.** Ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor:

*2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga qaratiladi, buning uchun:*

sudylar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud jarayonida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlilik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

«Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

*2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:*

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansolarlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yanlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha choralarini ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqiniksiz erishishini ta'minlash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

*2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiliginin takomillashtirish:*

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiliginin takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminalallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvaplashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini yaxshilash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

*2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:*

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarini yanada kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

*2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:*

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejulashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbazarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va omillarini bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida huquqbazarliklarning oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

*2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:*

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarining o'rni va nufuzini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilishga qaratilgan.

**III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo'nalishari.**

*3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:*

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rtal muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash;

harajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganinini saqlab qolgan holda, Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosibligini muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

ilg’or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul–kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma–bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minalash;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo‘lini davom ettirish, soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish va rag’batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;

bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;

sug’urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning xajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek fond bozorini kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

*3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:*

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minalash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport–kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

sanoatning yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘sishma qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan

sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikasiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma–bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarish mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan zonalarning samaradorligini oshirish;

xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberalallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### *3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:*

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq–ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumizorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo‘jaliklar, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug’ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag’batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart—sharoitlar yaratish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob—uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihamonlari amalga oshirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasi tarmoqlarini yanada kengaytirish;

sug’oriladigan yerkarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob’ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish;

yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer—iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy—tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi halokatining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora—tadbirlar ko‘rish.

*3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag’batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:*

xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minalash, barcha turdagи to’siq va cheklavlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib—taomillarini yanada soddallashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ustav jamg’armalarida

davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiy lashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

*3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mayjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:*

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lамини kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalg qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

#### **IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

*4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:*

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda bosqichma–bosqich oshirish;

yangi ish o'rirlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliv o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

#### *4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish:*

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab–quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat–xususiy sherikligini rivojlantirish;

sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy–tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy–texnika bazasini mustahkamlash;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora–tadbirlarni yanada keng amalga oshirish;

xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin–qizlar, kasb–hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy–ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

*4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:*

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suviga bo'lgan talab va ehtiyojini ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishslash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

#### *4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlanirish:*

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalardagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at mакtablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

#### *4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:*

jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda bolalar va yoshlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

## **V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'yangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.**

*5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:*

o'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish;

fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, o'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

*5.2. Chuqur o'yangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:*

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, o'zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;

o'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot yetkazish;

o'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiya va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini demilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish vazifalari belgilangan.

“Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g’oyalar – o‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tatbiq etishning asosi hisoblanadi. Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – *in son manfaatlarini har tomonlama ta’minalash* masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

Inson manfaatlarini ta’minalash uchun esa avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu–tashvishlari, orzu–niyatları, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish, og’irini yengil qilishga, aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan tizim yo‘lga qo‘yildi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Xalq bilan samarali muloqot mexanizmlari Harakatlatlar strategiyasining qaysi bandida o‘z aksini topgan?
2. Sud tizimida qanday axborot–kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishi kutilmoqda?
3. Sud–huquq islohotlarining asosiy maqsadi nimadan iborat, deb hisoblaysiz?
4. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalashning asosiy omillari va shartlari nimalardan iborat?
5. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash deganda nimani tushunasiz?
6. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
7. o‘zbekistonda 2017–2021–qillarda aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qanday vazifalar belgilangan?
8. o‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g’risida”gi Qonuni qanday munosabatlarni tartibga solidi?
9. Markaziy Osiyoda davlatlar o‘rtasida yaxshi qo‘sningchilikni yo‘lga qo‘yishda, tinchlik va barqarorlikni saqlashda o‘zbekistonning o‘rnini qanday?
10. o‘zbekistonning tashqi siyosati asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

## **15–MAVZU. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O’RNI VA NUFUZINING ORTIB BORISHI**

Reja:

1. O’zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o’rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy etish.

2. O’zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo’lgan xalqaro reyting va indekslar bo’yicha samaradorlikning eng muhim ko’satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.

3. Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korrupsiyani qabul qilish” indeksi, “Logistika samaradorligi” indeksi, Jahon bankining Statistik salohiyat indeksida respublikaning o’rni.

4. Iqtisodiy erkinlik indeksi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi, Inson kamoloti indeksi, Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasini indeksi, Matbuot erkinligi indeksi va boshqalarda o’zbekistonning o’rni va nufuzini oshirish chora-tadbirlari.

**Tayanch tushunchalar:** xalqaro reyting va indekslar yangi mexanizmlari, infratuzilma, axborot kommunikatsiyalari, huquqiy-normativ hujjatlar, xalqaro tajriba, biznes yuritish, indikator, demokratiya indeksi, statistik salohiyat indeksi, inson kamoloti indeksi.

**1. O’zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o’rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy etish.** Tashqi siyosat borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo’nalishdagi ishlarning samaradorligiga to’siq bo’layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar: jamiyatni demokratlashtirish, ilg’or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, xalqaro savdoda xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyani rivojlantirish va boshqalar.

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlari, sifat va tarkibiy o’zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko’tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha

qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko'ndalang qo'yemoqda. Bu esa, eng avvalo, o'sha mamlakatning jahon miqyosidagi o'rni, xalqaro reyting va ko'rsatkichlarda tutgan mavqeい bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir. Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgusidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug'lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo'lib yashashini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi Farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo'yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o'rnatildi.

**2. O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.** Ushbu ko'rsatkichlarni oshirish uchun O'zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integratsiyalashuv jarayonlari jadallashtirilmoqda. "Biznes yuritish" indeksi.

Ilgari ustuvor xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ishlarni hukumatning maxsus komissiyasi muvofiqlashtirib kelar edi. Prezidentimiz farmoni bilan bu borada respublika kengashi tuzilishiga nima sabab bo'ldi?

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institusional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezoni sifatida qo'llanib kelinadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda

ochiqlik, oshkoraliqni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir.

Masalan, 2020-yilda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YUNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdarligi indeksi” bo'yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo'naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo'lsa, turli reyting va indekslardagi o'rnimiz o'z-o'zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020-yilda Jahon bankining “Biznes yuritish” indeksida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilishimizga, “Transparency International”ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o'rni yaxshilanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bu yo'nalishda hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad – bu borada vazirlilik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. Shu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo'yicha Respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o'rnatalganligini anglatadi.

Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o'zlari mas'ul bo'lgan reyting va indekslarda ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika kengashida hisobot berib boradilar.

*O'zbekiston Respublikasi uchun bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.* Ushbu ko'rsatkichlarni oshirish uchun O'zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integratsiyalashuv jarayonlari jadallashtirilmoqda. “Biznes yuritish” indeksi.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o'rnining yaxshilanishi ko'p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog'liq. Shuning

uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Shu orqali bu yo'nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

*Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash mamlakatimiz uchun butkul yangi yo'nalish hisoblanadi. Shu ma'noda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor?*

Albatta, bu ko'p vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, mas'ul davlat organlarining o'zlariga biriktirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o'rghanish, uni to'g'ri talqin qila olgan holda amaliyatga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o'rnata olish bilan bog'liqdir.

Reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bog'liq, qonunlarning ijrosiga bog'liq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining ba'zida bilib-bilmay aytgan gap-so'zlari yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi o'rnimizga salbiy ta'sir qiladi. Shu o'rinda barcha rahbarlar, ular qaysi darajadagi rahbar bo'l shidan qat'i nazar, o'z harakatlarini qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirishlari zarur hisoblanadi. Odamlar bilan muloqotlarda esa inson sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi shart.

**3. Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, "Korrupsiyani qabul qilish" indeksi, "Logistika samaradorligi" indeksi, Jahon bankining Statistik salohiyat indeksida respublikaning o'rni.** Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, "Korrupsiyani qabul qilish" indeksi, "Logistika samaradorligi" indeksi, Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi.

Bugungi kunga kelib, har bir tizimdagи ishlarni samarali tashkil etish maqsadida barcha vazirlik va idoralarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo'yicha tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishiga erishildi. Bu esa ishlarni ancha osonlashtiradi. Ajratilgan alohida xodimlar doimiy ravishda o'zlarining vazirligi yoki idorasi mas'ul bo'lgan xalqaro reyting va indeks bo'yicha ish olib boradi.

Bu borada qilinishi kerak bo'lgan eng asosiy ish qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so'z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Buning uchun esa parlament va jamoatchilik nazoratini qat'iy yo'lga qo'yishga kirishildi va albatta, ijobiy natijalarga erishiladi.

*Bugungi kunda xalqaro miqyosda ustuvor hisoblangan to'rtta xalqaro reyting va indeksda O'zbekiston hali e'tirof etilmagan. Buning sababi nimada? Ushbu*

*reytinglarda mamlakatimiz o'rnini aks ettirish bo'yicha qanday choralar ko'rilmogda?*

O'zbekistonning ushbu xalqaro indekslarda e'tirof etilmaganiga bir necha sabablar bor. Masalan, Jahon iqtisodiy forumining "Global raqobatbardoshlik indeksi"ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2 yil muddatni talab etishi ma'lum bo'ldi.

Birinchi yilda tashkilot tomonidan O'zbekistonda rasmiy so'rvnama o'tkazish uchun hamkor, ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tanlab olinadi va so'rvnama o'tkaziladi. Ikkinci yilda so'rvnama natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonning indeksdagi norasmiy o'rni belgilanadi hamda ularning O'zbekiston ko'rsatkichlarining haqiqiy tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko'rildi. Tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi.

Xalqaro byudjet hamjamiyatining "Byudjet ochiqligi indeksi"ga kirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, indeks bo'yicha mamlakatda tadqiqot o'tkazish uchun zarur resurslar (jumladan, mablag'lar) faqatgina xalqaro nodavlat tashkilotlar va institutlar (donorlar) hisobidan amalga oshiriladi.

Hamjamiyatning asosiy talablaridan biri – tadqiqot o'tkazishdagi mahalliy hamkor sifatida mustaqil fuqarolik jamiyatni institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bo'lishi zarur.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish chekllovleri indeksi"da O'zbekistonni e'tirof etish maqsadida tuzilma mas'ul rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazildi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan birgalikda "Investitsion siyosat sharhi – O'zbekiston" nomli hisobotni ishlab chiqish va bu orqali indeksda mamlakat o'rnini aks ettirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Kornell universiteti, Xalqaro intellektual mulk tashkilotining "Global innovatsiyalar indeksi"da mamlakatimiz o'rnini aks ettirish masalasida Innovatsion rivojlanish vazirligi muzokaralar o'tkazmoqda. Hozir ushbu indeksda talab etilgan zarur statistik ma'lumotlarni jamlash bo'yicha hamkorlikda ishlar yo'lga qo'yilgan.

*Xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlarni mamlakatimizdagi islohotlar bo'yicha xolis va zarur ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash masalasi o'z yechimini topganmi?*

Bunday ma'lumotlar turli axborotnomalar shaklida tegishli tashkilotlar, xususiy investorlar hamda xalqaro ekspertlarga jo'natilmoqda. Shuningdek, ular vazirliklarning rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida

ham keng jamoatchilik e'tiboriga havola etib borilmoqda. Bundan tashqari, ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma'lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma'lumotlar bazasiga asoslanadi.

Masalan, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma'lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma'lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi.

Misol uchun, hukumat portalı doirasida "Ochiq ma'lumotlar portalı" ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo'mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o'z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda.

**4. Iqtisodiy erkinlik indeksi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi, Inson kamoloti indeksi, Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Matbuot erkinligi indeksi.**

Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalari natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi.

*Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyi pog'onalarda qolmoqda va buning asosiy sabablari nimalardan iborat?*

Asosan, siyosiy–huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rirlari nisbatan quyi pog'onalarda. Masalan, So'z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191–o'rinda, Normativ sifat indeksida 184–o'rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183–o'rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182–o'rinda, Jahon matbuot erkinligi indeksida 156–o'rinda turibmiz. Albatta, so'nggi 3–4 yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjalari qabul qilindi, turli institusional o'zgarishlar ro'y berdi.

Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda journalist va blogerlarni qo'llab–quvvatlash maqsadida Milliy mass–mediani qo'llab–quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Qator sohalardagi o’zgarishlar bilan bog’liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjalariiga zid bo’lgan ko’plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo’ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko’rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ–huquqiy hujjalarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GREKO) xalqaro tashkilotiga a’zo bo’lishi va bu tashkilotning korrupsiyaga qarshi tegishli konvensiyalari talablarini milliy qonunchiligidan qo’shilishga implementatsiya qilish masalasi ham o’rganib chiqilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma–xilligi va so’z erkinligini ta’minlashning tashkiliy–huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to’sqinlik qilishga oid huquqbazarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilash kerak.

Respublikaning siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda quyi pog’onalardan joy olganligining sabablaridan yana biri mazkur reyting va indekslar, asosan, jamoatchilik fikri va xalqaro ekspertlar xulosasi asosida shakllantirilishidadir. Qolaversa, indeks yurituvchi tashkilotlar so’rovnomalari faqatgina mustaqil fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bilan hamkorlikda o’tkazilishini inobatga olib, respublika miqyosida bunday tashkilotlar kamligi hamda ular tomonidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish salohiyati cheklanganligi kabi omillar ham bunga sabab bo’lishi mumkin. Shu o’rinda alohida qayd etishimiz zarur, har bir davlat organi, ayniqsa, respublika darajasidagi vazirlik, idora, tashkilotlar huzurida nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilib, ular bilan yaqin hamkorlik o’rnatilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Yaqinda BMTning “Raqamli hukumatni barqaror rivojlanishi yo’lidagi o’n yillik harakat” nomli hisoboti e’lon qilindi. 2020–yil uchun dunyoda elektron hukumat rivojlanishi natijalari taqdim qilingan ushbu reytingda O’zbekiston 6 ta

pog'onaga tushib, 87-o'rinni egalladi. Nima sababdan mamlakatimiz avvalgi o'mini yo'qotdi?

O'zbekiston umumiy reytingda 6 ta pog'onaga pasaydi. Lekin reytingni shakllantiruvchi komponentlar bo'yicha birmuncha o'sish kuzatilgan. Masalan, ushbu reytingning "Inson kapitali", "Elektron ishtirok" va "Telekommunikatsiya infratuzilmasi" indekslari bo'yicha ko'rsatkichlar 0,01 dan 0,14 punktgacha oshgan.

"Elektron ishtirok" indeksi bo'yicha respublikamiz o'zining ko'rsatkichini 0,80 punktgacha oshirib, umumiy reytingdagi o'rnini 13 pog'onaga ko'tardi va 46-o'rinni egallab, elektron ishtirok indeksining juda yuqori rivojlanish darajasiga ega mamlakatlar ro'yxatiga kirdi. Vaholanki, 2018-yilda ushbu indeks bo'yicha mamlakatimiz 59-o'rinda edi.

Bundan tashqari, O'zbekistonga ochiq ma'lumotlar bo'yicha eng yuqori ball berildi. Albatta, "Elektron hukumatni rivojlantirish" reytingidagi o'rnimiz pasayishiga ayrim omillar ta'sir qildi. Eng avvalo, ta'kidlash joizki, 2018-yildan joriy yilning aprel oyiga qadar respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va "Elektron hukumat" tizimini joriy etishda yagona muvofiqlashtiruvchi organ mavjud bo'lмаган. Natijada reytingni oshirish bo'yicha aniq belgilangan chora-tadbirlar rejasi qabul qilinmagan va tegishli ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Hozir Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu ishga mas'ul etib belgilangan.

Shuningdek, milliy elektron xizmatlar portalı hamda ta'lim, mehnat, ijtimoiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, moliya va atrof-muhit sohalaridagi tegishli vazirlik va idoralarning veb-saytlari ham talabga to'liq javob beradi, deb ayta olmaymiz. Ushbu saytlar reytingning "Elektron xizmatlar" komponentida 148 ta jihat bo'yicha baholab boriladi. Milliy onlayn xizmatlar portalı va rasmiy veb-saytlarning mobil qurilmalardan foydalanish uchun moslashgan shakllari yetarli darajada joriy etilmagan.

Shuningdek, tranzaksiya xizmatlari darajasining pastligi, davlat bojlari, turli yig'imlar va jarimalarni to'liq elektron tarzda to'lash ham oxiriga yetmaganligi reytingdagi o'rnimizga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Reytingning "Inson kapitali" komponenti bo'yicha ham ishlashimiz kerak bo'lган ayrim kamchiliklar bor. Masalan, masofaviy o'qitish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, oliy ma'lumotga ega aholi qatlami bo'yicha aniq ma'lumotlar yetarli emasligi reytingdagi o'rnimizga ta'sir qilmoqda.

Mobil aloqa abonentlari, internet foydalanuvchilari ulushini begilaydigan "Telekommunikatsiya infratuzilmasi" komponentida esa respublikaning uzoq hududlariga yuqori tezlikdagi simli internet tarmog'i yetib bormaganligi ham reytingdagi o'rnimizga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

*Koronavirus pandemiyasi ko'p islohotlarga salbiy ta'sir qildi. Iqtisod deysizmi, sanoatmi, ta'lim va boshqa sohalar qiyin raqobat muhitida qoldi. Bu holat reyting va indekslarda qanday baholanadi?*

Bugungi kunda koronavirus pandemiyasi global miqyosda butun insoniyatga xavf solayotganiga, barcha sohalarda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Pandemiya sharoitida, albatta, birinchi zarba iqtisodiyotga tushadi, rejalahtirilgan ko'plab islohotlar ijrosi ortga suriladi, asosiy e'tibor sog'lqnini saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, uning turmush darajasini yaxshilashga qaratiladi.

Xalqaro reyting agentliklari indekslarni hisoblab chiqishda yoki reytinglarni tuzishda, asosan, mamlakatning turli statistik ko'rsatkichlariga tayanadi. Tan olish lozim, pandemiya sababli statistik ko'rsatkichlarning yaxshi tomonga o'zgarishiga nisbatan ularning yomonlashish ehtimoli yuqoriq.

Shu sababli keyingi yillarda xalqaro reyting va indekslardagi O'zbekistonning o'rmini joriy holatida saqlab qolinishi yoki pastlashishi ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Biroq unutmaslik kerakki, pandemiya bitta yoki bir nechta davlatda emas, balki butun dunyo mamlakatlariga bevosita salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bois, balki boshqa davlatlarning ham reytinglardagi o'rni pastlashishi sabab mamlakatimizning o'rni tom ma'noda ko'tarilishi yoki joriy holatda saqlanib qolishi ham ehtimoldan xoli emas.

## ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Ilgari ustuvor xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ishlarni hukumatning maxsus komissiyasi muvofiqlashtirib kelar edi. Prezidentimiz farmoni bilan bu borada respublika kengashi tuzilishiga nima sabab bo'ldi?

2. Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash mamlakatimiz uchun butkul yangi yo'naliш hisoblanadi. Shu ma'noda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor?

3. Bugungi kunda xalqaro miqyosda ustuvor hisoblangan to'rtta xalqaro reyting va indeksda O'zbekiston hali e'tirof etilmagan. Buning sababi nimada? Ushbu reytinglarda mamlakatimiz o'rnnini aks ettirish bo'yicha qanday choralar ko'rilmoxda?

4. Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyi pog'onalarda qolmoqda va buning asosiy sabablari nimalardan iborat?

5. Koronavirus pandemiyasi ko'p islohotlarga salbiy ta'sir qildi. Iqtisod deysizmi, sanoatmi, ta'lim va boshqa sohalar qiyin raqobat muhitida qoldi. Bu holat reyting va indekslarda qanday baholanadi?

6. Yaqinda BMTning “Raqamli hukumatni barqaror rivojlanishi yo’lidagi o’n yillik harakat” nomli hisoboti e’lon qilindi. 2020–yil uchun dunyoda elektron hukumat rivojlanishi natijalari taqdim qilingan ushbu reytingda O’zbekiston 6 ta pog’onaga tushib, 87–o’rinni egalladi. Nima sababdan mamlakatimiz avvalgi o’rnini yo’qotdi?

## TEST

o‘zbekiston o‘z mustaqilligiga qanday yo‘l bilan erishdi?

Parlament yo‘li bilan

Prezident Farmoni bilan

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

Oliy Majlis qabul qilgan qonun bilan

o‘zbek davlatchiligi necha ming yillik tarixga ega?

Uch ming yillik

Besh ming yillik

To‘rt ming yillik

Ikki ming yillik

«Qaysi millat yashashni istasa tarixni bilishi lozim bo’ladi, zero tarix bir ko’zguga o’xshaydi». Ushbu so‘zlar muallifini aniqlang.

Abdurauf Fitrat

Mahmudxo‘ja Behbudiy

Sadriddin Ayniy

Islom Karimov

Kishilik jamiyatining tarixini, tarixiy voqeа va hodisalarни o‘rganishning muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi metod bu ...

Dialektik metoddir

Tarixiy metoddir

Ilmiy metoddir

Qiyosiy metoddir

Tarixni o‘rganishda uzviylik va davriylik metodi tarixni o‘rganishning qaysi metodologiyasiga kiradi?

Tarixiylik metodologiyasiga

Qiyosiylik metodologiyasiga

Uzviylik metodologiyasiga

Dialektik metodologiyasiga

o‘zbekiston tarixini ilmiy davrlashtirishga ko‘ra tariximiz nechta katta davrga bo‘linadi?

4 ta davrga

5 ta davrga

6 ta davrga

3 ta davrga

Qadimda o‘lkamiz hududida tashkil topgan Baqtriya davlati to‘g’risida yunon tarixchilaridan kim yozma ma’lumot qoldirgan?

Ktesiy

Gerodot  
Strabon  
K.K.Ruf

Qadimgi Baqtriya davlatining hududiga qaysi yerlar kirgan edi?  
Amudaryoning yuqori oqimidagi yerlar  
Amudaryoning o‘rtalig‘i oqimidagi yerlar  
Amudaryoning quyi oqimidagi yerlar  
Hozirgi Farg’ona vodiysi hududlari

Qadimgi Sug’diyona davlatining hududiga qaysi yerlar kirgan edi?  
Zarafshon va Qashqadaryo vohasi hududlari  
Amudaryoning o‘rtalig‘i oqimidagi yerlar  
Amudaryoning quyi oqimidagi yerlar  
Hozirgi Farg’ona vodiysi hududlari

o‘zbekistonning eng yangi tarixi nechta davrga bo‘linadi?  
Uchta davrga bo‘linadi  
Ikkita davrga bo‘linadi  
To‘rtta davrga bo‘linadi  
Davrga bo‘linmaydi – yaxlit bir davr, ya’ni 1991–yildan bugungi kunlargacha

O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi nechanchi yillarni qamrab oladi?  
2017–2021 yillarni  
2016–2020 yillarni  
2018–2022 yillarni  
2020–2025 yillarni

o‘zbekistonda so‘nggi Prezidendlik saylovlari qachon bo‘lib o‘tgan?  
2021 yil 24 oktyabrdan  
2015 yil 29 martda  
2007 yil 23 dekabrdan  
2000 yil 9 yandarda

O‘zbekistonning eng yangi tarixi taxminan 3 davrga bo‘linib, 3 davr nechanchi yillarni o‘z ichiga oladi?  
2016 yildan keyingi davrlarni  
2000–2015 yillar davrini  
1991–2020 yillar davrini  
Mustaqillikdan oldingi va keying davrlarni

O‘zbekistonning eng yangi tarixi taxminan 3 davrga bo‘linib, 2 davri nechanchi yillarni o‘z ichiga oladi?  
1991–2016 yillarni

2000–2020 yillarni  
1995–1996 yillarni  
1997–2015 yillarni

O'zbekistonning eng yangi tarixi taxminan 3 davrga bo'linib, 1 davri nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?

1989–1990 yillarni  
1864–1917 yillarni  
1917–1991 yillarni  
1991–2016 yillarni

Tarix taqozosiga ko'ra, o'tmishda Vatanimiz, bir necha bor tashqi bosqinchilarning mustamlakalari davrini boshidan kechirdilar. Shulardan qaysi imperiyalarning bosqinchilik va hukmronlik davri tarixda eng uzoq davom etgan?

Mo'gullar va Rossiya imperiyasi davri  
A.Makedonskiy va arablar bosqinchiligi davri  
Ahamoniylar va Kushon podsholigi davr  
Qoraxoniylar va Temiriylar davri

Eramizning 78–123–yillarida podshohlik qilgan qaysi hukmdor davrida Kushon eng qudratli davlatga aylanadi?

Kanishka davrida  
Vima Kadfiz davrida  
Kudzula Kadfiz davrida  
Evtidem davrida

Qaysi asrga kelib Sug'diyona, Marg'iyona, Choch va Farg'onaning bir qismini ichiga olgan Baqtriya davlati yuzaga kelgan?

Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida  
Miloddan avvalgi II asr boshlarida  
Miloddan avvalgi I asr oxirlarida  
Miloddan avvalgi IV asr o'rtalarida

Miloddan avvalgi IV asrga kelib Xorazm davlati qaysi sulola tazyiqidan xalos bo'lib ichki va tashqi siyosatini mustaqil olib borgan?

Ahamoniylar sulolasi  
Saljo'qiyalar sulolasi  
Kushonlar sulolasi  
Eftaliylar sulolasi

o'zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur davlati va temuriylar davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?

XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr  
XII asrning birinchi yarmi – XIV asr  
VIII asr boshlari – X asr

## XVI asr oxiri – XVII asr

Vatanimizning buyuk allomalaridan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nechanchi yillarda yashab o‘tgan?

783–850 yillarda

615–692 yillarda

823–891 yillarda

933–991 yillarda

Keng faoliyat ko‘rsatgan mashhur Ma’mun akademiyasi qachon vujudga kelgan?

X asrning ikkinchi yarmi va XI asr boshlarida

VIII asrning ikkinchi yarmi va XII asr boshlarida

IX asrning ikkinchi yarmi va XIII asr boshlarida

XI asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida

Ma’mun akademiyasi qaysi shaharda tashkil topgan?

Xorazmda

Qo‘qonda

Buxoroda

Samarqandda

o‘rtalarda “Sharqning fanlar akademiyasi” deganda nima tushuniladi?

Bayt ul-hikma

Bayt ul-masjid

Bayt ul-donish

Bayt ul-madina

“Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) qachon tashkil etildi?

IX asrda

X asrda

XI asrda

XII asrda

“Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) Sharqning fanlar akademiyasi qaysi shaharda tashkil etilgan edi?

Bag’dod shahri

Qohira shahrida

Samarqand shahrida

Islomobod shahrida

Ma’mun akademiyasi qachon o‘z faoliyatini tugatgan?

1017 yilda

995 yilda

1000 yilda

1050 yilda

Ma'mun akademiyasi nima sababdan o'z faoliyatini tugatishga majbur bo'lgan?  
Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi  
Amir Temur yangi akademiyaga asos solishi  
Chingizxonning o'rta Osiyoga hujumi  
Barcha javoblar to'g'ri

Markaziy Osiyo Islom dini kirib kelgunga qadar asosan qaysi dinga e'tiqod qilingan?  
Zardo'shtiylik diniga  
Xristianlik diniga  
Buddaviylik diniga  
Islom diniga qadar Markaziy Osiyoda din mavjud bo'lmanan

"Al-jabr val muqobala" ("Tenglamalar va qarshilantirishlar") asarining muallifi kim?  
Al-Xorazmiy  
Al-Beruniy  
Al-Forobiy  
Ibn Sino

Xorazmiy yaratgan 20 dan ortiq asardan bizning davrimizgacha qanchasi yetib kelgan?  
10 tasi  
18 tasi  
25 tasi  
31 tasi

17 yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqargan Markaziy Osiyolik alloma ...?  
Ibn Sino  
Ibn Rudakiy  
Ibn Safforiy  
Ibn Arabshoh

Tibbiyotga oid benazir asar Abu Ali ibn Sinoning arab tilida yaratgan "Al-Qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari nechta jilddan iborat?  
5 jilddan iborat  
12 jilddan iborat  
19 jilddan iborat  
23 jilddan iborat

"Devonu lug'atit– turk" ("Turk tilining lug'ati") asarining muallifi kim?  
Mahmud Qoshg'ariy  
Abu Nasr Forobiy

Ahmad Yugnakiy  
Abulqosim Firdavsiy

XI asr Markaziy Osiyolik alloma Yusuf Xos Xojibning qanday mashhur asarini bilasiz?

Qutadg'u bilig  
Dedonu lug'atit turk  
Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar  
Ziynatul umaro

Markaziy Osiyolik allomalardan kimning asarini xitoyliklar “Adabul muluk” deb atashgan?

Yusuf Xos Xojibning asarini  
Amir Temurnng asarini  
Al-Forobiyning asarini  
Al-Xorazmiyning asarini

Turkiy (eski o‘zbek) adabiyoti rivojining ilk sarchashmalarida turgan adiblarimizning yirik namoyandalaridan biri Ahmad Yugnakiy (XII–XIII asrlar)ning “Hibatul haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfasi”) asari nechta misradan iborat?

484 misradan iborat  
512 misradan iborat  
684 misradan iborat  
368 misradan iborat

Imom Buxoriy (810–870-yy.) faoliyati mobaynida islom dini masalalariga bag’ishlangan qancha asar yozgan?

20 ga yaqin  
30 dan ortiq  
45 dan ortiq  
60 ga yaqin

XV asrda qaysi sarkarda asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab bergen?

Sohibqiron Amir Temur  
Jaloliddin Manguberdi  
Tohir ibn Husayn  
Zahiriddin Muhammad Bobur

XV asrda mohir musiqa va qo‘sishchilar, balki san’at ilmi nazariyotchilarining eng mashhurlaridan biri Zaynulobiddin bin Mahmud al-Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” – “Musiqaning ilmiy va amaliy asoslari” nomli qimmatli asari kimning iltimosi va topshirig’i bo‘yicha yozilgan?

Alisher Navoiyning

Amir Temurning  
Muhammad Xorazmshohning  
Umarshayx Mirzoning

XX asrning 20-yillarida sobiq SSSRda amalga oshirilgan yalpi sanoatlashtirish davrida bozorlarda don uzelishlari yuzaga kelib, narx–navo ko‘tarilib ketadi. Sovet hukumati bunday vaziyatdan chiqish uchun qanday favqulodda chorani qo‘llashga o‘tadi?

o‘ziga to‘q dehqonlardan g’allani tortib olishga  
Paxta ekiladigan maydonlar hisobiga g’alla ekiladigan maydonlarni kengaytirishga  
Ittifoqning boshqa hududlaridan arzon narxlarda g’alla keltirishga  
G’alla yetishtirishga nisbatan davlat soliqlarini kamaytirishga

1989–yil 21–oktyabrdan Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan hujjatni aniqlang.

«o‘zbekistonning davlat tili to‘g’risida»gi qonun  
Mustaqillik Deklaratsiyasi  
«o‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g’risida»gi qaror  
Umumxalq referendumini o‘tkazish to‘g’risida Farmon

o‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta’sis etish to‘g’risida qaror qachon qabul qilingan?

1990–yil 24–martda  
1990–yil 17–martda  
1991–yil 17–martda  
1989–yil 28–oktyabrdan

«Paxta ishi» deb nom olgan qatag’onlarning yangi bosqichini aniqlang?

1983–1988 yil  
1982–1985 yil  
1982–1988 yil  
1983–1989 yil

«Navro‘z» bayrami qaysi yildan boshlab yurtimizda erkin bayram qilib kelinadi?

1991–yildan  
1989–yildan  
1990–yildan  
1992–yildan

“Mustaqillik Deklaratsiyasi” qachon qabul qilingan?

1990 yil 20 iyun  
1991 yil 18 noyabr  
1992 yil 8 dekabr  
1993 yil 1 sentyabr

1980 yillarda boshlangan va muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan “Qayta qurish” siyosati kimning nomi bilan bog’liq?

M. Gorbachev

M. Ligachev

L. Brejnev

B. Elsin

Sovet davlatida davlat to‘ntarishi bilan hokimiyatni qo‘lga olishga bo‘lgan harakatni vaqtini aniqlang.

19 avgust 1991 yil

22 aprel 1990 yil

13 fevral 1991 yil

15 aprel 1990 yil

Sharof Rashidov yashagan yillar?

1917–1983 yillar

1917–1979 yillar

1920–1983 yillar

1917–1984 yillar

Orol dengizi paxta yakkahokimligi tufayli qachondan quriy boshladi?

1970–yillardan

1960–yillardan

1950–yillardan

1980–yillardan

Nechanchi yillarda “sovetslarga qarshi millatchilik faoliyati” uchun Shukrullo, M.Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoiliy va respublikaning boshqa bir qancha yozuvchilari, olimlari 25 yil qamoq jazosiga hukm qilindilar?

1951–1952 yillarda

1960–1963 yillarda

1973–1980 yillarda

1982–1990 yillarda

Stalincha qatag’on yillarida o‘zbekistonda 1939–1953 yillar davomida qanchi kishi otib tashlandi?

7100 kishi

6300 kishi

8600 kishi

9400 kishi

o‘zbekistonda paxta xom ashyosi yetishtirish 1946–1985 yillarda necha baravarga ko‘paydi?

5,5 baravarga

2,8 baravarga

3,4 baravarga

4,6 baravarga

o‘zbekistonda 1990–yil 30–aprelda qaysi partiyasining ta’sis qurultoyi bo‘lib o‘tgan?

Erk demokratik partiyasining

Xalq demokratik partiyasining

Milliy tiklanish demokratik partiyasining

Adolat demokratik partiyasining

1990–yilda o‘zbekistonda “Ish bilan ta’minalash” dasturi ishlab chiqilib, shu dasturga binoan qancha kishi ish bilan ta’minaldi?

300 ming kishi

180 ming kishi

230 ming kishi

340 ming kishi

Nechanchi yilda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belorus, o‘zbekiston, Qozog’iston respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tib, unda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo’llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi?

1991–yil aprelda

1989–yil noyabrda

1990–yil martda

1992–yil avgustda

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z farmoni bilan o‘zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va o‘zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so‘zsiz mos kelishi kerak, deb qachon belgilab qo‘yilgan?

1991–yil 21–avgustda

1990–yil 8–dekabrda

1989–yil 15–martda

1992–yil 30–noyabrda

o‘zbekiston Mustaqillik Deklaratsiyasi nechta moddadan iborat?

12 moddadan

20 moddadan

33 moddadan

7 moddadan

o‘zbekiston aholining kam daromadli qismini ijtimoiy jihatdan himoyalash uchun 1990–yilda byudjetdan va korxonalar hisobidan jami qancha qo‘sishimcha mablag’ ajratildi?

142 mln so‘m

161 mln so‘m

134 mln so‘m

119 mln so‘m

1990–yil 19–fevralda qaysi qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilingan?  
“o‘zbekiston SSRning davlat tili haqida”

Mustaqillik Deklaratsiyasi to‘g’risida

Davlat ramzları to‘g’risida

Oliy Kengash faoliyati to‘g’risida

o‘zbekiston mustaqilligining bir yilligi arafasida birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning qaysi asari nashr etildi?

«o‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li»

«o‘zbekiston –bozor munosabatlariiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li»

«o‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida»

«o‘zbekiston kelajagi buyuk davlat»

o‘zbekiston davlat tuzilishiga ko‘ra qanday davlat?

Unitar davlat, biroq federatsiya elementlari bor

Hududiy sub’yektlardan iborat oddiy davlat

Federativ

To‘g’ri javob yo‘q

Toshkentning markaziy maydon qaysi yili Mustaqillik maydoni deb qayta nomlandi?

1991–yilda

1990–yilda

1992–yilda

1999– yilda

Prezident farmoni asosida qachon “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi tashkil etildi?

1994–yil 23–aprel

1993–yil 19–oktyabr

1995–yil 27–dekabr

1996–yil 17–fevral

o‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning nazariy asoslari Islom Karimovning qaysi asarida ishlab chiqilgan?

“o‘zbekiston XXI asr bo‘sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”

“o‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q»

“o‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”

Yangi o‘zbek davlatchiligidagi avtoritarizm va totalitarizmni istisno etuvchi qanday tamoyillar o‘z aksini topgan?

Rejalashtirish, markazlashtirilgan taqsimlash vazifalaridan xoli bo‘lgan ijroiya hokimiyat barpo etilganligi

Chinakam demokratik me’yorlar va yo‘l-yo‘riqlar qaror toptirildi

Huquqiy davlat barpo etildi

Barcha javoblar to‘g’ri

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlardan ko‘zlangan bosh maqsad nima?

Insonning mehnat, ijodiy va ma’naviy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan munosib turmush sharoitini yaratish

o‘zbekistonni buyuk kelajakka olib chiqish

o‘zbekistonni kuchli mamlakatlar safiga olib chiqish

o‘zbekistonning boy imkoniyatlarini ishga solish

o‘zbekistonda milliy va diniy ruhdagi partiyalar hamda birlashmalar tuzilishi mumkinmi?

Amaldagi qonunchilikda bunday partiya va birlashmalarning tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi

Respublika Prezidenti ruxsati bilan tuzilishi mumkin

Oliy Majlisning ruxsati bilan tuzilishi mumkin

Amaldagi qonunchilikka asosan tuzilishi va Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tib faoliyat olib borishi mumkin

o‘zbekistondagi barcha o‘zgarish va yangilanishlar qanday hayotiy qoidalar asosida amalga oshirilmoqda?

«Islohotlar – islohotlar uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun»

«Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun»

«Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir»

«Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang»

«o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g’risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

1991-yil 18-noyabr

2001-yil 20-avgust

1991-yil 29-mart

2012-yil 24-iyul

o‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi...

1991-yil 1-noyabrdagi tashkil etildi

1995-yil 17-fevralda tashkil etildi

1995-yil 3-martda tashkil etildi

1994-yil 2-mayda tashkil etildi

1990-yil oxirlariga kelib Boltiqbo‘yi mamlakatlari mustaqillik to‘g’risidagi talablarini SSSR Oliy Kengashi majlisi va xalq deputatlari quriltoyiga ko‘ndalang qilib qo‘yanlaridan so‘ng Prezident M. Gorbachev bir guruh deputatlar va rahbarlar bilan qanday maqsadda Boltiqbo‘yiga borgandi?

Vaziyatni o‘rganish, tazyiq qilish maqsadida

Ularga katta imkoniyat berish maqsadida

Boltiqbo‘yi mamlakatlarini mustaqil qilish maqsadida

To‘g’ri javob yo‘q

1990-yil oxirlariga kelib Boltiqbo‘yi mamlakatlari mustaqillik to‘g’risidagi talabalarini SSSR Oliy Kengashi majlisi va xalq deputatlari quriltoyiga qo‘yanlaridan so‘ng SSSR Prezidenti M. Gorbachev bir guruh deputatlar va rahbarlar bilan Boltiqbo‘yiga borganda qaysi rahbar komissiya o‘z ishini yakunlamasdan o‘z davlatiga jo‘nab ketgan?

I.Karimov

M.Livitin

Sh.Rashidov

L.Xrushchov

o‘zbekiston Respublikasi tarixida birinchi Prezidentlik saylovi qachon bo‘lib o‘tgan?

1991 yil 29 dekabrda

1990 yil 24 martda

1991 yil 18 noyabrda

1992 yil 8 dekabrda

1989-yil 21-oktyabrda Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan hujjatni aniqlang.

«o‘zbekistonning davlat tili to‘g’risida»gi qonun

Mustaqillik Deklaratsiyasi

«o‘zbekistonning davlat ramzları to‘g’risida»gi qaror

Umumxalq referendumini o‘tkazish to‘g’risida Farmon

o‘zbekiston Konstitutsiyasining 11–moddasiga binoan davlat hokimiyati qanday tarmoqlardan tashkil topgan?

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ommaviy axborot vositalari

Ijro etuvchi, sud hokimiyati, buyruq beruvchi

Sud hokimiyati, ommaviy axborot vositalari, qonun chiqaruvchi

«o‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi». Ushbu maqom qaysi hujjatda berilgan?

o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

«Oliy Majlis to‘g’risida»gi qonunda

«o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g’risida»gi qonunda

To‘g’ri javoblar yo‘q

«o‘zDEU avto» korxonasida qachondan boshlab «Neksiya», «Tiko», «Damas» yengil avtomashinalari chiqarila boshlandi?

1996–yil martdan

1994–yil martdan

1995–yil martdan

1998–yil martdan

1992–yil 2–iyulda...

Davlat gerbi qabul qilindi

Davlat madhiyasi qabul qilindi

Davlat bayrog’i qabul qilindi

Davlat tili haqida qonun qabul qilindi

1992 yil 10 dekabrda qanday voqeа yuz berdi?

Davlat madhiyasi qabul qilindi

Davlat gerbi qabul qilindi

Davlat bayrog’i qabul qilindi

Davlat tili haqida qonun qabul qilindi

o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha bob va necha bo‘limdan iborat?

6 bo‘lim, 26 bob, 128 modda

4 bo‘lim, 36 bob, 128 modda

3 bo‘lim, 23 bob, 128 modda

3 bo‘lim, 26 bob, 128 modda

Mulkni xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz?

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarilishini

Mulkni avvalgi egalariga qaytarishni

Shaxsiy mulklarni davlat mulkiga aylantirishni

Davlat boshqaruvini tugatib, xo‘jalik hisobiga o‘tishni

o‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishining besh tamoyili I. Karimovning qaysi asarida ishlab chiqilgan?

«o‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li»

«o‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li»

«Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang»

«o‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida»

"Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g’risida”gi Qonun qachon qabul qilindi?

1992 yil 28 fevralda

1991 yil 22 fevralda

1994 yil 28 fevralda

1992 yil 10 noyabrda

o‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishining besh tamoyilning birinchisi nima deb nomianadi?

Iqtisodiyotni siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi

Davlat bosh islohotchi

Qonun ustuvorligi

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish

o‘zbekistonda 1992–1993 yillar xususiy lashtirishning birinchi bosqichida qanday islohot amalga oshirildi?

Kichik xususiy lashtirish

Davomli reja

Mulk egaligi

Yer ajratish

o‘zbekistonda 1992–1993 yillarda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirilib, qishloq xo‘jaligida qancha kolxoz va davlat xo‘jaliklari xususiy lashtirildi?

770 ta

314 ta

106 ta

565 ta

Davlat mulkini xususiy lashtirishning nechanchi bosqichida o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora–tadbirlari to‘g’risida”gi qarori asosida ish olib borildi?

ikkinchi bosqichida

oltinchi bosqichida

beshinchi bosqichida

uchinchi bosqichida

o‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Biz avvalgidek, davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda “o‘zbek modeli”ning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqichma–bosqichlik tamoyiliga bundan keyin ham amal qilamiz”, deb qaysi yig’ilishda ta’kidlagan edi?

Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida

Vazirlar Mahkamasi yig’ilishida

Oliy Sud va Konstitutsiyaviy Sud majlisida  
Mahalla fuqarolar yig'ini bilan uchrashuvda

I.A.Karimov umumxalq tomonidan o'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylangan sanani ayting.

1991-yil 29-dekabr

1991-yil 15-oktyabr

1992-yil 8-noyabr

1990-yil 7-oktabr

1991 yil 25 avgustdagi o'zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko'ra:

barcha javoblar to'g'ri

Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti o'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi

Respublika va uning fuqarolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilish nazarda tutildi

Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shnulari bevosita o'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shnulari partiyadan xoli qilindi

o'zbekiston Respublikasi qachon BMT a'zoligiga qabul qilingan?

1992 yil 2 mart

1995 yil 15 noyabr

1992 yil 3 may

1993 yil 1 iyul

"o'zbekistonni mustaqil deb e'lon qilish to'g'risida"gi Oliy Kengash qarori qachon qabul qilingan?

1991 yil 31 avgust

1991 yil 30 avgust

1991 yil 1 sentyabr

1991 yil 2 sentyabr

o'zbekiston Respublikasi parlamenti qanday ataladi?

Oliy Majlis

Oliy Senat

Qonunchilik palatasi

Oliy Kengash

Saylovlarda ishtirok etish uchun fuqaro necha yoshga to'lgan bo'lishi lozim?

18 yoshga

17 yoshga

20 yoshga

25 yoshga

o‘zbekiston Respublikasining parlamenti necha palatadan iborat?  
Ikki palatadan (Qonunchilik palatasi va Senat)  
Bir palatadan (Oliy Majlis)  
Parlament palatali bo‘lishi mumkin emas  
Qo‘shma Majlis vaqtida bir palatali, alohida majlislar o‘tkazilganda ikki palatali

Qonunchilik palatasi nechta deputatdan iborat?  
150 nafar  
120 nafar  
130 nafar  
200 nafar

Siyosiy partiyalar tomonidan o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga ko‘rsatilgan nomzodlarning kamida necha foizini ayollar tashkil etishi lozim?

30 %  
20%  
15%  
50%

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Senatning necha nafar a’zosi tayinlanadi?

16 nafar  
10 nafar  
20 nafar  
25 nafar

o‘zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha doimiy organ, bu ...

Markaziy Saylov komissiyasi  
Konstitutsiyaviy sud  
Oliy Majlis  
Vazirlar Mahkamasi

Fuqarolik jamiyati shakllanishiga nimalar asos qilib olindi?  
Adolat tamoyillariga izchil rioya qilish qoidasi  
Turli dinlarning erkin faoliyat yuritishi  
Xorijiy mamlakatlar bilan yaqin aloqalar  
Investitsiyalarni ko‘proq jalb etish

Fuqarolarning kasaba uyushmasiga a’zo bo‘lishi qaysi huquq va erkinliklar guruhiga kiradi?  
Siyosiy  
Shaxsiy  
Mehnat

## Iqtisodiy

Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar kim tomonidan ko'rsatilishi mumkin?

Siyosiy partiyalar

Tashabbuskor guruhlar

Davlat hokimiyati ijro organlari

Barcha javoblar to'g'ri

o'zbekistonda "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?

1993 yil 2 sentyabrda

1995 yil 10 yanvarda

1997 yil 21 aprelda

2000 yil 30 avgustda

Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishi – Iqtisodiyoni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida necha banddagi vazifalar qo'yilgan?

3 banddagi

4 banddagi

5 banddagi

7 banddagi

Davlat budgetining iqtisodiy kategoriya sifatida nechta funksiyasi bor?

2 ta

3 ta

4 ta

5 ta

2017–2020–yillar davomida 20 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan, buning uchun qaysi xorijiy bankning kreditlari jalb etilishi rejalashtirilgan?

Jahon bankining

Osiyo taraqqiyot bankining

Islom taraqqiyot bankining

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining

Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida nima turishi belgilangan?

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish

Iqtisodiyotni modernizatsiya va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish

Moliya bozorini rivojlantirish

Barcha javoblar to'g'ri

Harakatlar strategiyasiga binoan 2017–2021–yillarda mamlakat YaIM (Yalpi ichki mahsulot)da sanoat mahsulotining ulushini qanchaga yetkazish rejalashtirilgan?

33,6 foizdan 36 foizga  
24 foizdan 28 foizga  
28 foizdan 32 foizga  
34,4 foizdan 38 foizga

o‘zbekiston Respublikasida mamlakat YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 2000–yilda 30,1 foizni tashkil etgan, 2016–yilga kelib uning salmog’i qanchani tashkil etgan?

16,8 foizni  
14,8 foizni  
18,4 foizni  
20,6 foizni

2016–yilda Respublika sanoat mahsuloti hajmida Qashqadaryo viloyatining ulushi qanchaga teng bo‘lgan?

8,67 foizga  
7,56 foizga  
8,47 foizga  
9,27 foizga

2016–yilda mamlakat YaIMda Qashqadaryo viloyatining ulushi qanchaga teng bo‘lgan?

7,47 foizga  
7,54 foizga  
7,48 foizga  
8,16 foizga

o‘zbekistonda 1992–1994 yillarda qancha korxona va ob’yektlar davlat tasarrufidan chiqarildi?

54 mingga yaqin  
31 mingdan ortiq  
10 ming atrofida  
68 ming oralig’ida

“Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Farmoni qachon qabul qilingan?

1994 yil 21 yanvarda  
1992 yil 6 dekabrda  
1997 yil 12 martda  
2000 yil 28 aprelda

“Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari to‘g’risida”gi Farmon qachon qabul qilingan?

1994 yil 16 martda

1998 yil 1 dekabrda

2002 yil 22 mayda

2005 yil 30 noyabrda

o‘zbekistonda 2011 yilning 1 yanvariga kelib kichik biznes va xususiy tadbirdorlikda band bo‘lganlar soni qancha kishini tashkil qilgan?

8639,3 ming kishini

6123,3 ming kishini

4414,4 ming kishini

10314 ming kishini

o‘zbekistonda 2010 yilda necha AQSH dollariga teng bo‘lgan investitsiyalar o‘zlashtirilgan?

9 milliard 700 million

5 milliard 300 million

3 milliard 400 million

1 milliard 200 million

2010 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta’milanish darajasi shahar joylarda necha foizni tashkil etgan?

85 foizni

61 foizni

33 foizni

92 foizni

“Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, o‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari” nomli asar kimning qalamiga mansub?

I.Karimovning

O.Sharofiddinovning

Sh.Rashidovning

B.Abamaning

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori qachon qabul qilindi?

2017-yil 2-fevralda

2015-yil 15-yanvarda

2016-yil 21-martda

2018-yil 30-avgustda

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi nechanchi sonli qarorni bilasiz?

PQ-2753-son qarori

PQ-1245-son qarori

PQ-3189-son qarori

PQ-4452-son qarori

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qaroridan kelib chiqib, barcha turdagি pensiyalar butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlar siz qanday ko‘rinishda beriladigan bo‘ldi?

to‘liq hajmda naqd pul shaklida

to‘liq hajmda plastik pul shaklida

yarmi naqd yarmi plastik pul shaklida

pensiya ikki oyda bir marta naqd pul shaklida

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qaroridan kelib chiqib, barcha oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiya qanday ko‘rinishda beriladigan bo‘ldi?

stipendiyaning 50 foizi naqd pul shaklida

stipendiyaning 100 foizi naqd pul shaklida

stipendiyaning 75 foizi naqd pul shaklida

stipendiyaning 30 foizi naqd pul shaklida

o‘zbekiston Respublikasida yiliga necha kishini ishga joylashtirishga ehtiyoj mavjud?

1,5 million kishini

3,9 million kishini

8,3 million kishini

10,4 million kishini

o‘zbekistonda 2016-yilda Badlikka ko‘maklashish markazlari necha kishini ishga joylashtirgan?

248 ming kishini

512 ming kishini

756 ming kishini

933 ming kishini

o‘zbekistonda Mehnat vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda Bandlikka ko‘maklashish markazlariga ish so‘rab murojaat qilganlarning necha foizi ishga joylashtirilgan?

93,2 foizi

19,4 foizi  
56,8 foizi  
71,2 foizi

Respublikamizda nechanchi yillarda keksalar va pensionerlar uchun mo‘ljallangan 12 ta Sahovat va Muruvvat uylari moddiy–texnika bazasi yaxshilandi?

2010–2016–yillarda  
2011–2017–yillarda  
2012–2018–yillarda  
2013–2019–yillarda

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “o‘zbekiston faxriyalarini ijtimoiy qo‘llab–quvvatlash “Nuroniy” jamg’armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g’risida”gi PF–4906–son Farmoni qachon qabul qilindi?

2016–yil 28–sentyabrda  
2018–yil 3–martda  
2017–yil 11–noyabrda  
2019–yil 23–iyulda

o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017–yil 5–yanvar va 7–fevral kunlari kimlar bilan uchrachuv o‘tkazdi?

sog’liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan  
qurilish sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan  
kitobxonchilik sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan  
qo‘shiqchilik sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan

ACTRAV qanday tashkilot?

Xalqaro mehnat tashkilotining mehnatkashlar faoliyati bo‘yicha byurosi  
Butunjahon sog’likni saqlash tashkiloti hokimiyatlar bo‘linmasi  
Futbol uchrashuvlarini tashkil qilish oliy kengashi  
Oliy ta’limni isloh qilish bo‘yicha davlatlararo ansambl

Harakatlar strategiyasi doirasida 2017–2021–yillarda qancha mablag’ evaziga ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun tibbiy–ijtimoiy patronaj brigadalarining kuchi bilan tog’li, cho‘l va borish qiyin bo‘lgan hududlarda aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi?

220 million so‘m  
308 million so‘m  
105 million so‘m  
400 million so‘m

Mamlakatimizda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan?

2016 yil 24 noyabrda

2017 yil 5 aprelda  
2018 yil 12 mayda  
2019 yil 30 iyunda

o‘zbekistonda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni Oliy Majlis Senati tomonidan qachon ma’qullangan?

2016 yil 13 dekabrda  
2016 yil 13 martda  
2016 yil 13 iyulda  
2016 yil 13 sentabrda

o‘zbekistonda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni Prezident tomonidan qachon tasdiqlangan?

2017 yil 3 yanvarda  
2016 yil 10 avgustda  
2018 yil 21 sentabrda  
2019 yil 30 aprelda

o‘zbekistonda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni qachondan kuchga kirgan?

2017 yil 4 yanvardan  
2018 yil 4 yanvardan  
2016 yil 4 yanvardan  
2019 yil 4 yanvardan

o‘zbekistonda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida”gi o‘zbekiston Respublikasi Qonuni nechta moddadan iborat?

34 moddadan iborat  
56 moddadan iborat  
21 moddadan iborat  
44 moddadan iborat

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 ta tashabbusning birinchisi qanday nomlanadi?

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarish

Xotin–qizlarni ish bilan ta’minalash

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish

Aholi va Yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 ta tashabbusning ikkinchisi qanday nomlanadi?

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish

Aholi va Yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 ta tashabbusning uchinchisi qanday nomlanadi?

Aholi va Yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 ta tashabbusning to'rtinchisi qanday nomlanadi?

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish

Aholi va Yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 ta tashabbusning beshinchisi qanday nomlanadi?

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash

Aholi va Yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish

I. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida “bu yorug’ olamda eng buyuk jasorat” deb nimani misol keltirgan?

Ma’naviy jasoratni

Vatanparvarlikni

Fidoyilikni

Muhabbatni

«Navro‘z» bayrami qaysi yildan boshlab yurtimizda umumxalq bayrami sifatida erkin bayram qilib kelinadi?

1990–yildan

1989–yildan

1991–yildan

1992–yildan

UNESKOning qaroriga muvofiq Samarqand shahrida Markaziy Osiyoni tadqiq qilish instituti qachon tashkil etildi?

1995–yilda

1996–yilda

1997–yilda

1999–yilda

o‘zbekistonda nechta milliy–madaniy markaz mavjud?

130 dan ortiq

70 dan ortiq

100 ga yaqin

110 dan ortiq

o‘zbekistonda nechta diniy konfessiya faoliyat ko‘rsatmoqda?

16 ta

20 ta

50 ta

10 ta

o‘zbekistonda nechta milliy–madaniy markaz mavjud?

130 dan ortiq

70 dan ortiq

100 ga yaqin

110 dan ortiq

o‘zbekistonda nechta diniy konfessiya faoliyat ko‘rsatmoqda?

16 ta

20 ta

50 ta

10 ta

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi nimaga qaratilgan?  
Barcha javoblar to‘g’ri  
Muayyan g’oyaga ishontirish, g’oyaviy tarbiyalash  
Uyushtirish, safarbar etish  
G’oyaviy immunitetni shakllantirish

Mustaqillik tufayli ijtimoiy-siyosiy sohada erishgan eng asosiy yutug’imiz nimada?  
o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilash huquqiga ega bo‘ldik  
Sobiq ittifoqning mustabid tuzumiga barham berildi  
Yangi milliy armiya tuzildi  
Islom dinining jamiyat ma’naviy yuksalishidagi o‘rni va roli tikladi

Mustaqillik yillarda qaysi shaharlarning 2500 yillik yubileyлari o‘tkazilgan?  
Buxoro, Xiva, Termiz  
Samarqand, Qarshi, Shahrisabz  
Qarshi, Shahrisabz, Buxoro  
Toshkent, Marg’ilon, Xiva

“Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi tashkil etilgan yilni aniqlang?  
1994—yildan  
1995—yildan  
1991—yildan  
1999—yildan

Qaysi shaharlar “Amir Temur” ordeni bilan taqdirlangan?  
Shaxrisabz, Samarqand, Termiz  
Toshkent, Buxoro, Qarshi  
Shaxrisabz ,Buxoro, Samarqand  
Buxoro, Samarqand, Andijon

Qaysi yilda “Avesto”ning 2700 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi?  
2001—yilda  
2003—yilda  
2000— yilda  
2004—yilda

Qur’он so‘zining ma’nosи nima?  
o‘qish  
ishonch  
e’tiqod  
Ollohnинг kalomi

Qarshi shahrining 2700 yilligi qachon nishonlandi?  
2006—yil 27—oktabrda

2006-yil 9-aprelda  
2008-yil 18 oktabrda  
2007-yil 26 noyabrda

«Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi qachon va qayerda nishonlandi?

1999-yilda Termizda  
1997-yida Toshkentda  
1998-yilda Xorazmda  
2000-yilda Urganchda

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingandan to hozirgacha bo'lган davrda jami necha marotaba "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi?

3 marotaba  
4 marotaba  
2 marotaba  
1 marotaba

Mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marotaba "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?

1992 yilda  
1997 yilda  
1994 yilda  
1996 yilda

2021 yil 1 fevral holatida O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari soni nechtaga yetdi?

131 taga  
113 taga  
120 taga  
97 taga

O'zbekiston Respublikasida qaysi yildan boshlab umumta'lim maktablariga 10-sinfga o'quvchilar qabul qilish qayta yo'lga qo'yildi?

2017 yildan  
2018 yildan  
2016 yildan  
2019 yildan

2020 yil 23 sentabr kuni yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga binoan umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining sinflarida ta'lim oluvchilar soni nechadan oshmasligi belgilandi?

35 nafardan  
25 nafardan  
30 nafardan

40 nafardan

2018–2019 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizda jami nechta oliy ta'lismuassasasida xorijiy oliy ta'lismuassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lindasturi asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi?

11 ta

9 ta

16 ta

24 ta

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining nechanchi ustuvor yo'naliشida ta'lism-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan?

to'rtinchi

uchinchi

ikkinchi

beshinchi

2020 yil 23 sentabr kuni yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lism to'g'risida"gi qonunga binoan bakalavriat yo'naliشida ta'lism olish davomiyligi kamida necha yil hamda magistraturada kamida necha yil etib belgilandi?

bakalavr 3 yil, magistratura 1 yil

bakalavr 4 yil, magistratura 1 yil

bakalavr 3 yil, magistratura 2 yil

bakalavr 4 yil, magistratura 2 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lismuassasalarida ta'lism sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qachon qabul qilingan?

2018 yil 5 iyun

2017 yil 4 dekabr

2019 yil 6 avgust

2020 yil 23 sentabr

2017–2018 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lismuassasalari va ularning filiallari soni qanchani tashkil etgan?

86 tani

77 tani

126 tani

90 tani

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik tantanalari qaysi g'oya asosida bayram qilinadi?

"Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!"

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”

“Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”

“Ertaga emas, bugun yaxshi yashashimiz kerak”

Tariximizdagi Birinchi Renessans davri qaysi asrlarga to’g’ri keladi?

X–XII asrlar

XIV–XVI asrlar

IV–VI asrlar

VII–VIII asrlar

Yoshlarni har tomonlama qo’llab–quvvatlaydigan yaxlit va uzlusiz tizim necha yosh oralig’idagi yigit–qizlarni qamrab oladi?

Bola tug’ilganidan boshlab 30 yoshgacha

Bola tug’ilganidan boshlab 14 yoshgacha

Bola tug’ilganidan boshlab 18 yoshgacha

14 yoshdan 30 yoshgacha

Murojaatnomada keltirilgan Mir Alisher Navoiyning hikmatlarini davom ettiring:

“Quyoshliq istasang, \_\_\_\_\_”? ”

Kasbi kamol et

Hikmatni sog’liqda bilgin

Dovyurak va botir bo’l

Tilga ixtiyorsiz bo’lma

2021 yilda yangi maktablar qurish, mavjudlarini ta’mirlash va moddiy–texnika bazasini yaxshilashga byudjetdan qancha mablag’ ajratiladi?

2 trillion so’m

1 trillion so’m

1,5 trillion so’m

250 milliard so’m

Ijtimoiy rivojlanishning subyekti kim?

Inson

Jamiyat

Davlat

Yoshlar

Yangi O’zbekistonda “Shaxs–davlat–jamiyat” uchligidagi birlamchi bo’g’inni toping.

Shaxs

Jamiyat

Davlat

Bunday tasnif yo’q

Alisher Navoiy mamlakat rivoji uchun birinchi navbatda nimani taraqqiy ettirish muhim deb bilgan?

Har bir odamni komil inson etib tarbiyalashni  
Kambag'allarni to'ydirishni  
Boylarning e'tiborini  
Hamma teng bo'lishini

Kitobxonlikni yoshlar o'rtasida tez ommaviylashuvida nima ko'proq ta'sir ko'rsatadi?

Kattalar ibrati  
Tengdoshlararo musobaqalar  
Pedagoglar  
Reklama

Boqimandalikka olib keluvchi ijtimoiy yordamning atamasini toping.

Subsidiar siyosat  
Ijtimoiy siyosat  
Ijtimoiy qo'llov  
Homiyalar ko'magi

Qachon Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Sovetining o'n yettinchi sessiyasining kun tartibiga muvofiq, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi va o'sha kundan e'tiboran Qonun harakatga kiritildi?

1994 yil 24 sentabr  
1991 yil 1 sentabr  
1993 yil 2 sentabr  
1994 yil 24 oktabr

Qachon "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi?

2017 yil 17 yanvar  
2016 yil 21 yanvar  
2018 yil 1 yanvar  
2019 yil 17 yanvar

"Men nafaqat o'zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandiman!". Ushbu so'zlar muallifi kim?

Sh.Mirziyoyev  
I. Karimov  
Amir Temur  
Fayzullo Xo'jayev

"Bundan buyon har bir tuman va shaharga, kerak bo'lsa, chekka–chekka qishloq va ovullargacha kirib boramiz. U yerda istiqomat qilayotgan odamlarning dardini eshitamiz, muammolarini hal qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqamiz va ijrosini qat'iy nazoratga olamiz". Ushbu so'zlar muallifini aniqlang.

Sh.Mirziyoyev

I. Karimov

Amir Temur

Fayzullo Xo'jayev

o'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasi Muynoq tumani aholisini sifatlari ichimlik suvi bilan ta'minlash choralarini tug'risidagi" PQ-2754 sonli qarori qachon qabul qilindi ?

2017 yil 2 fevral

2016 yil 21 yanvar

2018 yil 1 yanvar

2019 yil 17 yanvar

Qoraqalpog'iston Respublikasida "Qo'ng'irot" suv taqsimlash inshooti qurib bitkazildi. Buning natijasida Mo'ynoq tumanidagi qancha aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi?

25 ming

30 ming

40 ming

29 ming

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019 yil so'ngida nechta ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi va mifik–internati o'quvchilarining bilim darajasi o'rganilganda ularning bilim va o'zlashtirish darajasi belgilangan davlat ta'lif standartlariga mos kelmasligi aniqlandi?

357 ta

300 ta

550 ta

450 ta

Qoraqalpog'iston Respublikasida qachondan boshlab Amudaryo va Sirdaryo havzalarida yangi yerlarni o'zlashtirish sohasida keng miqyosli ishlar boshlab yuborildi?

1960 yildan boshlab

1970 yildan boshlab

1980 yildan boshlab

1990 yildan boshlab

Qoraqalpog'iston Respublikasida Qorao'zak tumanidagi qaysi korxonada birinchi bosqichda yiliga 200 ming tonna sement ishlab chiqarilmoqda?

"Qoraqalpoq sement"

“Texnik global”  
“Nukus polimer”  
“Vegateks global”

Qoraqalpog’iston Respublikasi Nukus shahridagi qaysi korxonada “Samsung” brendi ostida yiliga 150 dona ming televizor chiqarilmoqda?

“Texnik global”  
“Qoraqalpoq sement”  
“Nukus polimer”  
“Vegateks global”

O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993 yilda BMTning nechanchi Assambleyasida nutq so’zlagan edi?

48 sessiyasida  
56 sessiyasida  
34 sessiyasida  
62 sessiyasida

Islom Karimov qaysi minbardan qo’shni Afg’oniston muammosiga konstruktiv yondashish kerakligini ta’kidlab, o’z fikrlarini bildirgandi?

BMT sessiyasida  
ShHT yig’ilishida  
Oliy Majlis yig’ilishida  
Vazirlar Maxkamasi yig’ilishida

BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti” qachon bo’lib o’tgan?

2000 yilda  
1998 yilda  
2005 yilda  
2010 yilda

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining nechanchi sessiyasida nutq so’zladı?

72-sessiyasida  
66-sessiyasida  
79-sessiyasida  
83-sessiyasida

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining nechanchi sessiyasida o’zbek tilida nutq so’zladı?

75-sessiyasida  
96-sessiyasida  
103-sessiyasida

## 183–sessiyasida

BMT shafeligida Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni kim taklif etgan?

Sh.Mirziyoyev

I.Karimov

O.Sharofiddinov

A.Komilov

1993 yilda MDH tarixida qanday voqeа sodir bo'lgan?

Hamma javoblar to'g'ri

O'zbekiston ishtirok etgan

Gruziya MDHga qo'shilgan

MDH ustavi qabul qilingan

Hozir MDHga kiruvchi davlatlarning aholisi qanchani tashkil etadi?

283 mln. kishini

318 mln. kishini

167 mln. kishini

484 mln. kishini

MDH mamlakatlari ichida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha 2004 yildan to 2016 yilgacha qancha darajadagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlari kuzatildi?

7–9 foiz darajasida

1–6 foiz darajasida

3–12 foiz darajasida

5–7 foiz darajasida

Bugungi kunda O'zbekistonning nechta banki "RIA Reyting" agentligi e'lon qilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 200 ta yirik banki yillik reytingiga kirgan?

9 ta banki

25 ta banki

12 ta banki

36 ta banki

Qaysi davlatlar parlamentlari MDHni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qilib, 1922 yil 30 dekabrdagi SSSRni tuzish to'g'risidagi shartnomani bekor qilgan edilar?

Ukraina, Belorussiya, Rossiya

o'zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya

Turkmaniston, Afg'oniston, Xitoy

Qozog'iston, Armaniston, Janubiy Koreya

Qachondan boshlab Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi?

1993 yil 24 oktyabrdan

1991 yil 14 martdan

1992 yil 11 yanvardan

1994 yil 6 iyundan

2001 yilda qaysi davlatning “Shanxay forumi”ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT deb o‘zgartirildi?

o‘zbekiston

Yaponiya

Avstraliya

Afg’oniston

Qachon Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotining 18–sammiti bo’lib o’tgan?

2018 yilning iyun oyida

2017 yilning mart oyida

2019 yilning avgust oyida

2020 yilning dekabr oyida

Hozirgi kunda ShHT mamlakatlarining aholisi qancha?

3,2 milliard kishi

1,9 milliard kishi

2,6 milliard kishi

4,1 milliard kishi

BMTning oziq–ovqat va qishloq xo’jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumot berishicha, 30 yildan so’ng yer yuzi aholisini boqish uchun hozirgidan ko’ra necha foiz ko’proq oziq–ovqat kerak bo’ladi?

70 foiz

10 foiz

30 foiz

50 foiz

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qachon Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuman shaklida o’tgan navbatdagi majlisida ishtirok etgan?

2020 yilning 10 noyabr kuni

2016 yilning 7 mart kuni

2018 yilning 21 oktyabr kuni

2021 yilning 15 yanvar kuni

Qaysi davlat tashabbusi bilan sammitda ShHTga a’zo davlatlar rahbarlarining “Raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlik to’g’risida”gi bayonoti qabul qilingan? O’zbekiston

Xitoy  
Rossiya  
Ukraina

Samarqand shahrida Imom Abu Mansur Moturudiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturudiylikning mafkuraviy asosi, ushbu ta'limotning bugungi kundagi ahamiyati muhokamasiga bag'ishlangan "Imom Moturudiy va moturudiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusida xalqaro konferentsiya qachon tashkil etildi?

2020 yilning 3–5 mart kunlari  
2019 yilning 7–9 avgust kunlari  
2018 yilning 12–15 fevral kunlari  
2017 yilning 21–26 oktyabr kunlari

2020 yilning 19–20 fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev qaysi davlatga rasmiy tashrifda bo'lgan?

Turkiyaga  
Frantsiyaga  
AQShga  
Rossiyaga

o'zbekiston Milliy taraqqiyot modeli qachon ishlab chiqildi?

2016–2017–yillarda  
2017–2018–yillarda  
2018–2019–yillarda  
2019–2020–yillarda

Taraqqiyotning innovatsion modeli deganda nimani tushunasiz?

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohasiga yangi texnologiyalarni olib kirish  
Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni olib kirish  
Davlat boshqaruvi sohasiga yangi texnologiyalarni olib kirish  
Qishloq xo'jaligiga yangi texnologiyalarni olib kirish

o'zbekistonni 2017–2021–yillarda Ozbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qachon qabul qilindi?

Prezidentning 2017–yil 7–fevraldagi Farmoni bilan  
Prezidentning 2017–yil 7–yanvardagi Farmoni bilan  
Prezidentning 2017–yil 7–martdagi Farmoni bilan  
Vazirlar Mahkamasining 2017–yil 7–yanvardagi Qarori bilan

Harakatlar strategiyasining 4–yo'nalishi qanday nomlanadi?  
Ijtimoiy sohani rivojlantirish  
Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish  
Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish  
Sud–huquq sohasini isloq qilish

Harakatlar strategiyasining 3-yo‘nalishi qanday nomlanadi?  
Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish  
Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish  
Ijtimoiy sohani rivojlantirish  
Sud–huquq sohasini isloh qilish

Harakatlar strategiyasining 2-yo‘nalishi qanday nomlanadi?  
Sud–huquq sohasini isloh qilish  
Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish  
Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish  
Ijtimoiy sohani rivojlantirish

Harakatlar strategiyasining 1-yo‘nalishida nechta bandda vazifalar qo‘yilgan?

- 3 ta bandda
- 5 ta bandda
- 4 ta bandda
- 2 ta bandda

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish sohasidagi vazifalar Harakatlar strategiyasining qaysi yo‘nalishida belgilangan?

- To‘rtinchi yo‘nalishida
- Birinchi yo‘nalishida
- Ikkinci yo‘nalishida
- Uchinchi yo‘nalishida

Qaysi yilga “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb nom berilgan edi?

- 2017–yilga
- 2015–yilga
- 2016–yilga
- 2018–yilga

Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish Harakatlar strategiyasining nechanchi yo‘nalishida belgilangan?

- Ikkinci yo‘nalishida
- Birinchi yo‘nalishida
- Uchinchi yo‘nalishida
- To‘rtinchi yo‘nalishida

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O’zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to’g’risida”gi Farmoni qachon qabul qilingan?

- 2020 yil 2 iyun
- 2017 yil 7 fevral

2019 yil 29 avgust  
2018 yil 28 aprel

2020 yilda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YUNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdarligi indeksi” bo'yicha hisobotida O'zbekiston 152 ta mamlakat orasida nechanchi o'rinni egalladi?

92—o'rinni  
120—o'rinni  
65—o'rinni  
57—o'rinni

Bugungi kunga kelib BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da jami nechta milliy indikator tasdiqlangan?

206 ta  
120 ta  
65 ta  
180 ta

BMTning 2020 yilda e'lon qilgan “Raqamli hukumatni barqaror rivojlanishi yo'lidagi o'n yillik harakat” nomli hisobotida O'zbekiston nechanchi o'rinni egalladi?

87—o'rinni  
100—o'rinni  
38—o'rinni  
77—o'rinni

O'zbekiston so'z erkinligi va hisobdorlik indeksida nechanchi o'rinda?

191—o'rinda  
183—o'rinda  
150—o'rinda  
149—o'rinda

GREKO qanday tashkilot?

Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi xalqaro tashkiloti  
Moliya bozorlarini tartibga soluvchi xalqaro tashkiloti  
Gretsiyaga ko'mak xalqaro tashkiloti  
Jahon davlatlarining monopoliyaga qarshi kurash tashkiloti

“To'g'ridan—to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklavlari indeksi”qaysi xalqaro tashkilot tomonidan o'tkaziladi?  
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti  
Xalqaro valyuta fondi  
Xalqaro investitsiyalarni muvofiqlashtirish fondi  
Xalqaro pul o'tkazmalari milliy assotsiatsiyasi

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qachon asos solingan?

1945 yil 24 oktabr

1946 yil 1 dekabr

1966 yil 12 aprel

1955 yil 20 may

Korrupsiya so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

Lotincha—buzish, sotib olish

Inglizcha—uyushgan jinoyatchilik

Nemischa—insonga zarar yetkazish

Ispancha—sotish va tovlamachilik qilish

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda “Qonun ustuvorligi indeksi”da nechanchi o'rinda?

182—o'rinda

183—o'rinda

150—o'rinda

149—o'rinda

Prezident Sh.Mirziyoyev Markaziy Osiyonи o'rganish maqsadida qanday institut tashkil etishni taklif etdi?

Markaziy Osiyo Xalqaro instituti

Mintaqaviy tadqiqot instituti

SHHT instituti

MDH instituti

O'zbekiston 2021 – 2022 yillarda qaysi tashkilotga raislik qiladi?

SHHT

YEOI

MDH

BMT

O'zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalishni toping.

Markaziy Osiyo

Yevropa Ittifoqi

Rossiya Federatsiyasi

Xitoy

O'zbekiston Prezidenti 30 iyulni qanday bayram sifatida nishonlashni taklif etdi?

Xalqlar do'stligi kuni

Do'stlik kuni

Xalqaro do'stlik kuni

Millatlararo do'stlik kuni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida tashqi siyosat borasida qanday hujjatni takomillashtirish nazarda tutilmoqda?

Tashqi ishlar vazirligi to'g'risidagi qonun

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi

Harbiy doktrina

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi

## GLOSSARIY

**o‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI** – o‘zbekiston tarixini davrlashtirish qoidasiga ko‘ra o‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan sanasi – 1991–yil 31–avgustdan hozirgacha va undan keyingi davri shunday nomlanadi.

**MUSTAQILLIK** – tenglik sari qo‘yilgan birinchi qadam. Chunki tenglik bo‘lмаган joyda kimdir kimgadir tobe bo‘ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik boshqalar qo‘lida bo‘ladi. Tenglik so‘zining qudrati shundaki, u odamlarning o‘zaro munosabatlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlargacha hamma narsani me’yor–tartibga solib turadi, turli kamsitishlar yoki ortiqcha ta’zim–tavozega chek qo‘yadi,

**ISTIQOLOL** – o‘zaro hurmat, bir–birini tan olish, bir–birinini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o‘zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o‘rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlargacha, erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga asoslanib yashash.

**TARIX** – “Tarix” – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘tmish”, “o‘tgan voqealar haqida aniq hikoya qilish” ma’nolarini anglatadi. Tarix butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzoq o‘tmishidan to hozirgi kunlargacha bosib o‘tgan hayotiy yo‘lini, avloddan–avlodga meros qoluvchi, ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy–madaniy taraqqiyotini, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini xolisona o‘rganuvchi fandir.

**“AVESTO”** – («Apastak» so‘zidan olingan asos, o‘zak degan ma’noni anglatadi) – mil. av. VII–VI asrlarda Markaziy Osio hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va “Avesto”, ya’ni “Hayot yo‘riqnomasi” deb nomlangan kitob; zardo‘shtiylik dinini shakllantirishga asos bo‘lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi Markaziy Osio xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma’naviy–axloqiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to‘g’risidagi tasavvurlari, urf–odat va qadriyatlari haqida ma’lumot beradi. Unda xalq tabobati, odobi, estetikasi, sog’lom turmush tarzi o‘z ifodasini topgan va har bir inson ezgu fikr, odil so‘z va halol mehnat bilan yashashi zarurligi ko‘rsatilgan.

**AGRAR SIYOSAT** – qishloq xo‘jaligi, yer–suv ishlariga doir masala.

**AHOLINI IJTIMOIY HIMYOYALASH** – aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy–iqtisodiy ahvoliga ta’sirini yumshatish.

**AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH** – davlat tomonidan aholiga hayot kechirish shart–sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yo‘naltirilgan kafolatlar tizimi.

**AHOLINING REAL DAROMADLARI** – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya’ni, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvati.

**AKTSIYADORLIK JAMIYATI** – ustav fondi jamiyatning aktsiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aktsiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subekt

**AMIR UL-UMARO** – amirlar amiri, oliv amir degan ma’noni anglatgan. Oltin o‘rda, Chig’atoy ulusida butun harbiy ishlar uning tasarrufida bo‘lgan. Bundan tashqari, Amir ul-umaroga hukumatning barcha bosh ijroiya idoralari ham bo‘ysungan. Amir Temur va temuriylar davrida amir ul-umaro faqat oliv bosh qo‘mondon, ayrim hollarda, hukmdorning xudoychisi bo‘lgan.

**ANALITIK GURUHLASHTIRISH** – yig’ma-umumiy ma’lumotlardan alohi muhim belgilari va xususiyatlari bo‘yicha guruhlarga ajratish.

**AQIDA** (arab.ishonch) – shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan bajarish, e’tiqod qilish lozim bo‘lgan ilohiy talab.

**ASOSIY VOSITALAR** – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan mehnat vositalari (bino, inshoot, mashina, inventar va h.k.)

**AXBOROT** – voqelik to‘g’risida tasavvur beruvchi ma’lumotlar, bilimlar majmuasi.

**AXLOQIY MADANIYAT** – jamiyat, sotsium, indivudlar tomonidan axloqiy kamolot meyorlariga erishish darajasi.

**AYLANMA MABLAG’** – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning aylanma fondlari (ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari) va muomala fondlaridan (tayyor mahsulotlar, pul mablag’lari, hisob-kitobdagi mablag’lar ) tashkil topadi.

**BANDLIK** – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg’ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadini beradigan faoliyati.

**BANKLAR** – tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag’lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to‘lovlarini amalga oshirish.

**BAQTRIYA DAVLATI** – Amudaryoning yuqori oqimida, hozirgi Afg’istonning shimoliy qismi, Tojikiston va Surxondaryo viloyati hududlari kirgan. Baqtriya mil. avv. V–IV asrning boshlarida gullab–yashnagan davlatga aylanadi. Bu haqida yunon tarixchisi Ktesiy ma’lumot keltiradi.

**BARKAMOL SHAXS** – Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko‘ra mamlakatimizda shakllantirilishi lozim bo‘lgan jismoniy, aqliy jihatdan yetuk, ma’naviy pok shaxs.

**BEVOSITA DEMOKRATIYA** – demokratiyaning bir shakli bo‘lib, u har bir fuqaroning davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita – ya’ni shaxsan ishtirok etishidir. Bevosita demokratiyaning ko‘rinishlariga saylovda ovoz berish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, qonun loyihalari va boshqa tadbirlarning muhokamasi, referendum (umumxalq ovozi), fuqarolar yig’ini ishlarida hamda davlat organlariga takliflar kiritishda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

**BIZNES** – foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

**BMT** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti – xalqaro tashkilotdir. U 1945 yilning 24 oktyabr kunida butun insoniyatni yangi jahon urushidan saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan. Hozirda BMTga a’zo bo’lgan mamlakatlarning soni 193 ta. BMTning ish faoliyati uning Ustavida belgilangan maqsadi va tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

**BOSHQARUV MEXANIZMI** – xo‘jalik faoliyatini boshqarishdagi iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va boshqa shakllar, usullar hamda vositalar majmuyidan iborat tizim.

**BOSHQARUV OBYEKTI** – bu ishlab chiqarish, subyekti esa boshqaruv tarkibidir.

**BOSHQARUV SHAKLI** – bu huquqiy institut bo‘lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va mahalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o‘zaro munosabatlari tartibini o‘z ichiga oladi.

**BOZOR INFRASTRUKTURASI** – bozor iqtisodiyoti uchun har xil xizmat ko‘rsatuvchi sohalar.

**BOZOR IQTISODIYOTI** – erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, sotsial mo‘ljalga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo‘nalishiga ega bo‘lgan va boshqarilib (tartiblanib) turuvchi iqtisodiyot.

**CHET EL INVESTITSIYALARI** – chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga qo‘shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, o‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromadga aytildi.

**DAVLAT APPARATI** – (inglizcha mashinery of government so‘zi) – davlat organlari tizimi bo‘lib, ular faoliyati orqali davlat hokimiysi va uning funksiyalari amalga oshiriladi.

**DAVLAT BELGILARI** – bu davlatni mustaqil mamlakat sifatida e’tirof etishi uchun sabab bo‘ladigan tushunchalardir. Mustaqil davlat bo‘lish uchun har bir davlatning o‘z hududi, Konstitutsiyasi, aholisi (halqi), davlat ramzları, fuqaroligi, armiyasi, oliy hokimiyat organlari, pul birligi bo‘lishi zarur.

**DAVLAT BOSHLIG’I** – (inglizcha “head of the state”) –oliy davlat lavozimi bo‘lib, u ijro hokimiysi sohibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxs. Monarxiyalarda —Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Yaponiyada – davlat boshlig’i monarx (korol, imperator, emir) bo‘lib, uning hokimiysi qoidaga ko‘ra, hukmron shajara vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o‘tkaziladi. Respublikalarda (Italiya, Frantsiya, GFR, AQSh, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) davlat boshlig’i prezident bo‘lib, u bevosita aholi tomonidan saylanadi (Meksika, Panama, Kolumbiya), yoki bilvosita (AQSh, Argentina), yohud ko‘p bosqichli saylovlari (Italiya, GFR, Hindiston) natijasida saylanadi. Ko‘pchilik davlatlarda individual davlat rahbari mavjud, prezidentlik respublikalarida davlat rahbari ayni paytda hukumat rahbari ham hisoblanadi.(AQSh, Meksika, Argentina, Afrikaning ayrim davlatlarida). Davlat boshqaruvi– davlat organlarining tashkillashtiruvchi,

ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo‘lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta’minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo‘ladi.

**DAVLAT BOSHQARUVI USULLARI** – davlat tomonidan boshqaruv sohasidagi vazifalar qanday hal qilinishi tushuniladi. Davlat o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida hamda vazifa va funksiyalarni bajarish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Ishontirish va majburlash keng tarqalgan ma’muriy usullardir.

**DAVLAT BUDJETI** – aholining normal turmush tarzi, davlat organlari faoliyatini ta’minlash hamda davlat funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, ma’lum usulda shakllanadigan va sarflanadigan pul manbasi. Davlat budjeti hukumat tomonidan ishlab chiqilib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

**DAVLAT GERBI** – davlat ramzlaridan biri, davlatning rasmiy emblemasi bo‘lib, muhrlarda, turli hujjat nuxsalarida, pul birligida aks ettiriladi. Uning ko‘rinishi maxsus qonun bilan belgilanadi. o‘zbekiston Gerbining markazidagi Xumo qushi – baxt–saodat va erksevarlik ramzi, sakkiz qirrali yulduz respublikamizning sobitligi va barqarorligi timsoli, quyosh – yo‘limizning hamisha nurafshon bo‘lishi, boshoq–rizq – ro‘zimiz, paxta – o‘zbekiston boyligi, bug’doy va paxta chanog’idan tasma – xalqlarimiz do‘stligi ramzidir. Gerb haqidagi qonun 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan.

**DAVLAT HOKIMIYATI** – xalq hokimiyatining maxsus tuzilma – davlat orqali amalga oshirilishi. Davlat o‘zining organlari orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo‘lida to‘plangandagina u malakali va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o‘ziga tegishli hokimiyat yordamida majburlov va ta’sir choralarini qo‘llaydi. Davlat hokimiysi qonuniydir, ya’ni davlatning, uning organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo‘yiladi.

**DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TA’MINLASH** – davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining shaffofligi, ochiqligini ta’minlash, davlatimiz ichki va tashqi siyosatining eng asosiy yo‘nalishlaridan aholini muntazam xabardor bo‘lib borishiga sharoit yaratish, shuningdek, fuqarolarning siyosiy faolligini yanada oshirish, davlat hokimiysi organlari o‘zlari qabul qiladigan qarorlar va ularning mazmuni bilan aholini, turli jamoat birlashmalarini xabardor qilib borishdan iboratdir.

**DAVLAT MADHIYASI** – o‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzi bo‘lib, Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash o‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir. Madhiya musiqa va she’r vositasida ifodalananadi, hamda davlat organlari tomonidan o’tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida ijro etiladi. Madhiya maxsus qonun bilan tasdiqlanadi. Ushbu qonun 1992 yil 10 –dekabrda qabul qilingan.

**DAVLAT NAZORATI** – davlat organlari chiqaradigan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta’minlaydigan davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri. Davlat nazoratini turli organlar amalga oshiradi. Odatda

nazorat vazifasi asosan parlamentlarda to‘plangan, ammo keyingi o‘n yillikda ko‘pgina mamlakatlarda parlamentdan tashqari, biroq parlament nomidan ish yuritadigan nazorat instansiyalari keng tarqaldi (masalan, ombudsman, hisob palatasи), ma’muriy yustitsiya organlarining soni va roli o‘sdi.

**DAVLAT ORGANI** – davlat mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib, u davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarning muayyan qismini, yo‘nalishini amalga oshiradi va shu maqsadda tegishli davlat–huquqiy vakolatlarga, zaruriy kompetensiyaga ega bo‘ladi.

**DAVLAT ORGANLARI** – davlatning vazifalarini amalga oshiruvchi tuzilmalardir. Davlat hokimiyati alohida turdagи davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**DAVLAT Qo‘MITALARI** – (o‘zRda) umumdavlat vazifalarni bajaradigan sohalararo davlat boshqaruvi markaziy idoralari. D.q. tegishli tarmoq muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. D.q. tegishli tarmoqdagi ahvol uchun mas‘ul hisoblanadi. “o‘zR Vazirlar Mahkamasi to‘g’risida”gi Qonuni (1993 y. 6 may) va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari D.q. ning huquqiy holatini belgilab bergen.

**DAVLAT RAMZLARI** – Konstitutsiyada belgilangan bo‘lib (5–modda) bayroq, gerb va madhiya hisoblanadi. Ularning tuzilish shakli, maqsadi, ishlatilishi maxsus qonunlar bilan tasdiqlangan. Bular mamlakatning mustaqilligini ifodalovchi ramziy belgilardir. Ularda mamlakat xususiyatlari aks ettiriladi.

**DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH** – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, davlatga qarashli multk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar tashkilotlarga aylantirishdir.

**DAVLAT TILI** – mamlakatda qonunchilikda, rasmiy ish yuritishda, sud jarayonida, o‘quv faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy til (rasmiy til). o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan o‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir (4–modda). o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi maxsus qonun bilan ham belgilangan. Konstitutsiya va qonunda o‘zbek tilining davlat tili deb belgilanishi boshqa har qanday tillarning muomalada bo‘lishini rad etmaydi. Boshqa tillardan ham kundalik hayotda, turmushda keng foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ba’zi mamlakatlarda bir necha til davlat tili sifatida belgilanishi mumkin.

**DAVLATNING BOSHQARUV SHAKLI** – hokimiyatni tashkil qilish oliv organlarning vakolatlari, ular o‘rtasidagi munosabatlarga bog’liq bo‘ladi. Davlatning boshqaruv shaklini aniqlashda eng muhim belgi – davlat boshlig’ining huquqiy maqomi qandayligi, u davlat boshiga qanday yo‘l bilan kelishi hisoblanadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar boshqaruv shakliga qarab ikkiga: respublika va monarxiyaga bo‘linadi. Respublika shaklidagi davlatlarda davlat boshlig’i saylanish yo‘li bilan hokimiyat tepasiga keladi. Ular ma’lum muddatga saylanadi, ya’ni o‘zgarib turadi va ko‘p mamlakatlarda – Prezident deb nomlanadi. Davlatning monarxiya shaklida esa davlat boshlig’i nasldan–naslga o‘tadi, ya’ni davlat boshlig’i – monarx hisoblanadi. Ular turli nomlar bilan ataladi, masalan Saudiya Arabistonida – podshoh, Yaponiyada – imperator, Angliyada – qiro.

o‘zbekistan Respublikasida davlatning boshqaruv shakli – respublika hisoblanadi va davlat boshlig‘i Prezidentdir.

**DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK** – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mamlakatni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ–huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

**DEMOKRATIK INSTITUTLAR** – davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. Demokratik institutlar – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Demokratik kuchlar bloki–parlamentdagi ko‘pchilikni tashkil etish maqsadida o‘z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda bir nechta siyosiy partiylar fraksiyalari va o‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o‘z sa’y–harakatlarini birlashtirishi.

**DEMOKRATIYA** – (yun. demos – xalq, kratos – hokimiya) – “xalq hokimiya” ma’nosini anglatadi. Jamiyat taraqqiyotida davlatchilikning turli shakllari, binobarin, demokratiyaning ham turli tiplari yaratilgan. Demokratiya halqning davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtiroy etishi, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta’minalash orqali namoyon bo‘ladi. U davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiya bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi shaklida bo‘ladi. Demokratiya hamma narsada hohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq–huquqini himoya qilishdir.

**DEPUTAT** (lotincha deputatus – “vakil”) – qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga saylangan shaxs, aholining ma’lum qismi – o‘z saylov organi saylovchilarning yoki butun millatning vakili.

**DEPUTAT (parlament) ETIKASI** (gr. Ethika, ethoc – odat, xulq) — deputatlar ichki parlament muloqoti axloqiy va ma’naviy normalari yig’indisi. Deputat etikasiga rioya qilish majburiyati har bir deputatning faqat ahloqiy emas, balki yuridik majburiyati ham bo‘lib, ham ijtimoiy, ham ijtimoiy ta’sir vositalari bilan ta’milanadi.

**DEPUTAT MAQOMI** – vakillik davlat hokimiya organlari deputatlarining huquqiy holati bo‘lib, u deputatlik mandatining siyosiy–huquqiy tabiat, uning yuzaga kelishi, to‘xtatilishi, amalda bo‘lish muddati, deputatlar vakolati, ular faoliyatining kafolatlanganligi, shuningdek, deputatlarning hisobdorligi, nazorat qilinishi va javobgarligi bilan bog’langan ijtimoiy munosabatlarni boshqaradigan huquqiy normalar majmui bilan aniqlanadi. Deputat maqomini mustahkamlovchi huquqiy normalar konstitutsiyalarda, maxsus qonunlar, palatalar reglamentlarida beriladi.

**DEPUTATLIKKA NOMZOD** – qonunda belgilangan tartibda davlat hokimiya vakillik organlari deputatligiga nomzod sifatida tegishli saylov komissiyalari tomonidan ro‘yxatga olingan, passiv saylov huquqiga ega bo‘lgan

fuqaro. Davlat hokimiyati vakillik organlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalar tomonidan, qolaversa, xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga esa siyosiy partiyalar bilan bir qatorda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**DEPUTATNING RASMIY (So'ROVI) TALABI** — vakillik muassasasi deputatining davlat boshqaruv organiga yoki mansabdar shaxsga mazkur vakillik muassasasi vakolatiga kiradigan masala bo'yicha axborot va tushuntirishlar berish talabi bilan murojaati.

**DINIY MAROSIMLAR** — fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va hatti — harakatlari.

**DUNYOVIV DAVLAT** — dunyoviy davlatda diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'ladi. Davlat diniy tashkilotlarning ishiga aralashmaydi.

**E'TIQOD** — (ishonch, iymon) — muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda e'tiqod tushunchasi turlicha izohlanmoqda. Bilim e'tiqodni vujudga kelishi uchun eng muhim asos vazifasini bajaradi. Lekin e'tiqod va bilim biri ikkinchisiga uyqash tushunchalar emas. Turgan gapki, bilimlarning chinligi e'tiqodni mustahkam bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo e'tiqodni mustahkam bo'lishida bilim yagona asos deb bo'lmaydi. Inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya'ni tajriba chig'irig'idan o'tgan, ikkinchi marta qayta hosil bo'lgan bilimlargina (g'oyalar, nazariyalar) e'tiqodni mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

**EKSPORT** — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

**ELEKTRON HUKUMAT** – (angl. e-Government) – 1) fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo'lgan davlat xizmatlarining to'plamini ko'rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o'rtasidagi o'zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi. 2) elektron hukumat – davlat miqyosida idoralararo va boshqaruv jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar o'rtasida elektron hujjat aylanishi, avtomatashtirilgan axborot-ma'lumot tizimi, interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish servisi hamda axborot resurs bazalaridan samarali foydalanish amalga oshiriladi. Natijada davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy tartib-tamoyillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish elektron shaklda amalga oshirilishi yo'lga qo'yilishiga erishiladi. 3) elektron hukumat – ham „ichki“, ham „tashqi“ aloqalar va jarayonlar majmuasi bo'lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta'minlanib turadigan hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan internet) orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo'g'lnlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron vositalar bilan xizmatlar ko'rsatish, o'sha vositalar yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati

haqida axborot berish. „Elektron hukumat“ tushunchasi 1990–yillarning boshida paydo bo‘lgan, lekin amaliyatga so‘nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi.

4) elektron hukumat – mamlakat miqyosida boshqaruv jarayonlarning butun majmuasini avtomatlashtirishga asoslangan hamda davlat boshqaruvinining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a’zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiyalar harajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinuvi tizimi. Elektron hukumatni yaratish hujjatlarni va ularni ishslash jarayonlarini boshqarish bilan bog’liq vazifalarning to‘liq ko‘lamini hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruvinining umumdavlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi.

**ETNOGRAFIYA** – xadqlar maishiy turmush tarzi, urf–odat va an’analarini o‘rganuvchi fan.

**FERMER Xo‘JALIGI** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug’ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

**FUQAROLIK JAMIYATI** – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma’naviy–madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin, demokratik huquqiy jamiyat.

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI** – fuqarolik jamiyatini shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, bu bevosita jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining nechog’lik rivojlanganiga bog’liq bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati institutlari orqali fuqarolar davlat va jamiyat siyosiy hayotida bevosita ishtirok etadi. Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlari sirasiga nodavlat–notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, OAVlari, mahalla, oila kabilalar kiradi.

**G’ARB DEMOKRATIYASI** – G’arb demokratiyasida individualizm ustun qoyiladi.

**G’OZIY** – Islom dini uchun g’ayridinlarga qarshi muqaddas urush – g’azavot ishtirokchisi. Shariatga ko‘ra, bunday urushda oti va qurol–yarog’i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo‘lgan. Kambag’allar, qullar, nogironlar va keksa kishilar bundan ozod etilgan.

**GREKO** – Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi xalqaro tashkiloti

**HADIS** – Islom dini ta’limoti bo‘yicha Qur’ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, Muhammad Payg’ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va ahloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi.

**HADISI SAHIX** – to‘g’ri hadis

**HAMKORLIK SIYOSATI** – xalqaro siyosat sub’ektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko‘ra tomonlar o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko‘rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

**HANAFIYA** – so‘fiylikdagi diniy huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa an-No‘mon asos solgan. Iroqda vujudga kelib, islam dini tarqalgan barcha mamlakatlarda, shu jumladan, Xuroson va Movarounnahrda ham keng tarqalgan.

**HARAKATLAR STRATEGIYASI** – davlatning ma’lum muddatga yoki uzoq yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturi.

**HISOB PALATASI** – davlatdagi oliy moliyaviy (molivayi–iqtisodiy) nazorat organining dunyoda eng keng tarqalgan nomi. Xuddi shu nomda Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, GFR, RF va qator boshqa mamlakatlarda ishlataladi. AQShda bosh hisobot boshqarmasi, Braziliya, Jazoir, Fransiya, Ruminiyada – hisob sudi deb ataladi. o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 27 iyunda “Hisob palatasini tashkil etish to‘g’risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga ko‘ra, Hisob palatasi o‘zining faoliyati to‘g’risida o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobot beradi. Hisob palatasining asosiy vazifasi davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, davlat aktiv va passivlari holati va harakatini nazorat qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi

**HOKIMIYATLAR Bo‘LINISHI** – davlat nazariyasining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra yagona davlat hokimiyati mustaqil va bir–biriga bo‘ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linadi (ular bilan bir qatorda ba’zan ta’sis etuvchi, saylovchi va nazorat hokimiyati ham ajratiladi).

**HUKUMAT** – davlatning oliy kollegial ijro etuvchi organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nomlanishi mumkin: Vazirlar kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, o‘zbekiston), Davlat kengashi (XXR) va boshqalar. Hukumat partiyasiz, bir partiyali va koalitsion bo‘lishi mumkin. Prezidentlik respublikalarida (shunday organ konstitutsiyada nazarda tutilganlarida) Hukumatni prezident tuzadi, bunda u tayinlagan Hukumat a’zolaridan har biri qator mamlakatlarda (Belarus, Qozog’iston, o‘zbekiston, Qirg’izistonda) parlament tomonidan tasdiqlanishi kerak.

**HUQUQ** – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta’minlashga imkoniyat berish maqsadida davlat tomonidan o‘rnatilgan va himoya qilinadigan umummajburiy ijtimoiy me’yorlar va qoidalar.

**HUQUQIY DAVLAT** – huquq, Konstitutsiya va qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o‘z ma’suliyatlarini his qilishlari, o‘z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma’suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma’suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi. Huquqiy davlat–davlat konstitutsiyaviy–huquqiy maqomining tavsifi sifatida amal qiladi va davlatning quyidagi tamoyillarga so‘zsiz bo‘ysunishini nazarda tutadi: xalq suvereniteti, inson huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan buzilmasligi, davlatning konstitutsiyaviy tuzum bilan bog’liqligi, konstitutsiyaning boshqa barcha qonunlar va qonunosti hujjatlaridan ustunligi, hokimiyatlarning bo‘linishi,

huquqiy davlatning tashkiliy negizi bo‘lgan hokimiyatning organlari va davlat xizmatchilarining javobgarligi instituti, milliy huquq normalaridan xalqaro huquq normalarining ustunligi.

**ICHKI AUDIT XIZMATI** – aktivlarining balans qiymati bir milliard so‘mdan ko‘p bo‘lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalarini va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, tasis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda malumotlarning to‘liq hamda to‘g’ri aks ettirilishi ta’milanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib–tamoyillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek, jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalarini va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

**IJTIMOY SOHA OB’YEKTLARI** – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy–joy fondlari, sog’liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalarini va boshqalarni kiritish mumkin.

**IMPERIYA** – mustamlaka va qaram mamlakatlar xalqlari ustidan o‘z hukmronligini kuch bilan o‘rnatgan va bu hukmronlikni qattiq zulm va ekspluatatsiya tizimi yordamida ushlab turgan mustamlakachi davlat. Imperiya monarxiyaga asoslangan davlat bo‘lib, uning tepasida imperator turadi.

**IMPLEMENTATSIYA** – xalqaro huquq normalarini ularni keyinchalik haqiqatda amalga oshirgan holda milliy qonunchilikka kiritish.

**INDEKS** – (Lotincha: index — ko‘rsatkich, ro‘yxat) — nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar ko‘rsatkichi va ro‘yxati hisoblanadi. Shuningdek, indeks, shartli ifodalar (harfli, raqamlı) tizimi, bibliografik, nashriyot, kitob savdosi, pochta, oziq–ovqat mollari, dorilarning chiqarilgan vaqtini va saqlash muddatini ifodalashi ham mumkin. Indeks matematikada ifodalarni bir–biridan farq qilishi uchun ularning yoniga yoziladigan belgilar — son yoki harflardir:

**INSON HUQUQLARI** – insonning davlatga munosabati bo‘yicha huquqiy maqomini, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyat va da’volarini ifodalovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali amalga oshirilishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

**INSON HUQUQLARI Bo‘YICHA MILLIY MARKAZ** – inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yanada kengaytirish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalarini xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida tashkil etilgan markaz.

**INSTITUT** – (lot. institut — tartibot, muassasa) — 1) turli ixtisoslashgan o‘quv yurtlari (o‘rta, oliy, malaka oshirish tizimi), i.t., loyihalash va b. muassasalarning nomi; 2) jamiyatdagи ijtimoiy tartibotlarning muayyan doirasini o‘z ichiga olgan huquqiy me’yorlar majmui. Keng ma’noda — ijtimoiy turmushni tashkil etuvchi va tartibga solib turuvchi ijtimoiy tuzilmaning bir unsuri — muassasalar, me’yorlar, qadriyatlar, madaniyat namunalarini qaror topgan fe’l–atvor

shakllari majmui: iqtisodiy I. (mas, mulkchilik, ish haqi), siyosiy I. (mas, davlat, armiya, partiya), moliyaviy I.lar (moliya va bank muassasalari) va sh.k

**INTER FAOL DAVLAT XIZMATLARI** – aholiga yagona interfaol davlat xizmatlari portali orqali xizmat ko‘rsatish.

**INVESTITSIYA** – (nemischa „Investition“, lotincha „Investio“) so‘zidan olingen bo‘lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo‘yilmalar sarfi, ya’ni xarajatlar yig‘indisi deb talqin etilgan. Investitsiya — foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma’lum muddatga sarflangan barcha turdag'i boyliklardir.

**ISESCO** – Islom Konferensiyasi tashkilotining tca’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi.

**ISHLAB CHIQARISHNI MODERNIZATSIYALASH** – ishlab chiqarishni zamонавиу texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora–tadbirlani o‘z ichiga oluvchi jarayon.

**ISHSIZLIK** – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o‘z kuchini qo‘llay olmay «ortiqcha» bo‘lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo‘lib qolish hodisasi.

**ISLOHOT** – kuchli ravishda o‘tkazilgan o‘zgartirish, isloh.

**ISTIQLOL** – xar bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoi. “Istiqlol” so‘zi boshqalarga tobe’ bo‘lmay o‘z erki bilan yashash, o‘zini–o‘zi idora qilish, erkinlik ma’nosini bildiradi.

**JAHON HAMJAMIYATI** – Dunyo davlatlari uyushmasi – Birlashgan Millatlar Tashkiloti

**JAMIYATNING IJROIYA ORGANI** – jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladigan organ bo‘lib, u yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) yoki kollegial ijroiya organ (boshqaruv, direksiya) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

**JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI** – jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladigan organ.

**“JAMOATCHILIK NAZORATI To‘G’RISIDA”GI QONUN** – 2018–yil 12–aprelda qabul qilingan o‘zbeksiton Respublikasining qonuni 21–moddadan iborat bo‘lib, unda jamoatchilik nazoratining sub’ektlari, ob’ektlari belgilangan va jamoatchilik nazorati davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlari; davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshitivi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; jamoatchilik fikrini o‘rganish; fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish kabi shakllarda o‘tkazilishi belgilangan.

**JAMOAT NAZORATI** – a) qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi; b) hokimiyat qarorlari qabul qilinishi va ijro etilishi; v) qonun va boshqa hujjatlarning tayyorlanish jarayoni; g) davlat organlari hamda mansabdor shaxslarining faoliyati; d) davlatning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik vakillari va jamoat tashkilotlarining nazorati.

**JAMOAT TASHKILOTI** – fuqarolik jamiyatni institutlarining muhim shakllaridan biri bo‘lib, o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish–irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat tashkiloti sifatida e’tirof etiladi.

**JAMOATCHILIK NAZORATI** – fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bo‘lib, u fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida davlatning iqtisodiy sohaga, xo‘jalik yurituvchi tuzilmalar, ayniqsa, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash hamda qonunlar ijrosi bo‘yicha davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan olib boriladigan ijtimoiy nazorat shakllaridan biridir. Jamoatchilik nazorati – davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta’minlash va ularning mansabdor shaxslari tomonidan o‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlovchi qonun hujjatlariga rioya etmaslik holatlarini aniqlashga qaratilgan faoliyat

**JAMOATCHILIK NAZORATINING MAQSADI** – fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilish.

**JAMOATCHILIK NAZORATINING OB’EKTI** – davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining o‘zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog’liq faoliyati. Davlat organi mansabdor shaxsining shaxsiy hayoti, ichki yozuvlari, shuningdek davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirdan iborat axborot, shuningdek, surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sud ish yurituvdagisi muayyan ishlar va materiallar jamoatchilik nazoratining ob’ekti hisoblanmaydi.

**JAMOATCHILIK NAZORATINING SUB’EKLARI** – o‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat–notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub’ektlaridir. Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

**KASABA UYUSHMALARI** – kasaba uyushmasi ko‘ngilli jamoat tashkiloti bo‘lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o‘z a’zolarining mehnat va ijtimoiy–iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog’langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

**KATTA XORAZM DAVLATI** – mamlakatimiz hududida miloddan avvalgi VII asrning oxiri VI asrlarda Amudaryoning quyi oqimida tashkil topgan dastlabki davlat.

**KO‘PPARTIYAVIYLIK** – hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni ancha umumiyroq bo‘lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. K. P.

prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o‘z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyatni erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi.

**KOLLEJ** – (ing. college) — 1) Buyuk Britaniya, AQSH va ayrim boshqa mamlakatlarda oliv, o‘rtal, yuqori o‘rtal o‘quv yurti (ayrim hollarda universitet tarkibida). Dastlab 13-asr boshlarida Buyuk Britaniyada vujudga kelgan; 2) Fransiya, Shveytsariya, Belgiya, shuningdek, Afrika va Osiyonning ilgari fransuz mustamlaka imperiyasi tarkibiga kirgan bir qancha mamlakatlaridagi o‘rtal va to‘liqsiz o‘rtal o‘quv yurti. Fransiyada dastlabki kollej o‘rtal asrda universitetlarda paydo bo‘ldi; 3) O‘zbekistonda o‘rtal maxsus, kasb–hunar o‘quv yurti. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil fevral dagi qaroriga muvofiq, kasb–hunar kolleji sifatida tashkil etilgan

**KORRUPSIYA** – «Korrupsiya» so‘zi lotincha «corruptio» so‘zidan olingan bo‘lib, ma’nosi «buzish, sotib olish» degan ma’noni bildiradi. Yuridik ensiklopediyada «Korrupsiya» so‘zi amaldor shaxslar o‘zlariga berilgan lavozimlardan foydalanib, o‘zining shaxsiy manfaatini o‘ylab boylik orttirish maqsadida mamlakat qonunlariga qarshi keladigan har xil pora olish, pora berish jinoyatlari bilan shug’ullanish deb ta’riflangan.

**KREDIT UYUSHMALARI** – kreditlar berish hamda boshqa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy teng huquqli a‘zolik asosida tuziladigan kredit tashkilotidir.

**KREDIT UYUSHMALARI** – kreditlar berish hamda boshqa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy teng huquqli a‘zolik asosida tuziladigan kredit tashkilotidir.

**KUBRAVIYLIK** – o‘rtal asrlardagi so‘fizm oqimlaridan biri. Najmiddin Kubro so‘fiylikdagi Kubroviya oqimining asoschisidir. Kubroviya tariqati Yassaviya tariqatidan farq qilib, tarki dunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo‘lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo nozne’matlarimdan bahramand bo‘lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta’limotda Vatanga, xalqqa bo‘lgan muhabbat g‘oyasi nihoyatda kuchli bo‘lib, har qanday og’ir sharoitda ham xalq bilan birga bo‘lish, Vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligi da’vat qilinadi.

**KUZATUVCHI** – o‘zbekiston Respublikasida saylov jarayonida deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalar va fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlar tomonidan tayinlanadigan hamda qonunda belgilangan tartibda kuzatuvchi sifatida ro‘yxatga olinadigan shaxs. Kuzatuvchilar mahalliy va xalqaro kuzatuvchilarga bo‘linadi. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

**LIBERALLASHTIRISH** – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyutsion rivojlanish yo‘lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

**LIZING** – moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig’iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol–mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

**MA’NAVIY BARKAMOL INSON** – komil inson tushinchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtida ma’naviy barkamol inson tushunchasi sog’lom avlod tushunchasi bilan ham bog’lanib ketadi.

**MA’NAVIY JASORAT** – yer yuzida barcha o‘lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug’ kashfiyat va ixtirolarni, mumtoz san’at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan insonlarning mislsiz aql–zakovati va yuksak ma’naviy salohiyatini ifodalaydi.

**MA’NAVIY MADANIYAT** – ijtimoiy, tarixiy tajriba, ehtiyoj asosida vujudga kelgan bilim, malaka, e’tiqod, axloq, sa’nat, din, falsafa, badiiy, siyosiy – huquqiy normalar, nazariyalarda (qadim mifologiyadan bugungi kontseptual xulosalargacha) ifodalanadi.

**MA’NAVIY MEROS** – qadim zamonalardan beri ajdodlarimiz, ota–bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniy–ma’naviy boyliklar – siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq–odob me’yorlari, ilm–fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari va boshqa milliy qadriyatlar majmuyidir.

**MA’RIFAT** – bilish, tanish, ya’ni bilim demakdir.

**MADANIY MEROS** – bu o‘tmishdan qolgan qadriyatlar, g’oyalar, tajriba, bilimlar, ularni o‘zlashtirish yo‘llari, ya’ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir.

**MADANIYAT** – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar, osori–atiqalar yig’indisi, u yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, maorif, san’at, axloq, din, huquq, siyosat, maishiy xizmat ko‘rsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darjasи. U ijtimoiy hodisa sifatida har bir jamiyatda o‘ziga xos bo‘ladi. Uning rivojlanishi avlodlarni bir – biri bilan bog’laydi, taraqqiyotni vorisligi, uzluksizligini ta’minlaydi.

**MADRASA** – islom diniy oliy o‘quv yurti.

**MAFKURA** – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istik va maqsad muddaolari ifodalangan g’oyaviy–nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi.

**MAHALLIY o‘ZINI–o‘ZI BOSHQARISH** – mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni aholining manfaatlari, uning tarixiy, ijtimoiy–etnik va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, shu davlat konstitutsiyasi va qonunlari asosida mustaqil (mas’uliyatni zimmasiga olib) hal qilish uchun fuqarolar faoliyatini tashkil etish tizimi. Mahalliy o‘zini–o‘zi boshqarishni aholi hokimiyat vakillik organlari (munisipal majlis, kengashlar, qo‘mitalar va boshqalar), muvofiq keluvchi boshqaruв organlari, mahalliy referendumlar, fuqarolar kengashlari,

bevosita demokratiyaning boshqa hududiy shakllari, shuningdek, aholining hududiy ijtimoiy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari orqali amalga oshiradi.

**MAKTAB** – o‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma’lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o‘quv tarbiya muassasasi. O‘zbekistonda maktab, asosan, davlat mulki bo‘lib, unda o‘qish bepuldir. Shu bilan birga oliy o‘quv yurtlarida o‘qish qisman shartnoma asosida ota-onalar mablag’lari hisobiga amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining 1997–yilda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g’risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da belgilab berilganidek, O‘zbekiston maktablarida ta‘lim o‘quvchilarning ona tilida olib boriladi. Barcha maktablarda o‘quvchi va talabalar uchun uziksiz tarzda ta‘limning quyi bosqichidan yuqori bosqichiga o‘tish ta‘minlangan.

**MAMURIY ISLOHOTLAR** – davlat boshqaruvini optimallashtirish, davlat apparatini ixcham va kam xarajat qilish, davlat xizmati, ma’muriy sudlov va ma’muriy–protsessual qonunchilikni takomillashtirish. Davlat boshqaruvi organlarining faoliyati samaradorligini oshirish va tuzilmasini takomillashtirish, davlat boshqaruvini markazlashtiruvdan xoli qilish, takrorlanuvchi funksiyalarni bajaradigan davlat organlarining turli komissiyalarini bekor qilish yoki bir–biriga qo‘sish orqali davlat boshqaruvi va xizmatini tubdan isloh qilish nazarda tutiladi.

**MANFAAT** – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatinting asosiy sababi. Manfaatlar – lot. interest ahamiyat kasb etish; ob’ektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo‘lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag’ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar. Manfaatlar guruhlari – unga a’zo bo‘lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institatlarning o‘zaro munosabatlarida, shuningdek, o‘z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

**MILLAT** — til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni angash ruhiyati, urf–odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog’langan mustaqil sub’ekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir. Millatlararo munosabatlar — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o‘rtasida amalga oshadigan turli–tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir. Millatlararo totuvlik g’oyasi – milliy istiqlol mafkurasingning asosiy g’oyalardan biri bo‘lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o‘zbek millati va shu bilan birga o‘zlarining o‘rtasida ko‘p yillarga mo‘ljallangan ezgulik, ishonchlik, do’stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma’naviy–axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosalilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi. Millatchilik bu – millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug’lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar–pisand qilmaslik, ularni yerga urishdan iborat bo‘lgan nodemokratik mafkura.

**MILLIY DAVLATCHILIK VA DEMOKRATIK DAVLAT** – demokratiyaga zid bo‘lmagan holda tarixiy an’analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy xususiyatlarning saqlanishi.

**MILLIY– MA’NAVIY MEROS** – Xalqning ajdodlari tomonidan yaratilgan ma’naviy merosi

**MUFTIY** – fatvo beruvchi, qaror chiqaruvchi, sud ishlarini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs.

**MUHADDIS** – islom dunyosida hadis ilmi bilan shug’ullanadigan olim.

**MUSTABID** – istibdod qaramlik

**MUSTAMLAKA** – imperialistik davlat tomonidan bosib olingan davlat.

**MUTAFAKKIR** – chuqur falsafiy fikrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi.

**MUXTOR RESPUBLIKA** – o‘ziga mustaqil, avtonom

**NAQSHBANDIYLIK** – islomdagi so‘fiylik tariqatlaridan biri bo‘lib, Bahovuddin Naqshbandiy asos solgan.

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI** – nodavlat notijorat tashkiloti

– jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, hayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

**NODAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARI** – davlatga qarashli bo‘lmagan, ammo ma’lum qonunlar yoki me’yoriy hujjatlarga bo‘ysungan holda faoliyat ko‘rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

**OCHIQ AKTSIYADORLIK JAMIYATI** – qatnashchilari o‘zlariga tegishli aktsiyalarini o‘zga aktsiyadorlarning roziligidan boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aktsiyadorlik jamiyati.

**OLIY KENGASH** – o‘zbekistonda 1990–1994 yillar mobaynida qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirgan oliy vakillik organi. Bu organ 1925–1989 yillar mobaynida “Oliy Sovet” deb yuritilgan. 1989 yil 21 oktabrda o‘zbek tiligi davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan uning nomi “Oliy Kengash”ga o‘zgartiriladi. o‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1990–1994 yillardagi besh yillik faoliyati davomida jami 16 ta sessiya o‘tkazdi va unda o‘zbekistonning chin ma’nodagi mustaqilligiga asos bo‘lgan qator qonunlar, kodekslar va oliy qonunimiz bo‘lmish Konstitusiyamizni qabul qildi.

**OLIY MAJLIS** – o‘zbekiston Respublikasining Oliy Qonun chiqaruvchi organi. Oliy Majlis 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan o‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi asosida joriy etilgan bo‘lib, unga birinchi saylovlar 1994 yil 25 dekabrda o‘tkazilgan edi. o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata – Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ularning vakolat muddati 5 yil. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan 135 deputat va o‘zbekiston Ekologik harakati tomonidan saylanadigan 15 nafar vakildan iborat. Oliy Majlis Senati a’zolari 100 nafar bo‘lib, ular Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo‘qorg’i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlisida deputatlar orasida o‘oroqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan

saylanadi. Senatning qolgan 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasida o'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rsatiladi. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining mutlaq vakolatlari o'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XVIII– bob, 76–88– moddalarida belgilab berilgan.

**OLIY TA'LIM** — turli oliy maktablarda yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash. Oliy ta'lif oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo'yicha oliy malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasb–hunar ta'lifini olgan kishilarga ilmiy–nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalar shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Oliy ta'lif jarayonida talabaga oliy ma'lumot beriladi. Oliy ma'lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi.

**OMBUDSMAN** – (shved. – kimningdir manfaatini ifodalovchi) – inson huquqlarining amal qilishini nazorat qiluvchi muassasalarining xalqaro yuridik atamashunoslikdagi nomi. Ombudsman ayrim mamlakatlarda saylanadigan, ayrim mamlakatlarda tayinlanadigan shaxs bo'lib, u inson huquqlariga amal qilishini nazorat qiladi. Agar prokuratura organlari inson huquqlariga amal qilishni faqat qonun asosida nazorat qilsa, Ombudsmanlar bu masalani maqsadga muvofiqlik, vijdonlilik,adolat nuqtai nazaridan nazorat qiladi. Aksariyat mamlakatlarda Ombudsmanlarga har qanday fuqarolar bevosita murojaat qilishlari mumkin. Ular huquq va erkinliklar buzilishini aniqlasa, tegishli idoralarga huquq va erkinliklarni tiklash haqida taklif kiritadi. Ombudsmanlarning taklif va tavsiyalari tegishli organlar tomonidan bajarilmasa, rad etilsa, ular sud organlariga yoki palamentga murojaat qilishlari mumkin. Ombudsman instituti ilk bor 1809 yilda Shvetsiyada joriy qilingan bo'lib, o'zbekistonda Ombudsman (Oliy Majlis huzuridagi inson huquqlari bo'yicha Vakil Instituti deb yuritiladi) 1995 yil 24 fevralda tashkil etildi. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili – Ombudsman to'g'risida"gi qonun esa 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan.

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI** – keng ko'lamda axborotni yig'ish, ishslash va tarqatishni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televideeniye va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi o'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. (o'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 3–son, 20–modda)

**PARLAMENT** – bu so‘zning asl ma’nosи «munozara joyi», fransuzcha «parla» – gap-so‘z bahs, «ment» – joy, o‘rin demakdir. Demokratik davlatlarda oliv vakillik va qonunchilik organining nomidir. Parlament birinchi marta XIII asrda Angliyada tashkil qilingan. Oliy vakillik organlari bir necha mamlakatlarda jumladan, Angliya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiyada to‘g’ridan-to‘g’ri parlament deb ataladi. AQSh va ba’zi Lotin Amerikasi mamlakatlarida Kongress, Rossiyada Federal Majlis, Litva, Latviya, Polshada Seym deb ataladi. o‘zbekistonda esa u Oliy Majlisdir. Parlamentni tashkil qilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, ular Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilab qo‘yiladi.

**PARLAMENT (deputatlar) FRAKSIYASI** – parlament yoki uning palatasida bir partiyaga mansub deputatlar birlashmasi. Odadta Parlament fraksiyasi tarkibiga partiyaning yetakchilari va ko‘zga ko‘ringan arboblari kiradi.

**PARLAMENT NAZORATI** – davlat nazorati shakllaridan biri. Asosan siyosiy, ba’zi holda ma’muriy tusda bo‘ladi. Parlamentar davlatlarda va prezidentlik respublikalarida hukumat faoliyati ustidan Parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday nazoratning asosiy metod va shakli ishonch to‘g’risidagi masala, tanbeh rezolyutsiyasi, internellyatsiya, hukumatga og’zaki va yozma savollar (parlament savollar) parlament tekshirishidir. Parlament nazoratining ta’sir kuchi Prezidentlik va parlamentar respublikalarda har xil bo‘ladi. Parlament nazorati hukumat va boshqa organlarning hisobotlari, axborotlarini eshitish, ma’lum masalani o‘rganish yuzasidan maxsus komissiyalar tuzish hamda o‘zining organlari, deputatlari, qo‘mita va komissiyalari faoliyati orqali tashkil qilinadi. Parlament nazoratida ombudsman institut alohida rol o‘ynab, u fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qiladi. Bunday tuzilma o‘zbekistonda Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakilidir. (qarang Ombudsman).

**PARLAMENTARIZM** – boshqaruvinning alohida tizimdagи shakli. Bunda qonunchilik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari aniqroq chegaralanadi va rasmiy jihatdan Parlamentning boshqa organlarga ta’siri ustuvor darajada bo‘ladi. Hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida javobgardir.

**PREZIDENT** – respublika boshqaruvidagi mamlakatlarda davlat boshlig’i. Prezident birinchi marta davlat boshlig’i sifatida 1787 yilda AQShda joriy qilingan. Ayrim mamlakatlarda u faqat davlat boshlig’i (Germaniyada), ayrim mamlakatlarda ham davlat boshlig’i, ham ijro etuvchi hokimiyat boshlig’idir (Rossiyada, o‘zbekistonda). Ayrim mamlakatlarda bevosita xalq tomonidan, to‘g’ridan-to‘g’ri saylanadi (Fransiyada), ayrim mamlakatlarda saylovchilar vakillari tomonidan saylanadi (AQShda), ayrim mamlakatlarda esa parlament tomonidan saylanadi (Chexiyada), ayrim mamlakatlarda maxsus kengash tomonidan saylanadi (Germaniyada). Vakolat muddati har xil – 4 yildan 7 yilgacha. o‘zbekistan Respublikasi Prezidenti ham davlat boshlig’i, ham hukumat boshlig’i hisoblanadi. U Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. o‘zbekiston Prezidenti 35 yoshga to‘lgan, o‘zbekistonda oxirgi 10 yil davomida doimiy yashagan, davlat tilini yaxshi biladigan o‘zbekiston fuqarolari orasidan,

umumiyligi teng, to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan besh yid muddatga saylanadi. Bir shaxs ketma–ket ikki muddatdan ortiq Prezident bo‘lib saylanishi mumkin emas. Prezident saylash tartibi, vakolatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yiladi.

**PREZIDENTLIK BOSHQARUVI** – favqulodda holatlar joriy etilganda davlat boshqaruvida qo‘llaniladigan vaqtinchalik boshqaruv shakli bo‘lib, u asosan, federativ tuzilishdagi davlat boshqaruvida qo‘llaniladi. U sub’ektlar Konstitutsiya yoki qonunlarni, hukumatning qonuniy talablarini buzganda, inson huquqlari poymol etilganda, jiddiy tartibsizliklar ro‘y berganda yoki federativ davlatning yagonaligiga xavf solinganda amalga oshiriladi. Prezidentlik boshqaruvi davlat boshlig‘ining maxsus farmoni (dekreti) bilan e’lon qilinadi. Unda konstitutsiya va qonunlarni buzuvchilar aybdor sifatida javobgarlikka tortiladi, noqonuniy harakat qilgan davlat organlari rahbarlari lavozimidan olinib, o‘rniga markaziy davlat apparatidan vakillar tayinlanadi, parlament vakillik organi vaqtinchalik tarqatib yuboriladi.

**PREZIDENTLIK RESPUBLIKASI** – davlat boshqaruvi respublika shaklining turlaridan biri bo‘lib, qoida bo‘yicha Prezident xalq tomonidan saylanadi. Unda Prezident yuridik va rasman davlat hamda ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi. Hozirgi jahon tajribasida Prezidentlik respublikasining bir qancha ko‘rinishlari mavjud. Prezidentlik respublikasining klassik modeliga ko‘ra (AQShda) prezident o‘z ma’muriyatini parlamentning yuqori (senat) palatasi roziligi bilan tashkil etadi. Uning a’zolari faqat prezident oldida siyosiy javobgar hisoblanadilar. Bunda prezident parlamentni tarqatib yubora olmaydi. Lekin parlament prezidentga impichment berishi mumkin. BMTga a’zo davlatlarning 140 tasida prezidentlik lavozimi mavjud bo‘lib, ularning ko‘philigi Prezidentlik respublikasidir.

**QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYAT** – bu Konstitutsiyada mustahkamlangan oliy davlat vakillik idorasining qonunlar qabul qilish, ularni o‘zgartirish va bekor qilish bo‘yicha alohida vakolatlari hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir.

**QONUNCHILIK TASHABBUSI** – belgilangan tartibga muvofiq, (vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan) qonunchilik muassasasiga qonun loyihasini rasmiy kiritish. Q.t.– qonunchilik jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. Q.t.shunday bir harakatlar yig‘indisidirki, buning natijasida qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi yoki qonunchilik taklifi kiritiladi va parlament yangi qonun chiqarish, amaldagisini o‘zgartirish yoki bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi.

**QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISH** – normativ–huquqiy aktlarni tartibga solish va takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, ularni belgilangan va o‘zaro ichki bog‘langan tizim holiga keltirishni anglatadi. Q.t. qonuniy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikni eskirgan aktlar va o‘zaro qarama–qarshi normalardan xalos qilish, normativ hujjatlardan foydalanishni yengillashtirish va soddalashtirish, jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy tarbiyasi darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega.

**QOZI** – sud ishlarini amalga oshiruvchi, sharhlovchi shaxs

**RAQOBAT** – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

**RASADXONA** – osmon jismlarining holati va harakatini kuzatadigan maxsus joy.

**RENESSANS** – so‘zi fransuzchada «qayta tug’ilish, yangi ruhda o‘sish» ma’nolarini bildiradi va o‘zbekchada ba’zan, «uyg’onish» deb ham yuritiladi.

**RIYOZIYOT** – matematika

**SAYLOV** – demokratiyaning asosiy belgisi bo‘lib, ovoz berish yordamida davlat hokimiyatining vakillik organlarini yoki mansabdor shaxsni, fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlarini, jamoat birlashmalarini va boshqalarni bevosita xalqning xohish–irodasiga asoslangan holda, ular tomonidan yoki boshqa organ tomonidan shakllantirish bilan bog’liq jarayondir. Saylov tushunchasi ko‘proq davlat hokimiyatining vakillik organlari va fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlarini saylashga nisbatan qo‘llaniladi.

**SAYLOV TIZIMI** – demokratik jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi bo‘lib, fuqarolarning saylash va saylanishdan iborat huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar yig’indisini anglatadi. Ushbu tushuncha davlatning saylab qo‘yiladigan organlarini shakllantirish tartib–tamoyillarini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

**SHARQ DEMOKRATIYASI** – Sharqda demokratiya uzviy ravishda, asta– sekin rivojlanadi, bunda jamoatchilikning fikri ustuvor hisoblanadi, inqilobiy o‘zgarishlarni rab etadi.

**SHAXSIY DAROMAD** – jismoniy shaxslarning soliq to‘lagunga qadar daromadi.

**SHAYX UL-ISLOM** – eng yuqori pog’onada turuvchi huquqshunos shaxs

**SIYOSIY JARAYONLAR** – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo‘ladi.

**SIYOSIY ONG** – turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

**SIYOSIY PARTIYA** – o‘z a’zolari va tarafdarlarining siyosiy irodasini ifoda etadigan, shu davlat siyosiy yo‘nalishini belgilashda, davlat hokimiyat organlarini shakllantirishda, shuningdek, hokimiyatni o‘zining vakillik hokimiyat organlariga saylangan vakillari orqali amalga oshirishda ishtirok etishni o‘ziga vazifa qilib olgan barqaror tuzilmaga va doimiy faoliyat xarakteriga ega bo‘lgan mustaqil ijtimoiy birlashma. Partiyaning aniq yuridik ta’rifi muayyan davlatlar qonunchiligida beriladi va ular mahalliy, siyosiy va huquqiy an’analarga ko‘ra jiddiy farqlanishi mumkin.

**SIYOSIY TASHKILOTLAR** – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi.

**So‘FIYLIK** – (arabcha «suf» — jun) islam dini paydo bo‘lgandan so‘ng uning doirasida, Qur’on va Hadisga mos ravishda VIII asrning o‘rtalarida shakllangan ta’limot.

**So‘Z ERKINLIGINI TA’MINLASH** – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o‘z fikrini (hayolini) oshkora (og’zaki, yozma ravishda va yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart–sharoitlarni yaratish. Tabaqa (qatlam) – o‘xhash kasb–hunar, mashg’ulot holati va ahvoli bilan manfatlar umumiyligi asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

**SOHIBQIRON** – Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir–birini to‘sishi paytida tug’ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz – Zuhro va Mushtariy sayyoralari bir–biriga yaqinlashgan paytda tug’ilgan ekan. Sohibqiron so‘zining asl ma’nosи “baxtiyor podshoh”, “qudratli podshoh” demakdir.

**SUVEREN** – fran. souverain–oliy so‘zidan olingan bo‘lib, oliv, suverenitetga ega bo‘lish, mustaqil, qaram bo‘lmagan ma’nolarini beradi.

**SUVERENITET** – (fran. “souveranitat”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

**TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

**TAFTISH KOMISSIYASI** – jamiyatning moliya–xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun jamiyat ustaviga muvofiq aktsiyadorlarning umumiyligi yig’ilishi tomonidan saylanadigan organ. Jamiyat taftish komissiyasining vakolatlari qonun hujjatlari va jamiyat ustavi bilan belgilanadi.

**TARIQAT** – so‘fiylikka xos atama bo‘lib, uch ma’noda ishlatilgan: 1) umuman so‘fiylik yo‘li; 2) so‘fiylikni muayyan tarmog’i, yo‘nalishi; 3) so‘fiylik bosqichlaridan biri. Tariqatni so‘fiylik yo‘nalishlari, tarmoqlari ma’nosida qo’llash kengroq tarqalgan. Tariqatga qadam qo‘yish – tirikchilikning barcha tashvishlaridan voz kechish hamda ixtiyorni pirga topshirishdan boshlanadi. o‘rta Osiyoda naqshbandiylik, kubraviylik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan.

**TASHABBUS** – lot. initiativa initiative–tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT** – o‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

**TENDENSIYA** – nemischa Tendens; lotincha tendere – yo‘nalmoq, intilmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, taraqqiyot yo‘nalishidir.

**TEXNIKUM** – o‘rta maxsus o‘quv yurti

**TINCHLIK** – insonning hayotiy ehtiyoji, emin–erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili.

**TOLEANTLIK** – (fr. Tolyrant, lat. Tolerans–tolerantis) hozirgi o‘zbek tilida lug’aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi. Antik davr va o‘rta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng ifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli–

tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini o'rganish masalalariga aloqador bo'lgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham e'tiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq ma'noda qo'llay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog'liq muruvvat ma'nosidagi talqinlariga ko'p duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa, huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma'nolarini yo'qotmagan holda ko'proq bag'rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

**TRANSPORT INFRATUZILMASI** – aholiga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil to'xtash va yonilg'i quyish shoxobchalari, avtostansiyalar, kichik mehmonxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish hamda ovqatlanish va shu kabi ob'ektlar.

**TRANSPORT-KOMMUNIKATSIYA Yo'LAKLARI** – bir necha davlatlarni bog'lab turadigan transpotr yo'llari.

**ULAMO** – islom ilohiyotchilar va huquqshunoslari, shuningdek, diniy muassasalarga, qozilik mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha musulmon dindorlari ulamolar deb yuritilgan.

**UMUMBASHARIY QADRIYAT** – dunyo xalqlarining ko'pchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy me'yorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, an'ana va mas'uliyatiga aylangan, voqe'lik va yohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va ma'lum farqlanishlar bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

**UNIVERSITET** (lot. universitas — yig'indi, majmua) — tabiiy, ijtimoiy va gumanitar yo'nalishda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ko'p tarmoqli oliy o'quv ilmiy muassasa. U. o'z bitiruvchilarining kelajakdag'i ilmiy-amaliy va pedagogik faoliyatları uchun chuqr nazariy tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi. O'quv va ilmiy tadqiqot ishlarining uzviy ravishda qo'shib olib borilishi U. ta'limining asosiy o'ziga xos jihatidir. U. musulmon Sharqidagi oliy madrasa yoki madrasai oliya so'ziga to'g'ri keladi. Yaqin Sharq mamlakatlarida dorilfunun deb ataladi.

**VAKILLIK** – biror-bir organ yoki tashkilotda ma'lum jamoa, guruh yoki fuqarolar nomidan ish yuritish. Vakillik qonunlarda belgilanib qo'yilishi mumkin. Masalan, Konstitutsianing 10-moddasida o'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin deb ko'rsatilgan. Bular xalq nomidan vakillik qilishi uchun boshqa hech qanday hujjatga muhtoj emas. Boshqa hollarda esa vakillik uchun hujjat talab qilinadi.

**VAKILLIK HOKIMIYATI** – hokimiyatni amalgaga oshirishning bir turi. Vakillik hokimiyatini mamlakatimizda Oliy Majlis va xalq deputatlari viloyat,

tuman, shahar kengashlari amalga oshiradi. Ularning a'zolari – deputatlar xalq vakillaridir. Vakolatni xalqdan olgan deputatlar Oliy Majlis va kengashdagi faoliyati orqali hokimiyatni ro'yobga chiqaradi. o'zbekiston Respublikasi vakillik hokimiyati tizimi: Oliy Majlis, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlaridan iborat.

**VALYUTA** – chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

**VALYUTA** – mamlakatning pul birligi.

**VAZIR** – (arab. yuk ko'taruvchi) – o'rta asrlarda o'rta va Yaqin Sharq davlatlarida, shu jumladan, o'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i. Yuqori mansabdar shaxs. Vazir hukumat a'zosi hamda ma'lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdar shaxsdir. Vazir– mansabdar shaxs, milliy davlatchilik tariximizda davlat boshlig'i tayinlaydigan va turli sohalarni boshqarishda unga yordam beruvchi amal egasi bo'lsa, hozirgi kunda vazir mamlakatimizda turli tarmoq va sohalarni boshqaruvchi markaziy idoraning boshlig'idir. Vazirlar Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi, bu haqdagi farmon Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi (Konstitutsianing 78-modda, 13-band, 93-modda, bandi).

**VAZIRLAR MAHKAMASI** – Isroil, Latviya, Yaponiya, Shri-Lanka, Qozog'iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. o'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlanib, "o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunga binoan, u o'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, o'zbekiston Respublikasi qonunlari, o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, o'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

**VAZIRLAR MAHKAMASINING FARMOYISHLARI** – Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari. o'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**VAZIRLIK** – o'zbekiston Respublikasida alohida tarmoq va sohalarni boshqaruvchi markaziy idora organidir. Masalan, ichki ishlari – Ichki ishlari vazirligi tomonidan, sog'liqni saqlash – Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan idora etiladi. Vazirlikni vazir boshqaradi. Yangi vazirliklar tuzish, eskilarini bekor kilish Prezident tomonidan amalga oshirilib, uning bu haqdagi farmoni Oliy Majlisda tasdiqlanadi (Konstitutsianing 93-modda, 8-band). Ko'pchilik davlatlarda davlatning markaziy idora organi, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy faoliyatning ayrim tarmoqlarini boshqaradi. Yangi Vazirliklar tuzish, mavjudlarini tugatish, ularning rahbarlarini tayinlash o'zbekistonda

Prezident vakolatiga kiradi va davlatning oliv vakillik organi – Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

**XALQ FAROVONLIGI** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri. Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog’liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg’unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir degan tamoyil amalga oshadi.

**XUSUSIY KORXONA** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkiloti. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

**XUSUSIYLASHTIRISH** – “jismoniy shaxslarning” va davlatga taalluqli bo’limgan yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

**YALPI ICHKI MAHSULOT** – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard tovar va xizmatlarning bozor qiymati.

**YASSAVIYLIK** – Islomdagi so‘fiylikka xos oqim. XII asrda o’rtal Osiyoda paydo bo’lgan va ko‘chmanchi aholi o’rtasida ham keng yoyilgan. Asoschisi – Ahmad Yassaviy.

**YOPIQ AKTSIYADORLIK JAMIYATI** – aktsiyalari faqat o’z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan jamiyat.

**YURT TINCHLIGI** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti.

**QORAQALPOG’ISTON RESPUBLIKASI Jo‘QORG’I KENGESI** – Qoraqalpog’iston Respublikasining oliv davlat hokimiysi organi, respublika parlamenti. 1995 yil 25 dekabrda tashkil etilgan. Bungacha Qoraqalpog’iston Respublikasi Oliy Kengashi deb atalgan. Respublika Jo‘qorg’i Kengesi hududiy saylov okruglaridan ko‘ppartiyalilik asosida 5 yil muddatga saylanaligan 86 deputatdan iborat. Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo‘qorg’i Kengesining huquqiy maqomi Qoraqalpog’iston Konstitutsiyasi (1993 yil 9 aprel) va "Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo‘qorg’i Kengesi to‘g‘risida"gi qonunda belgilab berilgan. Qoraqatpog’iston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Jo‘qorg’i Kengesi ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs Qoraqalpog’iston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

**NUKUS SHAHRI** – Qoraqalpog’iston Respublikasining poytaxti bo‘lib, 1932 yil tashkil topgan. YYer maydoni 0,22 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 0,13 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 295,2 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 1341,8 kishini tashkil etadi. Nukus, Xo‘jayli, Kegeyli tumanlari bilan chegaradosh.

**AMUDARYO TUMANI** – Amudaryo tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining janubiy sharqida joylashgan bo‘lib, 1957 yil 18 fevralda tashkil topgan. Yer maydoni 1,02 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 0,61 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 179,1 ming kishi,

zichligi 1 kv.km ga 175,6 kishini tashkil etadi. Xo‘jayli, Qorao‘zak va Beruniy tumanlari bilan chegaradosh.

**BERUNIY TUMANI** – Beruniy tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining janubiy sharqida joylashgan bo‘lib, 1927 yil 03 iyulda tashkil topgan. Yer maydoni 3,95 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 2,37 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 170,3 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 43,1 kishini tashkil etadi. Amudaryo, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Ellikqal’a va To‘rtko‘l tumanlari bilan chegaradosh.

**QONLIKo‘L TUMANI** – Qonliko‘l tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining shimoliy g’arbida joylashgan bo‘lib, 1970 yil 7 dekabrda tashkil topgan. Yer maydoni 0,74 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 0,44 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 46,9 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 63,4 kishini tashkil etadi. Xo‘jayli, Shumanay, Qo‘ng’iroq, Kegeyli va Nukus tumanlari bilan chegaradosh.

**QORAo‘ZAK TUMANI** – Qorao‘zak tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining shimoliy sharqida joylashgan bo‘lib, 1975 yil 26 sentyabrda tashkil topgan. Yer maydoni 5,89 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 3,54 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 49,6 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 8,4 kishini tashkil etadi. Kegeyli, Chimboy, Taxtako‘pir, Mo‘ynoq, Beruniy, Amudaryo va Xo‘jayli tumanlari bilan chegaradosh.

**KEGEYLI TUMANI** – Kegeyli tumani 1928 yil 3 sentyabrda tashkil topgan. Yer maydoni 2,21 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 1,33 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 84,8 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 38,4 kishini tashkil etadi.

**Qo‘NG’IROQ TUMANI** – Qo‘ng’iroq tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining shimoliy g’arbida joylashgan bo‘lib, 1964 yil 22 fevralda tashkil topgan. Yer maydoni 76,0 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 45,62 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 120,1 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 1,6 kishini tashkil etadi.

**Mo‘YNOQ TUMANI** – Mo‘ynoq tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining shimolida joylashgan bo‘lib, 1931 yil 19 sentyabrda tashkil topgan. Yer maydoni 37,88 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 22,74 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 29,4 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 0,8 kishini tashkil etadi.

**NUKUS TUMANI** – Nukus tumani 1968 yil 25 dekabrda tashkil topgan. Yer maydoni 0,95 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 0,57 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 44,4 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 46,7 kishini tashkil etadi.

**TAXTAKO‘PIR TUMANI** – Taxtako‘pir tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining shimoliy sharqida joylashgan bo‘lib, 1965 yil 10 fevralda tashkil topgan. Yer maydoni 21,12 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 12,68 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 38,7 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 1,8 kishini tashkil etadi. Ellikqal’a, Beruniy, Qorao‘zak va Mo‘ynoq tumanlari bilan chegaradosh.

**To‘RTKO‘L TUMANI** – To‘rtko‘l tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining janubiy sharqida joylashgan bo‘lib, 1927 yil 13 iyulda tashkil topgan. Yer maydoni 7,48 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 4,49 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 192,6 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 25,7 kishini tashkil etadi. Beruniy va Ellikqal’a tumanlari bilan chegaradosh.

**XO‘JAYLI TUMANI** – Xo‘jayli tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining janubiy g’arbida joylashgan bo‘lib, 1927 yil 3 iyulda tashkil topgan. Yer maydoni 0,73 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 0,44 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 183,5 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 251,4 kishini tashkil etadi. Amudaryo, Qorao‘zak, Shumanay tumanlari va Nukus shahri bilan chegaradosh.

**CHIMBOY TUMANI** – Chimboy tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining shimolida joylashgan bo‘lib, 1927 yil 3 iyulda tashkil topgan. Yer maydoni 2,20 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 1,32 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 108,3 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 49,2 kishini tashkil etadi.

**SHUMANAY TUMANI** – Shumanay tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining g’arbida joylashgan bo‘lib, 1967 yil 9 yanvarda tashkil topgan. Yer maydoni 0,78 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 0,47 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 53,1 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 68,1 kishini tashkil etadi.

**ELLIKQAL’A TUMANI** – Ellikqal’a tumani Qoraqalpog’iston Respublikasining janubiy sharqida joylashgan bo‘lib, 1977 yil 23 martda tashkil topgan. Yer maydoni 5,42 ming kv.km ni tashkil etadi va respublika hududining 3,25 foizini egallaydi. Aholi soni 2014 yil 1 yanvar holatiga 140,5 ming kishi, zichligi 1 kv.km ga 25,9 kishini tashkil etadi.

## **ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT RESURSLARI**

### **I. o'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI:**

1. Мирзиёев Ш. М. Выступление на видеоселекторном совещании по вопросам кардинального совершенствования системы духовно-просветительской работы, усиления взаимодействия государственных и общественных организаций в этом процессе которое состоялось 19 января 2021 года.
2. Мирзиёев Ш. М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису. Январь, 2021 года.
3. Мирзиёев Ш.М. Выступление на церемонии открытия 43–й сессии Совета Министров иностранных дел ОИС. // Народное слово. 2016. 19 октября.
4. Мирзиёев Ш. М. Указ «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» (7.02.2017.).
5. Мирзиёев Ш. М. Постановление «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» (17.02.2017.).
6. Мирзиёев Ш. М. Постановление “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 06.06.2018 г. № ПП–3775
7. Каримов И. А. Собрание сочинений в 21–ти т. – Т.: Узбекистан, 1996–2012.
8. Каримов И. А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантия прогресса. – Т.: Узбекистан, 1997. – 315 с.
- Каримов И.А. Узбекистан устремленный в XXI век. – Т.: Узбекистан, 1999.
9. Каримов И.А. Узбекистан на пороге достижения независимости. – Т.: Узбекистан, 2011. – 383 с.
10. Каримов И. А. Узбекистан на пороге обретения независимости. – Т.: Узбекистан, 2011. – 372 с.

### **II. Asosiy adabiyotlar:**

1. Десять лет экономических реформ в Узбекистане: достижения, проблемы и перспективы. – Т., 2002. 257
2. Дубков В. В. Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане. – Т., 2008.
3. Жураев С. Гражданское общество: теория и практика. – Т., 2003.

4. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. Изд. 2, доп. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2011.

5. Новейшая история Узбекистана. Учебник для вузов / Под ред. д.и.н., проф. М.А. Рахимова. – Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2018. 512 с.

6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. –Тошкент, 2000.

7. Мустакил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. – Тошкент, 2000.

8. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Тошкент: Маънавият, 2011.

9. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах. – Тошкент: Маънавият, 2017.

10. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А. Сабиров. – Тошкент:Академия,2013.

11. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М. А. Рахимов. – Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

### **III. Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. Азизхўжаев А. А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, кувончлар. –Тошкент: 2001.

2. Азизхўжаев А. А. Чин ўзбек иши. – Тошкент, 2003.

3. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Тошкент: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.

4. Исломов З. М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

5. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

6. Усмонов К. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Тошкент: Молия, 2003.

7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

8. Ўзбекистон тарихи. Р. Ҳ. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2005.

9. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф–одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. – Тошкент: ТИУ, 2011.

10. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2006.

11. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикентглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Масъул муҳаррир Р. Ҳ. Муртазаева. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. 258

12. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). 2 том. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, Қ. Ражабов, М. Раҳимов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

13. Муртазаева Р. Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.

14. Юнусова Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80–йиллари мисолида). – Тошкент: Abu matbuotkonsalt, 2009.

15. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий–иқтисодий муносабатлар (70– 80–йиллар мисолида). Қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1999.

16. Қорақалпоғистон тарихи (1917–1994 йй.). – Нукус, 1995.

17. Ғуломов С., Убайдуллаева Р., Аҳмедов Э. Ўзбекистон. – Тошкент: Меҳнат, 2001.

#### **IV. Elektron resurslar:**

1. [www.uzland.uz](http://www.uzland.uz).

2. [www.natcom.unesco.uz](http://www.natcom.unesco.uz).

3. [http://www.sambuh.ru/uzbekistan/history\\_of\\_uzbekistan.php](http://www.sambuh.ru/uzbekistan/history_of_uzbekistan.php)

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

5. [www.google.uz](http://www.google.uz).

2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## MUNDARIJA:

Kirish.....	3
1–mavzu. Kirish. “O’zbekistonning eng yangi tarixi” o’quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy–metodologik tamoyillari.....	4–14
2–mavzu. Yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda tarix fanining o’rni .....	14–28
3–mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida o’zbekistondagi ijtimoiy–siyosiy jarayonlar.....	28–38
4–mavzu. Mustaqil o’zbekiston respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.....	38–48
5–mavzu.o’zbekistonning o’ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.....	49–59
6–mavzu.o’zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.....	59–74
7–mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. o’zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.....	74–85
8–mavzu: o’zbekiston respublikasidagi ijtimoiy o’zgarishlar.....	85–102
9–mavzu. Mustaqillik yillarda o’zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.....	102–118
10–mavzu. Mustaqillik yillarda o’zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.....	118–130
11–mavzu. O’zbekiston respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Mustaqillik yillarda ta’lim va ilm–fanning rivojlanishi.....	131–138
12–mavzu. Mustaqillik yillarda qoraqalpog’iston respublikasi.....	138–149
13–mavzu. o’zbekiston va jahon hamjamiyati. o’zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.....	149–172
14–mavzu: Yangilanayotgan o’zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 2017–2021 yillarda o’zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.....	173–190
15–mavzu. O’zbekiston respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o’rni va nufuzini ortib borishi.....	191–200
TEST.....	201–238
GLOSSARIY.....	238–264
ASOSIY VA Qo‘SHIMCHA ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT RESURSLARI.....	265–267
ANNOTATSIYA.....	268–269